

U.P.LAFASOV

# O'ZBEK TILI



TOSHKENT – 2018

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

**U. P. LAFASOV**

# **O‘ZBEK TILI**

**Universitet va institutlarning bakalavr mutaxassisligi  
rusiyzabon guruhlari uchun o‘quv qo‘llanma**

Toshkent – 2018

Mazkur o‘quv qo‘llanma Oliy o‘quv yurtlarining I kurs bakalavr bo‘limi rusiyzabon talabalariga mo‘ljallab yozilgan. Uni tayyorlashda o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitish mezonini va “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablaridan kelib chiqildi. Asosiy e’tibor talabada so‘zlashuv tili ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratilgan. O‘quv qo‘llanmani yaratishda mualliflarning ko‘p yillik shaxsiy tajribalaridan, til o‘qitishning yangi zamonaviy pedagogik texnologiyasi yutuqlaridan foydalanildi. O‘quv qo‘llanma talabani har bir tovush talaffuzini to‘g‘ri o‘zlashtirishiga, so‘z zaxiralarini to‘plab borishiga, paronim so‘zlarni farqlash, so‘z birikmalari tuzish ko‘nikmalarini hosil qilishiga, tayyor dialog, grammatik terminlar, murojat shakllari, matn va ish qog‘ozlari namunalarini puxta egallashiga yordam beradi, deb o‘ylaymiz. O‘quv qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O‘quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (*11-sonli majlis bayonnomasi, 2018.02.07.*).

**Mas’ul muharrir:**           **Abduvahob Madvaliyev**, filologiya fanlari nomzodi

**Taqrizchilar:**           **Shuhrat Ko‘chimov**, filologiya fanlari doktori, professor  
**Gulchehra Rixsiyeva**, filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent

## So‘zboshi

Hukumatimiz tomonidan e‘lon qilingan «*Ta’lim to‘g‘risida*» gi qonun hamda «*Kadrlar tayyorlash milliy dasturi*» va prezidentimiz tomonidan chiqarilgan qator qarorlar (№ 2909, № 3151) mutaxassislar oldiga yangi talablarni qo‘ydi. Qo‘lingizdagi ushbu darslik zamonaviy talablarni hisobga olgan holda yozildi. Qo‘llanma universitetlar va institutlar bakalavr mutaxassisligi o‘quv rejasidagi soatlarga mos keladi. Rusiyazabon guruhlarda o‘zbek tili o‘qitish davlat dasturi asosida o‘quv dasturi tuzildi va darslikka ilova qilindi.

O‘quv qo‘llanmaning maqsadi talabalarni o‘zbek tilining tovush tizimi, grammatik qurilishi, lug‘at boyligi bilan tanishtirish, o‘zbekcha suhbat va matnlarni o‘qish, yozish hamda qayta tuza olishga o‘rgatishdan iborat. Suhbatlar jonli so‘zlashuvga asoslangan holda qisqa shaklda berildi. Bu esa o‘zbek tilini o‘rganuvchilarga yengillik tug‘dirish bilan birga tez yod olish imkoniyatini ham beradi. Shu bilan birga talabalarning darslar mobaynida so‘z zaxirasi to‘plashi, so‘zlarni biriktira olishi, jumla tuzish ko‘nikmalarini egallashi uchun sharoit yaratadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining og‘zaki va yozma shakllari qonun-qoidalari darslikda o‘z aksini topgan.

Til o‘rganishda boshlang‘ich bosqich talaffuz hisoblanadi. Shu bois talaba ilk bosqichda tovushlar talaffuzini to‘g‘ri o‘zlashtirishi lozim. Ana shu poydevor zamirida tilni mukammal o‘rganish yotadi. Shundan so‘ng so‘zlarni tushunib yod olish, ularni nutqda qo‘llay bilish malakasi vujudga keladi. O‘zbek tili dunyodagi tovushlar talaffuzi, ayniqsa unlilar talaffuzi qiyin tillar jumlasiga kiradi. Shu sababli ushbu o‘quv qo‘llanmada talaffuz qoidalarini o‘rgatish birinchi o‘ringa qo‘yildi. Talabada so‘z zaxirasi paydo bo‘lgandan so‘ng nutq malakasi hosil bo‘la boshlaydi. Ana shuni hisobga olgan holda o‘quv qo‘llanmaga eng sodda va kerakli dialoglarni kiritishga harakat qilindi. Tez aytishlar mukammal talaffuzni mustahkamlagani kabi, dialoglar ham nutq malakasini oshirishga yordam beradi. Ilova qilingan so‘z birikmalari va to‘rtliklar xotirani peshlaydi. Asosiy matn esa so‘zlar zaxirasini boyitib, olinayotgan bilimni mustahkamlaydi. Matndan so‘ng talabaga yordam sifatida zaruriy so‘zlar lug‘ati berilgan. Qo‘shimcha matnlar esa mustaqil ta’lim usulini yanada kuchaytirish maqsadida ilova qilingan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmani tuzish jarayonida mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatidagi o‘rni ham hisobga olindi. Ma’lumki, yosh mustaqil davlatimiz o‘ziga xos yo‘ldan rivojlanib bormoqda. Ana shuni hisobga olib, o‘quv qo‘llanmada siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘nalishdagi matnlar berildi. Ushbu materiallar “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” ning tegishli jildlaridan olinib, bir qadar soddalashtirildi va talaba saviyasiga moslashtirildi. Mazkur matnlarni o‘zlashtirish talabaning aqliy ko‘nikmasini mustahkamlash bilan birga, o‘zbek tili bo‘yicha so‘z boyligining oshib borishiga yordam beradi. Talabaning o‘zbek tilidan oladigan bilimlari mutaxassislik fanlaridan olayotgan ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashib, yuqori natija beradi. Bu esa hozirgi zamon talabiga to‘la mos keladi, deb o‘ylaymiz. Hozirgi paytda til bilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Agar

o'rganilayotgan til ixtisoslik bilan uyg'unlashib ketsa, maqsadning amalga oshishi yanada osonlashadi, deb hisoblaymiz.

Mazkur fandan dars beruvchi o'qituvchilar talabalarga asosiy matnni, suhbatni va to'rtliklarni yozdirishlari shart. Keyingi mashg'ulotda talaba matn mazmunini gapirib beradi, she'rni yoddan aytadi, asosiy va qo'shimcha matnlarni esa alohida daftarga tarjima qilib keladi. Shu bilan talabani og'zaki va yozma nutqini tekshirish imkoniyati yuzaga keladi. Tarjima qilingan matnlardan davlat tili attestatsiyasida bilet tuzishda foydalaniladi. Natijada talaba yil bo'yi davlat tili attestatsiyasiga tayyorlanib boradilar. Ammo biletida yana bir notanish matn bo'ladi. Bu matn tarjimasi esa talabani yanada adolatliroq mezon asosida baholashga asos bo'ladi.

## Vatan timsollari muqaddasdir

*Milliy timsollar va ramzlarning har biri milliy g'ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ularning har biri katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasidir.*

**Islom KARIMOV**

### Davlat bayrog'i

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i 1991-yilning 18-noyabrida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida tasdiqlangan.

Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston hududida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi.

1. Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Timsollar tilida bu – yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi.

2. Bayroqdagi *oq rang* – muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang poklik, beg'uborlik, soflikning, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsolidir.

3. *Yashil rang* – tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodmonlik timsoli hisoblanadi.

4. *Qizil chiziqlar* vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

5. Navqiron yarimoy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq. Ayni paytda qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.

6. Yulduzlar barcha uchun ruhoniy ilohiy timsol sanalgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi 12 ta yulduz tasviri ham tarixiy an'analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadordir. Bizning o'n ikki yulduzga bo'lgan e'tiborimiz O'zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida «Nujum ilmi» taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. Davlat bayrog'imizdagi o'n ikki yulduz tasvirini o'zbek xalqi madaniyati qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

Bayroqning uzunligi 250 sm, kengligi 125 sm ga teng.

### O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi 1992-yilning 2-iyulida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda o'ng tomonida bug'doy boshoqlari, so'l tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iboratdir. Gerbning yuqori qismida Respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarimoy va yulduz musulmonlarning qutlug' ramzidir. Gerb markazida himmat, olijanoblik va fidoyilik timsoli bo'lgan

afsonaviy Humo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo‘lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi. Gerbning pastki qismidagi respublika Davlat bayrog‘ini ifodalovchi uch rangdagi chambar bandiga «O‘zbekiston» so‘zi bitilgan.

«Gerb» so‘zining tarixi haqida qisqacha ma’lumot:

«Gerb» so‘zi nemischa «erbo» so‘zidan olingan bo‘lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan-naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.

Bundan 2500 yil muqaddam Erondan Oltoyga qadar cho‘zilgan ulkan sarhadda hukm surgan qadimgi turk xoni O‘g‘uzxon davrida ham turkcha «tamg‘a» so‘zi aynan shu ma‘noni bildirar edi. XII asrning mashhur tarixchisi Rashiddin Hamadoniy «*Tanlangan tarixlar*» nomli kitobida shahodat berishicha, O‘g‘uzxon o‘z mol-mulkini o‘g‘illariga ulus sifatida kichik davlatlarga bo‘lib, in‘om etgan. Ushbu davlatlar hukmdorlari ham o‘zlarining xonlik tamg‘alariga ega edi. Ko‘rinib turibdiki, «*tamg‘a*» so‘zining ma‘nosi nemischa «*erbo*» so‘zining ma‘nosiga to‘la mos keladi.

### **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi**

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Asosiy qonuni – Konstitutsiyasi 1992-yilning 8-dekabrda, 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan. Konstitutsiya 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. Konstitutsiyaning asosiy mantiqiy yo‘nalishi: inson – jamiyat – davlatga qaratilgan. Konstitutsiya qabul qilingan kun – 8-dekabr umumxalq bayrami – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni deb e‘lon qilindi (*O‘z RE, 201-bet*).

### **O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi**

*Abdulla Oripov she‘ri  
Mutal Burhonov musiqasi*

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,  
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!  
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,  
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

#### **Naqarot:**

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon  
Olamni mahliyo aylagan diyor.

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,  
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!  
Istiqlol mash‘ali, tinchlik posboni,

Xalqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

**Naqarot:**

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon  
Olamni mahliyo aylagan diyor.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi 1992-yilning 10-dekabridagi qonun bilan tasdiqlangan.

**O‘zbekiston Respublikasida Prezidentlik lavozimi**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat bo‘shligidir. O‘zbekistonda Prezidentlik lavozim sifatida 1990-yilning 24-martida ta‘sis etilgan. Prezidentning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-bobida belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga 35 yoshdan kichik bo‘lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini mamlakatning 18 yoshga to‘lgan fuqarolari umumiy, teng va to‘gridan to‘gri saylov huquqi asosida yashirin ovz berish yo‘li bilan amalga oshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 7 yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘grisida”gi qonuni yangi tahririning tegishli moddalari (O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘grisida”gi O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabridagi qonuni) asosida belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko‘rsatish huquqiga siyosiy partiyalar va bevosita fuqarolar egadirlar. Saylash huquqiga ega bo‘lgan har bir fuqaro yoki fuqarolar guruhi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko‘rsatish uchun kamida 300 nafar saylovchidan iborat tashabbuskor guruhini tuzishi mumkin. Prezidentlikka nomzodlar ko‘rsatish saylovga 65 kun qolganda boshlanadi va 45 kun qolganda tugatiladi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimida Islom Abdug‘aniyevich Karimov faoliyat korsatib kelmoqda. Prezident O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo‘mondoni ham hisoblanadi (*O‘zME, 12-jild, 195-bet*).



## Mavzu: O‘zbekiston – yagona Vatan

### I. To‘rtliklarni yod oling.

Shoh-u toj-u xil’atikim, men tamosho qilg‘ali,  
**O‘zbekim** boshida qalpoq, egnida shirdog‘i bas.  
Halol ona sutidekdur gar **o‘zbekim** tutsa,  
Tabuq qilib yukunub tustig‘on ichinda qimiz.

(*Navoiy*)

**O‘zbekiston**, qanchalik jafo chekmayin,  
O‘zimga haq bo‘ldim, o‘zimga haqman.  
Yashadim yovlarga bo‘yin egmayin,  
Bu kun o‘z erkiga erishgan xalqman.

(*Abdulla Oripov*)

### II. Suhbat.

- O‘zbekiston Respublikasi qachon mustaqil bo‘ldi?
- 1991-yilning 31-avgustida.
- Davlat bayrog‘i qachon qabul qilindi?
- 1991-yilning 18-noyabrda.
- Davlat gerbi qachon tasdiqlandi?
- 1992-yilning 2-iyulida.
- Konstitutsiya qachon qabul qilindi?
- 1992-yilning 8-dekabrda.
- Davlat madhiyasi qachon qabul qilindi?
- 1992-yilning 10-dekabrda.

### III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

#### Mustaqil davlat

1991-yilning 31-avgustida O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e‘lon qilindi. Matematika fanining otasi Muhammad Al-Xorazmiy; mashhur shifokor va tabib, jarrohlik ilmining asoschisi Ibn Sino; qomusiy olim, birinchi globusni yaratgan daho Abu Rayhon Beruniy; falsafa fanining asoschilaridan biri Al-Forobiy; islom dinining tengsiz mutafakkirlari Imom Al-Buxoriy, At-Termiziy, Bahovuddin Naqshband; buyuk jahongir va sohibqiron Amir Temur; ulug‘ olim va munajjimlar Mirzo Ulug‘bek va Ali Qushchi; zullisonayn shoir hamda mutafakkir Alisher Navoiy; shoh, shoir va olim Zahiriddin Muhammad Bobur; dramaturg va olimlar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat; yozuvchi Abdulla Qodiriy; shoirlar Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir, Abdulla Oripov va boshqalar mana shu yurt farzandlaridir. Mustaqil davlatimizni hozirgacha jahonning 130 mamlakati tan oldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning teng huquqli a‘zosi bo‘lgan O‘zbekiston o‘zining oltini, tabiiy gazi, qorako‘li, kumushi, urani, paxtasi va nefti bilan jahonga mashhurdir. Respublika Prezidenti I.A.Karimovning sa‘y-harakatlari bilan

o'lkamizda yengil mashinalar, kichik avtobuslar ishlab chiqaradigan zavodlar qurildi. Milliy mafkuramiz shakllanmoqda, madaniyatimiz esa yanada yuksalmoqda. Xalqimizning qadimiy obidalari qayta ta'mirlanib jihozlanmoqda. O'zbekistonning rivojlangan sanoat va qishloq xo'jaligi mamlakati bo'lishi uchun ilk poydevorlar qo'yilmoqda.

### Lug'at

Mustaqil–независимый, davlat–государство, shoir–поэт, e'lon qilmoq–объявлять, fan–наука, mashhur–знаменитый, shifokor–врач, tabib–лекарь, jarroh–хирург, asoschi–основатель, qomusiy olim–учёный энциклопедист, yaratmoq–создавать, tengsiz–несравненный, jahongir–непобедимый полководец, sohibqiron–счастливей человек, ulug'–великий, munajjim–астроном, zullisonaун–двухязычный, mutafakkir–мыслитель, yozuvchi–писатель, tan olmoq–признавать, teng huquqli–равноправный, shakllanmoq–формироваться, ta'mirlamoq–ремонтировать, qurmoq–строить, yuksalmoq–развиваться, mafkura–идеология, jihozlamoq–оборудовать, poydevor–фундамент, qurmoq–строить.

### IV. Mustaqil ta'lim uchun matn.

#### Mustaqillik

Mustaqillik davlatning ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatlarga qaram bo'lmay faoliyat ko'rsatishidir. Har bir davlatning mustaqilligini tan olish, o'zaro tinch-totuv yashashning tamiyillaridan biri. U BMT Ustavi va xalqaro shartnomalar hamda deklaratsiyalarda mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston hukumati 1990-yilning 20-iyunida "Mustaqillik Deklaratsiyasi"ni qabul qildi. 1991-yilning avgustida "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, mazkur qonun 17 moddadan iborat. 1991-yilning 31-avgustida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot O'zbekiston hukumatining siyosiy yo'lini to'la qonunlashtirib berdi. Davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonunga ko'ra 1991-yilning 1-sentyabri "**Mustaqillik kuni**" deb e'lon qilindi. Ushbu qonunga binoan O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birgalikda mustaqil demokratik davlat hisoblanadi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston xalqaro miqyosda o'zini tanitish, ayni chog'da xalqaro huquq me'yorlari asosida jahondagi barcha davlatlar bilan teng hamkorlik qilish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Jahon xaritasida O'zbekiston yangi, yosh mustaqil davlat sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi. 1992-yilda Toshkent shahridagi markaziy maydonga Mustaqillik nomi berildi va Mustaqillik obidasi o'rnatildi. Har yili mustaqillik bayram tantanalari nishonlanadigan bo'ldi. 1994-yilning 5-mayida Mustaqillik ordeni tasis etilgan. Orden **bir mikron** qalinlikda oltin bilan qoplangan 925 darajali kumushdan tayyorlanib, ikki yin bag'ridan zarhal nur taralgan sakkiz qirrali musamman ko'rinishidadir. Bu orden bilan mashhur adib Abdulla Qodiriy (1994), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov (1996), shoir Abdulhamid Cho'lpon (1999) lar mukofotlangan (*O'zME, 6-jild, 2003, 158-159-betlar*).

## Mustaqillik asoslari

O‘zbek xalqining muqaddas, tarixiy orzusi ushaldi. O‘zbekiston tinch, parlament yo‘li bilan o‘zining haqiqiy davlatchiligiga erishdi. Prezidentimiz ilgari surgan besh tamoyil asosida “O‘zbek” modeli belgilab olindi. Mazkur qoidalarning mohiyati quyidagicha: **Birinchi**dan, iqtisodiyot siyosatdan ustun bo‘lishi kerak, har qanday munosabatlar mafkuradan holi bo‘lishi lozim. **Ikkinchi**dan, davlat asosiy islohotchi bo‘lishi kerak. **Uchinchi**dan, qonun ustunligi. **To‘rtinchi**dan, fuqarolarning nufuzini e‘tiborga olib, kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirilishi kerak. **Beshinchi**dan, bozor iqtisodiyotiga o‘tishni bosqichma-bosqich amalga oshirib xalq farovonligiga erishish. O‘zbekiston Respublikasining hududi va iqtisodiy qudrati bo‘linmas, uning chegaralari es daxlsiz bo‘lib davlat himoyasidadir. Respublikada demokratik huquqiy jamiyat asoslari faol ravishda vujudga keltirilgan. Respublikada millatlararo barqarorlik va totuvlikda yashash sharoiti yaratilgan (*O‘zRE, 1 jildlik, 185-bet*).

## Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi

O‘zbekiston Respublikasi – maydoni 448,9 ming km<sup>2</sup>, aholisi 29 mln. 559 ming 100 kishi (2012-yil). O‘zbekistonda yuzdan ortiq millat va elatlar yashaydi. Shulardan o‘zbeklar (80%), tojiklar (4,9%), ruslar (3,8%), qozoqlar (3,6%), qoraqalpqlar (2,2%), tatarlar (1%), qirg‘izlar (0,9%), koreyslar (0,6%), ukrainlar (0,3%) va boshqa millatlar (2,7%) ni tashkil etadi. Poytaxti – Toshkent shahri. Davlat boshlig‘i – prezident. Mamlakatning oliy davlat vakillik idorasi – O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi. O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy-hududiy tuzilishiga ko‘ra bir muxtor respublika (Qoraqalpog‘iston) va o‘n ikki viloyatga bo‘lingan. O‘zbekiston mamlakati Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg‘oniston davlatlari bilan chegaradosh. O‘zbekistondagi eng baland joylari Hisor tog‘ining Qoldirg‘a tizmasidagi nomsiz cho‘qqi (4688 metr) va Hazrati Sulton cho‘qqisi (4648 metr). O‘zbekistonning katta daryolari: Norin, Chirchiq, Zarafshon, Qoradaryo, So‘x, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sherobodaryo va boshqalar. Yirik shaharlari: Toshkent, Samarqand, Namangan, Xiva, Buxoro, Qo‘qon, Andijon, Farg‘ona, Qarshi, Termiz. O‘zbekiston Respublikasi 1992-yilning 2-martida BMTga a‘zo bo‘ldi. 1992-yilning 8-dekabrida O‘zR ning Konstitutsiyasi qabul qilindi. 1993-yilning yanvarida Toshkentda Markaziy Osiyoni yagona iqtisodiy makonga aylantirish to‘g‘risidagi hujjat imzolandi. 1994-yilning 1-iyulida O‘zR ning milliy valyutasi – «so‘m» muomalaga kiritildi. O‘zbekistonda yuzdan ortiq millat istiqomat qiladi (*O‘zME, 12-jild, 7-bet*).

## Asosiy so‘zlar



**Tayanch iboralar:** *mustaqil davlat, O‘zbekiston Respublikasi, Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi, Davlat konstitutsiyasi, Davlat madhiyasi, BMT a‘zosi, milliy madaniyat, qishloq xo‘jaligi va sanoat mamlakati.*

- 1- mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.
- 2- mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.
- 3- mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### **Mavzu: O‘zbek tili – davlat tili**

**I. Nutq tovushiga izoh:** “O‘” tovushi lablangan, til orqa, o‘rta-keng, cho‘ziq unli hisoblanadi.

#### **To‘g‘ri talaffuz qiling!**

- |                           |                            |                                |
|---------------------------|----------------------------|--------------------------------|
| 1) qo‘l-рука<br>qul-раб   | 4) ko‘l-озеро<br>kul-пепел | 7) to‘n-чапан<br>tun-ночь      |
| 2) ko‘z-глаз<br>kuz-осень | 5) o‘ch-месть<br>uch-три   | 8) bo‘r-мел<br>bur-поворачивай |
| 3) o‘n-десять<br>un-мука  | 6) o‘y-мысль<br>uy-дом     | 9) to‘r-сетка<br>tur-стань     |

#### **Tez aytish**

To‘ra to‘qayning to‘ridan to‘rtta to‘tini to‘rda tutdi.

#### **Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!**

O‘z-bek, o‘-rin, o‘-qi-moq, o‘-qi-tuv-chi, o‘-yin, o‘-tov.

### **II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:**

O‘chirg‘ich, o‘qituvchi, o‘qimoq, o‘tirmoq, o‘ng, o‘chirmoq, o‘tmoq, o‘yin, o‘rinbosar, o‘tkir, o‘gay, o‘dag‘aylamoq, o‘jar, o‘zak, o‘zaro, o‘zbilarmon, o‘zga, o‘zgarmoq, o‘zlashtirmoq, o‘yinchiq, o‘ychan, o‘kinch, o‘ktam, o‘lat, o‘ldirmoq, o‘lka, o‘lcham, o‘nglamoq, o‘ng‘aysiz, o‘pirmoq, o‘pqqon, o‘pmoq, o‘ram, o‘rgimchak, o‘rda, o‘rdak, o‘rindiq, o‘rmon, o‘simlik, o‘tloq, o‘tov.

### **III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!**

- 1) o‘qituvchining o‘chirg‘ichi;
- 2) o‘quvchini o‘qitmoq;
- 3) o‘ringa o‘tirmoq;
- 4) o‘rmonda o‘smoq;
- 5) o‘rtog‘i bilan o‘qimoq;
- 6) o‘tkir o‘roq.

### **I. She‘r va to‘rtlikni yod oling.**

## Ona tilimga

Ming yillarkim, bulbul kalomi  
O'zgarmaydi, yaxlit hamisha.  
Ammo sho'rlik to'tining holi  
O'zgalarga taqlid hamisha.  
Ona tilim, sen borsan, shaksiz  
Bulbul tilin she'rga solaman.  
Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,  
Men ham to'ti bo'lib qolaman.

(*Abdulla Oripov*)

Yassaviy baytida **tumorim**, tilim,  
Navoy nazmida sen **orim**, tilim,  
Kumushning vasfida betakror malak,  
Qodiriydan qolgan **yodgorim**, tilim.

(*Mahmud Toirov*)

## II. Subbat.

- O'zbek tilida nechta lahja bor?
- Uchta.
- Necha guruhga bo'linadi?
- Uchga.

## III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

### O'zbek tili

O'zbek milliy tiliga uchta lahja (*qarluq, qipchoq, o'g'uz*) asos bo'lgan. 1. **Qarluq lahjasi**, asosan shahar shevalarini o'z ichiga oladi. Bu shevalarning muhim fonetik, morfologik, leksik belgilari quyidagilar: 1) *bilay – bilak, teray – terak*; 2) *oka – aka, kotta – katta*; 3) *kevotti – kelutti, kelopti – kelyapti*; 4) *oshshi – oshni, bizzi – bizni*; 5) *narvon, go'sht, do'st, baland*. 2. **Qipchoq lahjasida** so'zlashuvchilar O'zbekistonning hamma viloyat, shahar va qishloqlarida bor. Bu shevalarning muhim fonetik, morfologik, leksik belgilari quyidagilar: 1) *djo'l – yo'l, djo'q – yo'q, djur – yur*; 2) *tov – tog', sov – sog'*; 3) *sari... – sariq, kichi... – kichik*; 4) *o'qivotir – o'qiyotir*; 5) *checha (kelinoyi), enmoq (sekin tushmoq), adaq (tugash), bo'sag'a (ostona), қувширмақ (зичламоқ)*. 3. **O'g'uz lahjasida** so'zlashuvchilar Turkmaniston, Janubiy Qozog'iston, Janubiy Xorazm va boshqa viloyatlarda bor. Bu shevalarning muhim fonetik, morfologik, leksik belgilari quyidagilar: 1) *a:d – ot (ism), at – ot (hayvon)*; 2) *dil – til, dog' – tog', dush – tush*; 3) *atima – otimga, Hazorasping – Hazorasping*; 4) *galajak – kelajak, galayotir – kelayotir, getti – ketdi*; 5) *manglay – peshana, chikan – dugona, doyi – tog'a*. Hozirgi o'zbek adabiy tiliga qarluq lahjasi asos qilib olingan. Dialektolog olimlar (V.V.Reshetov, Sh.Shoabdu-rahmonov) o'zbek tilini hududiy jihatdan uchta guruh

shevalarga ajratishadi: 1. *Janubi-sharqiy guruh* – bunga ko‘pchilik o‘zbek shahar shevalari kiradi. 2. *Janubi-g‘arbiy guruh* – bunga o‘g‘uz shevalari (masalan, Xorazm shevasi, Janubiy Qozog‘iston va Turkmanistonda yashovchi o‘zbek-o‘g‘uz lahjalari) kiradi. 3. *Shimoli-g‘arbiy guruh* – bunga qipchoq shevalari kiradi (*O‘zME, 10-jild, 432-bet*). Hozirgi o‘zbek adabiy tiliga qarluq lahjasi asos qilib olingan. Asosiy manba xalq og‘zaki ijodi hisoblanadi. O‘zbek xalq dostonlari qipchoq va o‘g‘iz lahjalarida mavjud.

### Lug‘at

Milliy–национальный, lahja, sheva–диалект; so‘zlashmoq–разговаривать, viloyat–область, shahar–город, qishloq–деревня, guruh–группа, belgi–признак, hozirgi–современный, hudud–территория, janubi-sharqiy–юго-восточный, janubi-g‘arbiy–юго-западный, shimoli-g‘arbiy–северо-западный.

## IV. Mustaqil ta‘lim uchun matn.

### O‘zbek milliy tili

Milliy til umumiy hudud, iqtisodiy va ma‘naviy boylikka asoslangan millatning o‘zaro aloqa vositasi hisoblanadi. Milliy til og‘zaki va yozma shaklga ega. Avval aymoq, keyin urug‘, so‘ng qabila, keyin millat shakllangan. Har bir millat, agarda tub o‘zagi bir bo‘lsa o‘zining yagona tiliga ega bo‘ladi. Ba‘zi millatlar bir necha tilda so‘zlashadilar, sababi ularning shakllanishida turli xalqlar asos bo‘lgan. Milliy tilning oliy bosqichi milliy adabiy tildir. Chunki u millatni birlashtiruvchi hamda jahonga tanituvchi kuchga ega. Hozirgi o‘zbek milliy adabiy tilining shakllanishiga tamal toshini qo‘ygan ulug‘ o‘zbek adibi Abdulla Qodiriydir. Ul zot o‘zbek milliy romanchilik maktabini yaratib, milliy tilimizning jozibasini butun olamga yoydi. Uning asarlarini o‘qigan kitobxonlar o‘zbek millati, tili, ma‘naviyati, madaniyati haqida to‘la tasavvurga ega bo‘ldilar. Milliy tilimiz boshqa qardosh xalqlardan har jihatdan ajralib turadi (*O‘zME, 5-jild, 666-bet*).

### O‘zbek millati

“O‘zbek” termini tilshunoslar tomonidan turlicha izohlangan. Olim Herman Vamberi “o‘zbek” atamasini “o‘z” (asl, zotli), “bek” (boshliq) so‘zlarining birikuvidan (X asr) paydo bo‘lganligini yozgan. “O‘zbek” atamasi Rashididdinning “Mo‘g‘ullar tarixi” (XII asrda) kitobida “o‘ziga bek”, “otliq qo‘shin”, “suyukli”, “sodda”, “to‘g‘ri”, “insofli”, “saxiy”, “odamoxun”, “diltortar” shakllarida izohlangan. Tilshunos Pavel Ivanov “O‘zbek” etnonimini Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon (XIV asr)ning nomi bilan bog‘laydi. Tarixchi olim Bo‘rivoy Ahmedov “O‘zbek” terminini ko‘chmanchi turk-mo‘g‘ul qabilalarining umumiy nomi deb izohlaydi. Professor Usmon Sanaqulov “O‘zbek” so‘zini “o‘z” (az) qavm nomi va “bek” boshliq lug‘aviy birliklarining qo‘shiluvidan (V asr) yuzaga kelganligini ta‘kidlaydi. Chunki azlar (o‘zlar) o‘z boshliqlariga “bek” deb murojaat qilishgan. Aslida “o‘zbek” termini bundan 4500 yil oldin Amudaryo bo‘yida yashagan hukmdor O‘kuzxon (O‘g‘uzxon) nomidan kelib chiqqan bo‘lib, undan tarqagan

avlod “o‘g‘uzbek” deb atalgan. Keyinchalik “o‘g‘uzbek” terminining qisqarishidan “o‘zbek” ka aylangan. O‘zbeklar O‘zbekistonda (20 mln. 800 ming kishi), Afg‘onistonda (4 mln.ga yaqin kishi), Qirg‘izistonda (550-600 ming kishi), Saudiya Arabistonida (550-600 ming kishi), Qozog‘istonda (320-330 ming kishi), Turkmanistonda (320-330 ming kishi), Rossiyada (123 ming kishi), Xitoyda (13,7 ming kishi) yashaydi. Bundan tashqari o‘zbeklar Turkiya, Germaniya, AQSH, Avstraliyada ham istiqomat qilishadi (*O‘zME, 10-jild, 432-bet*)

### **O‘zbek taomlari**

O‘zbeklarning taom tayyorlash an‘anasi va madaniyati ko‘p asrlik tarixga ega. Milliy taomlarni tayyorlashda azaldan turli xil go‘sht, o‘simlik mahsulotlaridan kehg foydalanganlar. O‘zbeklar kundalik ovqat sifatida bug‘doy, arpa, guruch, no‘xat, mosh, zig‘ir, kunjut kabi don mahsulotlarini iste‘mol qilganlar. Shuningdek sabzi, piyoz, sholg‘om kabi sabzavotlarni, qovun, tarvuz singari poliz mahsulotlarini eganlar. Azaldan milliy taomlarni tayyorlash uchun qo‘y (arabi va hisori), qoramol yog‘lari, kunjut va zig‘ir kabi o‘simlik yog‘lari, sut mahsulotlari (sariyog‘) yog‘laridan foydalanganlar. Hohushtada qaymoq, qatiq, suzma, asal, suyuq ovqat va issiq non yeyishgan. Taom tayyorlaganda zira va zirni ko‘p ishlatishgan. Suyuq taomlar (mastaba, chuchvara, suyuq osh, moshxo‘rda, sho‘rva) ham o‘z o‘rni bilan navbati bilan tayyorlangan. Quyuq taomlar (kabob, qovurma, osh, norin, yaxna, jiz, moshkichiri) ga za‘faron, kashnich qo‘shib tayyorlashgan. O‘zbek milliy taomlari o‘zining lazzatliligi, darmondoriga boyligi va yuqori darajada quvvatliligi bilan ajralib turgan. Non yopish ham o‘zbek pazandachiligida alohida o‘rin tutgan (*O‘zME, 10-jild, 490-491-betlar*).

### **V. Grammatik terminlar.**

**1. Eski o‘zbek adabiy tili** XIV asrning 2-yarmidan XX asrning boshlarigacha mavjud bo‘lgan. “**O‘zbek**” atamasi ilk bor (XII asrda) Rashididdinning “*Mo‘g‘ullar tarixi*” kitobida uchraydi. Bu atama “*o‘ziga bek*”, “*otliq qo‘shin*”, “*suyukli*”, “*sodda*”, “*to‘g‘ri*”, “*insofli*”, “*saxiy*”, “*odamoxun*”, “*diltortar*” kabi ma‘nolarni bildiradi. Mazkur atama aslida V asrda xalq nomiga aylangan (O‘rxun-Enasoy bitiklarida bor), lekin sho‘ro davriga oid manbalarda XIV asrda xalq nomiga aylangan deb ko‘rsatilgan. Qul Alining “*Qissasi Yusuf*” (1239), Rabg‘uziyning “*Qissasi Rabg‘uziy*” (1309-1310), “*Tafsir*” (XIII asr), “*O‘g‘uznoma*”, Qutbning “*Xusrav va Shirin*”, Sayfi Saroiyning “*Gulistoni bit turkiy*”, Xorazmiyning “*Muhabbatnoma*” asarlari eski o‘zbek tilida yaratilgan dastlabki namunalar hisoblanadi. Mazkur tilning takomillashuvida *Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy* singari yuzlab so‘z ustalarining xizmatlari kattadir. XV asrga kelib Alisher Navoiy bu tilni yanada mukammallashtirdi, go‘zal nazmiy va nasriy asarlar yaratdi. *Bobur, Xoja, Majlisiy* kabi shoirlar ham mazkur tilning taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shishdi. XVII asrga kelib (ba‘zi adabiyotlarda “*yangi o‘zbek adabiy tili*” deb nomlanadi) *Turdi Farog‘iy, Mashrab, Furqat, Muqimiylar* ham eski o‘zbek tilining rivojlanishida samarali mehnat qilishdi.

**2. O‘rin-payt kelishigining** qo‘shimchasi **-da**. Bu kelishik qo‘shimchasi otni, olmoshni, otlashgan so‘zni fe‘lga bog‘laydi. Mazkur kelishikdagi so‘zlar **kimda? nimada? qaerda? qachon? qay tarzda?** so‘roqlariga javob bo‘ladi. Gapda vositali to‘ldiruvchi, o‘rin holi, payt holi va tarz holi vazifalarini bajaradi. Masalan:

1. Bu xabar **Nodirda** yomon taassurot qoldirdi.
2. **Qalamdonda** o‘chirg‘ich bor.
3. U **Toshkentda** uch yil o‘qidi.
4. Talabalar **bahorda** sayohatga borishadi.
5. Sobir musiqani chuqur **sukutda** tingladi.
6. Bu kitobni **unda** ko‘rgan edim.

Men	{	Shaharda 7-mavzeda Chilonzor tumanida 18-xonadonda 5-uyda	}	yashayman (turaman)
-----	---	--	---	---------------------

Men	{	shaharda qishloqda yo‘lda Toshkentda ziyoli oilasida	}	tug‘ilganman
-----	---	--	---	--------------

**3. O‘zbek tili** shu nom bilan ataluvchi xalqining milliy tilidir. Respublikamizda 27 mln. o‘zbek bor. Afg‘onistonda (4 mln.ga yaqin), Xitoy Sharqiy Turkistonida (13,7 ming), Saudiya Arabistonida (550-600ming), Qirg‘izistonda (550-600 ming), Qozog‘istonda (320-330 ming), Turkmanistonda (320-330 ming), Rossiyada (123 ming) o‘zbek yashaydi. Shuningdek Turkiya, AQSH, Germaniya, Avstraliya va boshqa joylarda ham o‘zbeklar istiqomat qilishadi.

**4. O‘zlashma so‘z** boshqa tillardan o‘zbek tiliga otgan lug‘aviy birliklardir. M.: *adres, gazeta, telefon, ofis, samolyot, futbol, boks.*

**5. O‘zlik oshmoshi** aniq yakkalikni ta’kidlab ko‘rsatuvchi olmoshdir. M.: *o‘z (siz o‘zingiz), o‘zim, o‘zing, o‘zi, o‘zimiz, o‘zingiz, o‘zlari.*

**6. O‘rin ravishi** ish-harakatning yuz berish va yo‘nalishga asoslangan umumiy (noaniq) o‘rnini bildiradi. M.: *oldindan, allaqaerda, ilgariga, olg‘a, ichkari, tashqari, pastda va shu kabilar.*


**Tayanch iboralar:** *o‘zbek millati, qarluq lahjasi, qipchoq lahjasi, o‘g‘uz lahjasi, fonetik jihat, morfologik jihat, turkiy adabiy til, eski o‘zbek adabiy tili, hozirgi o‘zbek adabiy tili.*

4-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

5-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.



6-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.



**Mavzu: Milliy qadriyatlar – millat iftixori**

**I. Nutq tovushiga izoh:** “Q” undoshi chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz tovush hisoblanadi.

**To'g'ri talaffuz qiling!**

- |                                     |                                    |                                    |
|-------------------------------------|------------------------------------|------------------------------------|
| 1) qon - кровь<br>kon - шахта       | 2) qo'l - рука<br>ko'l - озеро     | 3) qul - раб<br>kul - пепел        |
| 4) qir - возвышенность<br>kir-грязь | 5) qiyyiq - пояс<br>kiyyik - олень | 6) qunduz - бобёр<br>kunduz – день |

**Tez aytish**

Qunduz qumg'onni quyoshga qo'ydi.

**Bo'g'inlarni to'g'ri o'qing!**

Qa-rin-dosh, qa-bul-xo-na, qa-lam, qo-zon, qa-dah, qo'sh-ni.

**II. Zaruriy so'zlarni ko'chirib yozing va tarjima qiling:**

Qatnashmoq, qaldirg'och, qaramoq, qabulxona, qo'shimcha, qavariq, qabila, qadrlamoq, qazilma, qazimoq, qayin, qaynamoq, qayt, qaytarmoq, qayg'u, qaltis, qalqimoq, qamamoq, qamish, qamchilamoq, qandolat, qanoat, qaram, qars, qasam, qasd, qasos, qat'iy, qidirmoq, qizimoq, qiziq, qiynamoq, qoplamoq, qotmoq, quvvatlamoq, qurbaqa, qurtlamoq, qavimoq, qadamoq, qayrilmoq, qayishmoq, qayg'urmoq, qaltiramoq, qarashmoq, qalbakilashtirmoq, qarimoq, qatorlamoq, qashimoq, qaqramoq, qizarmoq, qiziqmoq, qiyshaymoq, qiyqirmoq.

**III. So'z birikmalari tuzishni o'rganing!**

- 1) qaldirg'ochning qanoti; 4) qamoqda qiynamoq;  
2) qarorni qabul qilmoq; 5) qoshiq bilan qidirmoq;  
3) qo'shniga qaramoq; 6) qimmatbaho qoshiq.

**IV. Sher va to'rtlikni yod oling.**

Qaro qoshing, qalam qoshing,

Qiyiq qayrilma qoshing, qiz  
Qilur qatlimga qasd qayrab –  
Qilich qotil qaroshing, qiz.  
Qafasda qalb qushin qiynab,  
Qanot qoqmoqqa qo‘ymaysan.  
Qarab qo‘ygil qiyo,  
Qalbimni qizdirsin quyoshing, qiz.

(E.Vohidov)

Qizilqum-da, yuzga sursam **surilmas**,  
Yot ellarda jafo cheksam **bilinmas**.  
Yot ellarning bog‘i bilan bog‘chasi,  
O‘z elimning yantog‘icha **ko‘rinmas**.

(Xalq qo‘shig‘idan)

Beshak biling bu dunyo, barcha eldin **o‘taro**,  
Inonmag‘il molingga, bir kun qo‘ldin **ketaro**.  
Ota-ona, qarindosh qayon ketti, fikr qil.  
To‘rt ayog‘lig‘ cho‘bin ot bir kun senga **yetaro**.

(Ahmad Yassaviy)

## V. Suhbat.

- Yassaviy kim?
- Buyuk shayx va alloma.
- Qanday ulug‘ ish qilgan?
- Yassaviylik tariqatiga asos solgan.

## VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

### Qadri baland irshod

Buyuk shayx va alloma Xoja Ahmad Yassaviy – tasavvuf adabiyotining vakillaridan biri. Ahmad Yassaviyning ajdodlari Muhammad rasulullohning qizlari Fotima bibi nasliga borib taqaladi. U XI asrning oxirida Yassi (Turkiston) yaqinidagi Sayram shahrida tug‘ilgan. Otasi Shayx Ibrohim javonmardlik tariqatini targ‘ib qilgan. Onasi Oysha bibi Muso shayx qizi Ahmad tug‘ilgandan so‘ng ko‘p o‘tmay vafot etgan. Ahmad 7 yoshida otasidan ajralgan. Uning tarbiyasi bilan opasi Gavhari Shahnoz shug‘ullangan. Ular Yassiga ko‘chib borishadi. Ahmad u yerda birinchi ustozi shayx Arslonbob bilan uchrashadi va undan tahsil oladi. Ustozining ko‘rsatmasi bilan Buxoroga shayx Yusuf Hamadoniy huzuriga borib unga murid bo‘ladi. Arab, fors tillarini chuqur o‘rganadi. Buxoroda Abduxoliq G‘ijduvoni, Abdulloh Barqiy va Hasan Andoqiylar bilan tanishadi. O‘zi ham tasavvuf olamidagi buyuk murshidlardan biriga aylandi. Bir muncha vaqt Yusuf Hamadoniyning o‘rnida shayxlik qiladi. Keyin o‘z o‘rniga Abduxoliq G‘ijduvoni qoldirib Yassiga qaytadi. Xoja Ahmad tasavvufda yassaviylik tariqatiga asos solgan. Uning “*Devoni hikmat*” nomli asari bor. Ahmad Yassaviy “63 yoshida yerto‘laga tushib, umrining oxirigacha yer ostida yashagan”, degan

taxmin bor. U 1166-yilda Yassida vafot etgan. Amir Temur hazratlari Ahmad Yassaviyni o'ziga ustoz deb bilgan. 1389–1395-yillarda uning qabri ustiga maqbara qurdirgan (*O'zME, 10-jild, 2005, 412-bet*).

### Lug'at

Alloma–эрудит, tasavvuf–суфизм, vakil–представитель, ajdod–предки, nasl–поколение, taqalmoq–упираться, oxir–конец, yaqin–близкий, tariqat–путь духовного совершенствования, javonmardlik–великодушие, targ'ib qilmoq–пропагандировать, shug'ullanmoq–заниматься, ko'chmoq–переходить, ajralmoq–терять, ko'rsatmoq–указать, murid–ученик шейха, o'rganmoq–изучать, yerto'la–землянка, tanishmoq–знакомиться, murshid–духовный руководитель, ayulanmoq–превращаться, qaytmoq–возвращаться, asos solmoq–положить основу, yer ostida–подземли, taxmin–предположение, maqbara–мавзолей.

## VII. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Qadriyat

Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan tinchlik, erkinlik, adolat, tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalarni qamrab oladigan tushunchadir.

### Qasri Orifon farzandi

Muhammad binni Muhammad Bahouddun an-Naqshband al-Buxoriy 1318-yilda Buxoro viloyati Qasri Hinduvoh (Qasri Orifon) qishlog'ida tug'ilgan. Uning oilasi va farzandlari haqida ma'lumot yo'q. Ammo Bahouddun Naqshband paygambarimizning avlodlaridan, ya'ni sayyidlardandir. Bobosi sufiy shayxlarning hurmatini qozongan va ular bilan yaqin bo'lgan. Otasi esa oddiy to'quvchi, o'yma naqsh soluvchi usta edi. Bobosi Bahouddundagi ilohiyotga qiziqishni shakllantirgan. Bahouddun Naqshbandning birinchi ustoz, ya'ni piri Hoja Muhammad Boboyi Samosiy edi. Ustoz Samosiy yoshi o'tgandan so'ng Bahouddunni ishonchli shogirdi Amir Sayyid Kulolga topshiradi. Bahouddun keyin ilm istab Qusam shayxning oldiga Qarshi shahriga boradi. Qusam shayx ham shogirdidan minnatdor bo'lgan. Bahouddun Naqshbandning hayoti, asosan, Buxoro atrofida o'tgan. Bahouddun Balogardon (duo bilan balolarni daf qiluvchi) maqomi bilan mashhur bo'lgan. Bahouddun Naqshband ikki marta hajga borgan. O'zi garibona hayot kechirgan, ya'ni kimxobga naqsh tushurib kun ko'rgan. Uning ta'limoti "*Dil ba yor-u, dast ba kor*" (*Ko'ngil Allohda, qo'l mehnatda bolsin*) mantiqiga asoslangandir. Bahouddun Naqshband o'z talimotini yaratishda Yusuf Hamadoniy va Abduholiq G'ijduvoniylarning nazariyasiga tayangan. Bahouddun Naqshband 1389-yilda vafot etgan. Shayboniylardan Abdulazizxon uning maqbarasi yoniga 1544-yilda ulkan xonaqoh qurdirgan. Shayx Ho'ja Ubaydulloh Ahror, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrablar ham naqshbandiylik tariqatida bo'lishgan. Mustaqillikdan keyin Bahouddun

Naqshbandning maqbarasi qayta ta'mirlandi, uning atrofi kengaytirilib yangi binolar qurildi va obod maskanga aylantirildi (*O'zME, 1-jild, 667-bet*).

### **Qora tanli shayx**

Tasavvuf ta'limotining taniqli vakili, avliyo Oyxo'ja ibn Toshxo'ja Zangiota Toshkent shahridagi Samarqand darvoza ko'chasi mahallada tug'ilib o'sgan. Keyinchalik o'sha mahallaga Zangiota nomi berilgan. Oyxo'ja turkistonlik Arslonbob eshonning avarasi bo'lgan. Asli qora tanli arab bo'lganligi sababli zangi (zanji), hurmat yuzasidan va oily himmatligi uchun Zangibobo Himmatiy deb atashgan. Otasi vafotidan so'ng Yassiga Hakim ota (Sulaymon Boqirg'oniy) huzuriga boradi. Bir necha yil uning mulozamatida bo'lib, undan yassaviylik tariqati sir-asrorlari, odobini o'rgandi va shu tariqatning etuk namoyandasi bo'lib yetishdi. So'ng o'z vatani Shosh viloyatiga qaytib kelgan. Aholini ilohiy-axloqiy, tasavvufiy yo'l-yuriqlar bilan tarbiyalashga kirishdi. U ko'plab mutasavvufla tayyorladi. Zangiotaning butun hayoti Movarounnahr xalq xalqlarining og'ir va dahshatli davriga to'g'ri keldi. Zangiota va uning izdoshlari xalq orasida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, adl-u insof, poklik, yaxshilik, mehr-shafqat, xudojo'ylik kabi umuminsoniy g'oyalarni targ'ib qildi. Uning murid va shogirdlari, xususan Uzun hasan, Sayyidota, Sadrota va Badrotalar Dashti Qipchoq o'zbeklari, Volgabo'yi va Ural tog'i etaklaridadagi tatar va boshqirtlar orasida islom dinining yoyilishiga hissa qo'shdi. Zangiota podachilik qilib, halol rizq topib hayot kechirgan. Zangiota Anbar bibiga uylanib bir necha farzand ko'rgan. Ularning farzandlari ham e'tiqodli, insofli kishilar bo'lib etishdilar. Zangiota 1258-yilda vafot etgan. Anbar bibini ham vafotidan so'ng Zangiotaning qabri yoniga dafn etishgan. Keyinchalik Amir Temur Zangiotaning mozori yoniga maqbara qurdirgan. Maqbaraning bezak ishlari Mirzo Ulug'bek davrida bajarilgan. 1832-yilda maqbara yoniga bir qabatli madrasa, namozgoh masjidi qurilgan (*O'zME, 3-jild, 666-bet*).

### **Qashqa vohasidagi mashoyix**

Xoja Shamsiddin, ya'ni Sulton Mirhaydar tasavvuf olamining buyuk shayxlaridan hisoblanadi. Uning dunyoga kelishi Hakim ota Sulaymon tomonidan bashorat qilingan. Shamsiddin hijriy qamariy 673-yili ramazon oyining 13-kuni Xurosonning Qoyim shahri shayx Jaloliddin oilasida *yuzi nurli* to'rtinchi farzand bo'lib tug'iladi. Uni shayx Jaloliddin farzandsiz ukasi Abdulloh va kelini Sokinayinurga topshiradi. Ular Shamsiddinni ehtiyot qilib, halol luqma bilan tarbiyaladilar. Shundan so'ng o'zlari ham farzand ko'rishdi. Shamsiddin 4 yoshida madrasaga boradi. Mudarris ruxsat bermagach, akalaridan mustaqil saboq oladi. 5 yoshida madrasaga borib, 6 yoshida hadis va suralar yod ola boshlaydi. Qiroat bo'yicha qorilaridan saboq oladi. 7 yoshida Qur'oni Karimni yod ola boshlaydi. 9 yoshida Quddus va Madina orqali Ka'baga boradi. Ka'batulloh amiri o'g'li Ramziddin bilan Shamsiddinni Misrga o'qishga jo'natadi va ular to'rt yil o'qiydilar. Xoja Shamsiddin 14 yoshida Madinayi Munavvara va Ka'batulloh (ikki haram) imomi bo'ladi. Ul zot bir necha bor haj amalini bajaradilar, shundan so'ng

uni “*Valiyalloh Mir Haydar*” deb ulug‘lashgan. Keyin Balx amirining qizi Fotimayi Saodatga uylanadi, farzandli bo‘lishgandan so‘ng Balxga borishadi. Balxda uning tushiga Xoja Ahmad Yassaviy va Hakim ota Sulaymon kirib “*Siz Xorazmga yurtiga borib, ilm ahli va islomga himoyachi bo‘ling deyishadi*”. Chorjo‘yda ul zotni Xubbi Xoja, Hasan Xo‘ja va Polvon Ahmad kutib olishadi. Urganchda Hakim ota Sulaymon Boqirg‘oniy maqbarasida 40 kun xatmi Qur‘on qiladilar va “*Mashoyixlar Sultoni*” maqomiga erishadilar. So‘ng Buxoriy sharifga borib, Sayyid Amir kuloldan ta‘lim oldilar. Xoja Shamsiddinni o‘ttiz ikki yoshida Qarshidan so‘rab kelishgach, safarga otlandilar. Tuya cho‘kkan joyda (rivoyatga ko‘ra Hazrati Xizir hamrohligida) Qashqadaryo yaqinidagi Kasbi qo‘rg‘onida manzil tutib quduq qazidi va yo‘lovchlarga suv berib tirikchilik qila boshladilar. Xoja Shamsiddin ko‘p karomatlar ko‘rsatgan, hijriy qamariy 766-yida vafot etgan. Xorazmlilar u kishining mayitini ikki marta o‘g‘irlab ketishgan, yana qaytarib olib kelishgan.

### **Qashqadaryo**

Qashqadaryo viloyati – O‘zbekistonning janubida joylashgan. Maydoni 28,4 ming km<sup>2</sup>, aholisi 1917,9 ming kishi (1995-yil). Poytaxti – Qarshi shahri. Tarkibida 14 tuman bor (Qamashi, G‘uzor, Dehqonobod, Qarshi, Koson, Kitob, Nishon, Kasbi, Usmon Yusupov, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog‘, Muborak, Bahoriston). Shimoldan Samarqand, shimoli-g‘arbdan Buxoro, janubi-sharqdan Surxondaryo, janubi-g‘arbdan Turkmaniston, shimoli-sharqdan Tojikiston bilan chegaradosh. Bu viloyat Qashqadaryo havzasi va Pomir-Oloy tog‘larining g‘arbiy chekkasida joylashgan. Asosiy hududi tekislikdan iborat. Cho‘l, dasht va tog‘li zonalarga bo‘linadi. Qashqadaryo viloyatida neft, gaz, toshko‘mir, kaliy tuzi, marmar, boksit, asbest, ohak, gips, sifatli gil, grafit, simob va boshqa tabiiy qazilma boyliklar bor. Aholisining 87,7 foizi o‘zbeklar, shuningdek, tojiklar, ruslar, tatarlar, turkmanlar, beloruslar, turklar, arablar va lo‘lilar yashaydi. Shaharlari: Qarshi, G‘uzor, Kitob, Qamashi, Koson, Muborak, Talimarjon, Shahrisabz, Yakkabog‘, Chiroqchi, Beshkent. Qashqadaryo vohasidan topilgan arxeologik yodgorliklar so‘nggi bronza davriga (mil. av. 9-8-asrlar) oid (Bo‘rjarsoy) dir. Hazrati Bashir qishlog‘idagi g‘orda paleolit davrida odam yashaganligi isbotlangan (*O‘z RE, 12-jild, 2006-yil, 697-707-betlar*).

### **VIII. Grammatik terminlar.**

**1. Qo‘shimchalar** o‘zbek tilida vazifasiga ko‘ra uch turga bo‘linadi:

1) **so‘z yasovchi qo‘shimchalar** o‘zakka qo‘shilib, yangi ma‘noli so‘zlar yasaydi. Masalan: ish+**chi**=ishchi, ish+**la**=ishla, ish+**chan**=ishchan, ser+hosil=serhosil, g‘olib+**ona**=g‘olibona.

2) **so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar** gapda so‘zlarni bir-biriga bog‘laydi. Bularga otlardagi egalik va kelishik qo‘shimchalari, fe‘llardagi shaxs-son qo‘shimchalari kiradi. Masalan: men**ing** kitob**im**, kinoga kety**apti**.

3) **so‘z shakli hosil qiluvchi qo‘shimchalar** ma‘noni bir oz o‘zgartiradi, qo‘shimcha ma‘no orttiradi, lekin yangi so‘z yasamaydi. Bunday qo‘shimchalar ot,

sifat, son, ravish, fe'l turkumlarida bor. Masalan: uy+**cha** = uycha, oq+**roq**=oqroq, ikki+**ta**=ikkita, tez+**gina**=tezigina, kul+**imsira**=kulimsira.

**2. Qo'shimcha (affiks)** – o'zi qo'shiladigan so'zning lug'aviy va grammatik ma'nolarini shakllantirishga xizmat qiladigan qism. Bular: 1) **old qo'shimcha (prefiks)** – so'zning bosh qismiga qo'shiladigan qo'shimcha. O'zbek tiliga fors-tojik tilidan o'tgan. M.: *serhosil, noo'rin, befoyda, badavlat, boodob*; 2) **o'rta qo'shimcha (infiks)** – so'z (negiz)larni o'rtasidan bog'laydigan qo'shimcha. O'zbek tilida bunday qo'shimcha yo'q. M.: *stand (turmoq) – stood (turdi)*; 3) **orqa qo'shimcha (suffiks)** – so'zlarning oxiriga qo'shiladigan qo'shimcha. M.: *ishchi, ishla, ishsiz, ishchan*.

**3. Qaratqich kelishigining qo'shimchasi -ning.** Bu kelishik qo'shimchasi otni, olmoshni, otlashgan so'zni otga bog'lash uchun xizmat qiladi. Qaratqich kelishigidagi so'z **kimning? nimaning? qaerning?** so'roqlariga javob bo'ladi. Gapda qaratqich aniqlovchi vazifasini bajaradi. Masalan:

1. Men *Sobirning* kitobini oldim.
2. *Toshkentning* ko'chalari keng va chiroyli.
3. *Daftarning* bo'sh varag'i to'ldi.
4. *Uning* kelganini sezmay qoldi.
5. *Yaxshining* so'zi qaymoq, *yomonning* so'zi to'qmoq.

#### Tayyor qoliplar

	Uning Sobirning Qunduzning Do'stining Dugonasining	}	kelganini sezmay qoldi.
Men	Sobirning do'stimning akamning domlaning dugonamning	}	kitobini oldim.

**4. Qarashlilik shakli -niki** qo'shimchasi orqali hosil qilinadi va narsaning shaxsga yoki narsaga tegishlilikini anglatadi. M.: *kitob ukamniki, qopqoq quduqniki*.

**5. Qarindosh tillarning** kelib chiqish manbai bitta bo'ladi. Shu sababli fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari umumiy, mushtarak bo'ladi.


**6. Qisqartma so'zlar** (abbreviatsiyalar) lug'aviy birliklarni qisqartirish asosida hosil qilinadi. M.: *BMT, ToshDShI, Toshshaharyo'lovchitrans*.

**7. Qomusiy (ensiklopedik) lug'atda** so'z bilan bog'liq narsa-hodisalar, shaxslar, geografik nomlar haqida to'liq ma'lumot beriladi. M.: *"O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" (12 jildlik). T., "O'zME" nashriyoti, 2000-2006-yillar*.

**8. Qo'shma gaplar** – ikki yoki undan ortiq sodda gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan va ohang tugalligiga ega bo'lgan butunlik. Qo'shma gaplar qismlarning qanday bog'lovchi vositalar yordamida

bog‘lanishiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi: *bog‘langan qo‘shma gaplar, ergashgan qo‘shma gaplar va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.*

**Tayanch iboralar:** *qadriyat, shayx, alloma, Yassaviy, tasavvuf, ajdod, nasl, javonmardlik, tariqat, murid, ustoz, avliyo, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, poklik, yaxshilik, mehr-shafqat, xudojo‘ylik, bashorat, ikki haram imomi, quduq, suv bermoq.*



7-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlang.

8-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

9-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### **Mavzu: Tarix va zamonamiz**

**I. Nutq tovushiga izoh:** “T” undoshi til oldi, portlovchi, jarangsiz tovush hisoblanadi.

**Bilib oling:**

<b>Og‘zaki nutqda</b>	<b>Adabiy talaffuzda</b>
go‘sh	go‘sh
pas	past
darax	daraxt
Toshken	Toshkent

### **Taqqoslang:**

<b>O‘zbekcha</b>	<b>Ruscha</b>
tezlamq	торопить
titmoq	трепать
tortmoq	тянуть
turtmoq	толкать

### **Tez aytish**

Tog‘ay tog‘da tug‘ilgan.

### **Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!**

Tak-lif-no-ma, ta-nish-moq, tut-qich, to-vush, ta-ra-moq, to‘p-la-moq.

## II. Zaruriy soʻzlarni koʻchirib yozing va tarjima qiling:

Taassurot, taajjub, taalluqli, taassuf, tabiat, tabrikلامoq, tabiiy, tavakkal, tadbir, tadqiqot, tajriba, tayyor, taklifnoma, takror, talab, tamagir, tamaki, tamom, tamgʻa, tanbeh, tanaffus, tanglay, tanishmoq, tannarx, tanqid, taom, tarbiya, tarix, taroq, tartib, tasdiqlamoq, tafakkur, taftish, tashviqot, taʻlim, taʻminot, taʻtil, taqsimot, tahlil, tejamkor, terak, terlamoq, teri, termoq, tivit, tizza, til, tinch, tish, tovush, toza, tol, tom, tomoq, tor, tugamoq, turt, tut, tutqich, tushmoq, tushunmoq, toʻliq, toʻngʻiz, toʻsmoq, toʻgʻri, taajjublanmoq, tabaqalanmoq, tayyorlamoq, tayinlamoq, termilmoq, tilamoq, tinglamoq, tinchimoq, tipirchilamoq, tirkamoq, tirmashmoq, titilmoq, tishlamoq, tiqmoq, tikmoq, toliqmoq, tomizmoq, topishmoq, topshirmoq, tortmoq, tuzmoq, tunamoq, turmoq, turtmoq, tutamoq, tutmoq, tugʻmoq, toʻlmoq, toʻplamoq, toʻxtamoq, toʻgʻramoq, toʻgʻrilamoq.

### Paronimlarni farqlang:

*Tanbur* (музыкальный инструмент) – *tambur*, *tana* (тело) – *taʻna* (упрёк), *tarif* (указатель цен) – *taʻrif* (определение), *taqib* (надевая) – *taʻqib* (преследование), *tib* (медицина) – *tip* (класс), *tub* (дно) – *tup* (куст растения).

## III. Soʻz birikmalari tuzishni oʻrganing!

- |                        |                               |
|------------------------|-------------------------------|
| 1) tomorqaning turpi;  | 4) tomdan tushmoq;            |
| 2) tishni tozalamoq;   | 5) tajriba uchun tayyorlamoq; |
| 3) tahlilga tushunmoq; | 6) toza tivit.                |

## IV. Toʻrtliklarni yod oling.

Tole yulduzingning qutlugʻ ziyosi  
Saodat burjida balqqay, zamon bu.  
Qadim bir diyori bu – yoʻqdir qiyosi,  
Ajib bir boʻston bu – Oʻzbekiston bu.

(A. Oripov)

Temur tugʻ qoldirgan koʻhna Turonga,  
Boʻy tutmoq boʻlganga boʻylagan xalqimiz.  
Kim havas qilmaydi Oʻzbekistonga,  
Dunyo tinchligini oʻylagan xalqimiz.

(Mahmud Toirov)

## V. Suhbat.

- Tarix nima?
- Oʻtmishimiz.
- Qanday bilish mumkin?
- Manbalardan.

## III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.



## Tariximizga oid manbalar

O‘zbekistonning eng qadimgi tarixi haqida madaniy yodgorliklarimiz va arxeologik topilmalardan bilish mumkin. Miloddan avvalgi 1-ming yillikka oid yozma manbalar, “Avesto”, axmoniyalar davri kitobalarida Turon va Movarounnahrning tabiati, xalqlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Yurtimizning **qadimgi tarixi** to‘g‘risida *Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Polibiy, Diodor, Strabon, Kursiy Ruf* kabi tarixchilar yozgan kitoblarda ma’lumotlar uchraydi. **Umummintaqaviy** tarixga xos Ya’qubiyning “*Mamlakatlar haqida kitob*”, Tabariyning “*Tarixi Tabariy*”, Beruniyning “*Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*” asarlari yozilgan. O‘rta asrlardagi **sulolaviy** tarixga bag‘ishlangan Bayhaqiyning “*Tarixi Bayhaqiy*”, Nasaviyning “*Siyрати Sulton Jaloliddin Mankburn*”, Nizomiddin Shomiyning “*Zafarnoma*”, Ali Yazdiyning “*Zafarnoma*”, Fazlulloh ibn Ro‘zbexonning “*Mehmonnomayi Buxoro*”, Hofiz Tanish al-Buxoriyning “*Abdullanoma*”, Muhammad Amin Buxoriyning “*Ubaydullanoma*” kabi asarlari yaratilgan. Ma’lum bir **hudud** tarixiga oid Narshaxiyning “*Tarixi Buxoro*”, Nasafiyning “*Samarqand tarixi haqida kitob*” singari asarlari bor. **Davlat boshqaruv** ishlariga oid Al-Forobiyning “*Fozil odamlar shahri*”, Yusuf Xos Hojibning “*Qutadg‘u bilik*”, Nizomulmulkning “*Siyosatnoma*”, Xondamirning “*Dastur al-vuzaro*”, Muhammad Boqirxonning “*Muvazayni Jahongiriy*” asarlari yozilgan. O‘rta Osiyodagi uch mustaqil davlatning tarixini yoritib beruvchi juda ko‘p **asalar** yaratilgan. Bundan tashqari ko‘pgina **sayohatnomalar, memuarlar** ham yozib qoldirilgan. Keyingi davrlarga oid ma’lumotlarni **davriy nashlar** orqali bilish mumkin (*O‘zME, 8-jild, 274-277-betlar*).

## Lug‘at

Eng–самый, madaniy–культурный, yodgorlik–памятник, topilma–находка, ma’lumot bermoq–дать сведение, avvalgi–прежний, ming yillik–тысяча летний, yozma–письменный, manba–источник, umummintaqaviy–общерегиональный, o‘rta asr–средний век, tarixnavis–историк, sulola–род, bag‘ishlamoq–посвящать, hudud–территория, boshqaruv–управление, mustaqil–независимое, yoritmoq–освещать, ko‘p–много, yuz kelmoq–выявляться, bundan tashqari–кроме этого, sayohat–путешествие, хотира–воспоминание, yozmoq–писать, davriy–периодический. nash–издание, bilmoq–узнать, mumkin–можно.

## IV. Mustaqil ta’lim uchun matnlar.

### Tarbiya

Tarbiya – farzandning yaxshi odob-axloqli, barchaga manzur bo‘lishida muhim ahamiyatga ega. Bu xususiyat insonlarning kelajagi porloq, hayotining mazmunli bo‘lishiga yordam beradi.

### Turon o‘lkasi

“Turon” tarixiy-geografik atamadir. O‘rta asr adabiyotlarida (Tabariy, Beruniy, Firdavsiy) Eron va Turon hududiy chegaralari Amudaryo orqali

belgilanganligi qayd etilgan. “Tur” etnonimi dastlab “Avesto”da qayd etilgan bo‘lib, Markaziy Osiyo dasht va tog‘larida yashovchi chorvador aholiga nisbatan ishlatilgan. Islomiy manbalarga ko‘ra Nuh payg‘ambarning *Yafas* (*Lafas*) ismli o‘g‘li bo‘lgan. *Tur* esa Yafasning turkiy tildagi ismidir. Yafasning birinchi o‘g‘li *Turk*, ikkinchisi *Hibroz*, uchinchisi *Saqlob*, to‘rtinchisi *Oris* (*Rus*), beshinchisi *Munsak*, oltinchisi *Chin* (*Xitoy*), yettinchisi *Gumori*, sakkizinchisi *Kimol*, to‘qizinchisi *Mazux* edi. Turon Yafas, ya’ni Turning avlodlari yashagan joy nomidir. Manbalarda qayd etilgan “*iskit*” (Kun chiqishda “*munsak*”, “*sak*”, “*saqa*”, Kun botishda “*skif*”), bir qismi esa “*massaget*” deb atalgan xalq **Munsak**ning avlodlari bo‘lib, forsiy tilda so‘zlashgan turkiylardir. Turonliklar miloddan avvalgi oltinchi-to‘rtinchi asrlarda Oltoy va Sibir dashtlarigacha kenglikda yashaganlar. Buni arxeologik ma’lumotlar, Shinjon-uyg‘ur o‘lkasida sak yozuvlarining tarqalishi ham tasdiqlaydi. Mahmud Koshg‘ariyning qayd etishicha, Qashqar tumanida “*kansak tili*” saqlangan. Sharqiy Turkistonning Xotan vohasidan topilgan yozuvlar “*xotansak hujjatlari*” nomi bilan atalgan. Akademik A. Muhammadjonovning qayd etishicha, “Turon” toponimi sug‘dcha “yer”, “tuproq”, “dala”, “dasht” ma’nolarini anglatgan. Turon pasttekisligi O‘rta Osiyoning shimoli-g‘arbiy va markaziy qismi hamda Qozog‘istonning janubi-g‘arbi, shimolda G‘arbiy Sibir, Balxash-Olako‘l botig‘ining shimoliy chekkasi, Janubi-sharqda va janubda Olatovning sharqi, Tyanshanning shimoli, Olay-Hisor tog‘larining g‘arbi, Kopentdog‘ tog‘larining shimoliy etaklari, g‘arbda Kaspiy dengizi bilan chegaralanadi (O‘zME, 8-jild, 672-673-betlar).

### Temur davlati

O‘rta asrlarda sohibqiron Amir Temur asos solgan markazlashgan davlatdir. Bu saltanat shimolda Ili daryosi va Xorazm(Orol) dengizigacha, janubda Fors qo‘ltig‘iga qadar, sharqda Xitoy va Hindistongacha, garbda Trabzun(Qora dengiz)ga qadar ulkan hududni qamrab olgan. Mamlakatni **davlat boshlig‘i**, **devonbegi** (bosh vazir) va **yetti vazirdan** iborat Arkoni davlat (Vazirlar Mahkamasi) boshqargan. 1) mamlakat va raiyyat vaziri bo‘lib, mamlakat obodonchiligi bilan shug‘ullangan; 2) vaziri sipoh (harbiy vazir); 3) tijorat (savdo vaziri); 4)moliya vaziri va yana 3 ta xolisa vazir nazorat hay‘atini tashkil etgan. Bu yetti vazir devonbegiga bo‘ysungan. Devonxona qoshida **arzbegi** (shikoyatlarni ko‘rib chiqqan), **sadri a‘zam** (vaqflarni nazorat qilgan), **shayxulislom** (islom aqidalarini nazorat qilgan) va **ahdos qozisi** (fuqarolar bilan ishlagan) kabi lavozimlar bo‘lgan. Mamlakat ma’muriy jihatdan ulus, viloyat va tumanlarga bo‘lingan. Ularning ham moliya boshlig‘i, qozisi, muftisi, mutavallisi, muxtasibi, agar shahar yoki qal’a bo‘lsa **qutvoli** bo‘lgan. Suyurg‘olga ega bo‘lgan shahzodalar o‘z uluslarida iloji boricha mustaqil bo‘lishga harakat qilganlar. Temuriylar davrida Xitoy, Hindiston, Tibet, Oltin O‘rdaga tobe Rusiya, Itil (Volga)bo‘yi, Janubiy Sibir bilan muntazam savdo-sotiq qilingan. Amir Temur davrida tangalar chingiziylardan **Suyurg‘atmish** va **Mahmudxon** nomlaridan chiqarilgan. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojlandi. Turli qurilish hamda

obodonchilik ishlari olib borildi, xalq farovonligi oshdi (O‘zME, 8-jild, 364-370-betlar).

### **Turkiylar tarixchisi**

Yirik davlat arbobi, buyuk tarixchi alloma, shoir va adib Abulg‘oziy Bahodirxon 1603-yilda Xivada xon oilasida tug‘ilgan. U avval maktabda, so‘ng madrasada o‘qib, yaxsh ustozlardan ta‘limini olgan. Xiva xoni Arab Muhammad (XVI asrning 2-yarmi – 1623) ning yetti o‘g‘idan biri edi. Abulg‘oziy 1623/1629-yillarda Xiva hokimi bo‘lgan. Mansabparast og‘alari tomonidan Eronga haydalgan va nazorat ostida yashagan. Keyin o‘z vataniga qochib kelib, qattiq kurashlardan so‘ng 1644-yilda taxtga o‘tirgan. Abulg‘oziy sarkarda sifatida o‘z davlati manfaati uchun Turkiston, Samarqand, Buxoro va Eronda kurash olib borgan. U siyosiy-harbiy ishlardan tashqari, ilm-ma‘rifat, san‘at va adabiyot bilan ham shug‘ullangan. Abulg‘oziy 1664-yilgacha Xivada xonlik qilgan. Umrining oxirlarida o‘z o‘rniga o‘g‘li Anusha Muhammadni xon qilib ko‘taradi. Abulg‘oziy Bahodirxon 1664-yilda 61 yoshida vafot etgan. U tarixchi sifatida “*Shajarai tarokima*”(1661), “*Shajarayi turk*”(1663), “*Manofe ul-inson*” (*Inson manfaatlari*) kabi asarlarini yozgan. Abulg‘oziy Bahodirxon o‘zi haqida “*Shajarai turk*” asarida shunday yozgan edi: “*Bu faqirga xudoi taolo inoyat qilib ko‘p nimarsa bergan turur. Xususan uch nimarsa bergan turur: avval sipohgarlikning qonun va yo‘sun. ikkinchi masnaviyot va qasoid va g‘azaliyot va muqattaot va ruboyot va barcha ash‘orni fayaxmlamaklik, arabiy, forsiy va turkiy lug‘atlarning ma‘nosini bilmaklik, uchinchi, Odam atodan to bu damgacha Arabistonda va Eronda va Turonda va Mo‘g‘ulistonda o‘tgan podsholarning otlari va umri va saltanatini kamu ziyoddin bilmaklik...*”. “*Shajarayi turk*”(1663) asaridan parchalar: “Asl lafz “**mungul**” turur. Avomning tili kelmaslikidan bora-bora “**mug‘ul**” tedilar. “**Mung**”ning ma‘nosini barcha turk bulurlar, “**qayg‘u**” ma‘nosina turur, “**ul**”ning ma‘nosi “**soda**”dir, ya‘ni “**qayg‘uli sado** (*kuy*)” temak bo‘lur”. “**Barlos**”so‘zini shunday izohlagan: “Oqsoq Temur ushbu uruqdin erdi. Barlosning ma‘nosi **sipahsolar** temak bo‘lur. Turkiysi “**cherik boshlab yurayturg‘an kishi** (sarkarda)”. “**Buxoro**” temakning ma‘nosi mug‘ tilinda “**ilm va ahli ilm jam‘ bo‘laturg‘an yer** (ilm-fan makoni)” temak bo‘lur. **Ching** – katta, ulug‘ temak bo‘lur: **Chingizxon** – ulug‘lar ulug‘i (O‘zME, 1-jild, 57-58-betlar).

### **Turmush tarzi**

Turmush tarzi biror shaxs, ijtimoiy guruh, aymoq, urug‘, qabila, elat, xalq, millatning kundalik hayotini ifodalovchi tushunchadir. Shaxs, ijtimoiy guruhning turmush tarzi biror davr shart-sharoiti bilan belgilanadi. Turmush tarzi ijtimoiy kategoriya bo‘lib, turmush darajasi deb ataladigan iqtisodiy kategoriyadan kengdir. Biror elat, xalq va millatning turmush tarzi uning yashash joyi bilan bog‘liq holda shakllanib, o‘zgarib boradi. O‘zbek xalqi o‘z hayot faoliyatida kamtarlik, kattalar va ayollarga hurmat ko‘rsarish, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik, sofdillik kabi axloqiy xislatlarga alohida e‘tibor bergan. Keyinchalik bu xislatlar islom dini aqidalariga mos kelgan. O‘zbek xalqidagi bunday fazilatlar milliy urf-odatlarda va

millatlararo munosabatlarda o‘z aksini topadi. Xalqimiz hayotida odob-axloq me‘yorlari asosidagi rasm-rusumlar, an‘analar hamda odatlarning ahamiyati beqiyosdir. O‘zbek xalqi azaldan jamoa bo‘lib yashagan. Shuning uchun mahalla, yaxshi qo‘shnichilik udumlariga rioya qilgan. Har bir farzandga yaxshi niyat bilan mazmunli ism qo‘yishgan. Bolaning savodini chiqarish uchun ustozga olib borilgan. Farzandlarini hunarli, uyli-joyli qilish ota-onalarning eng muhim vazifasiga aylangan. Yoshlarning yurish-turishi, ular amal qiladigan tamoyillar hamisha jamoa nazarida bo‘lgan. Bu esa urf-odatlarimizning avlodlardan-avlodlarga o‘tib borishi uchun zamin yaratgan. Shuning uchun ham juda ko‘p an‘analarimiz chuqur tarixga egadir (*O‘zME, 8-jild, 671-bet*).

## V. Ish qog‘ozi.

### Tilxat

Men, Toshkent davlat madaniyat institutining xo‘jalik ishlari bo‘limining mudiri Bahodir Olimov, Toshkent milliy cholg‘u asboblari zavodining tayyor buyumlar ombori mudiri Erkin Karimovdan institut buyurtmasi asosida tayyorlangan, umumiy bahosi 135000 (bir yuz o‘ttiz besh ming) so‘m bo‘lgan 100 (yuz) dona rubobni qabul qilib oldim.

1999.12.08.

(imzo)

B.N.Olimov

(*M.Aminov va boshqalar. Ish yuritish. T., 2000, 243-bet*).

## VI. Grammatik terminlar.

**1. Tovush o‘zgarishlari**, asosan, tilning fonetik xususiyatlari bilan bog‘lanadi: 1) tovush orttirilishi. M.: *isi+q=issiq, achi+q=achchiq, o‘sha+dan=o‘shandan, bu+da=bunda, u+ga=unga*; 2) tovush tushishi. M.: *shahar+i=shahri, og‘iz+im=og‘zim, burun+im=burnim*; 3) tovush almashishi. M.: *qishloq+im=qishlog‘im, bilak+im=bilagim*;

**2. Taqlid so‘zlar** inson, hayvon va narsalarning tovushi va holatiga taqlid ifodalaydi. Ular ikki xil bo‘ladi: 1. Tovushga taqlid so‘zlar. M.: shiq-shiq (eshik), taq-tuq (poshna), g‘uv-g‘uv (ari). 2. Holatga taqlid so‘zlar. M.: yalt-yult (mato), milt-milt (yulduz), lip-lip (sham).

**3. Til** nutq jarayonini tashkil etib fikr, his-tuyg‘u, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimi. Kishilar orasida aloqa-aralashuv, fikrlashuv vositasi bo‘lib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa.

**4. Tungus-manjur tillari oilasi:** 1) **tungus** tillari guruhi: evenk, even; 2) **manjur** tillari guruhi: manjur, nanay, udey, ulg, orog.

### Asosiy so‘zlar



**Tayanch iboralar:** *O‘zbekiston, madaniy yodgorlik, arxeologik topilma, Turon, Movarounnahr, qadimgi tarixi, umummintaqaviy tarix, sulolaviy tarix, hudud tarixi, davlat boshqaruv ishlari tarixi, sayohatnoma, memuar.*

10-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlang.

11-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

12-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### **Mavzu: Ulug‘ ajdodlarimiz**

**I. Nutq tovushiga izoh:** “U” tovushi lablangan, til orqa, yuqori-tor, qisqa unli hisoblanadi.

#### **Taqqoslang:**

<b>O‘zbekcha</b>	<b>Ruscha</b>
tut (тутовое дерево)	tut (shu yerda)
gul (цветок)	gul (guldirash)

#### **To‘g‘ri talaffuz qiling!**

- |                                 |                               |  |
|---------------------------------|-------------------------------|--|
| 1) qush-птица<br>qo‘sh-двойной  | 3) gul-цветок<br>go‘l-наивный | 5) kuch-сила, мощь<br>ko‘ch-имущество        |
| 2) jun-шерсть<br>jo‘n-несложный | 4) gung-немой<br>go‘ng-навоз  | 6) uylanmoq-жениться<br>o‘ylanmoq-задуматься |

#### **Tez aytish**

Ukam uyg‘oq ukkini ushladi.

#### **Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!**

U-ka, us-toz, u-zat-moq, uy-qu, un-von, us-ta, uch-rash-moq.

### **II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:**

Uyqu, ustara, uyalmoq, uyat, ulug‘, uyg‘onmoq, uzatmoq, uddaburon, uzoqlashmoq, uzr, uzumchilik, uydirma, uyqusiramoq, ulamoq, uloq, umid, ulfat, umr, umumiy, umurtqa, unvon, undov, uzmoq, uydirmoq, ulg‘aymoq, umidsizlanmoq, urinmoq, urishmoq, uchrashmoq, uqalamoq, uslub, ustun, uchmoq, uchrashuv, uchuvchi, uchqun, ushlamoq, uyum, uyushma, uyushtirmoq, uquv, uzmoq, uydirmoq, ulg‘aymoq, umidsizlanmoq, urinmoq, urishmoq, uchrashmoq, uqalamoq.

#### **Paronimlarni farqlang:**

*Uyim* (мой дом) – *uyum* (куча), *ulish* (вой) – *ulush* (доля), *urish* (ударить) – *urush* (война)

### **III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!**

- |                        |                            |
|------------------------|----------------------------|
| 1) ukamning uzugi;     | 4) uyqudan uygʻonmoq;      |
| 2) uzumni uzmoq;       | 5) ukasi bilan uchrashmoq; |
| 3) uchuvchiga uzatmoq; | 6) ulugʻ ustoz.            |

#### IV. Toʻrtliklarni yod oling.

Boyliging unutsang, mayliga, **unut**,  
 Mansabing unutsang, mayliga, **unut**,  
 Agarda unutsang ona tilingni,  
 Zaharga aylansin onang bergan **sut**.

*(Fargʻonalik shoir)*

Bobolardan soʻzladim, ammo  
 Bir zot borkim, baridan **suyuk**:  
 Buyuklarga baxsh etgan daho,  
 Ona xalqim, oʻzingsan **buyuk**.

*(A.Oripov)*

#### V. Suhbat.

- Bobolarimizning merosi?
- Noyob asarlar va imoratlar?
- Yoshlarning vazifasi.
- Ularni saqlash hamda oʻrganish.

#### VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

##### Ulugʻ olim

Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy 973-yilning 4-sentyabrida Xorazmning **Kat** (*Qiyot*) shahri yaqinidagi qishloqda tugʻilgan. “**Berun**” soʻzi “**tashqari**” maʼnosini bildiradi. Beruniy 152 ta asar yozgan, shunlardan 28 tasi bizgacha etib kelgandir. Al-Beruniy Kopernik va Leonardo do Vinchi kashfiyotlarini 700 oldin asoslab bergan. Al-Beruniy “*Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*” asarida taqvim, yil hisobi, qadimgi xalqlar (*sugʻdlar, xorazmliklar, forslar, yunonlar, yahudiylar*) ning urf-odatlarini toʻgʻrisida maʼlumot bergan. Beruniy arab tilida sheʼr, hajviya va sharhlar yozib, “*Muxtor ul-ashʻor*” toʻplamini tuzgan. Olim xalq qahramoni Muqanna va Xorazm tarixi haqida ham asarlar yozgan, lekin topilmagan. Al-Beruniy birinchi globusni yaratgan. Olim algebra, geometriya, trigonometriya, geografiya va astronomiyadan kashfiyotlar qilgan. Al-Beruniy olam qurilishi haqidagi yunonlarning “*Yer markaz, boshqa planetalar uning atrofida aylanadi*” degan **geosentristik** ilmiy nazariyani inkor qilgan. Oʻzi “*Quyosh markaz, boshqa planetalar uning atrofida aylanadi*” degan **geliosentristik** ilmiy qarashni asoslab bergan. Olim yer aylanasi uzunligini oʻlchashning yangi usulini kashf etgan. Hind hamda Atlantika okeanlarining janubda bir-birlari bilan qoʻshilishini aytgan va Amerika qitʼasi mavjudligi

bashorat qilgan. Dunyo she'riyatining uch yirik vazni (“**metrika**”-yunonlarniki, “**shloka**”-hindlarniki, “**aruz**”-arablarniki) ni qiyoslab, o‘xshash tomonlarini aytib o‘tgan. Beruniy “Xorazm Ma‘mun akademiyasi”ni tashkil etishda qatnashgan. Mahmud G‘aznaviy 1017-yilda Xorazmni bosib oladi va Beruniyni G‘aznaga olib ketadi. Beruniy 1048-yilda G‘aznada vafot etgan. Uning “Hindiston”, “Astronomiya kalidi”, “Mas‘ud jadvali” va boshqa asarlari mashhurdir. 1973-yilda YUNESKO ahli Beruniy tavalludining 1000 yilligini nishonladi (*O‘z ME, 1-jild, 2000-yil, 719-723-betlar*).

### **Lug‘at**

Qomusiy–энциклопедист, yaqin–близкий, kashfiyot–открытия, taqvim–календарь, ma‘lumot bermoq–извещать, to‘plam–сборник, topmoq–находить, yaratmoq–создавать, olam–мир, nazariya–теория, qarash–точка зрения, usul–метод, qo‘shilmoq–соединяться, bashorat qilmoq–предсказывать, yirik–крупный, xizmat qilmoq–служить, qiyoslamoq–сравнивать, bosib olmoq–захватить, olib ketmoq–увозить, nishonlamoq–отмечать.

## **VII. Mustaqil ta‘lim uchun matnlar.**

### **Ulug‘lik**

Ulug‘lik tengsiz iste‘dod egalari egalari bo‘lgan shaxslarga beriladigan maqom. Ularning talanti oldida insoniyat bosh egadi. Bunday shaxslardagi o‘zgachalik qaytarilmas bo‘ladi.

### **Umarshayxning o‘g‘li**

Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijon shahrida tug‘ilgan. Bobur yoshligidan harbiy ta‘lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini yaxshi o‘rgangan. Unga yoshligida Bobur (Sher) laqabini berilgan. Mashhur sufii shayx, otasining piri Xo‘ja Ahrorga ixlos qo‘ygan. Bobur otasi vafotidan so‘ng 12 yoshida taxtga o‘tiradi. Ikki-uch yillik qiyinchilikdan so‘ng beklar bilan murosaga keladi. U 1497-yilda Samarqandni egallaydi. Iqtisodiy qiyinchilik tufayli o‘z yurtiga qaytadi, 1498-yilning kuzidagina qo‘ldan ketgan Andijonga kiradi. 1499-yildan Shayboniixon Movarounnahrda turkiylar hokimiyatini mustahkamlashga kirishadi. Bobur 1500-yilning kuzida yana Samarqandga keldi. 1501-yilning aprelida Samarqandning Saripul qishlog‘i yaqinidagi jangda Bobur Shayboniixonidan yengildi. U avval Toshkentga bordi, keyin Andijonni qo‘lga kiritishga harakat qildi. Ammo muvaffaqiyatsizlikka uchrab, 1504-yilning iyunida Afg‘onistonga o‘tib ketdi. U yerda mustaqil davlat tuzdi. Sakkiz yil Movarounnahrni egallash uchun eroniylar bilan ittifoq tuzib, jang qildi. 1512-yilning 24-noyabrida G‘ijduvon tumani yonidagi jangda shayboniylardan yengilib, Afg‘onistonga qaytib ketdi. 1526-yilning oxirida Hindistonning asosiy qismini egallab, imperiya tuzdi. Bobur 1530-yilning 26-dekabrida vafot etdi. Bobur 18-19 yoshlarida ruboiy va g‘azallar yoza boshladi. Bizgacha yetib kelgan devonida 119 g‘azal, 209 ruboiy, 10 dan ortiq tuyuq va qit‘alar, 50 dan oshiq

muammo, 60 dan ziyod fard, 270 baytdan iborat 8 ta masnaviysi bor. Bobur 1521-yilda «Mubayyin», 1523-1525-yillarda «Muxtasar», 1525-1530-yillarda «Boburnoma», «Harb ishi», «Musiqqa ilmi» asarlarini yozgan. Xo‘ja Ahrorning «Validiya» asarini fors tilidan turkiy tilga tarjima qilgan (*O‘z ME, 2-jild, 2001-yil, 83-88-betlar*).

### Urug‘doshlarining g‘amxo‘ri

Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi (o‘zbek urug‘laridan birining nomi “*qutji*” bo‘lib, forsiy talaffuz ta‘sirida “*qutchi*” (*quchchi*) ga aylangan. Bu urug‘ qiyotlar va qo‘ng‘irotlardan yuqori maqomda turgan. Qadimdan *qushchi, nayman, qiyot, qo‘ng‘irot* urug‘lari kurash paytida bir taraf bo‘lib o‘tirishadi, bu holat ayrim viloyatlarda hozir ham saqlangan. Ali ibn Muhammad Qushchi XIV asrning oxiri XV asrning boshlarida Samarqandda Amir Temur qarorgohining boshlig‘i Muhammad Qushchi oilasida tug‘ilgan. U boshlang‘ich va sha‘riy bilimlarni samarqandlik ustozlardan olgan. Matematika va astronomiyaga oid imlarni G‘iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiylar hamda Ulug‘bekdan o‘rgangan. Keyin Kermonga ketib u yerdagi olimlardan saboq oladi va Oyning shakllariga oid asarini yozib qaytadi. 1424-yili Ulug‘bek rasadxonasi qurilishi boshlanadi. Avval Koshiy, so‘ng Rumiylar vafot etadi. Rasadxona qurilish ishlariga va astronomik tahlillarga Ali Qushchi mutasaddi etib tayinlanadi. Ali Qushchining urug‘doshlari Er yuzidagi **besht** (ayrim izohlarga ko‘ra **to‘rt**) tadan bittasi bo‘lgan **kenglik nuqtasi** (hozirgi Kitob tumanidagi) topib bergan. Shu sababli hoqoniylar va yunonlar yulduzlar jadvalidagi kamchiliklar tuzatildi va “**Ziji jaddi Ko‘ragoniy**” yaratildi. 1438-yilda Ali Qushchi Xitoyga elchi bo‘lib boradi. Ulug‘bek fojiasidan so‘ng Ali Qushchi Samaqanddan ketadi. U avval Tabriz (Ozarbayjon)ga boradi. Unga mahalliy hokim Uzun Hasan ehtirom ko‘rsatadi. Keyin usmonli sulton Abul Fotih Sulton Muhammad II ning taklifiga muvofiq uning saroyiga keladi. Sulton uni Istambulda qolishga ko‘ndiradi. U Tabrizga qaytib 200 ga yaqin urug‘doshlarini Istambulga olib ketadi. Ali Qushchi 1472-yili Ayo So‘fiya madrasasiga bosh mudarris etib tayinlanadi. U Istambuldagi madrasa qurilishiga boshchilik qiladi. Ali Qushchining sa‘y-harakatlari bilan Ulug‘bekning asarlari Evropa ilm ahliga ma‘lum bo‘ladi. Ali Qushchi 1474-yilda Istambulda vafot etgan. Ali Qushchi jami 23 ta asar yozgan, jumladan: “Hisob haqida risola”, “Kasrlar risolasi”, “Xitoyнома”, “Hisob haqida”, “Hilolsimon shakllarni o‘lchash”, “Astronomiya haqida risola” va boshqalar (*O‘z ME, 1-jild, 2000-yil, 203-209-betlar*).

### Ukraina

Ukraina – Yevropaning janubi-sharqidagi davlat. Maydoni 603,7 ming km<sup>2</sup>, aholisi 48,4 mln. Kishi (2002-yil). Poytaxti – Kiev shahri. Ma‘muriy-hududiy jihatdan Qrim Muxtor Respublikasi va 24 viloyatga bo‘lingan. Davlat boshlig‘i – prezident. Qonun chiqaruvchi organi Oliy Rada, ijrochi hokimiyati Vazirlar Mahkamasidir. Aholining 98 foizga yaqini ukrainlar, shuningdek rus, belorus, moldavan, qrimtatar, bolgar, venger, rumin, polyak, yahudiy, gagauz, o‘zbek (12,5 ming kishi) va boshqa millatlar yashaydi. Ukrainada 130 dan ortiq millat istiqomat



qiladi. Bu davlat aholisining aksariyatini xristianlar tashkil qiladi. Bundan tashqari pravoslav, katolik, yahudiylik va islom diniga e'tiqod qiluvchilar ham bor. Ukraina 1945-yildan BMT ning a'zosisidir. Ukraina davlati 1991-yilning 24-avgustida o'z mustaqilligini e'lon qildi. Ukrainaning yirik shaharlari: Kiev, Sevastopol, Odessa, Xarkov, Kirovograd, Donesk, Kirovoy Rog, Lvov va boshqalar. Ukrainaning katta daryolari: Dnepr, Dnestr, Jan, Buk, Severskiy Dones, Prut. Ukraina bilan O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yilning 14-avgustida o'rnatildi. (*O'z ME, 2005-yil, 9-jild, 65-bet*).

### Ultimatum

Ultimatum (lotincha «haddan tashqari») – xalqaro huquqda biron masala yuzasidan bir davlat hukumatining boshqa davlat hukumati oldiga diplomatik hujjatda yoki og'zaki shaklda bayon qilingan, hech qanday bahs yoxud e'tirozga o'rin qoldirmaydigan qat'iy talabi. Ultimatum qo'ygan hukumat, agar bu talab ko'rsatilgan muddatda bajarilmasa, muayyan choralar ko'rishini bildiradi. (*O'z ME, 2005-yil, 9-jild, 83-bet*).

### VIII. Grammatik terminlar.

**1. Unli tovushlarni talaffuz qilganda opkadan chiqayotgan havo oqimi tosiqqa ochramaydi, ular bo'g'in hosil qiladi. Unlilar uch xil tasnif qilinadi:** 1) lablarning ishtirokiga ko'ra unlilar ikki xil: a) lablangan unlilar: u, o'; b) lablanmagan unlilar: a, i, e; v) oraliq unli: o; 2) tilning yotiq (gorizontal) holatiga ko'ra unlilar ikki xil bo'ladi: a) til oldi unlilari: i, a, e; b) til orqa unlilari: o, u, o'; 3) tilning tik (vertikal) harakatiga ko'ra unlilar uch xil: a) yuqori-tor unlilar: i, u; b) o'rta-keng unlilar: e, o'; v) quyi-keng unlilar: a, o; 4) tovushning hosil bo'lishiga ketadigan vaqtning miqdoriga ko'ra unlilar ikki xil bo'ladi: a) cho'ziq unlilar o'zbek mumtoz tili va shevalarimizda **a, o', o** unlilarining cho'ziq shakli bor. M.: *a:d (ism), o't (olov) qar-ro, et-o'rmoq*; b) qisqa unlilar o'zbek mumtoz tili va shevalarida **i, e, u** unlilarining qisqa shakli bor. M.: *at (hayvon), o't (organ), it, ona, ürmäk*.

**2. Undosh tovushlarni talaffuz qilganimizda o'pkadan chiqayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'ida yoki bo'g'izda turli to'siqlarga uchraydi va shovqin hosil bo'ladi. Ular bo'g'in hosil qilmaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida 23 ta undosh tovush bor. Ular 20 ta harf va 3 ta harfiy birikma orqali yoziladi. Yana ikki tovush ts va j faqat ruscha so'zlarda uchraydi. Undoshlarni besh xil tasnif qilamiz:**

**I. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra** undoshlar uch xil bo'ladi (bunda tovushning qaysi organga urilishi e'tiborga olinadi): 1. Lab undoshlari. Ular ikki xil bo'ladi: a) lablab undoshlar: b, p, m; b) lab-tish undoshlari: f, v. 2. Til undoshlari tilning tish va tanglayga tegishidan hosil bo'lib, uchga bo'linadi: a) til oldi undoshlari: d-t, z-s, j-sh, dj-ch, n, l, r; b) til o'rta: y; v) til orqa undoshlari ikki xil: 1) *sayoz*: g, k, ng; 2) *chuqur*: q, g', x. 3. Bo'g'iz undoshi: h.

**II. Hosil bo'lish usuliga ko'ra** undoshlar ikki xil bo'ladi (bunda tovushning qanaqa chiqishi e'tiborga olinadi): 1. Portlovchilar: d-t, b-p, dj-ch, g-k, q, ts, m, n, ng. 2. Sirg'aluvchilar: v-f, z-s, j-sh, g'-x, y, l, r, h.

III. *Tovush paychalarining ishtirokiga ko‘ra* (ularning tarang tortilishi e‘tiborga olinadi) undoshlar ikki xil bo‘ladi:

<b>Jaranglilar</b>	b	v	z	d	g	g‘	dj	j	y	l	m	n	r	ng	-	-	-
<b>Jarangsizlar</b>	p	f	s	t	k	x	ch	sh	-	-	-	-	-	-	ts	q	h

IV. *Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra* undoshlar ikki xil bo‘ladi: 1. **Sonorlar** (ovozdorlar) uch xil bo‘ladi. 1) *burun tovushlari*: m, n, ng; 2) *yon tovush*: l; 3) *titroq tovush*: r. 2. **Shovqinlilar**. Qolgan undoshlarning barchasi shovqinlilar hisoblanadi.

V. *Tarkibiga ko‘ra undoshlar ikki xil bo‘ladi* (bunda tovushlarning qo‘shilib qolishi e‘tiborga olinadi): 1) *qorishiqlar* (affrikatlar): t+s=s, d+j=dj, t+sh=ch; 2) *sof undoshlar* (qolgan barcha undoshlar kiradi).

**Tayanch iboralar:** *qomusiy olim, birinchi globus, geosentristik ilmiy nazariya, geliosentristik ilmiy qarash, metrika, shloka, aruz, yuqori-tor unli, qisqa unli, his-hayajon undovlari.*



13-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlash.

14-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

15-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### **Mavzu: Vatan va vatanparvarlik**

**I. Nutq tovushiga izoh:** O‘zbekcha “V”[w] undoshi lab-lab, sirg‘aluvchi, jarangli tovush, ruscha “V”[v] undoshi esa lab-tish, portlovchi, jarangli tovush hisoblanadi.

#### **Taqqoslang:**

##### **O‘zbekcha**

vazn

vafo

vaqt

viqor

##### **Ruscha**

вес

верность

время

важность

#### **Tez aytish**

Vali vizvizakni vizillatdi.

## **Bo'g'inlarni to'g'ri o'qing!**

Va-tan, vo-diy, vo-ha, va-ra-qa, vij-don, vo-si-ta, va-fo.

### **II. Zaruriy so'zlarni ko'chirib yozing va tarjima qiling:**

Vatan, vazir, vakil, va, va'da, vaqtincha, vodiy, voha, va'dalashmoq, voqea, voris, vabo, vaj, vajohat, vaziyat, vazmin, vazn, vayrona, vaysamoq, vakolat, valdiramoq, valiahd, varaq, varaqa, varaqlamoq, vasiyatnoma, vafo, va'z, vaqfnoma, vahima, vahshiy, vijdon, vovullamoq, voiz, vosita, vazminlashmoq, vahshiylashmoq.

### **III. So'z birikmalari tuzishni o'rganing!**

- 1) vazir**ning** vafosi;
- 2) vizvizak**ni** vizillatmoq;
- 3) vatanda vidolashmoq;
- 4) vositachiga vaysamoq;
- 5) vakil **bilan** va'dalashmoq;
- 6) vafodor voris.

### **IV. She'r va to'rtlikni yod oling.**

Vatan yodi erur qalbidamda  
Bo'lsam men safarlarda,  
Jamoliga to'yolmasman  
Kezib qishloq, shaharlarda,  
Qizil gul bargida bulbul  
Kabi sayrab saharlarda,  
Yana shoir qilur takror,  
Vatandin yaxshi yor bo'lmas.

*(E.Vohidov)*

Vatan berilmagay, olinmagay ham,  
Hech kim yulolmagay dil bilan jondan.  
Ko'z-u qorachiqlar, kipriklarday jam,  
Vatan e'zozlangay, asralgay Vatan!

*(Sirojiddin Sayyid)*

### **V. Suhbat.**

- Vatan nima?
- Muqaddas makon?
- Vatan oldida kim burchli.
- Barcha.

### **VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.**

#### **Vatanparvar shoir**

Erkin Vohidov 1936-yilning 28-dekabrida Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanida tug'ilgan. Ota-onasi vafotidan so'ng Saxiboyevlar xonadonida tarbiyalangan. Erkin Vohidov o'quvchilik davridan she'riyatga qiziqqan. U

G'ayratiy bosh bo'lgan adabiy to'garakka boradi. Erkin Vohidov 7-sinfda o'qigan paytda birinchi she'ri "Mushtum" jurnalida bosilib chiqdi. U maktabni bitirgandan so'ng ToshDUning filologiya fakultetiga o'qishga kirdi. Uning birinchi she'rlar kitobi – "Tong nafasi" talabalik yillarida bosilib chiqdi. Universitetda unga Mirtemir ustozlik qildi. Shoirning «Yoshlik devoni» she'riy kitobi 60-yillar she'riyatining ajoyib namunasi. Shoirning "O'zbekim" qasidasi millatning vijdon amri bo'lib yangradi. 70-80-yillarga kelib Erkin Vohidov inson qalbining badiiy tadqiqotchisiga aylandi. Uning «Hozirgi yoshlar», «Inson», «Sirdaryo o'landi», «Arslon o'ynatuvchi» kabi she'rlari, «Ruhlar isyoni» dostoni, «Istambul fojiasi» she'riy dramasi muhim ahamiyatga ega. Shoir hajviy yo'lda «Donish qishloq latifalari» turkum she'rlarini yozdi. Erkin Vohidovning «Oltin devor» komediyasi muxlislar olqishiga sazovor bo'ldi. Shoir I.Gyote, S.Yesenin, R.Hamzatov va boshqa shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Ayniqsa, uning «Eron taronalari», «Faust» fojiasi kabi tarjimalari diqqatga sazovordir. 1992-yilda nashr etilgan «Iztirob» kitobidan shoirning maqolalari, ijodiy suhbatlari o'rin olgan. Shoirning "O'zbekim" qasidasida vatanparvarlik yuqori darajada kuylangan. Erkin Vohidovning vatan, xalq oldidagi xizmatlari qadrlanib "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berildi. Shoirning asarlari kop jildlik holda nashr etildi. (*O'zME, 2-jild, 2001-yil, 505-bet*).

### **Lug'at**

Tarbiyalanmoq–воспитываться, vafot–смерть, xonadon–квартира, she'riyat–поезия, qiziqmoq–интересоваться, ijodiy–творческий, adabiy–литературный, bosilib chiqmoq–печататься, o'qishga kirmoq–поступать, ajoyib–удивительный, tadqiqotchi–исследователь, hajviy–сатирический, turkum–цикл, muxlis–поклонник, olqish–добрые желания, aploidismenty; sazovor bo'lmoq–быть достойным, tarjima qilmoq–переводить, qo'shmoq–включать.

## **VII. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.**

### **Vijdon**

Vijdon – bu kishining kundalik faoliyati, qilmishi, xulq-atvori bilan oila, jamoat, jamiyat va vatan oldida ma'naviy mas'uliyat his etishidir. Bu yuksak axloqiy tushuncha shaxsni ijobiy xatti-harakatlarga undab turadi.

### **Vatan deya jon berganlar**

Xotira va qadrlash maydoni Toshkent shahridagi me'moriy majmuadir. 1991-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan uning rahbarligida barpo etilgan. Mustaqillik maydonidan shimoldagi xiyobonda, mangu alanga yodgorligi atrofida joylashgan bo'lib, maydon kengligini davom ettrib turadi. Maydonning to'riga Motamsaro ona haykali o'rnatilgan. Yodgorlik haykaltarosh I. Jabborov tomonidan tayyorlangan. Xiyobonning uzunligi 60 metr, uning shimol va janub tomonida ayvonlar qad ko'targan. Ayvonlarning tokchalariga o'rnatilgan metall taxtalarga Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan

o‘zbekistonlik jangchilarning ism-sharifi bitilgan. Ayvonlar milliy an’anaviy me’morlik uslubida ustunli, vassajuftli qilib qurilgan. Majmuani bunyod etishda va o‘ymakorlik bilan jozibador bezashda respublikadagi mohir ustalar va shogirdlari samarali mehnat qilishgan. O‘z ishining bilimdoni bo‘lgan qo‘qonlik usta A.Abdullayev, xorazmlik usta X.Bog‘bekov, toshkentlik ustalar H.Odilov, S.Rahmatullayev, samarqandlik usta N.Sohibnazarov, andijonlik usta Y.O‘taganovlar samarali mehnat qilishgan. Xuddi shunga o‘xshash me’moriy inshootlar viloyatlar markazlarida ham bunyod etilgan. Mazkur obidalarni yaratishdan maqsad hozirgi tinch hayotimizning qadriga etish va uni e‘zozlashdir. Majmuadagi jangchilarning ism-sharifi, yoshini ko‘rgan har qanday inson beixtiyor o‘yga toladi. Faqat O‘zbekistonning o‘zidan shuncha odam jangda yoki urush tufayli qurbon bo‘lgan bo‘lsa, butun jahonda qancha kishining yostig‘i qurigan. Minglab jajji bolachalar hayotdan ko‘z yumishgan. Bu holatni tasavvur qilishning o‘zi dahshatdir. Demak, har bir inson bolasi tinchlikning qadriga etishi lozimdir (O‘zME, 9-jild, 500-501-betlar).

### **Vatanni sevgan sarkarda**

Temur Malik XII asrning oxiri va XIII asrning 1-yarmida Muhammad Xorazmshoh hukmronligi davrida Xo‘jand shahar hokimi bo‘lgan. Jaloliddin Manguberding yaqin safdoshi, mo‘g‘ullar istilosiga qarshi kurashgan sarkarda, xalq qahramonidir. 1219-yilning dekabrda Aloq no‘yon boshliq 5000 kishilik mo‘g‘ul qo‘shini Xo‘jandni qamal qilishga kirishadi. Temur Malik urushdan oldin Sirdaryoning o‘rtasida, suv ikkiga bo‘lingan joyida mustahkam bir qal‘a qurdirgan edi. Shahar mudofaasi qiyinlashgach, 1220-yilning aprelida Temur Malik 1000 kishilik qo‘shini bilan orolga ko‘chib o‘tadi. Dushman shahar va qal‘ani halqa shaklida o‘rab oladi. Manjaniqdan otilgan toshlar orolga etmagach, mo‘g‘ullar 50000 asirlar yordamida daryoga shoh-shabba, xashak tashlaydi. Mo‘g‘ullarning 20000 kishilik qo‘shini jangga kirishadi. Temur Malik ustiga sirka shimdirilgan namat bilan o‘ralgan, o‘q otish uchun maxsus darchalari bor kemalar yasattiradi. Har kuni erta tongda har ikki tomonga 6 ta kemada borib dushmanga qiron keltiradi. Vaziyat tanglashgach u 70 ta kemada Sirdaryoning quyi oqimiga qarab suzadi. Mo‘g‘ullar Barchinlig‘(Qizil O‘rdadan 50 km janubda) daryoni to‘sib qo‘yishadi. Temur Malikning qo‘shini quruqlikda dushman bilan jang qiladi. Ko‘p talafotlardan so‘ng 1220-yilning yozida yolg‘iz o‘zi Xorazmga yetib keladi. U askar to‘plab, Jo‘jixonning qo‘shiniga zarba beradi va Kasba(Yangikent) shahrini ozod qiladi. Ammo saltanatdagi mushkul siyosiy vaziyat sababli Xorazmdan ketadi. U 1221-32-yillar Jaloliddin Manguberdi bilan mo‘g‘ullarga qarshi kurashadi. Jaloliddinning o‘limidan so‘ng o‘z yurtiga qaytadi. Ma‘lum vaqt o‘tkach mo‘g‘ullar tomonidan qo‘lga olinib qatl qilinadi. Temur Malikning jasorati haqida Mirmuhsin “Temur Malik”(1986) romanini yozgan.

### **Valyuta**

Valyuta (italyancha va lotincha «qadrlanmoq, qiymat») – 1) mamlakatning pul birligi va uning turi (*oltin, kumush, mis, qog‘oz*); 2) chet mamlakatlarning xalqaro

muomalada qo‘llanuvchi pullari, shuningdek, shu mamlakatlarning pul birligida ifodalangan va xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan kredit va to‘lov hujjatlari (*veksellar, cheklar, banknotlar va boshqalar*). Valyutaning uch turi bor: erkin almashtiriladigan valyuta, qisman almashtiriladigan valyuta va almashtirilmaydigan valyuta. Valyuta boyliklari – xalqaro valyuta-moliya muomalasi doirasiga jalb qilinadigan moddiy ob‘ektlar. Unga chet el valyutasi, chet el valyutasi to‘lov hujjatlari (*veksellar, cheklar, akkredetivlar*), jamg‘arma boyliklar (*aksiya, obligatsiya*), tabiiy va qayta ishlangan shakldagi qimmatbaho toshlar (*olmos, marvarid, yoqut va boshqalar*), shuningdek, noyob metallar (*oltin, kumush, platina, platina guruhiga kiruvchi metallar – palladiy, iridiy, osmiy, rodiy, ruteniy va boshqalar*) kiradi (*O‘zME, 2-jild, 2001-yil, 376-bet*).

## VIII. Ish qog‘ozi.

### Vasiyatnoma

*Toshkent shahri, bir ming to‘qqiz yuz to‘qson yettinchi yilning yigirma sakkizinchi noyabr kuni.*

Men, Toshkent shahar Qatortol ko‘chasidagi 80-uy, 15-xonadonda yashovchi va Toshkent shahridagi Onkologiya va radiologiya ilmiy-tadqiqot instituti klinikasida davolanuvchi Nasim Ikromovich Qodirov, ushbu vasiyatnoma orqali quyidagi topshiriqni beraman: Toshkent shahridagi 007/1320 raqamli omonat kassasida 3456 hisob raqami bilan saqlanayotgan jamg‘armani barcha hisoblangan foizlari bilan birgalikda o‘g‘lim, Latif Nasimovich Qodirovga vasiyat qilib qoldiraman. Ushbu vasiyatnoma ikki nusxada tuzildi va imzolandi. Bir nusxasi saqlash uchun vasiyat qiluvchining doimiy yashash joyi bo‘yicha Chilonzor davlat notarial idorasiga jo‘natildi, ikkinchi nusxasi vasiyat qiluvchi Nasim Ikromovich Qodirovga berildi.

(Imzo) N.I.Qodirov

*Davolash muassasasining tasdiqlovchi yozuvi va muhri.*

## IX. Grammatik terminlar.

1. **Varvarizmlar** nutqda noo‘rin qo‘llanuvchi xorijiy so‘zlardir. M.: *madam, missis, tochka, tolka shu*.

2. **Vulgarizmlar** ma‘nosi g‘ayri-axloqiy bo‘lgan haqorat so‘zlaridir. M.: *megajin (urg‘ochi cho‘chqa), dayus (qo‘shmach)*.

**Tayanch iboralar:** *o‘quvchilik, ustoz, she‘riyat, shoir, inson qalbi, “O‘zbekim” qasidasi, tarjimonlik, vijdon, Temur Malik, buyuksarkarda, xotira va qadrlash maydoni, valyuta, vasiyatnoma.*

### Asosiy so‘zlar



- 16-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlash.  
 17-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.  
 18-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik

**I. Nutq tovushiga izoh:** “P” undoshi lab-lab, portlovchi, jarangsiz tovush hisoblanadi.

#### Taqqoslang:

O‘zbekcha	Ruscha
pehin	полдень
piyoda	пешком, пеший
podachi	пастух
pullik	платный
pufak	пузыр
puch	пустой

#### Tez aytish

Payvandchi po‘latni payvandladi.

#### Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!

Par-da, pa-zan-da, po-ki-za, pi-choq, til-la, pi-shir-moq.

### II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:

Pazanda, payvand, paypoq, payt, palak, palag‘da, panja, parvona, parda, pardozi, parmalamoq, parhez, past, paxta, pashsha, peshona, piyoz, pilla, pichoq, pishirmoq, poyga, pokiza, poliz, portlamoq, pochcha, pul, pushti, po‘lat, paypaslamoq, pardozlamoq, parchalamoq, pasaymoq, pastlamoq, paxmoq, pachaqlamoq, pismiq, pista, piching, poylamoq, poydevor, poshna, pog‘ona, pullamoq, puflamoq, po‘choq, payqamoq, parvarishlamoq, parmalamoq, pastlamoq, pirillamoq, pitirlamoq, pichirlamoq, porlamoq, purkamoq, puchaymoq.

### III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!

- 1) pazanda**ning** pichog‘i;
- 2) poliz**ni** poylamoq;
- 3) pochcha**ga** pichirlamoq;
- 4) poliz**da** pullamoq;
- 5) po‘lat **bilan** parmalamoq;
- 6) pokiza pardozchi.

### IV. To‘rtliklarni yod oling.

Podshoh deganlari kunu tun bedor,  
 Xalqining mehribon doyasi bo‘lur.  
 Bejiz aytmaganlar, asl hukmdor,

Xudoning yerdagi soyasi bo‘lur.

(A.Oripov)

Podsholik istasang, bo‘l el gadosi,  
O‘zingni unut-u, bo‘l el oshnosi.  
El toj kabi boshiga ko‘tarsin desang,  
El qo‘lin tutgin-u, bo‘l xoki posi.

(Pahlavon Mahmud)

## V. Suhbat.

- Insonlar doimiy yashaydigan qal’a qaerda?
- O‘zbekistonda?
- Qaysi hududda joylashgan?.
- Xorazmda.

## VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

### Muzey qal’a

Xorazmdagi yirik va noyob me‘moriy yodgorlik Ichan qal’adir. Xivanning ichki qal’a qismi bo‘lib, Dishan qal’a qismidan kungurali devor bilan ajratilgan. Ichan qal’aga to‘rt darvoza (Bog‘cha darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza, Ota darvoza) orqali kiriladi. Ichan qal’a yer yuzidagi inson doimiy yashaydigan yagona qal’adir. Unda madrasa, masjid, saroy va minoralar ko‘p. Undagi me‘moriy yodgorliklarning yaratilishi to‘rt davrga bo‘lish mumkin. **Birinchi** qadimgi Xorazmdan to mo‘g‘ullargacha bo‘lgan davr. Undan arkning g‘arbiy devori, shimoli-sharqiy burchakdagi burj, qal’a devori qoldiqlari saqlanib qolgan. **Ikkinchi** 1220-yildan keyingi tiklanish davri bo‘lib, undan Sayid Alovuddin maqbarasi yetib kelgan. **Uchinchi** XVI-XVII asrlar bo‘lib, bu davrda Anushaxon hammomi (1657), peshayvonli oq masjid (1675), Xo‘jamberdibek madrasasi (1688) bunyod etilgan. Yana ko‘hna ark mustahkamlanib, ko‘rinishxona (qabulxona) qurilgan (1686-1688). **To‘rtinchi** XVIII-XX asrlarga to‘g‘ri keladi. Unda Ota darvozadan Polvon darvozagacha yo‘l o‘tkazilgan. Juma masjid (XVIII asrning oxiri) qayta qurilgan va yoniga minora tiklangan. 1840-1842-yillarda ikki qavatli Qutlug‘ Murod Inoq madrasasiga qarab tim va toqilar qurilgan. Keyingi davrlarda ko‘hna arkdagi saroy qurilishi tugatilib, yangidan Katta Tosh hovli saroyi, Olloqulixon madrasasi, karvonsaroy, Pahlavon Mahmud, Arab Muhammadxon, Musa To‘ra madrasalari qad ko‘targan. Kaltaminor qurilishi boshlangan. Ichan qal’ada binolarning ko‘pchiligi qo‘sh (qarama-qarshi) uslubda qurilgan. Masalan, Olloqulixon madrasasi bilan Qutlug‘ Murod Inoq madrasasi. Ichan qal’ada ansambl shaklida qurilgan binolar ham bor. Masalan, Juma masjid yonidagi ikki kichik madrasa, Muhammad Amin Inoq va Matpanoboy madrasasi. Bundan tashqari Polvon darvoza oldida va Tosh hovli yonida ham ansambl shaklidagi binolar bor. Yana bir me‘moriy yodgorlik – Islomxo‘ja madrasasi va minorasidir. Bu inshoot 1908-1910-yillarda qurilgan. Madrasa ikki qavatli, minorasining balandligi 44,6 metrdir. Ichan qal’a yodgorligi yog‘och o‘ymakorligi,



toshyo'nishlik, ganchkorlik, sirkor sopol va boshqa naqqoshlik bezaklari bilan bezatilgan. Ichan qal'a 1961-yilda muzeyga aylantirilib, 1990-yilda butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan (*O'z ME, 4-jild, 2002-yil, 302-bet*).

### **Lug'at**

Yirik–крупный, noyob–редкий, me'moriy–архитектурный, ichki–внутренний, qal'a–крепость, ajratmoq–отделять, darvoza–ворота, kirmoq–заходить, yagona–единственный, hisoblamoq–считать, yaratmoq–создавать, davr–время, qoldiq–остаток, saqlamoq–сохранить, tiklamoq–восстановить, o'tkazmoq–проводить, ko'hna–старый, boshlamoq–начинать, uslub–стиль, alohida–отдельный, inshoot–сооружение, yog'och–деревянный, o'ymakorlik–гравировка, naqqoshlik–художественная резьба, ganchkorlik–штукатурка ганчем.

## **VII. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.**

### **Muqaddas qadamjo**

Ka'ba (arabcha «kub») – musulmonlarning eng muqaddas ibodat joyi, ulug' va bosh sajdagohdir. Ka'ba Saudiya Arabistonining Makka shahrida joylashgan. Uni Bayt ul haram (Muqaddas uy), Baytulloh (Allohning uyi yoki Alloh nazari tushgan joy) deb nomlashgan. Uni ziyorat qilish – haj va umraning asosiy amallarini bajarish hisoblanadi. Ka'ba masjidi Haram markazida joylashgan, balandligi 15 metr va poydevori 12x10 metr o'lchamda toshdan qurilgan bino, me'moriy yodgorlik. Ka'ba burchaklari taxminan dunyo tomonlari yo'nalishida joylashgan. Sharqiy burchagi asvod rukni («qora burchak») yoki oddiy rukn deb ataladi. Unga yerdan taxminan 1,5 metr balandda tokcha qilingan, undan «qora tosh» ko'rinadi. Bu «qora tosh» Ka'badagi asosiy tavof qilinadigan narsadir. U yer yuzidagi odamlarga Alloh tomonidan yuborilgan mo'jizaviy ashyo bo'lib, Alloh qudratining belgisi hisoblanadi. Hozirgi vaqtdagi ilmiy taxminga ko'ra, bu qora tosh bir-biriga qo'shib ketgan qora-qizg'ish tushdagi uch siniqdan iborat meteorit deb qaraladi. Shimoliy burchak – Iroq burchagi, g'arbiy burchak – Suriya burchagi, janubiy burchak esa Yaman burchagi deb ataladi. Ka'baga qora mato (kisva) qoplab qo'yilgan, matoga oltin va kumush harflarda hoshiya qilib Ka'baga va hajga tegishli oyatlar bitilgan (*O'z ME, 4-jild, 525-bet*).

### **Misr**

Misr Arab Respublikasi – Afrikaning shimoli-sharqi va qisman Osiyo (Sinay yarim oroli) da joylashgan davlat. Maydoni 1001,4 ming km<sup>2</sup>, aholisi 69,5 mln. kishi (2001-yil). Poytaxti – Qohira shahri. Ma'muriy-hududiy jihatdan 27 muhofazaga bo'lingan. Davlat tuzumi – respublika. Davlat boshlig'i – prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni prezident amalga oshiradi. Aholisining 98 foizi misrlik arablar, shuningdek, nubiyalar, barbarlar, koptlar (mahalliy xristianlar) dan iborat. Bundan tashqari greklar, armanlar, italyanlar, inglizlar, fransuzlar ham yashaydi. Aholining asosiy qismi islom dinining sunniylik mazhabida, xristianlar 10 foizni tashkil etadi. Yirik shaharlari: Qohira, Iskandariya, Port-Said, Ismoilিয়া, Tanta,

Suvaysh, Al-Mansura, Al-Mahallat ul-Kubro. Misr insoniyat tamadduni (sivilizatsiyasi) ning ilk makonlaridan biridir. To‘rt ming yillik rivojlanish davrini o‘z ichiga oluvchi Qadimgi Misr me‘morchiligida ehrom, maqbaralarning nodir shakl va turlari yaratilgan. Ilohiylashtirilgan fir‘avnlarning mutlaq hokimiyati g‘oyasi mahobatli maqbaralar – ehromlar qurilishida mujassamlashgan. Buni ayniqsa Snofru, Xeops, Xefren, Mikerin ehromlarida ko‘rish mumkin. Misrdagi eng yirik universitetlar: Qohira, Ayn ush-shams, Iskandariya, Al-Azhar. Yirik kutubxonalari: Qohiradagi Milliy kutubxona(1870), Misr universiteti kutubxonasi(1859), Iskandariya kutubxonasi(1942) va boshqalar. Qadimgi Misr yozuvining asosini 500 dan ortiq ierogliflar tashkil etgan. Misr 1945-yildan BMT ning a‘zosi. O‘zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarni 1992-yilning 23-yanvarida o‘rnatgan (*O‘z ME, 6-jild, 21-bet*).

### **Men tug‘ilgan joy**

Adoq Jonbuz qishlog‘i Qamashi tumani hududida, qadimgi Buxoro-Kobul karvon yo‘lida joylashgan. Bu yo‘lning har 7-8 km joyiga katta xarsang toshlar tashlab chiqilgan. Ushbu toshlar karvonlar uchun yo‘l ko‘rsatkich vazifasini bajargan. Mazkur toshlar hozir ham saqlangan. Qishloqdan 6 km uzoqlikda Adirma shahrining o‘rni bor. Adoq Jonbuz qishlog‘ining g‘arb tomonida Gulshayid bobo ziyoratgohi mavjud. Hozirgi paytda qishloq o‘rni sug‘orish tarmog‘i bilan bog‘liq holda janub tomonga 4 km surilgan. Qishloqning eski o‘rni ham 1990-yillarda yana aholi yashaydigan joyga aylandi. Qishloq aholisi qadimdan chorvachilik, savdogarchilik, hunarmandchilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Adoq Jonbuz qishlog‘i Qarshi shahrini uzum bilan ta‘minlaydi. Qishlog‘imizning yonidan Toshkent-Kobul avtomobil yo‘li o‘tgan. Qishloqqa oqar suv Chimqo‘rg‘on suv omboridan keladi. Qishlog‘imizda o‘rik, olxo‘ri, yong‘oq, olma, bodom kabi mevali daraxtlar o‘sadi. Aholi paxtachilik, bug‘doychilik, qisman kunjut, zig‘ir ekish bilan shug‘ullanadi. Chorvadorlar qishloqni go‘sht mahsulotlari bilan bimalol ta‘minlaydi.

### **Pokiston**

Pokiston Islom Respublikasi – Osiyo janubida, Hindiston yarim orolining shimoli-g‘arbidagi davlat. Maydoni 803,9 ming km<sup>2</sup>, aholisi 147,6 mln. kishi (2002-yil). Poytaxti – Islomobod shahri. Ma‘muriy-hududiy jihatdan to‘rt provinsiya, federal poytaxt hududi va federal hukumat tomonidan boshqariladigan qabilalar hududiga bo‘lingan. Pokiston – Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo‘stlik tarkibiga kiruvchi islom respublikasi. Davlat boshlig‘i – prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni ikki palatali parlament (Senat va Milliy assambleya), ijrochi hokimiyatni prezident va hukumat amalga oshiradi. Pokistondagi eng baland cho‘qqi 7690 metr (Tirichmir) dir. Eng katta daryosi – Hind. Aholisi asosan panjobilar; yana pushtunlar, sindhiylar, baluch (baluj) lar yashaydi. Shuningdek, kxo‘ va ko‘hisoniyalar ham istiqomat qilishadi. Aholining 98 foizi islom diniga, qolganlari zardushtiylik, hinduizm dinlariga e‘tiqod qiladi. Yirik shaharlari: Karochi, Lohur, Faysalobod, Haydarobod, Ravalpindi, Peshovar, Mo‘lton. Pokiston 1947-

yildan BMT ning a'zosi. O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarni 1992-yilning 10-mayida o'rnatgan (*O'z ME, 7-jild, 111-bet*).

### VIII. Grammatik terminlar.

**1. Portlovchi** undoshlar nutq a'zolarining jipslashuvi va havo oqimining otilib chiqishi natijasida paydo bo'ladi. M.: *b-p, d-t, g-k, dj-ch, q, m, n, ng*.

**2. Paronimlar** (yunoncha "para" – *yonida*, "onuta" – *nom*) bir xil talaffuz qilinuvchi, bir tovushga farq qiluvchi so'zlardir. M.: *amr – amir, abzal – afzal, asr – asir, oriq – ariq, o'tkazmoq – o'tqazmoq*.

**3. Payt ravishi** ish-harakatning umumiy (noaniq) bajarilish paytini bildiradi. M.: *bugun, ertaga, ertalab, indin, kecha, hozir va shu kabilar*.

**4. Papuas tillari oilasi:** papuas tillari (400 ga yaqin til va sheva).


**5. Paleosiyo tillari oilasi.** **1. Chukot** tillari guruhi: *chukot, koryak*. **2. Sibir** tillari guruhi: *odul, nivx*.

**Tayanch iboralar:** *muzey, o'tmish, kelajak, me'moriy yodgorlik, Ichan qal'a, Dishan qal'a, devor, darvoza, yer yuzi, doimiy makon, muqaddas maskan, madrasa, masjid, saroy, minora*.

19-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

20-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

21-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.



**Mavzu: Kelajak bilimli yoshlar qo'lida**

**I. Nutq tovushiga izoh:** "K" undoshi sayoz til orqa, portlovchi, jarangsiz tovush hisoblanadi.

#### **To'g'ri talaffuz qiling!**

1) kunduz - день  
qunduz - бобёр

2) kuch - сила  
quch - обними

3) kamar - ремен  
qamar - луна

4) o'tkazmoq - проводить  
o'tqazmoq - сажать

5) kissa - карман  
qissa - повесть

6) karam - капуста  
qaram - зависимый

#### **Tez aytish**

Kichkintoy kichkina kulchasini ko'rsatdi.

**Bo'g'inlarni to'g'ri o'qing!**

Ki-tob, kis-sa, kun-duz-gi, ko‘k-lam, ki-yim, ka-sal, ka-ram.

## II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:

Kaklik, kaltabin, kayfiyat, kamalak, kamtar, kapalak, kasofat, kashta, kashfiyot, kezmoq, kelmoq, kema, kengaymoq, kesim, keskin, kechirmoq, kechki, kiyim, kissa, kovlamoq, kuymoq, kulmoq, kurashmoq, kutmoq, kuchli, ko‘klam, ko‘maklashmoq, ko‘ngil, ko‘p, ko‘rmoq, ko‘rsatmoq, ko‘tarmoq, ko‘chmoq, ko‘hna, kaltaklamoq, kamaymoq, kamsitmoq, kasallanmoq, kekkaymoq, keksaymoq, kemirmoq, kengaymoq, kengashmoq, kerilmoq, kerishmoq, kesmoq, kechmoq, kirmoq, koyimoq, kuzatmoq, kuramoq, kuchaymoq, ko‘zlamoq, ko‘karmoq, ko‘mmoq.

### Paronimlarni farqlang:

*Kaft* (ладонь) – *kift* (плечо), *kat* (деревянная кровать) – *kart* (чистое курдючное сало).

## III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!

- |                               |                                |
|-------------------------------|--------------------------------|
| 1) kelin <b>ning</b> kiprigi; | 4) kengash <b>dan</b> ketmoq;  |
| 2) kasal <b>ni</b> ko‘rmoq;   | 5) kuch <b>bilan</b> kavlamoq; |
| 3) kemag <b>a</b> kirmoq;     | 6) kulrang ko‘zoynak.          |

## IV. She’rlarni yod oling.

### Kamtarlik haqida

Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,  
Piyolaga egilar choynak.  
Shunday ekan, manmanlik nechun,  
Kibr-u havo nimaga kerak?  
Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam –  
O‘tma g‘urur ostonasidan.  
Piyolani inson shuning-chun  
O‘par doim peshonasidan.

(*Erkin Vohidov*)

### Til

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,  
Til vositai robitai olamiyondur.  
G‘ayri tilini sa’y qiling bilgali yoshlar,  
Kim ilm-u hunarlar bilanki ondin ayondur.  
Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,  
Bilmakka oni g‘ayrat eting, foida kondur.  
Ilm-u fan uyig‘a yuboringlar bolangizni,  
Onda o‘qug‘onlar bori yaktoi zamondur.

Zor o‘lmasun onlar dog‘i til bilmay **Avazdek**,  
Til bilmaganidan oni bag‘ri to‘la qondur.

(**Avaz O‘tar**)

## **V. Suhbat**

- Kelajak nima?
- Yoshlar.
- Nimada ko‘rinadi?
- Jo‘shqinlikda.

## **VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.**

### **Kelajak uchun yutuqlar**

Jismoniy tarbiyaning foydali jihatlar arxeologik yodgorliklarda, tarixiy obidalar, qahramonlik eposlari va xalq og‘zaki ijodi durdonalari (“Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlari, xalq qo‘shiqlari) da o‘z aksini topgan. Buyuk allomalarimiz ham o‘z asarlarida jismoniy tabiya haqida muhim ma‘lumotlarni yozib qoldirganlar. O‘zbekiston mustaqil bo‘lgach, 1992-yilning 14-yanvarida “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. 1992-yilning 21-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiada qo‘mitasi tashkil etildi va 1993-yilning sentabrida Xalqaro Olimpiada Qo‘mitasiga a‘zo bo‘ldi. Mamlakatda Sog‘lom avlod davlat dasturi ishlab chiqildi va keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Milliy o‘yin va sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazilib, ularni keng ommalashtirish uchun tadbirlar o‘tkazilmoqda. 1992-yildan milliy kurash, 1994-yildan tennis bo‘yicha xalqaro musobaqalar o‘tkazib kelinmoqda. 1994-yilda O‘zbekiston Osiyo o‘yinlarida ishtirok etib 42 ta medalni qo‘lga kiritdi. O‘zbekistondan Olimpiada va Jahon chempionlari yetishib chiqa boshladi. O‘zbekistonlik sportchilari 2016-yilda Brazeliyaning Rio-de Janeyrada o‘tkazilgan 31-Olimpiada 4 ta oltin, 2 ta kumush, 7 ta bronza medalini qo‘lga kiritishdi. O‘zbekistonda o‘quvchi va talabalar o‘rtasida uch bo‘g‘inli ommaviy sport musobaqalari o‘tkazila boshlandi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilari o‘rtasida “*Umid nihollari*”, akademik litsey va kasb-hunar kollej o‘quvchilari o‘rtasida “*Barkamol avlod*”, oily o‘quv yurti talabalari o‘rtasida “*Universiada*” musobaqalari muntazam o‘tkazilib kelinmoqda. Mazkur musobaqalarda toblangan yoshlar kelajakda xalqaro musobaqalarda Vatanimiz sha‘nini himoya qilishadi.

### **Lug‘at**

Jismoniy–физический, tarbiya–воспитание, foydali–полезный, qahramonlik–героизм, qabul qilmoq–принимать, qo‘mita–комитет, sog‘lom–здоровый, avlod–потомок, davlat–государственный, dastur–программа, keng–широкий, ko‘lam–масштаб, o‘yin–игра, ommalashtirmoq–распространять, tadbir–мероприятие, milliy kurash– национальная борьба, musobaqa–соревнование, umid–надежда, nihol–росток, barkamol–совершенный.

## VII. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Kelajakni ko'ra olgan shoir

Avaz O'tar 1884-yilning avgustida Xivada sartarosh oilasida tug'ilgan. Avval maktabda, so'ng Madamin Inoq madrasasida o'qigan. U Ogahiy, Bayoniy, Komil kabi shoirlar bilan do'stlashdi. Avaz O'tar ulug' mutafakkirlar – Hofiz Sheroziy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy kabilarning asarlarini o'rganadi. Zamondosh ustozlari Bayoniy, Tabibiy, Jumaniyoz Xivaqiy, Hasanmurod Laffasiylar ham unga yuksak baho berishgan. Xon saroyidagi nohaq ayblov tufayli sil kasaliga yo'liqadi. Davolanish uchun Kavkazga boradi, Bokuda to'xtaydi. O'sha davr matbuoti orqali rus, tatar va ozarbayjon xalqlari hayoti bilan tanishadi. O'zi ham she'rlari bilan matbuotda qatnashib turadi. Avaz O'tar mumtoz she'riyatimizning o'ndan ortiq janrida ijod qilgan. U o'z she'rlarini «Saodat ul-iqbol» (Baxtli kelajak) nomli devonga jamladi. Avaz devonining ko'chirilgan nusxasi O'z RFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Shoir o'z she'rlarida baxt-saodat, ozodlikni kuylab, ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'ib qilgan. U o'sha davrda «Til» she'r orqali yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishlari lozimligini targ'ib qilgan. Uning «Maktab», «Xalq», «Fidoysi xalqim» she'rlarida ham millatparvarlik g'oyalari aks etgan. Avaz O'tar g'azallarida ijtimoiy tengsizlikni, zulm-zo'ravonlikni qoralaydi. Shoir 1919-yilda vafot etdi (O'zME, 1-jild, 61-bet).

### Kelajak poydevori

Bir odil podshoh bor edi. Bir kuni vaziriga: – Haj safariga bormoqchiman, sen ham borasanmi? – dedi. Vaziri: – Ey shohim, mamlakatni boshliqsiz qoldirib, Ka'baga ketsangiz, el egasiz qoladi, – dedi. Podshoh: – Unday bo'lsa menga bir necha marta haj qilgan hojining savobidan sotib olib beringizlar, qiyomatda men ham hojilar bilan birga turayin, – dedi. Vazir “Podshoh uchun bir haj savobini sotib olaman” deb ovoza qildi. Vazir bir kishiga uchrashdi, u odam falon joyda bir zohid bor, o'sha hoji yigirma marta Ka'baga yayov borib haj qilib kelgan. Hech kimning o'sha zohidchalik savobi yo'q, unga borib uchrashing, – dedi. Vazir borib zohidni podshohning oldiga olib keldi. Podshoh: – Ey zohid, bir martalik haj qilganingning savobini bizga sotasanmi? – dedi. Zohid: – Qanchaga olasiz? – dedi. Podshoh: – Ming qizil tilla tanga berayin, – dedi. Zohid: – Ming qizil oltin tanga oz, – dedi. Podshoh: – Ey zohid, oz bo'lsa, o'n ming qizil oltin tanga berayin, – dedi. Zohid: – Ozdir, – dedi. Podshoh: – Unda o'zing istaganingni so'ragin, – dedi. Zohid: – Ey podshohim, bir haj nima bo'ladi, yigirma hajimning savobini sizga berayin, siz **bir soat adolat qilganning savobini** menga bering, – dedi. Podshoh so'radi: – Ey zohid, bir soat adolat qilganning savobi qanday bo'ladi? Zohid: – Bir soat adolat qilganning savobi odamlarning, farishtalarning va hurlarning ibodatidin ortuqdur, – dedi. Buni eshitgan podshoh bir martalik haj sabobini sotib olishdan voz kechib, adolat yo'liga kirdi.

## Kelajak ishlar

Nou-xau (inglizcha «*qandayligini bilaman*») – ishlab chiqarish siri. Hali hammaga ma'lum bo'lmagan va keng tarqalmagan yangi ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish-texnologik, boshqarish, moliyaviy-iqtisodiy, tijoratga oid bilimlar majmui va ularni amaliyotda qo'llash tajribalari; ularga tanho ega bo'lish. U korxonaga uchun ham, shaxs uchun ham muayyan ustunlikni ta'minlaydi. Nou-xau turli shakllarda: chizmalar, sxemalar, yo'riqnomalar, mahsulotlar namunalari, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish, xodimlarni tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Odatda nou-xauda patentlangan mahsulotga taalluqli ma'lumotlar emas, balki undan foydalanishni tashkil etish yoki uni ishlab chiqarish va o'zlashtirish xususiyatlariga doir maxsus axborot bo'ladi. Nou-xau maxfiyligi bilan ajralib turadi va tijorat siri oshkor etilmasligini talab etadi. Nou-xau bo'yicha shartnomada berilayotgan ma'lumotlar sir saqlanishi va shu shart buzilgan taqdirda ko'riladigan zararni qoplash haqida alohida band bo'ladi (*O'zME, 6-jild, 403-bet*).

## Kun tartibim

Men ertalab soat oltida uyqudan uyg'onaman. O'rnimni tartibga solaman. Keyin badantarbiya qilaman. So'ngra yuz-qo'limni yuvaman. Tishlarimni tozalayman. Soat olti yarimda nonushta qilaman. So'ng kiyinaman va o'qishga jo'nayman. Soat o'nta kam sakkizda institutda bo'laman.

## VIII. Grammatik terminlar.

**1. Kelishik qo'shimchalari** otni otga, ot, olmosh va otlashgan so'zni fe'lga bog'lash uchun xizmat qiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *oltita* (bosh, qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish) kelishik bor. So'zlarga kelishik qo'shimchalari va egalik qo'shimchalarining ma'lum tartib asosida qo'shilishiga *turlanish* deyiladi. Kelishiklar otni otga (*kitobning varog'i*), olmoshni otga (*sening isming*), otlashgan so'zni otga (*yaxshining so'zi*), otni fe'lga (*sendan so'radim*), otlashgan so'zni fe'lga (*yaxshiga yondash, bittasiga qaradi*), bog'lash vazifasini bajaradi.

**2. Kelishikli boshqaruvda** bosh so'z bilan ergash so'z kelishik (tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish) qo'shimchalari vositasida bog'lanadi. M.: *kitobni o'qimoq, daftarga yozmoq, shaharda turmoq, shakardan solmoq*.


**3. Ko'rsatish olmoshlari** shaxs, narsa, yoki joyni ko'rsatish, aniqlash va ta'kidlash uchun qo'llanuvchi lug'aviy birliklaridir. M.: *ana, mana, u, bu, shu, o'sha, ana shu, mana bu*.

**4. Ko'makchilar** ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'laydigan yordamchi so'zlardir. M.: *bilan, uchun, sari, sayin, singari, kabi, qadar, uzra, tufayli, haqida*.

**5. Kiritmalar** gapning asosiy mazmuniga qo'shimcha axborot beruvchi va alohida ohang bilan ajralib turuvchi qismdir. Ular kitobiy uslubga xos bo'lib, pastroq ohang bilan aytiladi. Kiritmalar gapdagi boshqa bo'laklardan yozuvda *vergul, tire, ba'zan qavslar* bilan, talaffuzda esa kichik to'xtamlar (tovush to'xtamlari) bilan ajratiladi. Ular ikki xil bo'ladi: sodda va murakkab kiritmalar. Sodda kiritmalarga modal so'zlar kiradi. Murakkab kiritmalarga so'z birikmalari (*tabibning ta'biricha,*

mening bilishimcha) ga o‘xshash va gap (“O‘tkan kunlar” (Siz bu romanni o‘qigansiz) o‘zbek romanchiligining gultoji hisoblanadi) ga o‘xshash kiritmalar kiradi.

**6. Kavkaz tillari oilasi:** 1) **g‘arbiy** tillari guruhi: abxaz, kabardin, cherkas, adigey tillari; 2) **nahd** tillari guruhi: chechen, ingush, basbe tillari; 3) **dog‘iston** tillari guruhi: a) yozuvi bor tillar: avar, dargin, lezgin, lak, tabasaran; b) yozuvi yo‘q tillar: anti, karatin, tindin, chamolin, bagaul, axvax, budlix, gadoberin, sez, betetin; 4) **janubiy** yoki **katvel** tillari guruhi: gruzin (qadimgi yozuvga ega), zan, svan.



**Tayanch so‘z va iboralar:** *jismoniy tarbiya, arxeologik yodgorliklar, tarixiy obidalar, qahramonlik eposlari va xalq og‘zaki ijodi durdonalari, Milliy olimpiada qo‘mitasi, Xalqaro Olimpiada Qo‘mitasi.*

22-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlang.

23-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

24-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### **Mavzu: Zamonaviy dunyoda ta‘lim**

**I. Nutq tovushiga izoh:** “Z” undoshi til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli tovush hisoblanadi.

#### **Bilib oling:**

##### Talaffuzda

istirob  
teskor  
maskur  
ishor

##### Adabiy talaffuzda

iztirob  
tezkor  
mazkur  
izhor

#### **Taqqoslang:**

##### **O‘zbekcha**

zamin  
zar  
zaxkash  
zilzila

##### **Ruscha**

земля  
золото  
заболоченный  
землетрясение

#### **Tez aytish**

Zargar zirakning zebidan zavqlandi.



## **Bo'g'inlarni to'g'ri o'qing!**

Zi-rak, zar-gar, za-har-la-moq, ziyo-fat, zil-zi-la, zan-jir.

### **II. Zaruriy so'zlarni ko'chirib yozing va tarjima qiling:**

Zavqlanmoq, zaif, zambil, zamburug', zamon, zanjir, zarar, zargar, zarur, zahar, zehn, zid, ziyon, ziyorat, zina, zirak, ziqna, zotdor, zulm, zo'r, zo'rg'a, zavq, zabardast, zambarak, zamin, zanglamoq, zararkunanda, zarlanmoq, zarb, zardob, zardoli, zarhal, zafar, zarra, zax, ziyon, ziyofat, ziynat, zilzila, zimma, ziq, zirqillamoq, zich, zig'ir, zuluk, zumrasha, zo'ravon, zo'raymoq.

### **III. So'z birikmalari tuzishni o'rganing!**

- 1) zamburug' **ning** zarari;
- 2) zolimni zirillatmoq;
- 3) zargarga zar bermoq;
- 4) ziyofatdan zerikmoq;
- 5) ziyorat **uchun** zo'rlamoq;
- 6) ziqna zargar.

### **IV. To'rtliklarni yod oling.**

Zavol ko'rma, hech qachon, o'lkam,  
Zavol bilmas shu yoshing bilan.  
Muzaffar bo'l, g'olib bo'l, o'ktam,  
Do'st-u yoring, qardoshing bilan.

*(Abdulla Oripov)*

Zangori bahorni yotar tush ko'rib,  
Qaydadir – ummonlar tubida quyosh.  
Momo qish oq jujun to'qir o'ltirib,  
Kelinchak zaminga yagona sirdosh.

*(Abdulla Oripov)*

### **V. Suhbat.**

- Ta'lim nima?
- Bilim va tarbiya berish.
- Kimlar amalga oshiradi.
- Ustozlar.

### **VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.**

#### **Zamonga hamnafas adib**

O'zbek ma'rifatparvari, jurnalist, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda tug'ilgan. U maktab va madrasada o'qigan. Avloniy arab, fors, rus tillarini o'rgangan. Buyuk mutafakkirlarning asarlarini mutolaa qilgan. O'zi ham she'r yoza boshlagan. Rus tilidan L.N.Tolstoyning asarlarini tarjima qilgan. 1906-yilda o'z uyida «Taraqqiy» gazetasini, keyin

«Shuhrat» gazetasini chop ettirgan. 1908-yilda yashirin ravishda «Osiyo» gazetasini nashr ettirgan, bu gazeta ham yopib qo'yilgan. Avloniy 1908-yilda Mirobod mahallasida yangi usuldagi maktab ochgan, o'zi ona tili va adabiyot fanidan dars bergan. U 1909-yilda «Jamiyati xayriya» ni tuzib, yetim bolalarni o'qitgan. Keyin Avloniy Degrez mahallasida ikki sinfli maktab ochib, dunyoviy fanlarni o'qitgan. Avloniy mohir pedagog sifatida o'quv qo'llanmalari va o'qish kitoblari yozgan. Uning «Birinchi muallim» (1911), «Ikkinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), to'rt qismli «Adabiyot yoxud milliy she'rlar to'plami» (1909-1915), «Maktab gulistoni» (1915) va boshqa ilmiy-pedagogik asarlari bor. Avloniy 1913-yilda «Turon» nomli teatr truppassi tashkil etgan. O'zi bir qancha dramatik asarlar yozgan va tarjima qilgan. Avloniy 1917-yilda «Turon» nomli gazeta tashkil qilgan. 1918-yilda «Ishtirokiyun» gazetasini tashkil etishda qatnashdi va muharrir bo'ldi. 1919-1920-yillarda hukumatning Afg'onistondagi siyosiy vakili, bosh konsul bo'lib xizmat qiladi. 1921-yilda maorif sohasida ishlay boshlaydi. U xotin-qizlar, erlar bilim yurtlarida, harbiy bilim yurtida dars beradi. So'ng O'rta Osiyo universitetida til va adabiyot kafedrasining mudiri, professor bo'lib ishlaydi. 7-sinflar uchun «Adabiyot xrestomatiyasi» ni tuzib nashr ettirdi. Uning bir qancha ilmiy maqolalari, 4000 misradan ortiq she'ri bor. Abdulla Avloniy 1934-yilning 24-avgustida vafot etgan.

### Lug'at

Ma'rifatparvar—просветитель, arbob—деятель, tug'ilmoq—рождаться, o'qimoq—учиться, mutolaa qilmoq—читать, mutafakkir—мыслитель, tarjima qilmoq—переводить, chop etmoq—публиковать, dars bermoq—преподавать, mohir—искусный, asar—произведение; труд, tashkil etmoq—организовать, muharrir—редактор, vakil—представитель, xizmat qilmoq—служить, maqola—статья, she'r—стих, vafot etmoq—скончаться, dunyoviy fanlar—светские; современные науки (предметы).

## VII. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Zamonasidagi ulug' saltanati

Qoraxoniylar (Xoniylar yoki Xoqoniylar) davlati Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tyanshanning janubiy yon bag'irlarida tashkil topgan davlat. Ushbu davlatning barpo etilishida qarluq, chigil va yag'mo qabilalari yetakchilik qilishgan. Mazkur saltanatning rivoji va taraqqiyoti X asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrda hokimiyatni Abdulkarim Sotiq Bug'roxon egallab, o'zini «Qora xon» (Ulug' xon) deb atagan. Bu taxallus Yafas o'g'li Turk shimolda yashaganiga ishoradir. 1141-yilda Qoraxoniylar davlati ikki qismga bo'lingan. Sharqiy qismga Yettisuv, Qashqar, Taroz, Isfijob, Shosh va Sharqiy Farg'ona kirgan. Uning poytaxti Bolasog'un (Go'baliq – Yaxshi shahar) bo'lgan. Madaniy markazi esa Qashqar shahri edi. G'arbiy qismga Movarounnahr va Farg'ona vodiysining g'arbidagi hudud kirgan. Qoraxoniylar davrida turli o'lkalarning birlashgan fan va madaniyati rivojiga ham imkon berilgan. Bu

davrda Buxoro, Samarqand, Bolasogʻun, Qashqar, Oʻzgan kabi shaharlar ham maʼmuriy, ham madaniy markaz sifatida kengaygan va rivojlangan. Oʻsha davrda bunyod etilib, hozirgacha saqlangan inshootlar koʻp. Jumladan Raboti Malik, Minorai kalon, Vobkent minorasi, Jarqoʻrgʻon minorasi, Magʻoki attori masjidi va boshqalar. Saroy, masjid, minora, xonaqoh, maqbara, tim va karvonsaroy kabi inshootlar qoraxoniylar davrida qurilish sanʼatining yuksak darajada taraqqiy etganligini koʻsatadi. Amaliy bezak sanʼatlarini, yaʼni naqshinkorlik, ganchkorlik va kulolchilik rivojlangan. Badiiy adabiyot yuksak darajaga koʻtarilgan. Yusuf Xos Hojibning *“Qutadgʻu biligʻ”*, Mahmud Koshgʻariyning *“Devonu lugʻot-it turk”*, Ahmad Yugnakiyning *“Hibat ul-haqoyiq”* asarlari yaratilgan.

### Zamonlar osha

Oʻzbekistondagi maʼmuriy-hududiy birlikka **mahalla** (arabcha *“oʻrin-joy”*) deyiladi. Mahalla oʻz-oʻzini boshqarishning xalqimiz anʼanalari va qadriyatlariga asoslangan usulidir. Mahalla tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Manbalarda qayd etilishicha, **jez davri** yodgorligi boʻlgan Sopoltepada **sakkizta** oila bir mahalla boʻlib yashagan. Keyinchalik ularning safi patriarxal tizim asosida koʻpayib borgan. Miloddan avvalgi III asrdan milodiy V asrgacha **Parkana** (Fargʻona) davlatida **oqsoqollar** muhin vazifalarni bajarishgan. **Narshaxiy** bundan 1100 yil avval **Buxoroda** bir qancha mahallalar boʻlganligini yozadi. **Amir Temur davlatida** ham mahallalar ravnaq topgan. Alisher Navoiy mahallani *“shahar ichida shaharchadir”* deb taʼriflaydi. Mahalla qadimda boshqaruv hokimiyatining oʻziga xos shakli sifatida faoliyat koʻrsatgan. Hokimiyatni boshqarish esa **jamoatchilik** asosida olib borilgan. Undagi ichki tartib-qoidalar hammaga bir xil tegishli boʻlgan. Mahalla kichik maʼmuriy hudud, yaʼni turmush tarzi, qadriyatlari, anʼanalari va urf-odatlarini umumiy boʻlgan jamoadir. Tarixning turli bosqichlarida davrlar, tuzumlar oʻzgarishi bilan mahallaning vazifalari ham oʻzgarib borgan. Mahallalarni oqsoqollar boshqarishgan. Ular oʻz navbatida **Oliy oqsoqollar kengashi**ga buysunishgan. Oʻzbekiston Respublikasi mustaqil boʻlgandan keyin, Prezidentimiz mahallalarning ravnaqiga katta eʼtibor qaratdilar. Mahalla yoshlarning taʼlim-tarbiyasida muhin oʻrin tutadi. Mahalla har doim kishilarni uyushtirish, oʻzaro hurmat-eʼtiborni shakllantirish maskani boʻlgan.

### Zaruriy sarishtalik

Oʻzbek xalqi dunyo xalqlaridan oʻzining mehnatkashligi hamda mehmondoʻstligi bilan ajralib turadi. Buni xalqimizning yashash tarzi va roʻzgʻor tutish anʼanalarida ham koʻrish mumkin. Oʻzbeklar koʻproq mahalla shaklida yashaganlari uchun tozalik va sarishtalikka alohida eʼtibor berishgan. Sarishta inson avvalo ozoda va toza kiyinadi. Bolalarini ham shunday tarbiyalaydi. Keyin yashash joyining saranjom-sarishtaligiga eʼtibor beradi. Bu holatni har bir kishi uyqudan turgandan boshlashi lozim. Birinchi navbatda yotgan oʻrnini yigʻishtirish kerak. Keyin qiz bolalar hovli-joylarni supurishadi. Oʻgʻil bolalar chorva mollari yotadigan joylarni tozalashadi. Bu esa salomatlikning garovidir. Shahar joylarda tozalik uchun zarur oʻgʻir ishlarni oʻgʻil bolalar, yengil ishlarni qiz bolalar

bajarishadi. O‘zbek xalqi uchun eng toza turishi lozim bo‘lgan joylarga qo‘l yuvish va yuvinish joyi, oshxona, mehmonxona va hojatxonalar kiradi. Boshqa joylar ham ozoda bo‘lishi kerak. Ammo begonalarining ko‘zi tushadigan joylar hamisha pokiza saqlanishi zarur. Hovli va uygan doimo xushbo‘y hid kelsin deb rayhon ekiladi. Ertalab va kechki payt rayhonga suv sepiladi, bu esa xushbo‘y hidning yana-da uzoqroq tarqalishiga olib keladi. Ko‘pchilik kishilar uyda va choyxonada dasturxon chetiga hozirgina uzilgan rayhondan qo‘yadi. Bu ham xonadan iforli hid taralishiga sabab bo‘ladi. Xalqimizdagi saranjom-sarishtalik azal-azaldan qon-qonimizga singib ketgan, urf-odatga aylanib bo‘lgan holatdir. Boylik emas, balki mazkur odatlar odamlar orasidagi farqni ko‘rsatib turadi. Shunga qarab kishining tabaqasini ham bilib olish mumkin.

### VIII. Grammatik terminlar.

**1. Zamon shakllar** harakatning nutq paytiga munosabati bildiradi. O‘zbek tilida zamon shaklning uch turi bor: **1) o‘tgan zamon.** M.: *o‘qidi – o‘qimadi, yozibdi – yozmabdi, chiqqan – chiqmagan.*

**2) hozirgi zamon.** M.: *o‘qiyapti – o‘qimayapti, o‘qiyotir – o‘qimayotir, o‘qimoqda – o‘qimoqda emas, o‘qiyotib – o‘qimayotib.*

**3) kelasi zamon.** M.: *borajakman – bormayajakman, o‘qimoqchi – o‘qimoqchi emas, o‘qirman – o‘qimasman, o‘qiyman – o‘qimayman, yozaman – yozmayman.*

**2. Zidlov bog‘lovchilari** ma‘nolari bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan uyushiq bo‘lak va sodda gaplarni bog‘lash uchun xizmat qiladi. M.: *ammo, lekin, biroq, balki, -u, -yu.*

**Tayanch iboralar:** *ma‘rifatparvar, jurnalist, davlat, jamoat arbobi, arab tili, fors tili, rus tili, gazeta, ona tili, adabiyot, pedagog, o‘quv qo‘llanma, o‘qish kitobi, teatr truppassi, dramatik asarlar, bilim yurti, xotin-qizlar bilim yurti, erlar bilim yurti, harbiy bilim yurt.*



25-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

26-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

27-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Kitob mutolaasi

**I. Nutq tovushiga izoh:** “L” undoshi til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli, yon tovush hisoblanadi.

**Taqqoslang:**

## O‘zbekcha

laqma  
lug‘aviy  
lo‘nda

## ruscha

легковерный  
лексический  
лаконичный

### Tez aytish

Lobar likopchani likillatdi.

### Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!

Lab-bay, lav-la-gi, la-qab, lu-g‘at, la-vo-zim, lo-yi-ha.

## II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:

Lab, labbay, lavlagi, lavozim, lagan, layoqat, lazzat, laylak, laycha, lalmikor, langar, lanj, latifa, latta, lafz, la‘l, laqab, la‘natlamoq, lahza, lahm, lekin, likopcha, loviya, loy, loyiha, lola, lochin, lug‘at, lolaqizg‘aldoq, lavha, laganbardor, larza, lashkar, la‘nat, laqma, libos, lipillamoq, likillamoq, lozar, loaqal, loyiq, lof, loqayd, lunj, luqma, lo‘nda, lo‘ttivoz, lazzatlanmoq, loyqalatmoq, laqillamoq, liqillatmoq.

### Paronimlarni farqlang:

Lahm (мягкость)–lahim (туннель), lor (вдруг, сразу)–lof (преувеличение).

## III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!

- 1) lalmining lolasi;
- 2) langarni likillatmoq;
- 3) libosga loqayd bo‘lmoq;
- 4) latifadan lazzatlandi;
- 5) lof bilan lol qilmoq;
- 6) lazzatli lahza.

## IV. To‘rtliklarni yod oling.

Jahonda kitobdan yaxshi **yor** bo‘lmas,  
Davr g‘amxonasida **g‘amgusor** bo‘lmas.  
Yolg‘izlik kunjida undan har qachon  
Yuz rohat yetar, lek bir **ozor** bo‘lmas.

(Abdurahmon Jomiy)

Jahon bast-u **kushodi** ilm birla,  
Nadur dilning **murodi** ilm birla.  
Ko‘ngillarning **sururi** ilmdandur,  
Ko‘rar ko‘zlarning **nuri** ilmdandur.

(Furqat)

## V. Suhbat.

- Kitob nima?
- Bilimlar targ‘ibotchisi.
- YUNESKO o‘lchamiga ko‘ra kitob?

## VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

### Kitob

Kitob axborotlarni, bilimlarni yig‘ish hamda tarqatish uchun mo‘ljallanga o‘quv qurolidir. Unda ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va estetik qarashlar o‘z aksini topadi. Kitob bilim targ‘ibotchisi hamda tarbiya quroli bo‘lgan badiiy, ilmiy hamda ijtimoiy adabiyot hisoblanadi. Xalqaro stasitikada YUNESKO tavsiyasiga ko‘ra, hajmi 48 sahifadan kam bo‘lmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashrni shartli ravishda **kitob** deyish qabul qilingan. Fan, adabiyot, san‘at asarlaridan matbaada ko‘paytirish va tarqatish uchun tanlash, ularga ilmiy hamda badiiy nuqtai nazardan yondoshish, tahrir qilish, badiiy bezash, matbaa ijrosini belgilash, nashrga tayyorlash **nashriyot**ning vazifasidir. Kitobni ko‘plab chiqarish, ya’ni kitob bosish esa **poligrafiya** sanoatining ishidir. Kitoblarni to‘plash, saqlash, kitobxonlar o‘rtasida tashviqot qilish, ulardan foydalanishlari uchun qulay sharoit yaratish **kutubxonalar** ishi hisoblanadi. Kitob va boshqa bosma asarlar haqida muayyan maqsad bilan o‘quvchilarga ma’lumot berish va ularni targ‘ibot qilish **bibliografiyaning** vazifasidir. Kitobning paydo bo‘lishi yozuvning yaratilishi va shakllanish jarayoni bilan bog‘liqdir. Qadimgi Misr, Turon, Xitoy, Hindiston, Yunoniston va O‘rta Osiyoda odamlar tosh, sopol, yog‘och, teri, shisha, palma daraxti bargi va boshqa materiallarga yozib o‘z fikrlarini bayon qilishgan. Har bir kitob katta hajmli yoki juda og‘ir vaznli bo‘lgan. Papirus o‘simligidan ishlangan o‘rama kitoblarning uzunligi 10 metr atrofida bo‘lib, maxsus charm yoki yog‘och g‘iloflarda saqlangan. Xorazmda miloddan avvalgi 1-ming yillikning 1-yarmida yaratilgan “Avesto” ning nusxasi **qoramol terisiga oltin suvi** yozilgan. 644-645-yillarda ko‘chirilgan “Usmon Qur’oni” **kiyik terisiga** yozilgan. 650-yildan Samarqandda qog‘ozli kitoblar tayyorlana boshlagan. XIII asrda esa Yevropada qog‘ozli kitoblar paydo bo‘lgan (*O‘zME, 4-jild, 2002, 617-619-betlar*).

### Lug‘at

Kitob–книга, axborot–известия, o‘quv qurollari–учебные пособия, ijtimoiy–социальный, siyosiy–политический, ilmiy–научный, qarash–точка зрения, adabiyot–литература, sahifa–страница, ko‘paytirmoq–множить, tarqatmoq–распространять, targ‘ibot–пропаганда, tahrir qilish–редактировать, badiiy–художественный, bezamoq–украшать, matbaa–типография, ijro–исполнение, nashr qilmoq–издавать, nashriyot–издательство, tosh vosma–литография, sopol–глиняный, yog‘och–дерево, teri–кожа, shisha–стекло, qoramol–крупный рогатый скот, kiyik–олень, qog‘oz–бумага.

## VII. Mustaqil ish uchun matnlar.

### **Kamtarlik**

Kamtarlik insonni bezaydigan fazilatdir. Shaxsning yuqori darajadagi madaniyat sohibi ekanligini ko'rsatuvchi xususiyat hisoblanadi. Xalqimizda «*Kamtarga kamol, manmanga zavol*» degan hikmat bor.

### **Kitob bosish**

Bo'yoqni bosma shakldan qog'ozga o'tkazish orqali kitob, jurnal, gazeta va boshqa bosma mahsulotlar tayyorlanadigan ishlab chiqarish jarayoni kitob bosishdir. "Kitob bosish" iborasi bosma kitoblar tarixi haqida fikr yuritilganda ishlatiladi. Zamonaviy kitob bosishda "**polografiya**" termini faol qo'llanadi. O'tmishdagi kitob bosish usuli **ksilografiya** bo'lib, unda butun bir bet yozuv taxtaga o'yib qo'yilgan. XI asrdan boshlab Xitoyda kitobni qo'lda ko'chirishdan boshish usuliga o'tilgan. Bu usul unchalik rivojlanmagan. To'rt yuz yildan so'ng Yevropada **harf terish shrifti** ixtiro qilingan. O'sha davrlarda birdaniga Germaniya, Niderlandiya, Italiya va Fransiyada bosma mashina yaratish ustida ish olib borishgan. Tarixchilar germaniyalik **Iogann Gutenberg** (1399-1468) tomonidan **metall shriftlarni matritsalar**ga qo'yish qurilmasini ixtiro qilganligini yozishgan. Shundan so'ng Yevropaning ko'pgina shaharlarida kitob bosib chiqarila boshlandi. 1464-yilda Rimda birinchi kitob bosish stanogi o'rnatildi. 1470-yilga kelib Fransiya, Niderlandiya, Shveysariya, Ispaniya va Angliyada kitoblar bosila boshlandi. Venetsiya va Nyurnberg kitob bosish ishlari bo'yicha yirik markazga aylandi. 1500-yilga kelib Yevropaning 250 shahrida bosmaxona ochildi. Bosmaxona ishlarining rivojlanishi tufayli kitob umumiy siyosiy hayotda va madaniyatning rivojlanishida muhim o'ringa ega bo'ldi. 1600-yillarda birinchi gazeta, 1650-yillarda birinchi varaqa bosilib chiqdi. Kitob bosishning keyingi rivojlanishiga litografiya (toshbosma, 1798) va tekis bosma mashinasi (1811) ning ixtiro qilinishi sabab bo'ldi. XIX asrning o'rtalari XX asrning boshlariga kelib, kitob boshish korxonalarida linomip, rotatsion, offset bosma mashinalar ishlatila boshlandi. O'zbekistonda bosma usulda kitob bosish XIX asrning 2-yarmida keng tarqaldi. Toshkentda (1868), Xivada (1874) bosmaxonalar tashkil etildi (*O'zME, 4-jild, 2002-yil, 620-betlar*).

### **Karvon yo'llar**

"**Karvon**" forscha so'z bo'lib, uzoq joylarga yuk va odam tashuvchi shaxslar guruhi hisoblanadi. Qator bo'lib ketadigan hayvonlar, aravalar va ularni boshqaruvchi shaxslar kavonni tashkil etadi. Unda o'zaro yordam va xavfsizlikni ta'minlash uchun birga yo'lga chiqqan yo'lovchilar, sayyohlar va elchilar guruhi ham bo'ladi. Karvonni karvonboshi boshqaradi. Karvon yo'llarida agar tekislik 18 km.da, notekis yoki tog'li joylarda har 12 km.da bozor bo'lgan. Yo'lni to'g'ri hisoblash uchun har olti kilometrda katta xarsangtoshlar tashlab chiqilgan. Bu toshlar yo'l ko'rsatkich vazifasini bajargan. Buxoro-Kobul karvon yo'lidagi ana shunday toshlar hozir ham saqlangan. Karvon yo'llarida sardobalar qurilgan.

**Sardoba** (forscha “*sard*” – sovuq, “*ob*” – suv) suv tanqis hududlarda uni yig‘ish va saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuzdir. Sardoba devori silindr shaklida bo‘lib, diametri 12-13 metr, chuqurligi esa 10-15 metrni tashkil etgan hovuzdir. Uning yuzasi yer sathi bilan tekis holda qurilgan. Sardoba gumbazi pishiq g‘isht yoki ganchdan ishlanga. Tepasi tuynukli, atroflarida hovuzga suv tushadigan teshiklari bo‘lgan. Sardobaga kirish uchun eshik o‘rnatilgan. Suvni toza saqlash maqsadida sardoba devor bilan o‘ralgan. Sardobaning yoniga mollarni sug‘orish uchun oxurlar qilingan va unga maxsus tarnov orqali suv oqizilgan. Karvonlar to‘xtab, tunab o‘tadigan joy **saroy** yoki **rabot** deyilgan. Shaharlarda esa **karvonsaroylar** qurilgan. Qaysi karvonsaroyning xizmati yaxshi bo‘lsa, o‘sha joyda karvonlar ko‘p to‘xtagan. Yaqin Sharq, O‘rta Osiyo va Kavkazorti shaharlarida karvonsaroylar serob bo‘lgan. Karvonsaroylarning o‘rtasi hovli, atrofi ikki qavatli hujralar bilan o‘ralgan. Karvonsaroy minorali qal‘a shaklidagi imorat bo‘lib, ulov va yuklarni saqlaydigan maxsus joylari bo‘lgan. IX-XVIII asrlarda savdoning kuchayishi bilan karvon yo‘llari ravnaq topgan.

## VIII. Ish qog‘ozi.

### Kafolat xati

Hurmatli Hasan Abdullaevich!

«Algoritm» zavodi Sizga o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borishingiz uchun barcha sharoitlarni yaratishga va o‘zaro shartnoma asosida haq to‘lashga kafolat beradi.

Zavod direktori	(imzo)	O.N.Vahobov
Bosh hisobchi	(imzo)	R.S.Karimov


(M.Aminov va boshqalar. Ish yuritish. T., 2000, 294-bet).

## IX. Grammatik terminlar.

- Lug‘aviy ma’no** so‘zning tub qismidan anglashiladigan tovushlar bog‘lanishi orqali kishi ongida yuzaga keladigan tushunchadir. M.: “*ko‘z*” (*ko‘rish organi*), “*uy*” (*kishi yashaydigan joy*).
- Lug‘atshunoslik** tilshunoslikning lug‘at tuzish ishlarining ilmiy-nazariy masalalari bilan shug‘ullanuvchi bo‘limdir.
- Lahja** (*dealekt*) bir-biriga yaqin shevalar yig‘indisidir. Hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun **qarluq lahjasi** asos bo‘lgan. O‘zbek tiliga uchta lahja manba bo‘lib xizmat qiladi: 1) **qarluq lahjasi**, asosan shahar shevalarini o‘z ichiga oladi, “**y**” lovchi aholi: *yo‘l*, *yo‘q*, *yur*; 2) **qipchoq lahjasida** so‘zlashuvchilar O‘zbekistonning barcha qishloq va shaharlarida, hamma viloyatlarda bor, “**dj**” lovchi aholi: *djo‘l*, *djo‘q*, *djur*; 3) **o‘g‘uz lahjasida** so‘zlashuvchilar Janubiy Xorazmda ko‘p yashaydi, boshqa viloyatlarda ham bor: “**g**” lovchi aholi: *gal* (*kel*), *get* (*ket*), *galajak* (*kelajak*).
- Lab undoshlari**. Ular ikki xil bo‘ladi: a) **lab-lab** undoshlar: *b*, *p*, *m*, *v* (*o‘zbekcha*); b) **lab-tish** undoshlari: *f*, *v* (*ruscha*).



**Tayanch iboralar:** *kitob, axborot, bilim, yig'ish, tarqatish, o'quv quroli, ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, estetik, sayoz til orqa tovush, ko'rsatish olmoshi, ko'makchilar, harakat nomi, sifatdosh, hokim so'z, yordamchi so'zlar.*



28-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlash.

29-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

30-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.

### **Mavzu: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi**

**I. Nutq tovushlariga izoh:** O'zbek tilida *undoshlarning qo'shaloq* kelishi uchraydi, ularning talaffuziga e'tibor bering.

#### **Tez aytish**

Muallif muttasil mutolaa qildi.

#### **Bo'g'inlarni to'g'ri o'qing!**

Cho'q-qi, til-la, es-siz, chin-ni, ush-shoq, mu-al-lif, til-li.

### **II. So'z birikmalari tuzishni o'rganing!**

- |                           |                       |
|---------------------------|-----------------------|
| 1) mashshoqning chinnisi; | 4) tilladan yasamoq;  |
| 2) chinnini pullamoq;     | 5) darra bilan urmoq; |
| 3) cho'qqiga yo'llamoq;   | 6) qorli cho'qqi.     |

#### **Taqqoslang:**

- |   |  |
|---|--|
| 1) qattiq-твёрдый<br>qatiq-кислое молоко    | 2) essiz-глупый<br>esiz-жаль           |
| 3) chinni-фарфор<br>chini-правда            | 4) mashshoq-музыкант<br>mashoq-колосья |
| 4) ushshoq-название мелодий<br>ushoq-крошка | 6) darra-ременная плет<br>dara-ущеле   |
| 7) tilla-золото<br>tila-проси               | 8) cho'qqi-вершина<br>cho'qi-клюй      |
| 9) tilli-язычный<br>tili-его язык           | 10) nonning-хлеба<br>noning-твой хлеб  |

11) yo‘lamoq-направлять  
yo‘lamoq-приближаться

12) kurra-шар  
kura-сгребти

### III. To‘rtliklarni yod oling.

“**Muhabbatnoma**” so‘zun munda **ayttim**,  
Qamug‘un Sir yoqosinda **bittim**.  
Bu daftarkim, bo‘lubtur Misr qandi,  
**Yetti** yuz **elli** to‘rt ichra tugandi.

(*Xorazmiy*)

Ko‘nglim mening **yetti** iqlimga –  
Solmoq istar dovruq-**davvora**.  
Aqlim derki, ostona hatlab,  
**Yetti** qadam otolsang zora!

(*Omon Matjon*)

### II. Suhbat.

- Toshkentda nechta yirik kutubxona bor?
- Uchta kutubxona bor?
- Eng qadimiysi qaysi?
- Milliy kutubxona.

### III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

#### Kutubxonalar

Toshkent shahrida uchta yirik kutubxona bor. Birinchisi *Alisher Navoiy nomidagi O‘zR Milliy davlat kutubxonasi* 1870-yilda tashkil etilgan va turli nomlar bilan atalgan. 1919-yilda “*Xalq kutubxonasi*” deb nomlangan. 1948-yilda ushu kutubxonaga Alisher Navoiy nomi berilgan. Kutubxonadagi nodir kitoblar fondida 591 jildli «Turkiston to‘plami» mavjud bo‘lib, unda Turkiston va qo‘shni Sharq mamlakatlari to‘g‘risidagi bosma materiallar yig‘ilgan. Kutubxona fondida 1912-yilda 80 ming jild kitob bo‘lgan. Kitoblar soni 1940-yilda 1 mln. 200 ming nusxaga yetgan. 1970-yilga kelib kutubxona fondida 3 mln. 752 ming nusxa kitob mavjud bo‘lgan. Navoiy nomidagi milliy kutubxona jahondagi 185 muassasa bilan kitob ayirbosh qilgan. Mustaqillikdan keyin kutubxona qayta qurilib, zamonaviy texnik uskunalar bilan jihozlandi. Ikkinchi *O‘zbekiston Respublikasi FAsining Asosiy kutubxonasi* bo‘lib, 1933-yilda tashkil etilgan. 1943-yildan ana shu nom bilan atala boshlagan. 1979-yilda kutubxona fondida 2 mln. dan ziyod asar bo‘lgan. Kutubxona fondi har yili 60-70 ming kitob va davriy nashrlar bilan boyib borgan. Mazkur kutubxona 40 mamlakatning 300 muassasasi bilan kitob ayirbosh qiladi. Uchunchisi *O‘zbekiston Respublikasi FAsi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti kutubxonasining* fondida 80 mingga yaqin alohida asarlarni o‘zida jamlagan 25 mingdan ziyod qo‘lyozma asarlar to‘plami mavjud. Ular X va XX asrning boshlariga oid bo‘lib, turkiy, forsiy

va arabiy tillarida yozilgan. Shuningdek mualliflar hayotligida o'z qo'llari bilan yozgan qo'lyozma dastxatlar ham bor. Kutubxonada Sharq mutafakkirlarining badiiy va ilmiy asarlari, O'rta Osiyo xonliklariga tegishli bir qancha ming nusxadagi hujjatlar, yorliqlar va vaqf qog'ozlari ham saqlanadi (*O'zME, 5-jild, 2003-yil, 150-151-betlar*).

### Lug'at

Yirik–крупный, kutubxona–библиотека, milliy–национальный, nodir–редкий, to'plam–сборник, qo'shni–сосед, bosma–печатный, jild–том, nusxa–образец, muassasa–учреждение, ayirbosh qilmoq–менять, zamonaviy–современный, jihozlamoq–оборудовать, davriy nashr–издание, qo'lyozma–рукопись, muallif–автор, hujjat–документ, yorliq–ярлык, vaqf–вакуф, qog'oz–бумага, грамота, dastxat–автограф, badiiy–художественный, ilmiy–научный, xalq–народ.

## IV. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Kutubxona katalogi

Bir yoki bir necha kutubxona fondida mavjud kitoblar, hujjatlarning tarkibi va mazmunini ochib beruvchi bibliografik yozular ro'yxati kutubxona katalogidir. Mazkur katalog kartochkali yoki kompyuter yozuvlari shaklida bo'ladi. Ular elektron disklar yoki kitob holida ko'paytirilib saqlanishi mumkin. Ushbu katalog kutubxona fondini to'la yoritish, kitobxonlarning osonlik bilan kitob tanlashlariga yordam berish, kitobxonlarga turli bilimlarni singdirish hamda ularni ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Kutubxona katalogining bir necha turlari bor: 1) **alifboli katalog** barcha kutubxonlardagi majburiy kataloglardan biri, unda asarlar muallifining nomi, nasabi, ismi-sharifi, asarlarning sarlavhalari alifbo tartibida beriladi; 2) **sistemali katalog** asarlar mazmuniga asoslanib fan tarmoqlari bo'yicha guruhlanadi. Unda kitoblar mantiqiy bo'linish tartibida (umumiydan xususiyga qarab) – ilmiy fanlar, bo'limlar bo'linmalar va hokazolar bo'yicha joylashtiriladi. Ushbu katalogda kitob mazmunini ochib berish bilan birga, uning tarmoq bo'linishlarini ham hisobga oladi va ko'pgina fanlarni bir tarmoq nuqtai nazardan bir joyga to'plash imkoniyatini yaratadi. Bu katalog maxsus ishlangan tayyor jadval asosida tashkil qilindi; 3) **predmetli kutubxona katalogi**da asarlarda bayon qilingan voqea-hodisalar, tushunchalar sohalar bo'yicha emas, balki alifbo tartibida joylashtiriladi. Materiallarni alohida guruhlanishi bilan sistemali kutubxona katalogidan farq qiladi. Respublika, o'lka, viloyat kutubxonalarida adabiyotlar va shu joylar bilan bog'liq materiallar bo'yicha kutubxona katalogi tuziladi. Bunday kataloglar **o'lkashunoslik katalogi**, **mahalliy matbuot katalogi** deyiladi (*O'zME, 5-jild, 2003, 152-bet*).

### Ilk kutubxonalar

Yozuvning paydo bo'lishi va hujjatli manbalar, qo'lyozmalar, bosma kitoblarning ko'payishi bilan kutubxonalarining yuzaga keldi. Miloddan avvalgi 2-ming yillikda sopol bitiklar saqlanadigan kutubxonalar, miloddan avvalgi 7-asr


o'rtalarida Misr, Rim ibodatxonalar qoshida kutubxonalar ochilgan. Kutubxonalardan eng mashhuri Iskandariya (Aleksandriya) kutubxonasi. G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlarda monastir va ibodatxonalar qoshida kutubxonalar tashkil etilgan. Kitob bosishning ixtiro qilinishi bilan Sarbonna, Geydelberg universitetlari kutubxonalari, Vatikan kutubxonasi, Parej Qirollik kutubxonalari yuzaga keldi. O'zbekiston hududida miloddan avvalgi 1-ming yilliklarning so'nggi asrlarida dastlabki kutubxonalar hukmdorlar saroylarida va ibodatxonalarda tashkil etilgan. Turon xalqlari Misr, Eron, Yunon va boshqa xalqlar bilan yaqin aloqada bo'lishgan. Beruniyning xabar berishicha, kitob xazinalari istilochilar tomonidan yo'q qilingan (VII-IX asrlar). IX-X asrlarda O'rta Osiyoda fan va madaniyat rivojlandi. Buxoro, Samardand, Marv, Urganch va boshqa yirik shaharlar saroyida kutubxonalar barpo etildi. Eng yirigi Somoniylarning saroy kutubxonasi bo'lgan. Marv shahrining o'zida 10 ta kutubxona bo'lgan. XIII asrda Buxoro, Samardand, Balx, Farg'ona va boshqa shaharlardagi olimlar to'planadigan joylarda yirik kutubxonalar ochilgan. XIV asrning 2-yarmida O'rta Osiyoda yirik kutubxonalar yuzaga keldi. XIV asrning oxirida Shayx Muhammad Porso ochgan vaqf kutubxonasi XIX asrning 40-yillarigacha faoliyat ko'rsatdi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Qarshi va boshqa shaharlardagi hukmdor saroyida va madrasalar qoshida kutubxonalar bo'lgan. Bundan tashqari Beruniy, Ibn Sino, Firdavsiy, Zamaxshariy, Umar Xayyom, Jomiy, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy kabilarning shaxsiy kutubxonalari bo'lgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida uchta yirik shaxsiy kutubxona bo'lgan, bulardan qozi Muhammad Sharif Sadr Ziyoning kutubxonasi bizgach to'liq saqlangan.

### **Ifoda kitobi**

Jangnoma epik janr hisoblanadi. Bunda tarixiy va afsonaviy janglar, ayrim shaxslar ko'rsatgan mardlik, qahramonliklar mubolag'ali, shuningdek, ko'tarinki ruh bilan bayon qilinadi. Mustaqil janr sifatida u qadimgi qahramonlik dostonlari ta'sirida shakllangan. Jangnomalarda qahramonlarning kuch-qudrati, qurol-yarog'lari, jangu jasorati g'oyat bo'rttirib tasvirlanadi. Jangnomalar nasriy va she'riy shakllarda bo'lishi mumkin. Ko'pgina jangnomalar nasrda yozilib, ba'zan asar tarkibiga she'riy parchalar kiritilgan. O'zbek xalqining madaniy hayotida jangnomaxonlik an'anasi keng o'rin tutgan. Chunki bunday asarlarning yaxshi namunalari kishilarni yurtparvarlik, qahramonlik va elga fidoyilik kabi yuksak g'oyalarni ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi (*O'z ME, 3-jild, 550-bet*).

**Tayanch iboralar:** *kutubxona, qo'lyozma, dastxat, davriy nashr, hujjatli manba, sopol bitiklar, hukmdor kutubxonasi, madrasa kutubxonasi, saroy kutubxonasi, vaqf kutubxonasi, ibodatxona kutubxonasi, universitet kutubxonasi, Qirollik kutubxonasi.*

## Asosiy soʻzlar



31-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

32-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qoʻllash.

33-mashq. Atoqli otlar topish boʻyicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Adabiyot – maʼnaviyatni yuksaltiruvchi manba

**I. Nutq tovushiga izoh:** “A” tovushi lablanmagan, til oldi, quyi-keng, qisqa unli hisoblanadi.

#### Taqqoslang:

Oʻzbekcha	Ruscha
alvon	альй
alifbo	алфавит
anbar	амбра
atlas	атлас
aha	ага

#### Tez aytish

Ayiq asal yaladi, asalari ayiqni taladi.

#### Boʻgʻinlarni toʻgʻri oʻqing!

A-ka, a-ziz, ayt-moq, a-nor, al-la, a-ri-za, a-yiq, ay-la-na.

### II. Zaruriy soʻzlarni koʻchirib yozing va tarjima qiling:

Aziz, aloqa, asal, aka, aytmoq, avlod, anglamoq, agar, artmoq, archmoq, anjuman, anor, abadiy, abira, ablah, avaylamoq, avval, avramoq, adabiyot, adashmoq, adir, ayoz, ajablanmoq, ajoyib, ajratmoq, aza, azob, ayb, ayyor, aylana, alam, alanga, aldamoq, alla, allakim, amaki, anjir, aniqlamoq, arazlamoq, ariza, arra, asta, ayamoq, ahdlashmoq, abadiylashtirmoq, azoblanmoq, ayblamoq, aylanmoq, aksirmoq, alanglamoq, almashtirmoq, aralashmoq, asoslamoq, asramoq, afsuslanmoq, achinmoq.

#### Paronimlarni farqlang:

*Abzal* (вещь) – *afzal* (лучше), *adib* (писатель) – *adip* (обшивка), *azm* (намерение) – *azim* (огромный), *amr* (приказ) – *amir* (военачальник), *amma* (тётя со стороны отца) – *ammo* (но), *artmoq* (вытирать) – *archmoq* (очищать), *asl* (основа) – *asil* (настоящий), *ahil* (дружный) – *ahl* (круг людей).

### III. Soʻz birikmalari tuzishni oʻrganing!

- |                             |                                |
|-----------------------------|--------------------------------|
| 1) ammam <b>ning</b> asali; | 4) adirda adashmoq;            |
| 2) anorni archmoq;          | 5) akasi <b>uchun</b> asramoq; |
| 3) anjumanga aytmoq;        | 6) achchiq anor.               |

#### IV. To‘rtlikni yod oling.

Aziz asrimizning aziz onlari,  
Aziz odamlardan so‘raydi **qadrin**.  
Fursat g‘animatdir, shoh satrlar-la  
Bezamoq chog‘idir umr **daftarin**.

(G‘afur G‘ulom)

Aqlga ilm birla bergil **ko‘mak**,  
Aql – bu ilmga xaridor **demak**.  
Aqlning oltindan ortig‘i **bordir**,  
Odam oltinsiz doimo **hushyordir**.

(Xisrav Dehlaviy)

#### V. Suhbat.

- Adabiyot so‘zining ma’nosi?
- Odoblar yig‘indisi.
- U nimani o‘zganadi?
- Inson ruhiyatini.

#### VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

##### Adabiyot

Arabcha “adab” so‘zining ko‘pligi “adabiyot” bo‘lib, “odoblar yig‘indisi” ma’nosini bildiradi. Ikki xil ifodani aks ettiradi: 1) asarlar to‘plami; 2) san‘atning bir turi. Adabiyot avval og‘zaki shaklda, yozuv paydo bo‘lgandan so‘ng yozma shaklda ravnaq topgan. Adabiyot so‘z orqali insonning ruhiyatini, his-tuyg‘ularini keng va chuqur aks ettiruvchi san‘at turidir. Badiiy adabiyot uchga bo‘linadi: *lirik* (tizma), *epik* (sochma), *dramatik* (harakatli). Bundan tashqari *liro-epik* (qorishiq) tur ham mavjud. Har qanday adabiyot milliydir, shuning uchun o‘sha xalq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalqning hayotidagi va ruhiyatidagi o‘zligi milliy adabiyotning mazmunni tashkil etadi hamda o‘ziga xos milliy shaklni yuzaga keltiradi. Bu shaklning yuzaga kelishida xalq tomonidan uzoq davr mobaynida yig‘ilgan tajriba va an‘analar muhim ahamiyatga ega. O‘zbek milliy romanchilik maktabini Abdulla Qodiriy yaratib bergan. Xalq hayotidagi yangi davr esa adabiyotni yuqori bosqichga ko‘tardi va uning mazmunini yangilaydi. Yangilangan adabiyot esa o‘sha jamiyatning qudratli quroliga aylandi. Milliy mustaqillik o‘zbek adabiyotining barcha jabhalarida o‘z aksini topmoqda. Bu davr adabiyotida tasvirlanayotgan inson o‘zining bashariyat, vatan va el-yurt oldidagi mas‘uliyatini chuqur his etishi kerak. Bu adabiyotning jozibasi zohirda emas,

botinda – matn zamirida joylashgan. Adabiyot xalq ma'naviyatini yuzaga chiqaruvchi asosiy manba hisoblanadi (*O'zME, 1-jild, 2000-yil, 120-bet*).

### Lug'at

Adab-вежливость, ko'plik-множественное число, ma'no-sмысл, qo'llamoq-употреблять, asar-произведение, to'plam-сборник, san'at-искусство, og'zaki-устный, yozma-письменный, ruhiyat-душа, his-чувство, keng-широкий, chuqur-глубокий, tur-вид, madaniyat-культура, hisoblamoq-считать, tajriba-опыт, an'ana-традиция, yuqori-высокий, bosqich-ступень, mazmun-смысл, yangilamoq-заменять, jamiyat-общество, bashariyat-человечество, zohir-внешний, botin-внутренний

## VII. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Adabiy asar

Roman (fransuzcha “roman” – adabiy asar) insonning xususiy yashash tarzini jamiyat hayoti bilan bog'lab tasvirlovchi yirik nasriy asardir. Romanlar nasriy va she'riy shaklda bo'lishi mumkin. Romanlar daslabki davrda tuzilishiga ko'ra ikkiga ajratilgan: 1) **ochiq tuzilishli romanlar**. M.: *Servantesning “Don Kixot” romani*; 2) **yopiq tuzilishli romanlar**. M.: M. M. de Lafayetning “Malika Klevskaya” romani. Birinchi mukammal shakldagi roman yozuvchi Antuan Prevoning “Kavaler de Grie va Manon Lesko tarixi” (“Manon Lesko”) tarixiy asari bo'lib, 1731-yilda Angliyada nashr etilgan. Romanlar mavzusiga quyidagi turlarga bo'linadi: 1) tarixiy roman. M.: *Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari*; 2) zamonaviy roman. M.: *Pirimqul Qodirovning “Olmos kamar”, Odil Yoqubovning “Diyonat”, O'ktam Usmonovning “Girdob” romanlari*; 3) harbiy roman. M.: *Oybekning “Quyosh qoraymas”, Shuhratning “Shinelli yillar” romanlari*; 4) sarguzasht-fantastik roman. M.: *Xudoyberdi To'xtaboyevning “Sariq devni minib” romani*; 5) ijtimoiy-falsafiy roman. M.: *Asqad Muxtorning “Davr mening taqdirimda”*; 6) tarixiy-biografik va siyosiy romanlar o'zbek adabiyotida yaqinda paydo bo'la boshladi. M.: *Tog'ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani*. Romanlar davomiyligiga ko'ra beshga bo'linadi: 1) dialogiya (ikki kitobdan iborat) M.: *Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” va “Avlodlar dovoni” dialogiyasi*; 2) trilogiya (uch kitobdan iborat). M.: *Yanning “Chingizxon”, “Botu”, “So'nggi dengizgacha, Said Ahmadning “Ufq” (“Qirq besh kun”, “Hijron kunlarida”, “Ufq bo'sag'asida”) trilogiyalari*; 3) tetrologiya (to'rt kitobdan iborat). M.: *V.Kataevning “Qora dengiz to'lqinlari”*; 4) pentalogiya (besh kitobdan iborat). M.: *Tohir Malikning “Shaytanat”, g'arb va sharq yozuvchilarining romanlari*; 5) roman-epopeya. M.: *Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik”, Oybekning “Navoiy”, Sadridin Ayniyning “Qullar” epopeyalari*; 6) davomli romanlar turkumi. M.: *Roji Martin Dyu Garning “Tibo oilasi” (8 jild), Romen Rollanning “Jan Kristoff” (10 jild)*. Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanini yozib milliy romanchiligimizga asos soldi. (*O'zME, 7-jild, 2004-yil, 350-351-betlar*).

## **Abdulla Qodiriy**

*«Dunyoda beshta, ya'ni fransuz, rus, ingliz, nemis va hind romanchilik maktablari bor edi. Abdulla Qodiriy oltinchi maktab – o'zbek romanchilik maktabini yaratdi...»* (Y.E.Bertels).

Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894-yilning 10-aprelida Toshkent shahrida bog'bon oilasida dunyoga kelgan. Avval mahalliy maktabda, keyin rus-tuzem maktabida o'qigan. Qodiriy dastlab sho'ro idoralarida kotiblik qilgan. 1925–1926-yillarda Moskvadagi Adabiyot institutida o'qigan. Keyinchalik «Oziq ishlari», «Mushtum» jurnallarida muharrir bo'lib ishlagan. Ijodini kichik hikoyalar, feleton va hajviy hikoyalar yozish bilan boshlagan. Uning yirik badiiy asarlari: «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» tarixiy romanlari va «Obid ketmon» qissasi. Abdulla Qodiriy yozuvchi, jurnalist va tarjimondir. Abdulla Qodiriy N.V.Gogolning «Revizor» komediyasini, A.P.Chexovning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Yozuvchi «Amir Umarxonning kanizi» romanini yozib tugatgan, ammo bu roman qatag'on davrida yo'qolgan. U, shuningdek, Nomoz polvon haqida asar yozish uchun material to'plaganligini yozgan. Abdulla Qodiriyning asarlari ingliz, nemis, fransuz, arab, uyg'ur, rus va boshqa tillarga tarjima qilingan. Abdulla Qodiriy 1938-yilning 4-oktyabrida «millatchi», «xalq dushmani» tamg'alari bilan otilgan (*O'zME, 1-jild, 21-26-betlar*).

## **Alloma zot**

Muslihiddin Abu Muhammad Abdulloh ibn Mushrifiddin Sa'diy Sheroziy 1203/1210-yilda Sherozda tug'ilgan. Otasidan yosh yetim qolgan. Boshlang'ich ma'lumotni Sherozda olgan. Keyin Bag'dodda o'qigan. U yerda «Nizomiya» va «Mustansiriya» madrasalarida diniy hamda dunyoviy fanlarni o'rgangan. Shuningdek, mutasavvuf olim Shahobiddin Suhravardiy va ilohiyotshunos olim Jazviy qo'lida tahsil olgan. So'ngra 20 yil sayohat qilgan. Kichik Osiyo, Misr, Xuroson va Hindistonga borgan. XIII asrning o'rtalarida Sherozga qaytib kelgan. Tarkidunyo qilib, shayx Abu Abdulloh Hafif xonaqosida faqirona hayot kechirgan. Sa'diy Sheroziy buyuk fors shoiri, adib va mutafakkiridir. U «Bo'ston» (1257), «Guliston» (1258) asarlarini yozgan. Sa'diy g'azalchilikni yuqori darajaga ko'targan. Uning g'azallari to'rt devonga jamlangan: «Tayyibot» («Latif g'azallar»), «Badoe'» («Yangi g'azallar»), «Xavotim» («Xotima g'azallar»), «G'azaliyoti qadim» («Eski g'azallar»). Bundan tashqari, shoirning «Sohibiya» asari, arabcha va forsha qasidalari, qit'a, ruboiy va fardlari ham bor. BMT ning Tinchlik Kengashi binosi peshtoqiga Sa'diyning quyidagi bayti yozilgan: "*Odam bolalari ibtidoda bir gavhardan bino bo'lganlari tufayli yaxlit bir vujud kabitdirlar. Binobarin, zamon uning bir a'zosiga jarohat yetkazsa, boshqa a'zolari ham o'z tinchini yo'qotadi*". Sa'diy Sheroziy 1292-yilning 9-dekabrida vafot etgan. Uning asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan (*O'zME, 7-jild, 2004-yil, 545-bet*).



## Amerika Qo'shma Shtatlari

AQSH – Shimoliy Amerikadagi davlat. Sharqdan Atlantika okeani, g'arbdan Tinch okean, janubi-sharqdan Meksika qo'ltig'i bilan o'ralgan. Ma'muriy-hududiy jihatdan 50 shtat va Kolumbiya federal okrugiga bo'lingan. Alyaska va Gavayi shtatlari mamlakat hududidan tashqarida joylashgan. Puerto-Riko Hamdo'stligi, Shimoliy Mariana orollari Hamdo'stligi, Guam, Virginiya orollari, Sharqiy Samoa ham AQSh ga qarashli. Maydoni 9373000 km<sup>2</sup>, aholisi 271,6 mln. kishi (1999-yil). Poytaxti – Vashington shahri. Davlat tuzumi – federal respublika. Davlat va hukumat boshlig'i, qurolli kuchlar bosh qo'mondoni – prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni senat va vakillar palatasidan iborat ikki palatali kongress amalga oshiradi. Ijrochi hokimiyat organi – AQSh hukumati prezident tomonidan senatning roziligi bilan tayinlanadi. Alyaska tizmasida AQSh ning eng baland cho'qqisi Mak-Kinli (6194 metr) joylashgan. Aholisi uch etnik tarkibdan iborat: AQSh amerikaliklari, muhojirlar va tub joy aholisi. Aholining 82,8 foizini yevropaliklar, 12,6 foizini afrikaliklar, 3,6 foizini osiyoliklar, 1 foizini indeyslar, eskimoslar, aleutlar tashkil qiladi. Dindorlari asosan protestantlar va katoliklardir. Yirik shaharlari: Nyu-York, Chikago, Los-Anjeles, Filadelfiya, Xyuston, Detroyt, San-Fransisko, Vashington, Boston, Dallas, Klivlend, Baltimor. AQSH 1945-yildan BMT ning a'zosi. O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarni 1992-yilning 12-fevralida o'rnatgan (*O'z ME, 1-jild, 261-268 betlar*).

### VIII. Ish qog'ozi.

*Toshkent davlat*

*pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim*

*metodikasi fakultetining dekani M.O.Odilovga*

*2-kurs talabasi Sobir Mahmudovdan*

### ARIZA

Kasalligim tufayli qishki imtihon va sinovlarni vaqtida topshira olmadim. Ana shu imtihon va sinovlarni topshirishga ruxsat berishingizni so'rayman.

Arizamga kasalligim haqidagi vrach ma'lumotnomasi ilova qilindi.

2000. 20. 02. (imzo)

S.Mahmudov

(*M. Aminov va boshqalar. Ish yuritish. T., 2000, 115-bet*).

### VIII. Grammatik terminlar.

**1. Adabiy til** umumxalq tilining ishlangan, sayqallashtirilgan, ma'lum me'yorga solingan ko'rinishdir. Adabiy tilning ikki shakli bor: a) yozma shakl; b) og'zaki shakl.

**2. Atoqli otlar** biror shaxs, narsa, hayvon yoki joyga atab qo'yilgan nomlardir. M.: O'zbekiston Respublikasi, Abdulla Qodiriy, BMT, Orol dengizi, Qashqadaryo, "Ishonch" gazetasi, "Navro'z" bayrami, *Boychibor* (yilqiga atab qo'yilgan nom), "Olapar" (itga atab qo'yilgan nom).

**3. Atama** (*termin*) ilm-fan, texnika va san'atga oid bir ma'noli sozlardir. M.: ona tilidagi "ega", "kecim", "aniqlovchi", "to'ldiruvchi", "hol".

**4. Afrika tillari oilasi.** 1) bantu tillari guruhi: *bube, lundu, fang, kongo, rundi, ganda, poto, igala, luba, bemba, subiyya, suaxili, sanga, shambala, zulu, soto, venda, lunda.* 2) sudan tillari guruhi: *zanda, banda, koma, kunama, kardofan, mil'tu.*


**5. Avstraliya tillari oilasi:** aranta va boshqa tillar.

**Tayanch iboralar:** *adab, adabiyot, odoblar yig'indisi, asarlar to'plami, san'at turi, lirik (tizma), epik (sochma), dramatik (harakatli), liro-epik (qorishiq), lablangan, quyi keng, unli, adabiy til, yozma shakl, og'zaki shakl, atoqli ot.*

34-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

35-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

36-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.



**Mavzu: Ommaviy axborot vositalari**

**I. Nutq tovushiga izoh:** "O" tovushi oraliq, til orqa, quyi keng, cho'ziq unli hisoblanadi.

**Taqqoslang:**

<b>O'zbekcha</b>	<b>Ruscha</b>
ona (мат)	она (u)
son (число)	сон (tush)
os (повес)	ось (o'q)
pora (взятка)	пора (vaqt)
tom (криша)	том (jild)
kon (шахта)	конь (ot)
on (момент)	он (u)
tort (туани)	торт (shirinlik)

**Tez aytish**

Oq choynakka oq qopqoq,  
Ko'k choynakka ko'k qopqoq.

**Bo'g'inlarni to'g'ri o'qing!**

O-na, o-ta, o-pa, o-g'a, oi-la, o-voz, os-mon, oq-la-moq.

## II. Zaruriy soʻzlarni koʻchirib yozing va tarjima qiling:

Ovoz, obod, obroʻ, ovlamoq, ovora boʻlmoq, ovutmoq, odat, oddiy, odil, oz, ozaymoq, ozoda, oy, ozgʻin, olachipor, oldin, olifta, olov, oltin, oltmish, olxoʻri, olcha, omad, omonat, oriyat, osmon, obodonlashtirmoq, ovunmoq, ogohlantirmoq, ozmoq, olqishlamoq, ommalashmoq, ortmoq, osonlashmoq, oqarmoq, oqlamoq.

### Paronimlarni farqlang:

*Omin* (аминь) – *amin* (уверенный), *olam* (мир) – *alam* (страдание), *ona* (мать) – *ana* (вот), *oraz* (лицо) – *araz* (обида), *oxir* (конец) – *axir* (наконец), *ora* (расстояние) – *oro* (косметика), *oxir* (конец) – *oxur* (кормушка).

## III. Soʻz birikmalari tuzishni oʻrganing!

- |                           |                         |
|---------------------------|-------------------------|
| 1) opamning oilasi        | 4) otasi bilan ovlamoq; |
| 2) olmani olmoq;          | 5) oq olma;             |
| 3) oshxonada ovqatlanmoq; | 6) oltindan olmoq.      |

## IV. Toʻrtliklarni yod oling.

Ota pandiga sen tugal qil **amal**,  
Qut kelib, toleying kular har **mahal**,  
Otangni, onangni sevintir mudom,  
Bu xizmat yetirgay tilakka **tugal**.

(*Yusuf Xos Hojib*)

Oh tortgan chogʻingda yoʻlga koʻz **tutgil**,  
Yoʻlda quduq bordir, ehtiyoting **qil**,  
Doʻst uyida mahram boʻlgan chogʻingda,  
Qoʻlingni, koʻzingni, dilni tiya **bil**.

(*Pahlavon Mahmud*)

## V. Suhbat.

- Axborot vositalari nimalar?
- Radio, televidenie, gazeta va jurnallar.
- Ularning vazifasi?
- Axborot tarqatish.

## VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

### Ommaviy axborot vositalaridan biri

Ommaviy axborot vositalariga kabel tizimi, radio, televidenie, gazeta va jurnallar kiradi. Televidenie – fan, texnika va madaniyatning koʻrinadigan axborotlar (harakatlanuvchi tasvirlar) ni radioelektron vositalar yordamida muayyan masofaga uzatish bilan bogʻliq sohasi; axborotlarni tarqatish vositalaridan biri. Insoniyat oʻzi yashab turgan joydan uzoqdagi narsalar va voqealarni koʻrish

istagi bilan hamisha band bo‘lib kelgan. Bu istak ko‘p xalqlarning afsona va ertaklarda o‘z aksini topgan. M.: Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida bu istakni badiiy shaklda aks ettirgan (“*sehrli ko‘zgu*”, ya’ni “*oynai jahon*”). Keyinchalik bu orzu elektronikaga aylandi. Televideniya tasvir elementlarini ketma-ket uzatish XIX asrning oxirida alohida mustaqil holda portugol olimi A di Payva va rus olimi P.I.Baxmetov tomonidan amalga oshirildi. XX asrning 30-yillariga qadar tasvirlarni analiz va sintez qilishda **optik-mexanik** (nemis muhandisi P.G.Nipkov, 1884-yil) qurilmalardan foydalanilgan. 30-yillarning o‘rtalaridan elektron televidenie tizimi paydo bo‘ldi. Televidenie taraqqiyotida ichki fotoeffekt (amerikalik olim U.Smit, 1873) va tashqi fotoeffekt (A.G.Stoletov, 1888) qonunlarining kashf etilishi muhim hisoblanadi. Undan so‘ng radio aloqaning (A.S.Popov, 1895) kashf qilinishi, “katod teleskop” tizimini ishlab chiqqan (B.L.Rozing, 1907) va bu tizim bo‘yicha laboratoriya sharoitida birinchi marta elektron television uzatish (B.L.Rozing, 1907) amalga oshirildi. O‘zbekistonlik ixtirochilar (B.P.Grabobckiy, I.F.Belyanskiy, 1928) elektron-nur yordamida harakatdagi tasvirni bir joydan ikkinchi joyga uzatadigan va qabul qiladigan “radiotelefon” yaratdilar. Hozir O‘zbekiston teleko‘rsatuvlarini eferga uzatish eng zamonaviy texnik vositalar asosida olib borilmoqda (*O‘zME, 8-jild, 2004-yil, 338-339-betlar*).

### Lug‘at

Ommaviy–всеобщий, axborot–информация, vosita–средство, harakatlanmoq–двигаться, tasvir–изображение, masofa–расстояние, uzatmoq–подавать, uzoq–далеко, narsa–вещь, voqea–событие, sehrli–таинственный, ko‘zgu–зеркало, oynai jahon–волшебное зеркало, uzatmoq–передать, taraqqiyot–прогресс, ichki–внутренний, qonun–закон, kashf etmoq–изобретать, tashqi–внешний, tizim–связка, qabul qilmoq–принимать.

## IV. Mustaqil ta’lim uchun matnlar.

### Ohanglar jilosi

O‘zbek musiqasining tarixi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. “*Avesto*”dagi ma’lumotlar, *Ayritom* piramonidagi sozandalar surati, *Panjakent* devoriy rasmlaridagi sahnalar, *Afrosiyob* va *Dalvarzintepa* hududlaridan topilgan yodgorliklar buni tasdiqlaydi. Shuningdek **yunon tarixchilarining** asarlarida ham qimmatli ma’lumotlar berilgan. O‘zbek xalqi e’zozlab hozirgi kunga qadar saqlab kelayotgan **dostonchilik** an’analari, “**Navro‘z**”, “**Lola**”, “**Hosil**” bayramlari, turli mehnat va marosim qo‘shiqlari o‘zbek musiqiy san’atining naqadar boy bo‘lganligini tasdiqlaydi. Xalqimizning serqatlam musiqa merosi ikki turdan iborat. Bular: **oddiy** xalq og‘zaki ijodi musiqa ohanglari va **murakkab** mumtoz musiqa ohanglariga bo‘linadi. Hozirgi kunga kelib an’anaviy o‘zbek ijrochiligining quyidagi **yo‘nalishlari** aniqlangan: Farg‘ona – Toshkent, Buxoro – Samarqand, Surxondaryo – Qashqadaryo va Xorazm. Asl o‘zbekona turmush tarzi **ona allasidan marsiyagacha** bo‘lgan musiqaviy jarayonlarda o‘z aksini topadi.

Musiqaning tarixiy, nazariy, estetik, etik va boshqa asoslari *Muso Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Al-Husayniy, Najmiddin Kavkabi, Darvishali Changiy, Vojid Alixonlarning* asarlarida keng yoritilgan. Shashmaqom, ya'ni maqomlar turkumi esa **milliy** hamda **mintaqviy** musiqa an'alarining qomusiy mahsulidir. Mustaqillik yillarida oilavi, folklor-etnografik ansambllar, to'y-marosim qo'shiqlari, katta ashula, baxshi-shoirilar va maqom ijrochiligi bo'yicha turli **tanlovlar** tashkil etildi. Shuningdek "Alla" (1991), "Sharq taronalari" (1997, Samarqand), Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov (1997, Marg'ilon), Xojiabdulaziz Abdurasulov (1997, Samarqand), Komiljon Otaniyozov (2001, Urganch) nomidagi tanlovlar, "Boysun bahori" festivali muntazam o'tkazilib kelmoqda.

### **Oila**

Oila nikohga yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruhdir. Uning a'zolari ro'zg'or birligi, o'zaro yordam va ma'naviy mas'uliyat bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari inson zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalashdir. Shuningdek hamda oila a'zolarining turmush sharoitini yaxshilash bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iborat. Har bir jamiyat o'ziga xos oila munosabatlarini o'rnatadi. Oila xalqning, jamiyatning hayoti va turmushiga oid urf-odatlarini sinovdan o'tkazadi. Yazshilarini o'z bag'rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila farzadlarni tarbiyalab, umuminsoniy qadriyatlarni singdiradi. Ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. Farzandlarni jamiyatga qo'shish bilan esa jamiyat yo'nalishini, iqtisodiyotini, madaniyatini hamda ma'rifatini belgilashda ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadimdan mustahkam qo'rg'on hisoblangan. Ular ko'p farzandlilik bilan ajralib turgan. O'R Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi va u jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinadi. Oila kodeksi oilaviy munosabatlarni, oila a'zolari o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi, mustahkamlovchi qonun-hujjatidir. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Oila kodeksi O'R Oliy Majlisining 1998-yil 30-aprelidagi qarori bilan tasdiqlanib, o'sha yilning 1-sentyabrida amalgam kiritilgan. Oila kodeksi 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iboran. 1998-yili O'zbekistonda "Oila yili", 2012-yil esa "Mustahkam oila yili" deb deb e'lon qilingan (*O'zME, 6-jild, 2003-yil, 469-470-betlar*).

### **O'zbek oilasi**

O'zbek oilalari bolajonlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'zbeklarda oilaning muayyan turmush tarzini shakllantirilib, asta-sekin hayotiy tajriba orttirib boriladi. Tejamli va sarishta ro'zg'or tutishi, farzandlarning odobli, ma'naviy etuk inson bo'lib kamol topishida keksalarning o'rni beqiyosdir. O'zbek oilalari saramjon-sarishtaligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli kabi qadriyatlari bilan ajralib turadi. Oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi muhimdir. Bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasida birdamlik saqlanadi. Oilada bola shaxsini

mehnatsevar qilib tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Bolaning izzati joyiga qo'yiladi, lekin oilada qat'iy tartib o'rnatiladi. Bolaning yoshi hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, undagi o'zgarishlarni kuzatib boriladi. Boladagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlanadi. Bola tarbiyasida otaning qattiqqo'lligi, onaning mehribonligi hal qiluvch omildir. O'zbek oilasining o'ziga xos ichki qonun-qoidalari va axloqiy mezonlari bor. Bunga o'rindan barvaqt turish, saramjonlikka va tozalikka e'tibor berish, yuz-qo'lni yuvmasdan qo'l berib so'rashlik, kattalar bilan salomlashish va shu kabilar kiradi. Qiz-kelinlar hovli-joy, ko'cha eshigi oldini supurib, suv sepib quyadilar. Erkaklarning ham o'z yumushlari bor. Nonushtaga birinch bo'lib yoshi ulug' odam qo'l uradi va nonni ushatadi. Ishga yoki o'qishga keksalardan duo olinadi. Oila odobiga ko'ra katta yoshlilar bolalarga, balog'atga etgan farzandlar, kelinlar kattalarga ochi-sochiq ko'rinmaydi. Ko'chaga ichki kiyimda chiqilmaydi. So'rab kelgan odamni eshik oldida kuttirib qo'yilmaydi. Mehmon kelganda bolalar ozoda kiyintirilib, xunuk narsalar ko'zdan chetga olib qo'yiladi (*B.Ahmedov va boshqalar. Vatan tuyg'usi. T., "O'zbekiston" nashriyoti, 1996-yil, 82-83-betlar*).

### **Oilamiz**

Bizning oilamiz olti kishidan iborat. Ular: bobom, buvim, otam, onam, akam va men. Bobom muhandis bo'lib ishlab, keyin nafaqaga chiqqanlar. U kishi biz uchun juda mo'tabar zotdir. Bobom doimo kishilarga yaxshilik qilish, ezgu ishlarni amalga oshirish haqida bizga nasihat qiladilar. Ularning shogirdlari juda ko'p. Shogirdlari doimo bobomni yo'qlab keladilar. Buvim shifokor bo'lganlar. Ana shu sohadan nafaqaga chiqqanlar. Ularning ham shogirdlari juda ko'p. Har bayramda ular buvini tabriklagani kelishadi. Otam qo'shma korxonada iqtisodchi bo'lib ishlaydi. Ularning kasbi juda murakkab bo'lgani bois, juda ko'p kitob o'qiydilar, kompyuterda ishlaydilar. Onam Jahon tillari institutida ingliz tilidan dars beradi. Onam ham o'z kasbining ustasi, shu sababli shogirdlari ko'p. Onam doimo izlanishda, ularning ko'p vaqtlari internet tarmog'iga ulanish orqali o'tadi. Onam har kuni yangi darsni o'tishga tayyorgarlik ko'radilar. Akam Toshkent davlat me'morchilik institutida tahsil olmoqda. Men Toshkent davlat sharqshunoslik institutining Xorijiy mamlakatlar iqtisodi va mamlakatshunoslik fakultetida o'qiyman. Bizlar ham bobom, buvim, otam, onamga o'xshagan o'z kasbini ardoqlaydigan, mehnatsevar bo'lishni istaymiz. Shu sababli a'lo o'qishga harakat qilyapmiz. Oilamiz a'zolari bir-birlarini juda hurmat qiladilar. Biz ahil va inoq yashaymiz.

### **V. Grammatik terminlar.**

- 1. Orfoepiya** adabiy tilning talaffuz qoidalarini o'rganadi.
- 2. Orfografiya** adabiy tilning yozuv qoidalarini o'rganadi. 1956-yilning 4-aprelida o'zbek kirill yozuvi uchun «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» (72-band (§) dan iborat) tasdiqlandi. Ana shu qoidalar asosida «Imlo lug'ati» nashr etildi. 1995-yilning 24-avgustida o'zbek lotin yozuvi uchun «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» (82-band (§) dan iborat) tasdiqlandi.


3. **Ot** shaxs, narsa-buyum, joy nomlarini bildirib kim?, nima?, qaer? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar turkumidir. M.: *Elomon, elak, Turkiston*.

4. **Olmosh** boshqa so‘z, so‘z birikmalarini almashtiruvchi so‘zlardir. M.: *Men (Karim), qanday (qizil), nechta (beshta)*.

**Oila va qarindoshlikka oid shakllar:** *bobo, buvi (momo), ota, ona, aka (og‘a), uka (ini), opa (egachi), singil, tog‘a, xola, amaki, amma, er (turmush o‘rtog‘i), xotin (rafiqa), amakivachcha, tog‘avachcha, xolavachcha, jiyan*.

**Tayanch iboralar:** *Ommaviy axborot vositalari, kabel tizimi, radio, televidenie, gazeta, jurnal, fan, texnika, madaniyat, axborot, harakatlanuvchi tasvir, analiz, sintez, optik, mexanik, fotoeffekt, nur*.

### Asosiy so‘zlar



37-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

38-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

39-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Internet hayotimizda

**I. Nutq tovushiga izoh:** “I” tovushi lablanmagan, til oldi, yuqori tor unli hisoblanadi.

### Taqqoslang:

O‘zbekcha	Ruscha
kiy (надень)	кий (bilyard tayog‘i)
ibo (стыд)	ибо (chunki)
il (повесь)	ил (loyqa)
bil (узнай)	бил (urgan edi)
sila (погладь)	сила (kuch)

### To‘g‘ri talaffuz qiling!

1) il-повесь	2) in-гнездо
el-народ	en-ширина
3) it-собака	4) iz-след
et-мясо	ez-дави

### Tez aytish

Inomjon ipni ilgakka ildi.

## Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!

Ish-chi, im-ti-hon, i-ni, ish-xo-na, in-sho, in-ti-zom.

### II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:

Ish, ip, igna, ilmiy, imtihon, idish, iliq, issiq, ini, ingichka, ishlamoq, ishxona, ichkari, ijro, ibora, ibrat, ivimoq, idora, ijara, ijod, iz, izohlamog, ikkiyoqlama, ilgari, ildiz, ilk, iltimos, ilik, imtiyoz, ingramog, ilhom, imzolamoq, injiq, inkor, inoq, intizom, intizor, insho, ipak, irimoq, isbot, isimoq, isloh, ittifoq, iffat, iflos, ixtiro, ichmog, ishonch, ishq, iyak, iqtisod, ig‘vo, ijozat bermoq, izlamog, ilashmog.

### III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!

- 1) ishxonaning ichkarisi; 4) idorada ishlamoq;
- 2) iborani izohlamog; 5) ingichka ip;
- 3) ipakka ilashmog; 6) ishonch bilan izlamog.

### IV. To‘rtliklarni yod oling.

Inju diyorimiz ko‘z bo‘lsa **agar**,  
Mudom omon bo‘lsin to‘garak **zamin**.  
Boshimiz silagan shu xalq **mo‘tabar**,  
Daf‘atan chekmasin farzandlar **dog‘in**.

*(Abdulla Oripov)*

Ishq yetsa ko‘ngilga, dilga u **dard** aylar,  
Dardi dili mardni boz **mard** aylar.  
O‘z otashi ishqida yonar ul, vale,  
Do‘zaxni chu o‘zgalar uchun **sard** aylar.

*(Najmiddin Kubro)*

### V. Suhbat.

- Internet so‘zining ma‘nosi?
- Tarmoqaro.
- Nima vazifani bajaradi?
- Butunjahon aloqa tizimi.

### VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

#### Internet tizimi

Dunyo juda tez va jadal rivojlanish yo‘liga kirdi. Yer sharidagi har qanday xabar bir zumda olamga yoyiladi. Buni to‘xtatishning iloji yo‘q, chunki hozir internet asridir. **Internet** [lotincha “**inter**” – “**aro**” va “**net**” (work) – “**tarmoq**”] – “**katta**” (global) va “**kichik**” (lokal) kompyuter tarmoqlarini o‘zaro bog‘lovchi butunjahon kompyuter tizimi. Unda geografik o‘rni, zamon va makondan qat‘i



nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlar o‘zaro hamkorlikda global informatsiya infratuzilmasini tashkil etadi. Qaydnomalar tizimi bilan boshqariladigan barcha hosila tarmoqlar hamkorlikda iste’molchilarga axborotni saqlash, e’lon qilish, jo‘natish, qabul qilish, izlash va ma’lum bo‘lgan barcha variantlar (matn, tovush, videotasvir, fotosurat, grafika, musiqa tarzida va b. ko‘rinishlar) da informatsiya almashinishga imkon yaratadi. Internet tizimi XX asrning 60-yillarida paydo bo‘ldi. O‘sha paytlarda Amerika mudofaa departamenti tashabbusi bilan kompyuterlar telefon tarmoqlariga ulana boshladi. Dastlab, bunday faoliyat takomillashtirilgan loyihalar agentligi (AKRA) tadqiqotlari doirasida olib borildi. Bu tadqiqotlar sovuq urush avj olgan davrga to‘g‘ri keldi. AQSH mudofaa departamenti urush bo‘lib qolgan taqdirda oddiy kommunikatsiya vositalari ishdan chiqqudek bo‘lsa, o‘rniga yangi qo‘shimcha kommunikatsiya vositalarini izlash bilan faol shug‘ullandi. 60-yillar oxiri va 70-yillarda Internet tarmog‘i uncha keng rivojlanmadi. Dastlabki o‘n yillik xalqaro tarmoq, asosan, harbiylar va yirik olimlarning shaxsiy elektron liniyalari faoliyati doirasi bilan cheklandi. Internetning beqiyos rivojlanish sur‘ati davlat, ta’lim, akademik va ijtimoiy tuzilmalarning o‘ziga xos umumiy moliyaviy va intellektual ulushiga bog‘liq bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Internet” ning xalqaro axborot tizimlariga kirib borishni ta’minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (2001) O‘zbekistonning bu borada xalqaro miqyosda o‘z mavqeiga ega bo‘lishiga xizmat qildi.

### Lug‘at

Dunyo—мир, rivojlanmoq—расцветать, bog‘lamoq—привязывать, tarmoq—ветвь, to‘xtatmoq—останавливать, butunjahon—всемирный, hamkorlik—содружество, iste’molchi—потребитель, axborot—известия, saqlamoq—сохранить, e’lon qilmoq—объявлять, jo‘natmoq—отравлять, qabul qilmoq—принимать, izlamoq—передавать.

## VII. Mustaqil ta’lim uchun matnlar.

### Insof

Insof bu adolat va vijdon amri bilan ish tutishdir. Kishilarga munosabatda halollik, to‘g‘rilik va tenglik mezonlariga amal qilishni belgilovchi holat. Xalqimizda: «*Insof – din sof*» degan naql bor.

### O‘zinternet

O‘zbekistonda ma’lumotlarni uzatish milliy tarmog‘i **O‘zPAK** Davlat kompaniyasi va **O‘zNET** tarmog‘idan iborat. O‘zbekistonda Internet ga ulashga doir informatsiya xizmatlari 1997-yildan ko‘rsatila boshladi. Dastlab **Naytov** (<http://www.naytov.com>), **Uznet** (<http://www.uznet.net>) yoki **Istlink** (<http://www.eastlink.uz>) kabi provaydkompaniyalar faoliyat boshladi (1999). O‘zbekistonda jadal rivojlanayotgan kompyuterlashtirish va avtomatlashtirish sohalari Internet tarmog‘ining aloqa funksiyasidan keng foydalanishga imkon

beradi. Xalqaro Internet tizimida O‘zbekiston haqida ham ma’lumotlar bor. Rasmiy varaqchalardan O‘zbekiston hukumati varaqchalari, O‘zbekistonning AQSH dagi elchixonasi varaqchalari va b. ko‘plab rasmiy varaqchalar mavjud. Ularda O‘zbekiston Respublikasiga tegishli deyarli barcha ma’lumotlar bor. Bulardan tashqari, O‘zbekistonga taalluqli shaxsiy varaqchalar ham mavjud: "Umid" varaqchasi, o‘zbek estradasi haqidagi varaqcha va boshqa 2000 yil fevral oyidan boshlab Internet efiriga O‘zbekiston televideniyesi (O‘z TV)ning "Axborot" dasturi chiqa boshladi, O‘z TV sayti tuzilgan va takomillashtirilmoqda. Informatsiya resurelariga oid ko‘p masalalarni respublikadagi yirik kutubxonalar shu sohadagi Internet tarmog‘i ko‘lamiga suyangan holda hal qiladi. Mas, Tibbiyot kutubxonasi, Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi, O‘zbekiston fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasi va boshqa. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Internet"ning xalqaro axborot tizimlariga kirib borishni ta’minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori (2001) O‘zbekistonning bu borada xalqaro miqyosda o‘z mavqeiga ega bo‘lishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ma’lumotlarni uzatish milliy tarmog‘i O‘zPAK Davlat kompaniyasi va O‘zNET tarmog‘idan iborat. Internetdan foydalanuvchilar soni, mas, AQSH da 55 mln., Xitoyda 55 mln., Yaponiyada 8 mln. dan oshib ketdi. Keyingi o‘rinlarni Angliya, Kanada, Germaniya davlatlari egallagan, RF millionli chegarani egallamoqda. O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida xalqaro Internet tarmog‘iga ulanish O‘z PAK Davlat kompaniyasining xalqaro kanallari orqali ta’minlanadi. Respublikada 50 ga yaqin Internet-provayder ro‘yxatga olingan. O‘zbekistonda Internetdan foydalanuvchilar soni 300000 dan ortiq. Internet tizimida O‘zbekistonning 300 dan ortiq sayti faoliyat ko‘rsatmoqda (2002).

### **Iqtisodiy termin**

Tovar (qadimgi turkiy «tavar») – 1) ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyatning moddiy-buyum shaklidagi har qanday mahsuloti; 2) sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasida oldi-sotdi, bozor munosabatlari ob’ekti. Tovar bozorda sotish, ayirboshlash uchun va shu orqali boshqalarning ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqariladigan mehnat mahsulotidir. Tovar faqat moddiy shaklga ega bo‘lmay, u turli xizmatlar, ma’naviy ne’matlar va boshqa ko‘rinishlarda ham bo‘lishi mumkin. Tovar shaklini olgan mahsulot ikki yoqlama xususiyatga ega bo‘lishi, ya’ni bir tomondan, u faqat sotish uchun ishlab chiqarilgan bo‘lishi, ikkinchidan, kishilarning biron-bir ehtiyojini qondirishi kerak. Iqtisodiyotda tovarning bu ikki yoqlama xususiyati – iste’mol qiymati, uning mehnat mahsuli ekanligi qiymat tarzida o‘rganiladi (*O‘z ME, 8-jild, 459-bet*).

### **Ipak yo‘li**

Buyuk ipak yo‘li qadimda va o‘rta asrlarda Sharq va G‘arb mamlakatlarini bo‘g‘lagan qit’alararo karvon yo‘lidir. Ipak yo‘li miloddan avvalgi II asr – milodiy XVI asrgacha faoliyat ko‘rsatgan. Bu atama mazmuni shbu yo‘ldan tashilgan qimmatbaho tovar – *xitoy ipagi* bilan bog‘liq. G‘arb mamlakatlari uzoq paytgacha


ipakchilik sir-asrorlaridan bexabar bo‘lishgan. Fanda bu atama XIX asrning 2-yarmidan ishlatila boshlagan. 1877-yilda nemis olimi Karl Rixtgofen o‘zining “Xitoy” nomli asarida Yevroosiyo materigining turli qismlarini bog‘lovchi savdo yo‘llari tizimini “*Ipak yo‘li*” deb atagan. Keyinchalik “*Buyuk ipak yo‘li*” atamasi qabul qilingan. Yaponiyada “Buyuk ipak yo‘li” ensiklopediyasi nashr etildi. Miloddan avvalgi 2-asrgacha ham Sharq va G‘arb o‘rtasida karvon yo‘llari bo‘lgan. Buni O‘rta Osiyo va Afg‘onistondan topilgan yunon buyumlari, Tog‘li Oltoydan topilgan Kichik Osiyo buyumlari tasdiqlaydi. Iskandar Maqduniy saltanati tuzilishi bilan savdo aloqalar yana yo‘lga qo‘yilgan. Ipak yo‘lining sharqiy qismini *sug‘dlar* barpo etishgan. Iskandar Sug‘diyoni bocib olgach, sug‘dlar Sharq tomonga ko‘chishgan. Ular Buyuk ipak yo‘lining O‘rta Osiyodan Xitoyning Chanan shahrigacha bo‘lgan qismida savdo manzillari qurishgan. Xan imperiyasi o‘z hududini O‘rta Osiyo tomonga kengaytirish maqsadida ayg‘oqchisi va elchisi Chjan Tszyanni ipak yo‘li haqida ma’lumot to‘plash uchun yuborgan. Ammo u Dovonda zindonga tushib qolgan. Makedoniyalik savdogar May Titsian Suriyadagi Giyerapol shahridan Xitoyning Serika shahrigacha bo‘lgan masofaning batafsil *yo‘lligini* tuzgan. Bu ma’lumotlar Klavdiy Ptolemeyning “*Geografiya qo‘llanmasi*” asarida saqlangan. Buyuk ipak yo‘lining O‘rta Osiyo qismi bir necha tarmoqlarga ajralib ketgan.

## IX. Grammatik terminlar.

1. **Ibora** ma’nosi bir so‘zga teng keladigan ko‘chma ma’noli so‘z birikmasi va gap holidagi lug‘aviy birlikdir. M.: *tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi (bo‘shashdi), og‘zi qulog‘ida (xursand), qo‘ling o‘rgilsin (ajoyib).*

2. **Izohli lug‘atda** lug‘aviy birliklarning ma’nosi har tomonlama keng izohlanadi. M.: *O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildlik). O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti. T., 2006-2008-yillar.*

**Tayanch iboralar:** *Internet, kompyuter tizimi, tarmoq, hamkorlik, global informatsiya, infratuzilma, qaydnomalar tizimi, hosila tarmoq, iste’molchilar, axborotni saqlash, e’lon qilish, jo‘natish, qabul qilish, izlash, imkon yaratmoq.*



40-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

41-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

42-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

## Mavzu: O‘zbekiston va jahon

**I. Nutq tovushiga izoh:** o‘zbekcha “j” [dj] undoshi til oldi, portlovchi, jarangli qorishiq tovush, ruscha va fors-tojikcha “j” [j] undoshi esa til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli sof undosh hisoblanadi.

### Taqqoslang:

<u>O‘zbekcha</u>	<u>ruscha</u>	<u>fors-tojikcha</u>
jonli	живой	ajdar
jir	жир	mujgon (kiprik)
juvon	молодая женщина	G‘ijduvon
jiyron	рыжий	mujda (xushxabar)
jizza	выжарки	jola (ko‘z yoshi)
jar	жар	janda (eski)

### Tez aytish

Jalil jajji jiyronni jilovladi.

### Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!

Ja-nob, ja-vob, ja-nub, ja-zi-ra-ma, jan-jal-kash, ji-yan, jar-roh.

### II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:

Javobgar, javob bermoq, jazo, jala, jag‘, jiyan, jamg‘arma, juda, judo, jabr, jabduqlamoq, jabha, javdiramoq, javohir, jadal, jazava, jazillatmoq, jazirama, jaydari, jallod, jamalak, jamiyat, jamlamoq, jang, jangari, janjalkash, jarayon, jaranglamoq, jahl, jabrlamoq, javramoq, jadallashmoq, jazolanmoq, jarohatlanmoq, jiddiy, jimjitlik, jimirlamoq, jingalak, jinoyat, jipslik, jiringlamoq, jirkanch, jism, jihoz, jiddiylashmoq, jilmoq, joylamoq, jonajon, josus, joylashmoq, juft, juvonmarg, juvonmard, jo‘mrak, jo‘namoq, jo‘rttaga, jo‘xori, jo‘yak, jo‘yali, jo‘shqin.

### III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!

- |                               |                                  |
|-------------------------------|----------------------------------|
| 1) janob <b>ning</b> javobi;  | 4) jang <b>da</b> jarohatlanmoq; |
| 2) josus <b>ni</b> jazolamoq; | 5) jahl <b>bilan</b> javramoq;   |
| 3) jiyanga javob bermoq;      | 6) jaydari jo‘xori.              |

### IV. To‘rtlik va she’rni yod oling.

Jahonning shodligi yig‘ilsa butun,  
Do‘stlar diydoridan bo‘lolmas ustun.  
Har qancha bo‘lsa ham olamda achchiq,  
Achchiqroqdir dono do‘stdan ayriliq.

(Rudakiy)

Do‘st bilan obod uying,

Gar bo‘lsa u vayrona ham,  
Do‘st qadam qo‘ymas esa,  
Vayronadir koshona ham...  
Do‘st qidir, do‘st top jahonda,  
Do‘st yuz ming bo‘lsa oz,  
Ko‘p erur bisyor dushman  
Bo‘lsa u bir dona ham.

*(Erkin Vohidov)*

Yaxshilarning suhbatidan bahra ol,  
Yaxshi yo‘l tut, yaxshi so‘zga quloq sol,  
Yaxshi hamdam topolmagan chog‘larda,  
Yaxshi kitob yaxshi hamdam bemalol.

*(Habibiy)*

## **V. Suhbat.**

- Jahon hamjamiyati qachon tuzilgan?
- 1945-yilda.
- Doimiy o‘rni qayer?
- Nyu-York shahri.

## **VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.**

### **Jahondagi nufuzli tashkilot**

Birlashgan Millatlar Tashkiloti yer yuzida tinchlikni mustahkamlash, xavfsizlikni ta‘minlash, davlatlarning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilotdir. Mazkur tashkilot Millatlar Ligasining o‘rniga 1945-yilda tuzilgan. BMTni tashkil etish haqidagi qaror SSSR, AQSH, Angliya va Xitoy tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida (1943) tasdiqlangan. Ustavi esa San-Fransisko konferensiyasida (1945) qabul qilingan. BMTning Ustaviga dastlab 51 mamlakat imzo chekkan. 2000-yilda esa ularning soni 189 taga yetdi. BMTning doimiy o‘rni **Nyu-York**dir. BMTning Ustavida ko‘rsatilganidek, u xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huquqli bo‘lishi va o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, millatlar o‘rtasida do‘stlik munosabatlarini rivojlantirish, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy muammolarni hal etishda millatlar harakatini uyg‘unlashtiradigan markaz hisoblanadi. 2000-yilning 6-8-sentyabrida BMT ning 55-sessiyasi doirasida “Ming yillik sammit” bo‘lib o‘tdi, unda 155 dan ortiq mamlakatning davlat va hukumat boshliqlari ishtirok etdilar. BMTning asosiy organlari: Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS), Vasiylik kengashi, BMT huzuridagi Xalqaro sud va BMT Kotibiyati – Bosh kotib va boshqa xodimlardan iborat. Bosh kotibni Xavfsizlik Kengashi tavsiyasiga muvofiq Bosh Assambleya tomonidan 5 yilga tayinlanadi. BMT ning Bosh kotiblari: Tryugve Li (Norvegiya, 1946-53), Dag Xammarsheld (Shvetsiya, 1953-61), U Tan (Birma, 1961-71), Kurt Valdxaym (Avstriya, 1972-81), Xaver Peres de Kuelyar (Peru, 1982-91), Butros Butros G‘oli

(Misr, 1992-97), Kofi Anan (Gana, 1998-2008), Pan Gi Mun (Janubiy Koreya, 2008-2016), Antonio Guterosh (Portugaliya, 2017-yildan hozirgacha). BMTning Xavfsizlik Kengashiga 15 davlat a'zodir, shundan 5 davlat doimiy a'zo (AQSH, Angliya, Fransiya, Xitoy, Rossiya), 10 davlat muvaqqat a'zodir. O'zbekiston Respublikasi 1992-yilning 2-martida BMTga a'zo bo'ldi. Hozirgacha BMTning barcha adolatli dasturlarida ishtirok etib kelmoqda. (*O'zME, 2-jild, 2001-yil, 55-56-betlar*).

### **Lug'at**

BMT-OON, tinchlik-мир, xavfsizlik-безопасность, ta'minlamoq-обеспечивать, hamkorlik-содружество, rivojlantirmoq-развивать, xalqaro-международный, tashkilot-организация, tashkil etmoq-организовывать, qaror-постановление, teng-тeng, huquq-право, taqdir-судьба, iqtisodiy-экономический, ijtimoiy-социальный, madaniy-культурный, uyg'un-соответствующий, ishtirok etmoq-участвовать.

## **VII. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.**

### **Jipslik**

Jipslik – insonlarning, jamiyatlarning va davlatlarning o'zaro yaqinligi, birdamligi. Ana shu birdamlik kishilarni tinchlik va farovon hayot sari boshlaydi.

### **Jomiy**

Abdurahmon Jomiy 1414-yilning 7-noyabrida Nishopur yaqinidagi Jom shahrida ruhoniylar oilasida tug'ilgan. U yoshligidan o'tkir zehni bo'lgan. She'r yozish unga ota merosidir. Ularning oilasi Hirotga ko'chib borgan. U yerda arab tili, ilohiyot, tasavvuf, she'r qoidalari, adabiyot tarixi va boshqa fanlardan tahsil olgan. Keyin Samarqandda o'qigan. Unga Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi olimlar dars berishgan. Jomiy Fayzulloh Abdullaysdan shariat va hadis ilmini o'rganadi. Abdurahmon Jomiy Shayx Sa'diddin Koshg'ariyga qo'l beradi, uning hurmatini qozonadi, qiziga uylanadi. Alisher Navoiy Jomiyning o'ziga ustoz deb bilgan. Jomiy bir necha marta hajga borib kelgan. Jomiy ko'pgina ilmiy, badiiy, falsafiy va diniy-tasavvufiy asarlar yozgan. Jomiy Navoiyning maslahati bilan uch devonining har birini alohida nomlaydi. U sharq adabiyotida uchinchi bo'lib "Xamsa" yozgan. O'zining dostonlari to'plamini yettitaga etkazgan. Jomiy o'z o'g'li Yusufga atab "Bahoriston" asarini yozgan. Bundan tashqari uning tasavvuf va falsafaga oid to'rtta asari bor. Jomiy 1492-yilning 8-noyabrida vafot etgan (*O'zME, 3-jild, 2002-yil, 621-622-betlar*).

### **Jahondagi savdo jamiyati**

Savdo palatasi iqtisodiyot va savdoni, birinchi navbatda mamlakatlar o'rtasidagi tashqi savdoni rivojlantirishga ko'maklashuvchi xalqaro jamoat yoki davlat tashkilotidir. Savdo palatasi asosiy hollarda firmalarning ishbilarmon doiralarini birlashtirishga, savdo aloqalarini o'rnatishga, savdo-sotiq

ishtirokchilariga zarur axborotlarni taqdim etishga xizmat qiladi. Faoliyat miqyosiga qarab xalqaro, aralash va milliy Savdo palatalariga bo‘linadi. **Xalqaro savdo palatasi** (XSP ya’ni ICC) jahon ishbilarmon va tadbirkorlar doiralari birlashmalari federasiyasidir. 1919-yilda Atlantik Siti (AQSH) shahrida o‘tkazilgan xalqaro savdo konferensiyasida tuzilgan. 1920-yildan faoliyat ko‘rsata boshlagan. U 100 dan ortiq mamlakatlarning milliy Savdo palatalarini birlashtiradi. Sobiq SSSRda 1932-yilda tuzilgan. Butunittifoq savdo palatasi Xalqaro savdo palatasiga a’zo bo‘lgan. 1959-yilda O‘zbekistonda ham bu palataning respublika bo‘limi tuzilgan va 1972-90-yillar faoliyat ko‘rsatgan. Xalqaro savdo palatasi tarkibida 15 xalqaro komissiya, ixtisoslashgan maxsus organlar (Xalqaro arbitaj sudi, Xalqaro savdo palatalari byurosi va boshqalar) ish olib boradi. Xalqaro savdo palatasining idorasi **Parij shahrida** joylasgan. Aralash savdo palatasi ikki mamlakat ishbilarmonlarini birlashtiradi. Mamlakatlararo savdo sharoitlarini yaxshilash, tadbirkorlar va korxonalar o‘rtasidagi samarali hamkorlikni kengaytirish va boshqa xizmatlar ko‘rsatadi. Milliy savdo palatasi bir mamlakatda tashqi savdo, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun tuzilgan tadbirkorlarning jamoat tashkilotidir. Ba’zan Savdo-sanoat tashkiloti deb ham yuritiladi.

### **Jazoir**

Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi – Afrikaning shimoli-g‘arbidagi davlat. Maydoni 2381,7 ming km<sup>2</sup>, aholisi 30,6 mln. kishi (2001-yil). Poytaxti – Jazoir shahri. Ma’muriy-hududiy jihatdan 47 viloyat va Katta Jazoir poytaxt okrugiga bo‘linadi. Davlat boshlig‘i – prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyat – bir palatali Milliy xalq majlisi. Aholisining 83 foizini jazoirlik arablar va barbarlar tashkil qiladi. Ular islom dinining sunniylik mazhabidadir. Yirik shaharlari: Jazoir, Oran, Konstantina. Jazoir 1962-yildan BMT ning a’zosi. Jazoir davlati O‘zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarni 1992-yilning 30-iyunida o‘rnatgan (*O‘z ME, 3-jild, 525-bet*).

### **Jamg‘armalar**

Jamg‘armalar – 1) xarajatlardan, chiqimlardan orttirib, tejab to‘plangan pul; 2) kelgusidagi ehtiyojlar uchun daromadning bir qismini ajratib qo‘yish; 3) doimiy badallar va reinvestisiya yo‘li bilan kapital qo‘yilmalarni pul ko‘rinishida jamlash; 4) pul va moddiy vositalarni ma’lum bir maqsad yo‘lida foydalanish uchun jalb etish (masalan: pensiya jamg‘armasi, investitsiya jamg‘armasi); 5) ma’lum bir faoliyat turiga, kishilarning muayyan ijtimoiy guruhiga ko‘maklashish maqsadida tuzilgan tashkilot; 6) aksiyalar nazorat paketini qo‘lga kiritish maqsadida, narxiga ta’sir etmagan holda ularni doimiy ravishda sotib olish (*O‘z ME, 3-jild, 549-bet*).

## **VIII. Grammatik terminlar.**

**1. Jo‘nalish kelishigining qo‘shimchasi -ga, -ka, -qa.** Bu kelishik qo‘shimchasi otni, olmoshni, otlashgan so‘zni fe’lga bog‘laydi. Mazkur kelishikdagi so‘zlar **kimga? nimaga? qaerga? qachonga?** so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Gapda vositali to‘ldiruvchi, o‘rin holi, payt holi vazifalarini bajaradi. Masalan:

1. Botir qoidani *daftarga* yozdi.
2. U xabarni *Qahramonga* yetkazdi.
3. Ikki soatdan so‘ng *Toshkentga* qaytamiz.
4. Sayohat *bahorga* qoldirildi.
5. Bu xabarni *unga* yetkaz.
6. *Yaxshiga* yondash, yomondan qoch.
7. *Ko‘kka* boqma, *ko‘pga* boq.
8. Qishda *qishloqqa* qaytdi.

<b>Tayyor qoliplar</b>		
Men	$\left\{ \begin{array}{l} \text{kutubxonaga} \\ \text{qishloqqa} \\ \text{emakka} \\ \text{o‘qishga} \end{array} \right\}$	boraman.
Talaba	$\left\{ \begin{array}{l} \text{o‘qituvchiga} \\ \text{dekanga} \\ \text{kutubxonachiga} \end{array} \right\}$	murojaat qildi.
Siz	$\left\{ \begin{array}{l} \text{otamga} \\ \text{qarindoshlarga} \\ \text{o‘rtog‘imga} \end{array} \right\}$	salom ayting


**2. Jonli til** biror xalqning aloqa quroli sifatida xizmat qilib turgan tildir. M.: *o‘zbek tili, rus tili.*

**3. Juft undoshlar** talaffuz o‘rni, usuli tomonidan bir xillikka ega bo‘lib, jarangli-jarangsizlik jihatdan farqlanuvchi tovushlar: *b-p, d-t, z-s, j-sh, dj-ch, g-k, g‘-x, v-f.*

**4. Juft so‘zlar** lug‘aviy ma‘noga ega yoki ega bo‘lmagan ikki qismning teng bog‘lanishi asosida yuzaga kelgan. M.: *ota-ona, kiyim-kechak, alg‘ov-dalg‘ov, oq-qora, soya-salqin, och-nahor, u-bu, ana-mana, oldi-berdi, kuydi-pishdi.*

**5. Jamlovchi otlar** bir xil shaxs, narsa-hodisaning jamini bildiradi. M.: *el, qo‘shin, pada, uyur, suruv.*

**Tayanch iboralar:** *BMT, yer yuzi, tinchlik, xavfsizlik, hamkorlik, tashkil etmoq, ustav, doimiy o‘rin, teng huquqli, millatlar harakati, uyg‘unlashtirmoq, Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS), Vasiylik kengashi, Xalqaro sud va BMT Kotibiyati, Bosh kotib.*





43-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlash.

44-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

45-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: XXI asrda innovatsiyalar

**I. Nutq tovushiga izoh:** “R” undoshi til oldi, portlovchi, jarangli, titroq tovush hisoblanadi.

#### Taqqoslang:

O‘zbekcha	ruscha
randa	рубанок
rasta	руад
rashk	ревност
rahbar	руководител
rivoj	развитие
ruxsat	разрешение

#### Tez aytish

Rahbar raqqosani rag‘batlantirdi.

#### Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!

Ra-qam, rah-mat, re-ja, rah-bar, rux-sat-no-ma, ro-zi-lik.

### II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:

Rais, rang, ranjimoq, rasm, rasmiylashtirmoq, raqam, raqib, raqs, rag‘batlantirmoq, rahmat, reja, rost, ruxsat, ro‘yxat, ro‘mol, ravshan, raddiya, razil, rayhon, rangli, randa, rasvogarchilik, rasmiyatchilik, rasta, raxna, rashk, rahbar, rahm, rag‘bat, rivojlanmoq, rizq, rioya, rozilik, rozilashmoq, rom, rosa, rostgo‘y, rostlamoq, rohat, rohatlanmoq, ruxsatnoma, ruhlanmoq, ro‘shnolik, ravshanlashmoq, randalamoq.

### III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!

- |                                 |                                   |
|---------------------------------|-----------------------------------|
| 1) raqqos <b>ning</b> ro‘moli;  | 4) ruxsat <b>dan</b> ruhlanmoq;   |
| 2) rais <b>ni</b> ranjitmoq;    | 5) rizq <b>bilan</b> rohatlanmoq; |
| 3) rejag <b>a</b> rioya qilish; | 6) rostgo‘y rahbar.               |

### IV. To‘rtliklarni yod oling.

Registonning sahnida qadim –

Zamonlarda terilgan toshlar.

Muqaddasdir azal bu zamin,

Tavof qilsa arziydi yoshlar.

(B. Boyqobilov)

Ruhimga aytdimki, endi uyg'on – samandar bo'l,  
Qonimga aytdimki, endi qo'zg'ol – qalandar bo'l,  
Ko'ksimga aytdim, kurash o'tida munavvar bo'l,  
O'zimdanda himmatni topdim – oqibat gap shunda.

(Usmon Azim)

### III. Suhbat.

- Kashfiyot nima?
- Izlanish, tekshirish, ilmiy tadqiqot natijasi.
- Ixtiro nima?
- Texnikaviy yechimga ega yangilik.

### IV. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

#### Kashfiyot va ixtirolar

Izlanish, tekshirish, ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zan esa tasodifan topilgan yoki yaratilgan ilmiy yangilikka **kashfiyot** deyiladi. Unga tabiat hodisalari va jamiyat qonunlarini ongli ravishda ilmiy idrok qilish natijasida erishiladi. Kashfiyot tufayli moddiy dunyoning ilgari insoniyatga ma'lum bo'lmagan ob'yektiv qonunlari, xossalari va hodisalari ma'lum qilinadi. Kashfiyot insoniyatning bilish jarayoni darajasini tubdan o'zgartiradi. Kashfiyot fan-texnika inqilobining asosini tashkil etadi. Fan-texnika taraqqiyotiga tubdan yangi yo'nalishlarni baxsh etadi. Inson bosib o'tgan tarixiy jarayonda juda ko'p kashfiyotlar qilingan. Kashfiyot bilan ixtironi bir-biridan farqlash kerak. Kashfiyot natijasida muayyan **qonunlar yaratiladi**, ixtiro tufayli esa **muhim yangiliklar** yuzaga keladi. Masalan: *Arximedning suv chiqarish vinti* o'ta yangilik bo'lsa ham ixtiro hisoblanadi. *Nyutonning butun olam tortishish qonuni* esa olamshumul kashfiyotdir. Fanda *ichki yonuv dvigatelelining yaratilishi* ixtiro hisoblanadi. Beruniy isbotlagan **Yerning o'z o'qi atrioida aylanishi va sayyoralarning Quyosh atrofida aylanishi** to'g'risidagi ilmiy nazariyasi kashfiyotdir. Bu ilmiy nazariya keyinchalik Kopernik tomonidan qaytarilgan. Har qanday ixtiro ham kashfiyot bo'la olmaydi, lekin ixtiro kashfiyotga suyangan holda amalga oshiriladi. Fanda *atom va vodorod bombalarining o'ylab topilishi* kashfiyot hisoblanadi. Ammo *raketalarni yasash* esa ixtirodir (O'zME, 4-jild, 2002-yil, 525-bet).

#### Lug'at

Izlanish-искания, tekshirish-исследование, dunyo-мир, ba'zan-иногда, tasodifan-случайно, topmoq-найти, yaratmoq-создавать, yangilik-новость, kashfiyot-открытие, hodisa-событие, jamiyat-общество, ongli-сознательный, разумный, idrok qilmoq-соображать, moddiy-материальный, xossa-свойство, jarayon-процесс, o'zgartirmoq-менять, fan-nauka, inqilob-revolюция, asos-osnova, tashkil etmoq-организовывать, taraqqiyot-развитие, progress, yo'nalish-направление, baxsh etmoq-дарить, придавать, ixtiro-изобретение, farqlamoq-

различать, муаууан-определённый, yaratmoq-создавать, muhim-важный, olamshumul-всемирный, мировой.

## **V. Mustaqil ish uchun matnlar.**

### **Ko‘ragoniy jadvali**

“Ziji jadidi Ko‘ragoniy” (“Ko‘ragoniyning yangi astronomik jadvali”), “Ulug‘bek ziji” – Samarqanddagi rasadxonada ilmiy tahlil qilingan Mirzo Ulug‘bek rahbarligida 1437-yilda yaratilgan ilmiy asar va jadval. Ikki bo‘limdan (batafsil yozilgan muqaddima va vaziyatlari elliptik tizimda berilgan 1018 ta yulduzning jadvalidan) iborat. Muqaddima to‘rt qismga bo‘lingan. Birinchi qism – xronologiyada Sharq xalqlarining yil hisoblash usullari bayon qilingan. Ikkinchi qism amaliy astronomiya masalalariga bag‘ishlangan. Uchinchi qismda sayyoralarning ko‘rinma harakatlari geotsentrik tizim asosida sharhlangan. To‘rtinchi qismda goroskop haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ulug‘bekning bu jadvali yangiligi jihatdan astronomiya tarixida Gipparx-Ptolemey jadvalidan keyin (II asr) ikkinchi o‘rinda turadi. Osmonni kuzatish asboblari ixtiro qilinguniga qadar tuzilgan zijlar orasida eng mukammali «Ulug‘bek ziji» hisoblanadi. Bu asar turkiy tilda yozilib, keyinchalik fors va arab tillariga tarjima qilingan. Ulug‘bekning shogirdi Ali Qushchi (Quchchi) asar qo‘lyozmalarining keng tarqalishiga katta hissa qo‘shgan. Bu asar birinchi marta 1648-yilda Angliyada nashr qilingan. Fors tilida yozilgan eng eski nusxalaridan biri O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda (*O‘z ME, 4-jild, 2002-yil, 13-bet*).

### **Kasbiy safar**

Ishlab chiqarish yoki ilmiy ish bo‘yicha ma’lum bir topshiriq yoxud aniq vazifani bajarish borasidagi maqsad tufayli amalga oshiriladigan safardir. Agar ishlab chiqarish bilan bog‘liq biron bir topshiriqni bajarish lozim bo‘lsa, aniq belgilangan reja asosida ish ko‘riladi. Bunda xodimni xizmat safariga jo‘natayotgan tomon bilan yordam berishni istagan taraf o‘rtasida ikki tomonlama shartnoma tuziladi. Ana shu shartnomada belgilangan shartlar asosida amalga oshiriladigan vazifalar aniqlab olinadi. Ushbu vazifalarni to‘la bajarish uchun mas’ul shaxslar belgilanadi. Topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishi har tomonlama nazoratga olinadi. Xizmat safari yakunida bajarilgan ishlar yuzasidan to‘liq hisobot tayyorlanadi. Ilmiy ish yuzasidan belgilangan xizmat safari ilmiy tekshirish institutlari yoki oliy o‘quv yurtlarida o‘tkaziladi. Bunda xodim shu holat bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan ilmiy tadqiqot muassasasiga yuboriladi. Uslubiy yo‘nalish bo‘yicha xodim ilmiy-uslubiy sohada o‘zining yuksak tajribasiga ega bo‘lgan oliy o‘quv yurtiga yuboriladi. Bunday hollarda aniq ilmiy muammoni hal qilish yoki uslubiy ishlar borasida tajriba almashish nazarda tutuladi. Ilmiy ish yuzasidan belgilangan xizmat safari oxirida ham bajarilgan ishlar bo‘yicha yakuniy hisobot tuziladi.


## Rossiya Federatsiyasi

Rossiya Federatsiyasi – Yevropaning sharqida, Osiyoning shimolida joylashgan davlat. Maydoni jihatdan dunyodagi eng katta mamlakat. Quruqlikdagi chegarasi 22125,3 km, dengiz chegarasi 38807,5 km. Ma'muriy-hududiy jihatdan 21 respublika, 6 o'lka, 49 viloyat, 2 federal shahar, 1 muxtor viloyat, 10 muxtor okrugga bo'lingan. Maydoni 17,1 mln. km<sup>2</sup>, aholisi 147,1 mln. kishi (2002-yil). Rossiya – boshqarishning respublika shakliga ega bo'lgan demokratik federativ respublika. Davlat boshlig'i – prezident. Qonun chiqaruvchi organi – ikki palatadan iborat Federal Majlis. Ijrochi hokimiyatni rais boshchiligidagi hukumat amalga oshiradi. Hukumat raisini Davlat dumasi bilan kelishgan holda prezident tayinlaydi. Rossiyada 100 dan ortiq millat va elat yashaydi. Aholining 81,5 foizini ruslar tashkil qiladi. Undan tashqari ukrainlar, beloruslar, litvalar, latishlar, nemislar, yahudiylar, greklar, armanlar, ozarbayjonlar, o'zbeklar (1994-yilda 58000), gruzinlar, qozoqlar va boshqa millatlar yashaydi. Yirik shaharlari: Moskva, Sankt-Peterburg, Nijniy Novgorod, Novosibirsk, Samara, Yekaterinburg. Rossiya 1945-yildan buyon BMT ning a'zosi. O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarni 1992-yilning 20-martida o'rnatgan (*O'z ME, 7-jild, 359-bet*).

### VI. Grammatik terminlar.

- 1. Ravish** harakat-holatning belgisini, tarzi, payti, o'rni va daraja-miqdorini bildirib qanday?, qaytarzda?, qayholda?, qaymiqdorda?, qaer?, qaerda?, qaerdan? so'roqlariga javob bo'ladi. M.: *ataylab, jo'rttaga, noiloj, noilojlikdan, jim, yayov, ertaga, indin, pastda, olg'a, oz, ko'p.*
- 2. Rasmiy** ish qog'ozlari uslubi hozirgi o'zbek adabiy tilining ma'muriy va huquqiy ishlarida amal qiladigan bir ko'rinishdir. Unda turli hujjatlar yoziladi. M.: *farmon, shartnoma, ariza, ishonchnoma, buyruq.*

**Tayanch iboralar:** *izlanish, tekshirish, ilmiy tadqiqot, kashfiyot, qonunlar yaratmoq, muhim yangiliklar, ixtiro, fan-texnika, astronomik jadval, rasadxona, yulduz, burj, qo'lyozma.*



46-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlash.

47-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

48-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.

## Mavzu: Davrimizning global muammolari

I. Nutq tovushiga izoh: “D” undoshi til oldi, portlovchi, jarangli tovush hisoblanadi.

### Bilib oling:

#### Og‘zaki talaffuzda

balan  
xursan  
pisan  
Samarqan

#### Imlo qoidasi bo‘yicha

baland  
xursand  
pisand  
Samarqand

### Taqqoslang:

#### O‘zbekcha

dalil  
daraxt  
daromad  
dud  
do‘st

#### Ruscha

доказательство  
дерево  
доход  
дим  
друг

### Tez aytish

Dugona dastro‘molni dazmolladi.

### Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!

Da-la, dav-lat, daz-mol, dan-ga-sa, de-vor, de-ra-za, do-ri-la-moq.

## II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:

Damlamoq, dangasa, daraja, darvoza, daryo, darmonsizlanmoq, darslik, darhaqiqat, dasta, dastro‘mol, dafn, daftar, dasht, da‘vo, daqiqa, dahshat, devor, demak, demoq, dengiz, deraza, did, din, diqqat, dodlamoq, doira, don, dorboz, dog‘lamoq, dunyo, durbin, do‘qlamoq, davolamoq, dadillanmoq, dazmollamoq, dardlashmoq, davlat, davolamoq, davomat, davr, dada, dazmol, dala, dalil, damlamoq, dangasa, daraja, darvoza, daryo, darmonsizlanmoq, darslik, darhaqiqat, dasta, dastro‘mol, dafn, daftar, dasht, da‘vo, daqiqa, dahshat, devor, demak, demoq, dengiz, deraza, did, din, diqqat, dodlamoq, doira, don, dorboz, dog‘lamoq, dunyo, durbin, do‘qlamoq, davolamoq, dadillanmoq, dazmollamoq, dardlashmoq, demoq, dimlamoq, dovdirammoq, dorilamoq, dudlamoq, dumalammoq, do‘ppaymoq, do‘stlashmoq.

## III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!

- 1) dugonamning dutori;
- 2) dimlamani dimlamoq;
- 3) dangasaga do‘qlamoq;
- 4) dahshatdan dovdirammoq;
- 5) diqqat bilan davolamoq;
- 6) dumaloq doira.

## VI. To'rtliklarni yod oling.

Dedim: ayt, umrning ma'nosi nima?

Dedi: chaqmoq yo sham', yoki parvona.

Dedim: bu dunyoga bino qo'ygan kim?

Dedi: yo go'l, yo mast, yoki devona.

*(Pahlavon Mahmud)*

Dalalar uyg'ondi, boychechak undi,

Zamindan qor ketdi, ko'ngildan g'ubor.

Yarq etgan toleday quyosh ko'rindi,

O'lkamda bahordir, o'lkamda bahor.

*(Erkin Vohidov)*

## V. Suhbat.

- Qanday global muammolar bor?
- Ekologiya va ochlik.
- Qanday oldi olinadi?
- Adolat va tejamkorlik bilan.

## III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

### Tabiatni asrash

Tabiatni muhofaza qilish tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanish, uning go'zalligini, musaffoligini saqlab qolish hamda uni boyitishga qaratilgan tadbirlar jamlamasidir. Har qanday tirik mavjudot o'z atrofini o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Undan o'ziga kerakli narsalarni oladi. Shu muhitga moslashadi, muhit tarkibiga, undagi modda va energiyaning aylanma harakatiga ma'lum darajada o'zgarish kiritadi. Yerda odamning paydo bo'lishi organik dunyo bilan tabiiy muhit o'rtasidagi munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi. Inson mehnat qurollarini kashf etib, tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada sun'iy muhitlar yuzaga kelishi bilan tabiat yana-da ko'proq zarar ko'ra boshladi. XVI asrning oxirlaridan XX asrning 70-yillarigacha umurtqali hayvonlarning 250 yirik va kichik turlari butkul yo'qolib ketdi. 80-yillardan boshlab har yili o'rtacha bir hayvon turi va ellikka yaqin o'simlik turi yo'qolib bormoqda. Qush va sut emizuvchilarning 1000 dan ortiq turi yo'qolish arafasida turibdi. Yil davomida yer yuzida 1 mlrd. tonna yoqilg'i yoqiladi. Atmosferaga yuzlab mln. tonna azod oksidi, oltingugurt, uglerod, qurum, chang va boshqa narsalar chiqadi. Tuproq va suvlar sanoat maishiy chiqindilari bilan ifloslantirilmoqda. Hozirgi paytda tabiatni muhofaza qilish chora- tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Lekin uni amalga oshirish uchun juda katta mablag' talab etiladi. O'zbekistonda tabiat muhofazasiga oid tadbirlar XX asrning oxirlarida boshlandi. Konstitutsiyamizning 50-54-100-moddalarida tabiatni muhofaza qilishga oid

qoidalar bayon qilingan. O‘zbekiston Respublikasi BMTning atrof-muhit bo‘yicha “YUNEP” dasturida ishtirok etmoqda (*O‘zME, 8-jild, 208-210-betlar*).

### Lug‘at

Muhofaza qilmoq–защищать, oqilona–умно, foydalanmoq–пользоваться, go‘zallik–красота, musaffolik–чистота, saqlamoq–сохранять, foydalanmoq–пользовать, tadbir–мероприятие, jamlama–обобщение, mavjudot–всё сущее, tabiiy–природный, muhit –среда, aylanma harakat–вращательное движение, zarar ko‘rmoq–понести убыток, salbiy–отрицательный, ta’sir–влияние, hayvon–животное, o‘simlik–растение, parranda–птичий, chang–пыль, qurum–сажа, sanoat–промышленность, chiqindi–отходы, mablag‘–денежные средства, qoida–правило, dastur–программа.

## IV. Mustaqil ta’lim uchun matnlar.

### Tabiatning o‘chi

Orol dengizi O‘rta Osiyodagi katta berk sho‘r ko‘ldir. Orol dengizining yarmidan ko‘proq qismi O‘zbekiston, qolgan qismi Qozog‘iston hududida joylashgan. 1960-yillarda Orol dengizi maydoni orollari bilan o‘rtacha 68,0 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etgan. Kattaligi jihatdan Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yo‘qori ko‘l, Afrikadagi Viktoriya ko‘lidan keyin dunyoda to‘rtinchi o‘rinda turgan. Havzasining maydoni 690 ming km<sup>2</sup>, suvining hajmi 1000 km<sup>3</sup>, o‘rtacha chuqurligi 16,5 m bo‘lgan. Havzasi kattaligi uchun dengiz deb atalgan. Orol dengizida 300 dan ortiq orol bo‘lgan. Eng kattalari Ko‘korol (273 km<sup>2</sup>), Qaytatiklangan (216 km<sup>2</sup>), Borsakelmas (133 km<sup>2</sup>) edi. Orol dengizining suv sathi har 15-50 yil oralig‘ida ko‘tarilib pasayib turgan. 1935-yilda Orol dengizining maydoni 69670 km<sup>2</sup>, suvining sathi 1153 km<sup>3</sup> ga ko‘paygan. 1980-yillarga kelib dengiz sathi yana kamaya boshladi. Orolida sazan, cho‘rtan, so‘vyan, sudak, oqchavoq, laqqa, taran, pilmay va boshqa baliq turlari ko‘p bo‘lgan. Dengizdan 90-yillargacha baliq ovlangan. Orol bo‘yida Amudaryo, Avan, Bugun, Uyali, Uzunqir kabi baliq tuzlash zavodlari bo‘lgan. Orol dengizi suvining tarkibidagi tuz 22 mlrd. tonnaga yaqin deb taxmin qilinadi. Tuzning ko‘p qismini osh tuzi, qolganini sulfatli magniy tuzi tashkil etadi. Dengiz suvi qishda juda tiniqdir. Yoz oylarida ham 24 m chuqurlikkacha dengiz tubi ko‘rinadi. Amudaryo va Sirdaryoning dengizga quyilish joyi loyqadir. Hozirgi kunda Orol dengizi uch bo‘lakka bo‘lingan. Birinchi bo‘lak kichik sayoz *Shimoliy qism* (sho‘rligi 8-13 g/l), ikkinchi bo‘lak kattaroq maydonni egallagan sayoz *Sharqiy qism* (sho‘rligi 69-72 g/l), uchinchi bo‘lak eng chuqur *G‘arbiy qism* (sho‘ligi 68-69 g/l) hisoblanadi.

### Davrning global muammolari

Keskin global muammolarga umumbashariy hayot va taraqqiyotga aloqador hozirgi zamon muammolari kiradi. Mazkur muammolarning anchasi bizga ma’lum, hanuz qaltisligicha qolmoqda. Hozirgi paytda termoyadro urushining oldini olish insoniyat uchun o‘ta muhimligicha qolmoqda. Xalqaro terrorchilikka qarshi kurash

esa g'oyat dolzarb muammoligicha turibdi. Barcha xalqlar uchun tinchlikni ta'minlash esa jahon hamjamiyatining asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda ivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi tafovutni bartaraf etish zarur. Ayrim mintaqalardagi ochlik, qashshoqlik va savodsizlikni tugatish vaqti kelmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez sur'atlar bilan ko'payayotganligini tartibga solish zarurati yuzaga keldi. Hamma mintaqada atrof muhit halokatli tarzda ifloslanib borayotganligi fojiodir. Mazkur fojining oldi olinmasa, insoniyat halokat sari yuz tutadi. O'z navbatida insoniyatni kerakli resurslar – oziq-ovqat, sanoat xomashyosi, energiya manbalari bilan ta'minlash zarurdir. Zamonaviy fan va texnika taraqqiyotining salbiy oqibatlarini kamaytirish va ko'payishiga yo'l qo'ymaslik talab etilmoqda. Davrimiz uchun muhim sanalgan global muammolarning oldini olish va ularni ijobiy hal qilish bashariyat dolzarb hisoblanadi (*O'z ME, 3-jild, 39-bet*).

### **Davlatlar tajovuzi**

Agressiya (lotincha «tajovuz») – bir davlat (davlatlar guruhi) tomonidan boshqa davlatning yoki xalqning (millatning) suvereniteti, hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi BMT Ustavi nuqtai nazaridan g'ayriqonuniy bo'lgan har qanday kuch ishlatish. Agressiyaning eng xavfli ko'rinishi qurolli kuch ishlatishdir. Bir davlatning boshqa davlatga qurolli hujumi tinchlik va xalqlar xavfsizligiga qarshi og'ir xalqaro jinoyat hisoblanadi. BMT Bosh assambleyasining 29-sessiyasida (1974 yil) «Agressiyani belgilash to'g'risida»gi rezolyutsiya yakdillik bilan ma'qullangan. Bilvosita, iqtisodiy va g'oyaviy agressiya tushunchalari ham bor (*O'z ME 1-jild, 110-111-betlar*).

### **V. Grammatik terminlar.**

1. “**Davlat tili haqida**”gi O'zR qonuni 1989-yilning 21-oktyabrida qabul qilindi. Uning yangi tahriri 1995-yilning 21-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasida tasdiqlangan.
2. **Dravid tillari oilasi:** tamil, malalayam, telugu, kannar, barxun, gondi.
3. **Darak gap** biror voqea-hodisa haqida xabarni bildiradi, uning kesimi ko'pincha xabar maylidagi fe'l bilan ifodalanadi, yozuvda oxiriga nuqta qo'yiladi: **Sobir bolalarning shovqinidan uyg'ondi.**
5. **Daraja shakllari** narsadagi belgini ortiqcha yoki kamlik jihatidan farqlaydi. Uning quyidagi turlari bor: 1) oddiy daraja (*qizil*); 2) qiyosiy daraja (*qizilroq*); 3) ozaytirma daraja (*qizg'ish, qizg'imtir*); 4) orttirma daraja (*qip-qizil, juda qizil*).
6. **Dona son** shaxs yoki narsaning miqdorini donalab ko'rsatadi. M.: *besh*ta olma, *besh dona* olma, *o'n nafar* kishi, *olti tup* daraxt.

### **Asosiy so'zlar**





- 49-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.  
50-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.  
51-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### **Mavzu: Tabiat va inson**

#### **I. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:**

Takomillashtirmoq, takrorlamoq, talamoq, taltaymoq, tamomlamoq, tamg‘alamoq, tanlamoq, taramoq, tarbiyalamoq, tarqalmoq, taxlamoq, tashvishlanmoq, tashimoq, tashlamoq, ta‘kidlamoq, ta‘minlamoq, ta‘riflamoq, ta‘sirlanmoq, taqdiramoq, taqsimlamoq, tejamoq, tegmoq, tekislamoq, tekshirmoq, tergammoq.

#### **II. To‘rtliklarni yod oling.**

Tabiatdan so‘radim savol,  
– Bu dunyodan ketib kim bo‘ldim?  
– Tug‘ilmoqdan ne eding avval,  
O‘lganda ham shudirsan, bilgin.

*(Olimjon Xoldor)*

Tenglik yo‘q joylarda yomondir qismat,  
Tili omon bo‘lsa, o‘lmaydi millat,  
Jahonda hech bir xil qurolida qudrat –  
“Tinchlik” so‘zin yozgan qalamcha yo‘qdir.

*(Omon Matjon)*

#### **II. Suhbat.**

- Tabiat nima?
- Butun borliq.
- Jamiyat va tabiat munosabati?
- O‘zaro uyg‘unlikda.

#### **III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.**

##### **Tabiat**

Tabiat keng ma‘noda bu dunyo, olam, koinot, jonli va jonsiz borliqdir. Tor ma‘noda esa tabiat fanlari o‘rganadigan soha. Tabiat odamga va jamiyatga bog‘liq bo‘lmagan qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Odam tabiatning bir qismidir. Inson tabiat qonunlarini o‘zgartira olmaydi, faqat o‘sha qonunlardan foydalanadi. Ana shu qonunlarga asoslanib tabiat qismlarini o‘zlashtirishi mumkin. Tabiat tushunchasiga insonlar jamiyatining yashashi hamda tabiiy sharoitlarning majmui sifatida ham qaraladi. Inson yashash uchun mehnat qiladi. Ana shu mehnat tabiatning ayrim jihatlarini o‘zgartiradi. Odam tomonidan, yani ijtimoiy mehnat jarayonida yaratiladigan moddiy boyliklar shartli ravishda “*ikkinchi tabiat*” deyiladi. Odamning tabiatga munosabati tarixda o‘zgarib, rivojlanib borgan. Antik falsafada

tabiatga nisbatan “*stixiyali kuchlar*” (*Demokrit*), “*ideal dunyoning in’ikosi*” (*Platon*), “*uyg’un jarayon*” (*Pifagor*), “*mukammallik*” (*Aristotel*) degan qarashlar mavjud bo’lgan. Diniy ta’limotlarga ko’ra tabiat ruhiy ibtidoning moddiy gavdalanishi deb hisoblangan. Yaratgan esa tabiatdan yuqori deb baholangan. Uyg’onish davrida tabiatga hamma tabiiy uyg’unlik va mukammallikning yuzaga chiqishi deb qaralgan. Yangi davrda tabiatga bo’lgan munosabat uning ilmiy o’rganish ob’ektiga aylanishida muhim vazifa bajardi. Tabiat odamning, jamiyatning vatanidir, shuning uchun uni avaylab asrashimiz kerak (*O’zME, 8-jild, 207-bet*).

### Lug’at

Tabiat-природа, keng-широкий, ma’no-смысл, dunyo-мир, olam-свет, koinot-космос, jonli-живой, jonsiz-неживой, borliq-существование, tor-узкий, soha-область, jamiyat-общество, qonuniyat-законность, bo’ysunmoq-подчиняться, qism-часть, раздел; foydalanmoq-пользоваться, asoslanmoq-обосновываться, o’zlashtirmoq-усваивать, tushuncha-понятие, tabiiy-природный, sharoit-условия, qaramoq-смотреть, наблюдать; mehnat qilmoq-работать, o’zgartirmoq-менять, moddiy-материальный, boylik-богатство, rivojlanmoq-развиваться, kuch-сила, uyg’un-соответ- ствующий, jarayon-процесс, mukammallik-законченность, diniy-религиозный, ta’limot-учение, ruhiy-духовный, ibtido-начальный, moddiy-материальный, gavdalanmoq-виднеться, Yaratgan-бог, yuqori-верх, baholanmoq-оцениваться, uyg’unlik-соответствие, munosabat-отношение, ilmiy-научный, asramoq-содержать.

## IV. Mustaqil ta’lim uchun matnlar.

### Osiyoning tabiati

Osiyo – Yer sharidagi eng katta qit’a. Butun quruqlik maydonining taxminan 30 foizini egallagan. Shimoliy yarimsharning barcha geografik mintaqalarini o’z ichiga oladi, qisman janubiy yarimsharga kirib borgan. Osiyoning shimoldagi eng chekka nuqtasi Chelyuskin burni, janubdagi chekka nuqtasi Piay burni, sharqdagi chekka nuqtasi Dejnev burni, g’arbdagi chekka nuqtasi Bobo burnidir. Osiyo shimoldan Shimoliy muz okeani, sharqdan Tinch okean, janubdan Hind okeani, janubi-g’arbdan Atlantika okeani dengizlari bilan o’ralgan. Osiyoning maydoni 43,4 mln. km<sup>2</sup> (Kavkaz bilan), shundan 8 million kilometr kvadrat yarim orollar, 2 million kilometr kvadratdan ortig’i orollardir. Dunyodagi eng baland cho’qqi – Himolay tog’laridagi Jomolungma cho’qqisi (8848 metr) ham Osiyoda joylashgan. Osiyo maydonining to’rtidan uch qismi tog’lar va yassitog’lardir. Osiyo maydonining to’rtidan bir qismi tekisliklardan iborat. Tog’lar va tekisliklarning asosiy xususiyatlari mezoziy va al’p tog’ burmalanishlaridan tarkib topgan. Osiyoda bir qancha iqlim zonalari – tundra iqlimi zonasidan ekvatorial va janubiy tropik iqlim zonalari uchraydi. Osiyoda 3720 mln. aholi yashaydi (2001 yil). Ilk sivilizatsiya markazlari qadimda Osiyoda yuzaga kelgan. Buyuk davlatlar Bobil, Shumer, Ossuriya, Xarappa,

Urartu, Uch Buyuk mo'gul imperiyalari Osiyoda yuzaga kelgan (*O'z ME, 6-jild, 577-bet*).

### Tabiat va dengiz

Dengiz dunyo okeanining bir qismidir. Dengiz quruqlik bilan qancha ko'p o'ralgan bo'lsa, okeandan farqi shuncha ko'p boladi. Okeanlarning ayrim ochiq qismlari ham shartli ravishda **dengiz** deyiladi. Masalan: *Saragasso dengizi, Filippin dengizi*. Aslida **ko'l** bo'lgan dengizlarga *Orol dengizi, Kaspiy dengizi, O'lik dengizlar* kiradi. Ba'zi dengizlar quruqlik ichkarisiga kirganligi uchun **qo'ltiq** deb ataladi. Masalan: *Gudzon qo'ltig'i, Fors qo'ltig'i*. Dengizlar geografik o'rniga ko'ra uchga bo'linadi. Birinchisi materiklar orasidagi dengizlar juda chuqur bo'ladi. Bularga *O'rta dengiz, Avstraliya va Osiyo orasidagi dengizlar, Karib dengizi* va *Qizil dengizlar* kiradi. Ikkinchisi materikdagi dengizlar biron materik ichkarisida joylashgan bo'ladi. Bularga *Oq dengiz, Boltiq dengizi, Qora dengiz, Azov dengizi* kiradi. Uchinchisi chekka dengizlar hisoblanib okean va materiklarning chetida joylashgan bo'ladi. Bularga *Barnes dengizi, Kara dengizi, Sharqiy Sibir dengizi, Chukotka dengizi, Bering dengizi, Yapon dengizi va Shimoliy dengiz* kiradi. Dengiz bo'yidagi quruqliklar iqlimiga, suv tizimiga va suv osti yotqiziqlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Dengiz atrofidagi daryolar unga chuchuk suv bilan **loyqa** (*oqiziq*) jinslarni keltiradi. Eng chuqur dengizlar yer po'stining o'pirilgan, yorilgan joylarida hosil bo'lgan. O'rta dengizning eng chuqur joyi 5121 metr, Karib dengizining eng chuqur joyi 7090 metrni tashkil etadi. Sayoz dengizlar materik chekkalaridagi cho'kkan qismini okean suvining bosishidan yoki okean sathining ko'tarilishidan paydo bo'lgan.

### V. Grammatik terminlar.

**1. Tushum kelishigining** qo'shimchasi **-ni**. Bu kelishik qo'shimchasi olmoshni, otni, otlashgan so'zni fe'lga bog'laydi. Tushum kelishigidagi so'zlar **kimni? nimani? qaerni?** so'roqlariga javob bo'ladi. Gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

#### Tayyor qoliplar

Men	{ ko'yagimni tuflimni etigimni }	kiyaman.
Men	{ labimni ko'zimni tirnog'imni }	bo'yayman.
Men	{ ro'molimni sochimni sharfimni }	o'rayman.

Masalan:

1) Sobir **kitobni** o'qidi.

- 2) Kecha u **Boburni** ko‘rdi.
- 3) U **Toshkentni** tomosha qildi.
- 4) Ikki kun oldin **uni** ko‘rgan edim.
- 5) **Yaxshini** maqtaydilar.

2. **Tabiiy til** fikr almashuv jarayonida vosita bo‘lib avloddan avlodga o‘tib kelayotgan tildir. M.: *turkiy, forsiy tillar*.

3. **Talaffuz me‘yori** adabiy tilga xos talaffuzni belgilovchi mezon. M.: *ketti emas ketdi, ushta emas uchta*.

4. **Talaffuz lug‘ati** so‘zlarning adabiy talaffuzi qayd etiladigan lug‘at. M.: “O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati” (T., “O‘qituvchi”, 1977).

## VI. Ish qog‘ozi.

### Tavsiyanoma

Men Botir Nosirovni 1974-yildan beri yaqindan taniyman, 1984-yildan boshlab O‘z FA Til va adabiyot institutida birga ishlaymiz. Bu davr ichida u atamashunoslik sohasida yetuk mutaxassis sifatida tanildi, filologiya fanlari nomzodi bo‘ldi. Uning dissertatsiya ishi, bir qancha maqolalari ilmiy puxtaligi bilan ajralib turadi. Botir Nosirov intizom va qat‘iyatliligi bilan jamoada obro‘ qozongan, totuv oilaning boshlig‘i. Institut ilmiy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etib kelmoqda. Shu sababli men Botir Nosirovni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo‘mitasida ishlash uchun tavsiya qilaman.

(imzo) filologiya fanlari nomzodi N.Qosimov  
2000-yilning 16-fevrali

**Tayanch iboralar:** *tabiat, dunyo, olam, koinot, borliqdir, soha, stixiyali kuchlar, Demokrit, ideal dunyoning in‘ikosi, Platon, uyg‘un jarayon, Pifagor, mukammallik, Aristotel, Yaratgan, baholanmoq, uyg‘onish davri, ilmiy o‘rganish ob‘ekti, jamiyatning vatani, asramoq.*

### Asosiy so‘zlar



52-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlang.

53-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

54-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Inson va salomatlik

**I. Nutq tovushiga izoh:** “S” undoshi til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz tovush hisoblanadi.

### Taqqoslang:

O'zbekcha	Ruscha
saralash	селекция
safdosh	соратник
sahifa	страница
serquyosh	солнечный
so'z	слово

### Tez aytish

Savdogar sabzini sotdi.

### Bo'g'inlarni to'g'ri o'qing!

So-vun, so-at, su-pur-gi, sab-zi, sar-ta-rosh, so-tuv-chi, suv-sa-moq.

### II. Zaruriy so'zlarni ko'chirib yozing va tarjima qiling:

Sabab, sabr, savdo, saylov, sakramoq, salqin, sanoat, san'at, saqlamoq, sevmuq, sevinch, sezgir, semiz, sen, sepmoq, siyosat, siyoh, sinf, sirtqi, soat, sovun, sovuq, soliq, sotmoq, sun'iy, surat, sust, sulh, suyuq, suyak, sug'ormoq, so'zlamuq, so'rg'ich, sabzi, saviya, savod, savol, sadaqa, sadoqat, sayohat, sayyoh, saylamuq, saksovul, salomlashmoq, saralamuq, sartarosh, sarflamoq, saf, sachramuq, sergap, siljimoq, sindirmoq, sirg'anmoq, sotuvchi, suvarak, suzmoq, suhbat, sug'urta, so'kmoq, so'ramoq, savdolashmoq, sayramoq, salqinlashmoq, sanamoq, sarg'aymoq, sevinmoq, sezmoq, semirmoq, sensiramuq, sizlamuq, silamoq, singdirmoq, sirpanmoq, sitilmoq, siqilmoq, siqmoq, sig'dirmoq, sovimoq, sig'inmoq, sovunlamuq, sozlamuq, solmoq, sochmoq, soqovlanmoq, sog'lomlashtirmoq, sog'moq, suvsamoq, supurmoq.

### III. So'z birikmalari tuzishni o'rganing!

- |                          |                                 |
|--------------------------|---------------------------------|
| 1) sinfboshining savoli; | 4) savdodan sovimoq;            |
| 2) soatni sozlamuq;      | 5) san'at haqida suhbatlashmoq; |
| 3) sotuvchiga sotmoq;    | 6) sezgir suratkash.            |

### Paronimlarni farqlang:

*Sayd* (охота) – *sayid* (потомок пророка), *sanat* (считать) – *san'at* (искусство), *saqov* (болезнь) – *soqov* (заика, немой), *suylmoq* (разжижаться) – *suylmoq* (быть любимым), *surat* (фотоснимок) – *sur'at* (темп).

### IV. To'rtliklarni yod oling.

Senga kim qilarkan odamgarchilik,  
Javob ber unga sen qilib yaxshilik,  
Vafoga vafodir kishilik haqi,  
Vafo qil, odil bo'l, nom ol mangulik.

(Yusuf Xos Hojib)

Sen bilan o‘tgan har kun bayram-bazm,  
Sensiz bir on qolsam qahrim keladi.  
Seni bilganlarga qilaman ta’zim,  
Seni bilmaslarga rahmim keladi.

(*Muhammad Yusuf*)

## V. Suhbat.

- Sog‘liqni saqlashning maqsadi?
- Aholini himoya qilish.
- Kim mas’ul?
- Davlat.

## VI. Asosiy matnni yozing va yod oling.

### Sog‘liqni saqlash

Aholining sog‘ligini muhofaza qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy tadbirlar tizimi. Sog‘liqni saqlash Sharqda uzoq tarixga ega. Ayniqsa, o‘rta asrlarda yada yuqori bosqichga ko‘tarildi. O‘sha davrdagi Sharq mutafakkirlari tabobat ilmida jahonshumul asarlar yaratdi. **Beruniyning** “*Tibbiyotda dorishunoslik*”, **Ibn Sinoning** “*Tib qonunlari*” asarlari jahon tibbiyotida uzoq vaqt darslik vazifasini bajardi. Keyingi davrlarda *tabiblik* Turkistonda sog‘liqni saqlashning asosiy shakli bo‘lib keldi. Maxsus *shifoxonalar* (“*Doril ush-shifo*”) faoliyat ko‘rsatgan. Amir Temur davrida boshqa mamlakatlarning mashhur tabiblari *poytaxt Samarqandda* maxsus shifoxonalar ochishgan. Rusiya bosqinidan so‘ng *Toshkentda* (1868), *Samarqandda* (1872), *Xivada* (1873), *Buxoroda* (1891) kichik *kasalxonalar* ochilgan. 1880-yili Toshkentda xayriya yo‘li bilan *mitti tug‘ruqxona* ochilgan. 1918-yili Toshkentda dastlabki *tibbiyot o‘quv yurti* (hozirgi Oxunboboyev nomli bilim yurti) ochilgan. 1920-yilda O‘rta Osiyo davlat universiteti qoshida *tibbiyot fakulteti* ish boshladi. XX asrning 20-yillaridan sog‘liqni saqlash sohasida sezirarli o‘zgarishlar bo‘ldi. Barcha mavjud *tibbiy maskanlari* davlat tasarrufiga o‘tkazildi. Epidemiyaga qarshi emlash ishlari boshlandi va yuqumli kasalliklarning oldi olindi. 1924-yili respublikamizda 53 ta kasalxona, 151 ta tibbiy markaz, 40 ta boshlang‘ich tibbiy maskan bor edi. 1931-yilda Toshkent va Samarqandda *tibbiyot institutlari* ochildi. 1937-yilda Toshkent *farmatsevtika institutiga* asos solindi. O‘sha yili Toshkent *Sil kasalliklari instituti* va *Qon quyish instituti* faoliyat ko‘rsata boshladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 10 dan ortiq tibbiyot oliy o‘quv yurti, 10 ga yaqin ilmiy tekshirish instituti va 1000 dan oshiq kasalxona ishlab turibdi. 1993-yilda davlatimizda “*Sog‘lom avlod uchun*” ordeni ta’sis etildi. 1998-yilda “Sog‘liqni saqlash” davlat dasturi qabul qilindi (*O‘zME, 8-jild, 2004, 32-34-betlar*).

### Lug‘at

Aholi-население, sog‘lik-здоровье, muhofaza qilmoq-защищать, yo‘naltirmoq-направлять, ijtimoiy-социальный, iqtisodiy-экономический, tadbir-мероп-

приятие, tizim-система, saqlamoq-сохранять, uzoq-долгий, ayniqsa-особенно, yuqori-высокий, ko'tarmoq-поднимать, tabobat-лечение, jahonshumul-всемирный, yaratmoq-создавать, vazifa-функция, bajarmoq-выполнять, shifoxona-больница, royтахt-столица, ochmoq-открывать, хауриya-благодетельное, mitti-маленький, tug'ruqхона-родильный дом, dastlabki-первоначальный, o'quv yurti-учебное заведение, sezirarli-заметный, o'zgarish-изменение, boshlamoq-начинать, maskan-обиталище, tasarruf-владение, emlamoq-производить прививку, natijada-в результате, yuqumli-инфекционный, yo'qolmoq-теряться, boshlang'ich-начальный, markaz-центр, sil-туберкулёз, qon quyish-переливание крови, ilmiy tekshirish-научно-исследовательский, ta'sis qilmoq-основывать, dastur-программа, qabul qilmoq-принимать.

## VII. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Sog'liqni saqlash tarixi

Tibbiyotning xalq tabobatidan mustaqil fan darajasiga ko'tarilishida qadimgi Misr, Bobil tibbiyoti, Gippokrat va Galenning muhim o'rni bor. Gippokrat kasalliklarni aniqlash, bemorning hayoti va faoliyatiga tashqi muhitning ta'sirini o'rganish, xastalikning kelib chiqish sabablarini topish va davolashda bemor organizmining o'ziga xos xususiyatlarini bilish kabi masalalar bilan shug'ullangan. Galen esa birinchi bo'lib organizmdagi a'zo va tizimlarning tuzilishi hamda funktsiyalarini hayvon(maymun)lar organizmida tajriba qilib o'rgangan. Uning anatomiya va fiziologiyaga oid asarlari XVI asrgacha tibbiyotning asosi bo'lib kelgan. Sharq tabobatida qadimgi yunon, sanskrit va boshqa tillardagi asarlar tarjima qilindi. Husayn ibn Is'hoq al-Isbodi (809-877) Galenning "*Sodda dorilarning quvvatlari*", Badig'ursning "*Sodda dorilarnig o'rniga o'tuvchilar*" asarlarini arab tiliga tarjima qilgan. Abu Hanifa ad-Dinavoriy(815-yilda tug'ilgan) "*O'simliklar haqida kitob*" asarini yaratgan, unda 482 xil o'simlikning dorivorlik xususiyatlari bayon qilingan. Beruniyning "*Kitob as-saydana fi-t-tib*" (Tibbiyotda dorishunoslik) asari O'rta Osiyo dorishunosligiga asos bo'ldi. Abu Bakr ar-Roziyning tibbiyot ensklopediyasi hisoblangan 25 jildlik "*Al-Havoii nomi bilan tanilgan katta to'plam*" asari shu paytgach Sharq va G'arbda qadrlanadi. O'rta asrda Abu Ali ibn Sino o'zining "*Tib qonunlari*" asari bilan jahon tibbiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Bu asar hozirgacha asosiy qo'llanma bo'lib kelmoqda. Ibn Sinoning yana bir asari "*Yurak dorilari*" ham mavjud. Bundan tashqari Abu Mansur, Yusuf Iloqiy, Badridin Samarqandiy, Najibuddin Samarqandiy (XIII asr), Ali Xurosoniy(XV-XVI asrlar), Muhammad Xorazmiy(XVII asr), Ja'farxo'ja Hozoraspiy(XVIII-XIX asrlar), Mahmud Ho'qandiy(XIX asr) va boshqa mashhur olimlarning asarlari bizgacha etib kelgan (*O'zME, 8-jild, 2004, 32-34-betlar*).

### Sino

Ibn Sino buyuk qomusiy olim, tibbiyot fanining asoschisidir "*Meditisina*" atamasi "*Madadi Sino*" so'zidan kelib chiqqan. Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn

Sino 980-yilda Buxoroning Afshona (Isfana) qishlog'ida tug'ilgan. U maktab, madrasada o'qiydi va 9-10 yoshlarida Qur'oni Karimni yod oladi. 16 yoshida shoh Nur ibn Mansurni davolab mashhur tabib bo'ladi. 20 yoshlarida Abu Rayhon Beruniy bilan xat yozishib turgan. Ibn Sino Xorazmdagi "Ma'mun akademiyasi"ga borib, olimlar bilan bahslashgan. Yetti yil (1005-1012) Xorazmda yashaydi. So'ng Sharq mamlakatlariga ketadi. Ibn Sino 280 dan ortiq asar yozgan. Shundan 160 tasi bizgacha yetib kelgan. Ibn Sinoning eng mashhur asari "Al-qonun fi-t-tibb" ("Tib qonunlari" 15 kitob, 14 jilddan iborat) hisoblanadi. Olti asr davomida Yevropada darslik vazifasini bajargan. Ibn Sino Pasterdan 800 yil avval ayrim kasalliklarning ko'zga ko'rinmas jonivor (mikrob)lar orqali yuqishi aytgan. Diagnostika va dorishunoslikda uning xizmatlari tengsizdir. U tibbiyotga oid o'nga yaqin asarini she'riy yo'lda yozgan. Ibn Sinoning "Al-Manzuma fi-t-tibb" (Tibda nazmiy asar) kitobi "*Tib qonunlari*" dan keyingi o'rinda turadi. Bu asarni "*Tibbiy doston*" ("O'rjuza") deb ham atashadi. Ibn Sino musiqaga oid 5 ta kitob yozgan. Adabiyotshunos sifatida "Fan ash-she'r" (She'r ilmi) asarini yozgan. Sinoning "*Kitob ush-shifo*" (20 qism) asari tabiiy fanlar to'g'risida bahs yuritadi. Ibn Sino shoir sifatida doston, qasida, g'azal, ruboiy, fard kabi janrlarda ijod qilgan. Ibn Sino arab tilida *Qur'oni Karim* asosidagi "Yusuf" qissasini, "Risolat at-tayyor" (Qush risolasi), "Hayy ibn Yaqzon" falsafiy, ramziy-romantik qissalarini, "Salomon va Ibsol" ishqiy-sarguzasht qissasini yozgan. Dariy (fors) tilida "Donishnoma" (Bilim kitobi), "Forscha mantiq", "Tomir urishi haqida kitob" asarlarini yozgan. Ibn Sino she'rlaridan xulosa: "*Umrni bekor o'tkazmaslik*"dir. Zayniddin Vosifiy (1485-1532) o'zining "Badoyi ul-vaqoe" asariga Ibn Sino haqidagi hikoyalarni kiritgan. Ibn Sino 1037-yilda vafot etgan. 1980-yilning 18-avgustida jahon ilm ahli ulug' mutafakkir tavalludining 1000 yilligini nishonladi (*O'zME, 4-jild, 2002-yil, 53-59-betlar*).

## VIII. Ish qog'ozi.

### So'rov xati

*Samarqand tuman hokimligiga*

«O'zbekiston ovozi» gazetasi tahririyati Shreder nomidagi Bog'dorchilik, tokchilik va vinochilik ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining Samarqand filialidagi bir guruh ishchilardan tahririyatga kelgan ushbu shikoyat xatini ko'rib chiqish uchun Sizga yo'llaydi. Tekshirish natijalari haqida tahririyatni xabardor qilishingizni so'raymiz.

*Xatlar va ommaviy ishlar*

*bo'limi mudiri*

*(imzo)*

*Yu. Berdiev*

*(M. Aminov va boshqalar. Ish yuritish. T., 2000, 297-bet).*

## IX. Grammatik terminlar.

1. **Sifat** otga bog'lanib uning belgisini bildiradigan, qanday?, qanaqa?, qaysi? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar turkumidir. M.: *mehribon, oq, nordon, keng, muattar, ichki, kunduzgi.*



**2. Son** narsaning nomini, son-sanog‘ini, tartibini bildirib qancha?, necha?, nechta?, nechanchi? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar turkumidir. M.: *bir kishi, ikkinchi sinf, beshta, uch dona, o‘ntacha, minglab odamlar, yuzlarcha askar, soat o‘nlarda, ikkala, oltovlon, yettov, to‘rttadan, beshdan ikki, yarim.*

### Asosiy so‘zlar



**Tayanch iboralar:** *sog‘liqni saqlash, tabobatga oid asarlar, tabiblik, Doril ush-shifo, qomusiy olim, tibbiyot o‘quv yurti, tibbiyot fakulteti, tibbiyot oily o‘quv yurti, tibbiyot fanining asoschisi, Abu Ali ibn Sino, Afshona, til oldi, sirg‘aluvchi, sifat, belgi, son-sanoq, tartib, miqdor.*

55-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlang.

56-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

57-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Huquqiy madaniyat

**I. Nutq tovushiga izoh:** “H” undoshi sirg‘aluvchi, jarangsiz, bo‘g‘izda hosil bo‘ladigan olinma tovush hisoblanadi. O‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan.

### To‘g‘ri talaffuz qiling!

1) ruh - дух, настроение  
ruh - ладья

3) hush - сознание  
xush - радостный

2) shoh - цар  
shox - ветка, рог

4) hol - состояние, положение  
xol - родинка

### Tez aytish

Hamalda hamma halim hozirlaydi.

### Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!

Hov-li, ham-sha-har, hay-dov-chi, hi-so-bot, ho-zir, hi-moya.

### II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:

Hayfsan, halok bo‘lmoq, hamyon, hamshahar, haqiqat, hid, himoya, hisoblamoq, hujjat, hur, hukm, hushtak, huquq, haydovchi, hidlamoq, habash, hadik, hadya, hazm, hayrat, hamdo‘stlik, harakat, hisobot, hozirlamoq, hordiq, hunar, hurmat, hushyor, ho‘ngramoq, hazillashmoq, hayiqmoq, hayratlanmoq, hayqirmoq, halloslamoq, hangomalashmoq, harsillamoq, hasratlashmoq, hayajonlanmoq, haqoratlamoq, hilpillamoq, hovliqmoq, holsizlanmoq.

### III. Soʻz birikmalari tuzishni oʻrganing!

- 1) hujjatning huquqi;
- 2) haftani hisoblamoq;
- 3) haydovchiga hazillashmoq;
- 4) hujjatdan hayratlanmoq;
- 5) hamshira bilan hasratlashmoq;
- 6) harbiy hiyla.

### II. Toʻrtliklarni yod oling.

Hurlardan hur oʻzing, xurshidi tobon,  
Oʻzing Rayhonsan-u vujuding rayhon.  
Bu yorugʻ dunyoda sendan suluv yoʻq,  
Mendan bechora yoʻq, mendan notavon.

*(Muhammad Yusuf)*

Har murod-u, maqsadingga yetmoq istarsan, murod,  
Koʻz ochib bedor boʻl, darkor ilm, darkor ilm.  
Har taraqqiy aylagan millat eliga sol quloq,  
Kecha-kunduz soʻzlari afkor ilm, afkor ilm.

*(Hamza Hakimzoda)*

### III. Suhbat

- Xadicha Sulaymonova kim?
- Huquqshunos olim.
- Qanday unvonga ega?
- FAsining akademigi.

### IV. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

#### Huquqshunos olim

Huquqshunos olim Xadicha Sulaymonova 1913-yilning 3-iyunida Andijon shahrida tugʻilgan. U boshlangʻich maʼlumotni va oʻrta taʼlimni ona shahrida olgan. 1935-yilda Oʻzbekiston MIQ huzuridagi Shoʻro qurilishi va huquqi institutini tugatgan. 1939-1941-yillarda Moskva yuridik institutida aspirant boʻlib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1941-1954-yillarda Toshkent yuridik institutidagi Jinoyat huquqi kafedrasida assistent, dotsent va kafedra mudiri boʻlib ishlagan. 1951-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan va 1952-yilda professor unvonini olgan. 1954-1955-yillarda institut rektori lavozimida xizmat qilgan. 1955-1956-yillarda Oʻrta Osiyo davlat universitetidagi Yuridik fakulteti dekani boʻlib ishlagan. 1956-yilda Oʻzbekiston FAsining akademigi boʻlgan. 1956-1959-yillarda Oʻzbekiston Adliya vaziri boʻlib ishlagan. 1959-1964-yillarda Oʻzbekiston Ministrlar Kengashi huzuridagi Adliya komissiyasining raisi boʻlib ishlagan. 1964-yildan umrining oxirigacha Oʻzbekiston Oliy Sudining Raisi lavozimida faoliyat koʻrsatgan. Xadicha Sulaymonova 1965-yilning 26-noyabrida Toshkent shahrida vafot etgan. Huquqshunos olimaning ilmiy ishlari jinoyat

huquqi, xotin-qizlar huquqi va huquqshunoslikning umumiy masalalariga bag'ishlangan. Xadicha Sulaymonova O'zbekiston FA Falsafa va huquq institutini (1958), respublika Adliya vazirligi huzuridagi Sud ekspertizasi institutini (1959) tashkil etishda katta xizmat qilgan. Olimaning nomi Toshkent shahridagi ko'chalardan biriga va Sud ekspertizasi institutiga berilgan. Toshkent yuridik institutida Xadicha Sulaymonovanning muzeyi bor (*O'zME, 8-jild, 2004-yil, 121-122-betlar*).

### Lug'at

Huquqshunos-правовед, boshlang'ich-первоначальный, ma'lumot-obrazovanie, o'rta-sredniy, ta'lim-obrazovanie, vazir-ministr, rais-predsedatel, jinoyat-prstuplenie, umumiy-obshiy, masala-problema.

## V. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Huquq va burch

**Huquq** – davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umumiy majburiy, ijtimoiy tartibotlar tizimi. **Burch** kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt va Vatan oldidagi majburiyatlarini anglatuvchi axloqiy tushunchadir.

### Haqiqiy ayg'oqchi

Mamadali Topivoldiyev 1919-yilning 20-sentabrida Farg'ona viloyati Rishton tumanidagi Pandigon qishlog'ida tug'ilgan. Yoshligidan sho'x va o'jar bola bo'lgan. Mamadali (Muhammadali) oddiy qishloq maktabida a'lo baholarga oqigan. Maktabni bitirgandan so'ng dalada mehnat qilgan. Keyin harbiy xizmatga ketgan. Mamadali 1941-yildan Ikkinchi jahon urushida qatnashgan. O'sha yili Borisov shahri yaqinidagi janglarda yaralanib asirlikka tushib qolgan. 1942-yilda asirlikdan qochib Belorussiya o'rmonlaridagi partizanlarga qo'shilgan. Rus tilini yaxshi bilgani uchun juda tez tanilgan. Jasur va qo'rqmas bo'lgani sababli razvedka bo'linmasining komandiri bo'lgan. Fashestlarning juda ko'p harbiy texnikalarini yo'q qilishda bosh bo'lgan. Katta yer, ya'ni Qizil Armiya shtabi bilan aloqa o'rnatgan. Besh marta front chizig'ini kesib o'tib Moskvaga maxsus xat olib borgan. Partiznlar orasida "**Kazbek**" ("**O'zbek**"ning nemischa talaffuzda buzulgan shakli) laqabi bilan mashhur bo'lgan. Fashestlar qo'mandonligi Mamadali Topivoldiyevning boshi uchun juda katta miqdorda mukofot puli ajratgan, lekin uni qo'lga tushirisha olmaganlar. Mamadali Topivoldiyev Mogilyov viloyati Krugloe tumanidagi janglarda alohida qahramonlik ko'rsatgan. 1944-yilning avgustida Ittifoq Qahramoni unvoniga sazavor bo'lgan. Mogilyov viloyati Krugloe shaharchasiga Topivoldiyev nomi berilgan. Mamadali Topivoldiyev urushdan so'ng ona-Vataniga qaytib kelgan jamoa xo'jaligi raisi lavozimida ishlagan. 1969-yilning 7-mayida fojiali ravishda halok bo'lgan. Farg'ona viloyati Rishton tumanidagi Zodiyon qishlog'ida unga byust o'rnatilgan. Farg'ona, Rishton shaharlari ko'chgalariga, tuman qishloq kengashiga uning nomi qo'yilgan. Hozir Pandigon qishlog'ida uy-muzeyi bor (*O'zME, 8-jild, 496-bet*).

## Huquqiy ong

Huquqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri; kishilarning huquqqa, qonunga, odil sudlovga bo‘lgan munosabatlarini ifodalaydigan qarashlari, g‘oyalari majmui. Umuman olganda, huquqiy ong muayyan ijtimoiy va ilmiy nuqtai nazarlarga asoslanadigan huquqiy g‘oya, huquqiy qarashlar tizimi. Kishilarning huquqiy ko‘rinishlarga nisbatan odatlanishi va his-tuyg‘ulari huquqiy ongning ruhiy tomonini tashkil etadi (masalan, adolatni his etish, jinoyat va g‘ayriqonuniy qilmishlarga nafrat bilan qarash). Huquqiy ong ijtimoiy ongning boshqa shakllari, xususan siyosiy ong bilan uzviy bog‘liq. Chunki har bir shaxsning huquqiy ongi uning siyosiy mavqei va siyosiy qarashlari bilan belgilanadi (*O‘zME, 11-jild, 406-bet*).

## Huquqiy maqom

Oila nikohga yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruhdir. Uning a‘zolari ro‘zg‘or birligi, o‘zaro yordam va ma‘naviy mas‘uliyat bilan bir-biriga bog‘langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifasi inson zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalashdir. Oila a‘zolarining turmush sharoitini hamda bo‘sh vaqtini samarali uyushtirish ham oilaning vazifasiga kiradi. Har bir jamiyat o‘ziga xos oila munosabatlarini o‘rnatadi. Oila xalqning, jamiyatning hayoti va turmushiga oid urf-odatlarini sinovdan o‘tkazadi. Yazshilarini o‘z bag‘rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o‘z farzadlarini tarbiyalab, umuminsoniy qadriyatlarni singdiradi. Ularga boshlang‘ich ijtimoiy yo‘nalish beradi. O‘z farzandlarini jamiyatga qo‘shish bilan esa jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma‘rifatini ham belgilashda o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadimdan mustahkam qo‘rg‘on hisoblangan ko‘p farzandlilik bilan ajralib turgan. O‘R Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko‘ra, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinadi. Oila kodeksi oilaviy munosabatlarni oila a‘zolari o‘rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi qonun-hujjatidir. Amaldagi Oila kodeksi O‘R Oliy Majlisining 1998-yil 30-aprelidagi qarori bilan tasdiqlangan. O‘sha yilning 1-sentyabrida amalga kiritilgan. Oila kodeksi 8 bo‘lim, 30 bob, 238 moddadan iboran. 1998-yil O‘zbekistonda Oila yili deb e‘lon qilingan edi.

## VI. Grammatik terminlar.

**1. Hol ergash gapli qo‘shma gaplar** quyidagi turlarga bo‘linadi: 1) *payt ergash gapli qo‘shma gap*. M.: *Ta‘til boshlangach, biz sayohatga boramiz*; 2) *o‘rin ergash gapli qo‘shma gap*. M.: *Ko‘z qaerda bo‘lsa, mehr o‘sha yerda bo‘ladi*; 3) *sabab ergash gapli qo‘shma gap*. M.: *Biz kitobni sevamiz, chunki u bilim manbaidir*; 4) *maqsad ergash gapli qo‘shma gap*. M.: *Odamlar yaxshi yashasin deb, tinchlikka imzo chekdik*; 5) *shart ergash gapli qo‘shma gap*. M.: *Agar siz menga o‘rgatib tursangiz, men durust ishlay olaman*. 6) *ravish ergash gapli qo‘shma gap*. M.: *Yulduzlar bitta-bitta so‘nib, ufq oqara boshladi*; 7) *miqdor-daraja ergash gapli qo‘shma gap*. M.: *Aql qancha qisqa bo‘lsa, til shuncha uzun bo‘ladi*.

**2. Harakat nomi** fe'ning otga xoslangan shakli bo'lib ish-harakatning nomini bildiradi, zamon, shaxs-son, maylni ko'rsatmaydi. M.: *o'qi+sh, yoz+ish, o'qi+v=o'quv, yoz+uv, o'r+mak, o'r+moq.*


**3. Holat fe'llari** shaxsning ichki kechinmalarini, narsalarning bir holatdan boshqasiga o'tishini bildiradi. M.: *qotmoq, suyulmoq, uxlamoq, quyulmoq.*

**4. Hozirgi o'zbek adabiy tili** xalq tilidagi nutq tovushlari, so'zlar va grammatik shakllarining ma'lum bir me'yorga keltirilgan shakli. XX asrning 2-yarmida shakllangan.

**5. Hind-Evropa tillar oilasi:** **1) hind** tillari guruhi: a) tirik tillar: *hind, urdu, bengal, panjob, laxndo, sinx, rajastxon, gujarat, maratxi, singal, nepal, bixar, assam, oriy, kashmir* va *lo'lilar* tili; b) o'lik tillar: sanskrit – qadimgi hind adabiy tili (yozuviga ega). **2) eron** tillari guruhi: a) tirik tillar: fors, pashtu, tojik, kurd, osetin, sug'diy; b) o'lik tillar: pomir (yozuviga ega emas), skif, pahlaviy, xorazmiy, qadimgi fors, parfyan. **3) slavyan** tillari guruhi: a) sharqiy slavyan: rus, ukrain, belorus; b) janubiy slavyan: bolgar, makedon, serb-xorvat, sloven; v) g'arbiy slavyan: chex, slovak, polyak, kashub, sorab. **4) boltiq** tillari guruhi: litva, latish. **5) german** tillari guruhi: a) shimoliy german: dan, shved, norveg, island; b) g'arbiy german: ingliz, golland, fris, nemis; v) sharqiy german (o'lik tillar): vestgot, ostgot. **6) roman** tillari guruhi: fransuz, italyan, ispan, portugal, rumin, moldavan, latin (o'lik tillar). **7) kelt** tillari guruhi: irland, shotland, gel. **8) grek** tillari guruhi: grek. **9) alban** tili. **10) arman** tili.

**Tayanch iboralar:** *huquqshunos, huquq, burch, jinoyat huquqi, xotin-qizlar huquqi, umumiy masalalar, tartibotlar tizimi, axloqiy tushuncha.*

### Asosiy so'zlar



58-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlash.

59-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

60-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: O'zbekistonda oliy ta'lim

#### IV. To'rtliklarni yod oling.

Do'stlarim, do'stlarim, keling jipsroq,  
Gurkirasin do'stlik nomi-la qasam...  
Bor bo'lsin yaxshilik, sof yurak, aql,  
Bizga ilm bergan Dorilfunun ham.

(Abdulla Oripov)

Olamda ko‘p erur muborak onlar,  
Tabarruk zotlar ham garchand ko‘p erur,  
Sizgadir ilk rahmat, aziz insonlar,  
Munis muallimlar, Sizga tashakkur.

(*Abdulla Oripov*)

## V. Suhbat.

- “Universitet” so‘zining ma’nosi?
- “Majmua”dir.
- Qanday yuzaga kelgan?
- Madrasai oliyalar ta’sirida.

## VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

### Universitetlar

“*Universitet*” so‘zi lotinchada “*majmua*” ma’nosini bildiradi. Tabiiy, ijtimoiy va gumanitar yo‘nalishda yuksak malakali mutaxassislar tayyorlaydigan ko‘p tarmoqli oily o‘quv va ilmiy maskan hisoblanadi. Musulmon Sharqidagi mahhur *madrasai oliyalar* universitetlarning paydo bo‘lishiga zamin bo‘lgan. O‘rta asr Yevropasida dastlab turli sherikchilik birlashmalari bolgan, so‘ngra shirkatlar yuzaga kelgan, keyin universitetlar shakllangan. Ilk universitetlar Italiyaning Bolonya (XI asr), Salerno (XII asrning oxiri), Fransiyaning Parij (1215), Monpele (1289), Britaniyaning Kembrij (1209), Oksford (XII asrning 2-yarmi), Ispaniyaning Salamanka (1218), Portugaliyaning Lissabon (1290) shaharlarida paydo bo‘lgan. XIV asrga kelib Markaziy Yevropada Praga (1348), Krakov (1364), Vena (1365) universitetlari ochildi. Bu universitetlarda to‘rtta fakultet (*artistlik, ilohiyot, tibbiyyot, huquq*) bo‘lgan. Artistlik hamma uchun majburiy bo‘lib, unda ritsarlar uchun zarur “*yetti erkin san’at*” o‘rgatilgan. Artistlik fakultetining grammatika, retorika, dialektologiya asoslarini o‘rgangan talabasiga *san’at bakalavri* darajasi berilgan. Fakultetning falsafa, arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa nazariyasining to‘liq kursini o‘zlashtirgan talaba *san’at magistri* darajasi erishgan va uch fakultetdan biriga kirib o‘qish huquqini qo‘lga kiritgan. Daslabki universitetlarda xuddi madrasalar kabi o‘qish muddati ham, talabalarning yosh chegarasi ham belgilab qo‘yilmagan. Amalda universitetlardagi o‘qish muddati 12-14 yil davom etgan. Chet ellardagi hozirgi universitetlar tashkiliy tuzilishiga ko‘ra, mustaqil fakultet, institut, maktab va kollejlarning o‘ziga xos birlashmasidan iborat. Dunyoda universitet ta’limining Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya tizimlari keng yoyilgan. Turkistonda madrasai oliyalar IX asrda yuzaga kelgan. Zamonaviy universitet esa Toshkentda 1918-yilning 21-aprelida (*Turkiston xalq universiteti*) ochildi. 1918-yilning 12-mayida Munavvarqori Abdurashidov rahbarligida *Turkiston musulmon xalq dorilfununi* tashkil etilgan. O‘zbekistonda birinchi universitet 1933-yilda Samarqand (Samarqand universitet) shahrida ochildi (*O‘z.ME, 9-jild, 2005-yil, 104-105-betlar*).

## Lug‘at

Мажмуа–сборник, bildirmoq–сообщать, tabiiy–естественный, ijtimoiy–общественный, yo‘nalish–направление, yuksak–высокий, malakali–имеющий навык, mutaxassis–специалист, tayyorlamoq–готовить, ko‘p–много, tarmoqli–разветвлённый, maskan–обигалище, madrasai oliya–высшее мусульманские учебные заведения, sherikchilik–товарищество, birlashma–соединение, shirkat–сообщество, artistlik–профессия артиста, ilohiyot–богословие, tibbiyuot–медицина, huquq–право, majburiy–принудительный, erkin–свободный, san‘at–искусство, o‘rgatmoq–обучать, musiqa–музыка, nazariya–теория, o‘zlashtirmoq–усваивать, belgilamoq–определять, tashkiliy–организационный, tuzilmoq–составляться, birlashma–соединение, ta‘lim–обучение, dorilfunun–universitet.

## VII. Mustaqil ta‘lim uchun matnlar.

### Madrasai oliyalar

Madrasa (arabcha “*darasa*” – “*o‘rganmoq*”) musulmonlarning o‘rta va oily o‘quv yurtlari bo‘lib, ulamo, maktabdor va davlat xizmatchilari tayyolagan. VII-VIII asrlarda ulamolarning musulmon ilohiyoti masalalarini *sharhlovchi markazi* sifatida arab davlatlarida paydo bo‘lgan. XIX-XIII asrlarda islom diniga e‘tiqod qiladigan davlatlarda tarqalgan. Madrasalarda milliy ziyolilar tayyorlangan. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida yozilishicha 937-yilda yong‘indan zarar ko‘rgan “Forkaj” O‘rta Osiyodagi dastlabki madrasalardan bo‘lgan. Madrasalarning xon, eshon, bek madrasalari kabi turlari bo‘lgan. Madrasalarni iqtisodiy jihatdan ta‘minlash uchun davlat tomonidan vaqf (maxsus mablag‘ va mulk) ajratilgan. Uni boshqaruvchi shaxs sifatida *mutavalli* tayinlangan. Madrasalarning vaqf daromadining bir qismi vaqf mulki sifatida saqlab turilgan. Bir qismi binoni ta‘mirlashga, bir qismi mutavalli, madrasa mudarrisilari, talabalari, masjid imomi, muazzini, sartaroshi, farroshi va boshqa xizmatchilariga ish haqi uchun ajratilgan. Madrasaga maktabni tugatganlar qabul qilingan. Talabalarning yoshi 10 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan. Ular yotoqxonada yashovchi kunduzgi bo‘lim va erkin qatnovchi sirtqi bo‘lim talabalariga ajratilgan. O‘quv dasturlari 10-12 yilga mo‘ljallangan va takomillashib borgan. Mashg‘ulotlar sentyabr oyida boshlanib may oyigacha davom etgan. Talabalar yoz oylari va ramazon oyida ta‘tilga chiqqan. Madrasada *o‘qish kunlari* (*shanba, yakshanba, dushanba, seshanba*), *takrorlash kunlari* (*chorshanba, payshanba*), *dam olish kuni* (*juma*) bo‘lgan. Darolar (bomdod namozidan keyin) quyosh chiqish payti boshlangan. Madrasa ta‘limi uch bosqichda *boshlang‘ich* (adno), *o‘rta* (avsat), *yuqori* (a‘lo) olib borilgan. Adno bosqichi “Aqoid” kitobini o‘qishgacha davom etgan. Avsat bosqichi “Aqoid” kitobidan “Sharhi mulla” kitobigacha davom etgan. Undan keyin murakkab kitoblar a‘lo bosqichida o‘rganilgan. Talabalarning qiziqishlari va mudarrisilarning mavjudligiga qarab falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, jo‘g‘rofiya, tarix, adabiyot, aruz, me‘morlik, xattotlik, musiqa, axloq, notiqlik kabi fanlar o‘rgatilgan.

## **Madaniy ishlar**

Madaniy-ma'rifiy ishlar keng ommani, ularning umumiy madaniy saviyasini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazishga ko'mak beruvchi tadbirlar tizimidir. Madaniy-ma'rifiy ishlar mazmuni, vazifasi, maqsadi har bir davrning ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy xususiyatlariga bog'liq holda shakllanib rivojlanadi. Madaniy-ma'rifiy ishlar keng ma'noda o'quv muassasalaridan tashqarida insonning madaniy va ma'naviy o'sishiga ko'maklashuvchi barcha ishlar (klublar, ommaviy kutubxonalar, madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati) ni qamrab oladi. Muzey, kinoteatr, teatr va boshqa muassasalar ishlari o'rin tutadi. Shuningdek, radio va televidenie ham muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniy-ma'rifiy ishlar muassasalarining keng taqmoqlari yaratilib, ularning o'sishi va ntakomilasha borishi bilan unga rahbalik jarayoni ham o'zgarib boradi. Dunyoqarashni shakllantirish tarbiyasi, axloqiy tarbiya, iqtisodiy bilimlarning ilmiy-texnikaviy tashviqoti va targ'iboti, estetik va jismoniy tarbiya, badiiy havaskorlik, madaniy dam olishni tashkil qilish kabilar madaniy-ma'rifat ishi faoliyatining turli yo'nalishlaridir. Madaniy-ma'rifiy ishlar shakllari muntazam rivojlanadi va takomillashib boradi: klub muassasalarida an'anaviy shakllar (*suhbat, ma'ruza, va'zxonlik, spektakl, konsertlar*) bilan birga mavzuli kechalar, kitobxonlar anjumanlari va boshqa tadbirlar uyushtiriladi, xalq universitetlari, kinolektoriylar va boshqalar tashkil qilinadi. Bunda badiiy havaskorlik muhim o'rin tutadi. Xalq teatrlari, yoshlar tashkiloti va boshqa jamoat tashkilotlari katta madaniy-ma'rifat ishlarini amalga oshiradi (*O'zME, 5-jild, 2003-yil, 371-372-betlar*).


## **Maxsus patent**

Patent (lotincha «aniq-ravshan», «ochiq») – 1) texnik yechim (ixtiro) ning davlat tomonidan e'tirof etilganligini va ixtirochining o'z ixtirosiga olgan mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat. Davlat patent idorasi tomonidan ixtiro muallifiga yoki ariza bo'yicha huquqiy vorisiga beriladi. Ko'p mamlakatlardagi qonunlarga ko'ra, patent 15-20 yil muddat o'z kuchini saqlab qoladi. Patent u berilgan mamlakat hududida amal qiladi. Ixtirolar, foydali model, sanoat namunasiga nisbatan qo'yiladigan, patent olish huquqini vujudga keltiradigan talablar hamda patent idorasining bunday hujjatni berish tartibi O'zbekiston Respublikasining «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida» gi qonuni (1994-yilning 6-mayi) da belgilab berilgan; 2) bir qancha mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatining muayyan turlari bilan shug'ullanish uchun beriladigan maxsus ruxsatnoma. Davlatdan bunday patentni sotib olish tadbirkorlarni (odatda, yakka tartibdagi tadbirkorni) bundan keyingi (bir yilga yoki boshqa davrga) soliqlar to'lashdan ozod etadi (*O'z ME, 7-jild, 12-bet*).

**Tayanch iboralar:** *universitet, majmua, tabiiy, ijtimoiy, gumanitar, yo'nalish, malakali mutaxassislar, tayyorlamoq, ko'p tarmoqli, oily o'quv, ilmiy maskan, madrasai oliya, sherikchilik birlashmalari, shirkatlar, shakllangan.*



## Asosiy soʻzlar



61-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

62-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qoʻllash.

63-mashq. Atoqli otlar topish boʻyicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Ilm maskanimiz hayotidan

#### I. Toʻrtliklarni yod oling.

Ulugʻlik axtarsang gar oʻzligingdan,  
Quvonmoq boʻlsang hur soʻzligingdan,  
Layli lutfin soʻrab oy yuzligingdan,  
Navoiyni oʻqib ulgʻaymoq kerak.

*(Mahmud Toirov)*

Xalq naqlni toʻqimaydi atayin,  
Naqlarning umri fuzun boʻladi.  
Mana, sizga bittasini aytayin:  
Yaxshilik qil – tiling uzun boʻladi.

*(A.Oripov)*

#### II. Suhbat.

- Sharqshunoslik instituti qachon tashkil topgan?
- 1918-yilda.
- Unda qanday mutaxassislar tayyorlanadi?
- Tarjimon, siyosatshunos, tarixchi, iqtisodchi.

#### III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

##### **Institutimiz**

1918-yilning noyabrida Toshkentda Turkiston sharqshunoslik instituti tashkil etildi. 1924-yilda bu institut fakultet sifatida Oʻrta Osiyo davlat universiteti tarkibiga qoʻshib yuborildi. 1990-yilda ToshDU qoshida Sharqshunoslik instituti tashkil qilindi. 1991-yilning 15-iyulida respublika prezidenti farmoni bilan Toshkent davlat sharqshunoslik institutiga aylantirildi. Institut sharq tillari va adabiyoti, sharq falsafasi, mamlakat- shunoslik, jahon siyosati, tarix ixtisosliklari boʻyicha malakali mutaxassislar etkazib beradi. Institutda **toʻrtta** fakultet, **uchta** boʻlim va **yigirma uchta** kafedra mavjud. TDSHda **uch mingga yaqin** talaba taʼlim oladi. TDSHda taʼlim olgan talabalardan 8 tasi akademik, 12 tasi Xizmat koʻrsatgan fan arbobi, 8 tasi Xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi unvonlariga

erishgan, 12 tasi esa Beruniy nomidagi davlat mukofotga sazovor bo'lgan. Institut muassisligida “Sharq mash’ali”, “Sharqshunoslik” jurnallari nasr etilmoqda. Hozirgi kunda TDSHI da **30 ga yaqin** fan doktori va professorlar, **100 ga** fan nomzodi va dotsentlar xizmat qilmoqda. Institut dunyoning qirqdan ortiq xorijiy mamlakatlaridagi oily va o’rta maxsus o’quv yurtlari bilan kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish va malaka oshirish sohalarida hamkorlik qilmoqda. TDSHI chet ellardagi 10 ta universitet, 4 ta institut va bitta kollej bilan yaqin aloqa o’rnatib, har xil bitimlar imzolagan. TDSHI qoshida til ta’limi markazi, bosmaxona, elektron kutubxona, ikkita akademik litsey va Konfutsiy instituti faoliyat ko’rsatmoqda. (*O’zME, 8-jild, 2004-yil, 554-bet*).

### Lug‘at

Qo‘shib yubormoq-соединять, aylantirmo-преобразовать, aloqa o’rnatmoq-устанавливать связь, bitim imzolamoq-подписать соглашение, faoliyat ko’rsatmoq-работать.

## IV. Mustaqil ta’lim uchun matnlar.

### Ilmi qaryo ustoz

Atoqli olim G‘ani Abdurahmonov 1925-yilning 3-dekabrida Farg‘ona shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan. 1942-yilda o’rta maktabni a’lo baholar bilan tugatib, Farg‘ona davlat pedagogika institutining til va adabiyot fakultetiga o‘qishga kirgan. 1946-yilda institutni imtiyozli diplom bilan tugatib, Tilshunoslik kafedrasida ish boshladi. 1948-1950-yillarda Samarqand davlat universitetining aspiranturasida tahsil oldi. U 1950-yili (25 yoshida) “*O‘zbek tilida sifatlarning otlashishi*” mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va Farg‘ona davlat pedagogika institutida kafedra mudiri bo‘lib ishladi. 1956-1958-yillarda institut rektori o‘rinbosari va rektor vazifalarida xizmat qildi. 1958-yildan 1966-yilgacha O‘z FAsi Til va adabiyot institutida faoliyat ko‘rsatdi. 1960-yilda (30 yoshida) “*Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida qo‘shma gaplar sintaksisi asoslari*” mavzuida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. 1966-1971-yillarda Farg‘ona davlat pedagogika instituti rektori vazifasida ishladi. 1971-1978-yillarda (45 yoshida) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri lavozimida xizmat qildi. 1978-1983-yillarda Toshkent davlat chet tillari instituti rektori, 1983-88-yillarda Toshkent davlat pedagogika instituti rektori, 1989-1991-yillarda O‘RVK huzuridagi Respublika atamashunoslik qo‘mitasining raisi vazifasida faoliyat ko‘rsatdi. Keyin FA Tilshunoslik institutida, 1997-2014-yillarda esa Toshkent davlat sharqshunoslik institutining professori sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Hozirgi paytda qarilik gashtini surmoqdalar. Taniqli tilshunos olim 1975-yilda “*O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi*” unvoniga sazovor bo‘lgan. G‘ani Abdurahmonov tashabbusi bilan 1972-yilda Farg‘ona shahrida Mahmud Koshg‘ariy yozgan “*Devonu lug‘atit turk*” asarining 900 yilligi nishonlandi. Keyinchalik G‘ani Abdurahmonov hamda Aziz Qayumov tashabbuslari bilan “*Devonu lug‘atit turk*” va “*Qutadg‘u bilik*” asarlari o‘zbek tilida nash etildi. G‘ani

Abdurahmonovning 165 nomdagi ilmiy ishlari chop qilingan. Keyingi yillarda G‘ani Abdurahmonov boshchiligida “*Qutadg‘u bilik*” asari nashrlarining qiyosiy sharhi va ruscha tarjimasini chop etildi (*O‘zME, 1-jild, 2002-yil, 40-bet*).

### **Ilmni qoldirish usuli**

**Alifbo** so‘zini tarixda birinchi bor giksoslar qo‘llagan. Ularning tilida bu so‘z «*ho‘kizning boshiga o‘xshash uy*» degan ma‘noni bildirgan. Ilk turkiy yozuv hisoblanmish **Xorazm alifbosi** milodiy II asr oxiri – III asrning boshlarida keng tarqalgan. Mazkur alifbo oromiy yozuvining qadimiy an‘analarini saqlab qolgan. Turkiy xalqlar V–IX asrlarda **O‘rxun-Enasoy alifbosidan** keng foydalanganlar. Ushbu alifboda undosh tovushlar qattiq-yumshoqligiga qarab alohida harflar bilan ifodalangan. Alifbo singarmonizm qonuniyatlarini o‘zida to‘liq aks ettirgan. Harflar yuqoridan pastga, o‘ngdan chapga qarab, bir-biriga ulanmasdan alohida-alohida yozilgan. **Uyg‘ur alifbosi** VI asrdan XV asrgacha turkiy xalqlar orasida amalda bo‘lgan. Sariq uyg‘urlar XIX asrda ham shu alifbodan foydalanganlar. Uyg‘ur alifbosi sug‘d yozuvi asosida va suryoniy yozuvi ta‘sirida paydo bo‘lgan. O‘ngdan chapga qarab yozilgan. **Arab yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi** X – XI asrdan 1929-yilgacha qo‘llandi, 1921-yilda isloh qilindi. O‘zbek tiliga oid juda ko‘p va qimmatli yozma yodgorliklar ana shu yozuvda yozilgan. **Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi** birinchi marta 1929-yil may oyida qabul qilindi. Unda 33 harf va bir belgi bo‘lib, singarmonizm qonuniyatiga mos edi. 1934-yilda o‘zbek adabiy tilida singarmonizm hodisasi yo‘qligi sababli undan voz kechildi va harflar soni kamaytirildi. 1940-yilda **Kirill yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi** qabul qilindi. 1956-yilda unga ayrim o‘zgartirishlar kiritildi va imlo qoidalari takomillashtirildi. 1993-yilning 2-sentyabrida O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida» gi qonuni e‘lon qilindi. Ana shu qonun asosida alifbo tasdiqlandi. Mazkur alifboga ba‘zi o‘zgartirishlar (1995-yilning 6-mayi va 24-avgusti) kiritildi. Alifboning to‘liq joriy qilinishi 2010-yilning 1-sentyabri deb belgilandi.

### **Ispaniya Qirolligi**

Ispaniya Qirolligi – Yevropaning janubi-g‘arbida, Pireney yarim orolida joylashgan davlat. O‘rta dengizdagi Balear, Pitius, Atlantika okeanidagi Kanar orollari, Afrikaning shimoliy qirg‘og‘idagi Seuta va Melilya shaharlari va unga yondosh Veles-de-la-Gomera, Alusemas, Chafarinas orollari ham Ispaniyaga qaraydi. Maydoni 504,75 ming km<sup>2</sup>, aholisi 40,037 mln. kishi (2001-yil). Ma‘muriy-hududiy jihatdan o‘z hukumati va parlamentiga ega bo‘lgan 17 muxtor regionga, ular o‘z navbatida 50 provinsiya (viloyat) ga bo‘lingan. Poytaxti – Madrid shahri. Davlat tuzumi – parlamentli respublika. Davlat boshlig‘i – qirol. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni Bosh korteslar (ikki palatali parlament) amalga oshiradi. Ijrochi hokimiyatni hukumat amalga oshiradi. Ispaniyadagi eng baland cho‘qqi Mulasen tog‘ida (3478 metr). Katta daryolari: Taxo, Ebro, Gvadalkvivir, Duero, Gvadiana va boshqalar. Aholisining to‘rttdan uch qismi ispanlar, bundan

tashqari katalonlar, galisiylar, basklar ham yashaydi. Dindorlarining asosiy qismi katoliklar. Yirik shaharlari: Madrid, Barselona, Valensiya, Sevilya, Saragosa, Bilbao, Malaga. Ispaniya 1955-yildan BMT ning a’zosi. O‘zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarini 1992-yilning 17-martidan o‘rnatgan (*O‘z ME, 4-jild, 254-bet*).

**Tayanch iboralar:** *Turkiston sharqshunoslik institute, tashkil etmoq, fakultet, qo‘shib yuborilmoq, Sharqshunoslik institut, sharq tillari va adabiyoti, sharq falsafasi, mamlakat- shunoslik, jahon siyosati, tarix, ixtisoslik, mutaxassis.*

64-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

65-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

66-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.



**Mavzu: Bo‘lajak kasbim**

### **I. To‘rtliklarni yod oling.**

Tavoze mezbonning yuzidagi nur,  
Tashakkur mehmonning ko‘zidagi nur.  
Va lekin davrani munavvar etar,  
Bir oqil odamning so‘zidagi nur.

*(Mahmud Toirov)*

Bir onning bahosin o‘lchamoq uchun  
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.  
Nurlar qadami-la chopgan sekundning  
Barini tutolmas ayuhannos ovoz.

*(G‘afur G‘ulom)*

Ko‘zlarimda doim do‘stim surati,  
Do‘st suratimasmi ko‘zim davlati?  
Ajratib bo‘lmaydi do‘stni diydadan,  
Bilmayman ko‘zmi buy o do‘st ne‘mati?

*(Rashididdin Votvot)*

### **II. Suhbat.**

- Kasb nima?
- Iqtidor.
- Mutaxassislik-chi?

### III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

#### Tarjimonlik

Tarjimonlik kasbi murakkab bo‘lib, boshqa xalqning tili va madaniyatini chuqur bilish talab etiladi. Tarjimon o‘z ona tilini ham o‘ta darajada savodli o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. Chunki o‘zga tildan amalga oshiriladigan tarjimalar mantiqan to‘g‘ri va asosli bo‘lishi kerak. Tarjimon ikki xalqni bir-biriga bog‘laydigan asosiy bo‘g‘in vazifasini bajaradi. Barcha sohalarda tarjimonlarning o‘rni goyat muhimdir. Ayniqsa, og‘zaki tarjima qilish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Unda tarjimondan tezkorlik, bilim, tajriba va hozirjavoblik talab etiladi. So‘zlovchining fikrlarini tez ilg‘ab olish, aniq xulosa chiqarish, fikrni jo‘nda ifodalash muhim hisoblanadi. Tarjimada o‘sha tilda so‘zlashuvchilarning urf-odatları, milliy xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlari o‘z aksini topadi. Ba’zi hollarda tarjimon ayri-gacha milliy shakllardan ham foydalanishi mumkin. Jumladan xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, aforizmlar va boshqa lug‘aviy birliklardan ijodiy foydalangan holda so‘zlovchining nutqini ravon ifodalash mumkin. Yozma tarjimada esa so‘z qo‘llash mahorati, madaniy shakllarni aniq anglash muhim ahamiyatga egadir. Dublyaj tarjimasida esa topqirlik, tasvirga moslik, fikrning ifoda ko‘lamini aniq va ravon yetkazib berish ustundir. Ayrim paytlarda tarjimonning zukkoligi bois tarjima asar **ohoriy** (*original*) asardan yuqori darajada mukammal voqelanadi. Tarjimonlik ulug‘ kasb bo‘lib, millatlarning tili, adabiyoti, san’ati va madaniyatini bir-biriga bog‘lab do‘stona aloqalarni mustahkamlaydi.

#### Lug‘at

Tarjimonlik–переводческое дело, kasb–профессия, murakab–сложный, boshqa–другой, bilmoq–знать, savodli–грамотный, o‘zlashtirmoq–усваивать, tarjima–перевод, mantiqan–логически, to‘g‘ri–правильный, asosli–обоснованный, soha–отрасль, og‘zaki–устный, tezkor–скоростник, tajriba–опыт, hozirjavoblik–находчивость, urf-odat–обычай и привычки, milliy–национальный, maqol–пословица, hikmatli so‘zlar–афоризмы, yozma–письменный, topqirlik–находчивость, fikr–мысль, ifoda–выражение, ko‘lam–объем, aniq–точный, ravon–складный, ohoriy–original, do‘stona–дружественный, mustahkamlamoq–крепить, aloqa–связь.

### IV. Mustaqil ta’lim uchun matnlar.

#### Turar joylar

Mehmonxona ikki xil ma’noda qo‘llanadi: 1) turar joylarda mehmon uchun mo‘ljallab alohida qurilgan katta xona. O‘rta Osiyo xalqlarida qadimdan mavjud bo‘lib, odatda, tashqi hovlida eng qulay joyda ikki xona (dahliz hamda ichkixona) qilib qurilgan; 2) boshqa joydan mehmon bo‘lib kelgan kishilar uchun vaqtincha

yashab turishga mo'ljallab qurilgan maxsus bino. Dastlabki mehmonxona ko'rinishidagi binolar Ossuriyada bo'lgan ( miloddan avvalgi 10-asr). Bu turdagi binolar turli xalqlarning yashash sharoitlari bilan bog'liq ravishda har xil atalgan. Jumladan, O'rta Osiyoda "karvonsaroy", "rabot", "zoviya", arablarda "xon", ruslarda "gostiniy dvor", "korchma", fransuzlar va ispanlarda "tarvena", "xarcheva", inglizlarda "inna", yaponlarda "ryokan" deb nomlangan. XVIII asrdan boshlab Fransiyada "otel" nomi bilan yuritila boshlandi. Keinchalik bu nom boshqa mamlakatlarga ham tarqala boshladi. Otel tipidagi mehmonxonalar Rossiyada 1879-yilda Moskvada ("Grand –Otel) qurilgan. 1959-yild esa "Moskva" mehmonxonasiga qo'shib yuborilgan. O'rta Osiyoda 1905-yilda Toshkentda ("Natsional", keyinchalik "Sharq" deb nomlangan) qurilgan. O'zbekistonda zamonaviy milliy me'morchilik an'analari, mahalliy iqlim sharoitlarini hisobga olib "Le Meridian Toshkent", "O'zbekiston", "Turon", "Afrosiyob", "Chorsu", "Buxoro", "Interkontinental", "Sheraton", "Dedeman silkrayd", "Grand mir" va boshqa mehmonxonalar bunyod etildi (*O'zME, 5-jild, 2003-yil, 629-630-betlar*).

### **Tanbur notasini yozan zot**

Muhammadniyoz Komil Xorazmiy 1825-yilda Xivada mudarris oilasida tug'ilgan. Avval maktabda o'qiydi. Otasi (Abdulla Oxund) vafot etgach, savdo bilan shug'ullanadi. Madrasaga qatnab, arab va fors tillarini o'rganadi. 25-30 yoshlarida «Komil» taxallusi bilan she'rlar yoza boshlaydi. 1856-yildan xon saroyida xattot bo'lib ishlay boshlaydi. Keyinroq xattotlar boshlig'i (mirzaboshi) bo'ldi. 1873-yilning oxirlarida devonbegi lavozimiga ko'tariladi. Komil Xorazmiy Moskva, Peterburg shaharlarida ikki marta (1873, 1883) bo'lgan. Komil Xorazmiy bundan tashqari Toshkent, Buxoro, Mozori Sharif va G'azna shaharlariga sayohat qiladi. Komil Xorazmiy musiqashunos sifatida «Tanbur» notasini yoza boshlaydi. Uning o'g'li Muhammad Rasul otasining ishini davom ettirib, «Xorazm shashmaqomi» ning hammasini notaga ko'chiradi. Komil Xorazmiy Mumtozning «Mahbub ul-qulub» (Ko'ngillarning sevgani) asarini, Ali Safiyning «Latoyif at-tavoyif» (Turli toifalarning latifalari) asarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Komil Xorazmiy o'z she'rlarini to'plab, maxsus devon tuzgan. Uning devoni uch marta (1881, 1895, 1909) nashr etilgan. Komil Xorazmiy umrining oxirlarida ko'z kasaliga uchraydi, ko'zi ojizlanib qoladi. U 1899-yilda Xivada vafot etgan (*O'zME, 4-jild, 2002-yil, 676-bet*).

### **Tashkiliy faoliyat fond birjasi**

Fond birjasi – qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalar oldi-sotdi qilinadigan birja. Pul kapitali harakatiga xizmat ko'rsatadigan moliya bozorining dastaklaridan biri. Bozor infratuzilmasining muhim bo'g'ini, qimmatli qog'ozlar (davlat obligatsiyalari, korxonalar aksiya va obligatsiyalari, bank kredit biletleri, tijorat veksellari), valyuta oldi-sotdisi bo'yicha muntazam va tashkiliy faoliyat ko'rsatadi. Fond birjasining asosiy vazifalari: bo'sh turgan pul va qimmatli qog'ozlarni sotishni tashkil etish orqali jamg'arilgan pul kapitalini safarbar etish

hamda to'plash; xususiyo xo'jalik sub'ektlari va davlat investisiyalarini ularning qimmatli qog'ozlari xaridini tashkil etish yo'li bilan moliyalashtirish; qimmatli qog'ozlarning yuqori darajadagi likvidligini, ya'ni qimmatli qog'oz egalari uchun yo'qotishlarsiz tezda pul mablag'lariga aylanishini ta'minlashdir (*O'z ME, 9-jild, 280-bet*).

### **Turkiya**

Turkiya Respublikasi – Osiyoning g'arbiy qismi va Yevropaning janubi-sharqiy qismida joylashgan davlat. Hududining 97 foizi Kichik Osiyoda, 3 foizi Yevropada joylashgan. Maydoni 814578 km<sup>2</sup>, aholisi 69 mln. kishi (2003-yil). Poytaxti – Anqara shahri. Ma'muriy-hududiy jihatdan 81 el (viloyat) ga bo'lingan. Davlat tuzumi – respublika. Davlat boshlig'i – prezident. Qonun chiqaruvchi oliy parlament – Turkiya Buyuk Millat majlisi. Oliy ijroiya hokimiyati hukumat bo'lib, uni Bosh vazir boshqaradi. Turkiyaning eng baland cho'qqisi 5137 metr (Buyuk Ag'ri cho'qqisi). Katta ko'llari: Van, Tuz, Beyshehir. Daryolari: Qizil Irmoq, Furot, Saqarya, Araks va boshqalar. Aholisining 90 foizi turklar, undan tashqari Turkiyada kurdlar, arablar, o'zbeklar, adigeylar, ubixlar, chechenlar, osetinlar, lezginlar, greklar, armanlar, lazlar, gruzinlar, ozarbayjonlar, turkmanlar, bolgarlar va albanlar yashaydi. Yirik shaharlari: Istanbul, Anqara, Izmir, Ko'niya, Bursa, G'oziantep, Diyorbakir, Antaliya, Adana, Edirna. Turkiya 1945-yildan BMT ning a'zosi. O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarni 1992-yilning 4-martida o'rnatgan (*O'z ME, 8-jild, 656-bet*).

### **V. Ish qog'ozlari.**

#### **TAKLIFNOMA**

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»

ilmiy maslahat kengashi a'zosi

**Muhtaram** \_\_\_\_\_


Sizni 1999-yil 11-iyun kuni soat 11.00 da «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» bosh tahrir hay'atining «O'zbekiston» nashriyoti majlislar zalida (Navoiy ko'chasi, 30-uy) o'tkaziladigan kengaytirilgan yig'ilishiga taklif etamiz.

Hurmat bilan (imzo) N.To'xliov

(*M.Aminov va boshqalar. Ish yuritish. T., 2000, 270-bet*).

**Tayanch iboralar:** *Tarjimonlik, murakab kasbi, tili, madaniyat, chuqur bilmoq, savodli, o'zlashtirmoq, tarjimalar matni, murakkab jarayon, tezkorlik, bilim, tajriba, hozirjavoblik talab etmoq, ilg'ab olmoq, xulosa chiqmoq, fikrni jo'nda ifodalash.*

#### **Asosiy so'zlar**



67-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

68-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

69-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.

## Hayot mening tasavvurimda

**I. Harfiy birikmaga izoh:** O'zbek tilida "NG" harfiy birikmasi *burun tovushini* ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu o'zbekcha tovushning talaffuziga e'tibor bering.

### To'g'ri talaffuz qiling!

- |                              |                  |
|------------------------------|------------------|
| 1) o'nlab-налаживая; улучшая |                  |
| o'nlab-десятками; десятки    |                  |
| 2) eng-самый                 | 3) o'ngga-вправо |
| en-ширина                    | o'nga-к десяти   |

### Tez aytish

Kengboyning ko'ngli kengmi?

### Bo'g'inlarni to'g'ri o'qing!

Si-ngil, ko'-ngil, gu-rung, zang-la-moq, shud-ring, ting-la-moq.

## II. Zaruriy so'zlarni ko'chirib yozing va tarjima qiling:

Anglamoq, bodring, bong, garang, gung, gurung, dongdor, durang, yeng, yengmoq, jang, zanglamoq, keng, kengaymoq, manglay, ong, piching, singmoq, so'ng, tang, tanglay, teng, tinglamoq, tong, tarang, shudring, yanglishmoq, ko'ndalang, singil, ko'ngil, gurunglashmoq, taranglashmoq.

## III. So'z birikmalari tuzishni o'rganing!

- |                        |                                 |
|------------------------|---------------------------------|
| 1) dongdorning tengi;  | 4) jangdan gurunglashmoq;       |
| 2) gurungni tinglamoq; | 5) dongdorlar haqida tinglamoq; |
| 3) jangda yengmoq;     | 6) tonggi shudring.             |

## IV. To'rtliklarni yod oling.

Mening **Vatan** ichra vatanlarim bor,  
Mangu zavol bilmas chamanlarim bor.  
Termiziylar yanglig' xazinalarim,  
Buxoriylar kabi ma'danlarim bor.

(Sirojiddin Sayyid)

Shabnamga maysaning yonog'i **Vatan**,  
Ko'z yoshga insonning qarog'i **Vatan**,



Ne ajab, jon berib poyiga tushsa,  
Parvonaga har uyning chirog'i **Vatan**.

(*Mahmud Toirov*)

### Omonimlarni farqlang:

- 1) zang-ржавчина  
zang-звонок  
4) lang-настеж  
lang-хромой

- 2) yeng-рукав  
yeng-кушайте

- 3) zarang-клён  
zarang-твёрдый

### V. Suhbat.

- Vatan qayer?
- Ona zamin.
- Bu qanday tuyg'u?
- Muqaddas tuyg'u.

### VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

#### Haqiqiy sadoqat

“Vatan” atamasi arabcha bo‘lib “ona yurt” degan ma’noni bildiradi. Yer yuzida yashayotgan yetti milliardga yaqin insonlar uchun ona zamin **Vatan**dir. Har bir xalq uchun taqdiran va tarixan ato etilgan hamda chegaralangan hudud ham **Vatan** sanaladi. Vatan hissi – muqaddas tuyg‘u. Bu tuyg‘u shu Vatanning egasi bo‘lmish xalqni bilishdan, uning qadriga yetishdan, nimalarga qodirligini tan olishdan, buyukligini e’tirof etishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizakdir. Vatan bu xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagidir. Bu uning madaniyati, ma’naviyati, ma’rifati, tili, dini, fe’l-atvori va ota-bobolaridan qolgan oltin merosidir. Biz Vatanimizni sevamiz. Vatanga muhabbat vatanparvarlikning asl ko‘rinishidir. Vatan- parvarlik jumlai jahondagi barcha xalqlarning asl va solih farzandlariga xos tuyg‘udir. Vatanni qalban chuqur his qilish uchun o‘sha xalq mustaqil bo‘lishi kerak. Vatan tuyg‘usi – bu aziz yurtimizni peshona teri bilan obod etgan, lekin nomlari tarixda saqlanib qolmagan oddiy kishilarmizning yaratuvchan mehnatini yodda tutishdir. Vatan tuyg‘usi o‘z Vatanini himoya qilib, Vatan deya jon bergan sheryuraklarni eslashdir. Vatan tuyg‘usi – bu aziz va go‘zal Vatanimizga yuksak e’tiqod bilan yashash hamda unga sadoqatli bo‘lishdir (*B.Ahmedov va boshqalar. Vatan tuyg‘usi. T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 139-140-betlar*).

#### Lug‘at

Vatan–родина, atama–термин, zamin–земля, inson–человек, taqdir–судьба, chegara–граница, muqaddas–священный, tuyg‘u–чувство, xalq–народ, o‘tmish–прошлое, bugun–сегодня, kelajak–будущее, meros–наследие, vatanparvarlik–патриотизм, obod–благоустроенный, himoya qilmoq–защищать, sheryurak–

львиным сердца, sadoqatli–преданный, madaniyat–культура, ma'naviy–духовный, ma'rifat–просвещение, e'tiqod–убеждение, sadoqat–преданность.

## **VII. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.**

### **Hamdard**

Hamdard – o'zganing dardini, g'am-g'ussasini birga kechiruvchi dardkash inson. Kishining jismoniy dardini yengillashtirishga ko'maklashuvchi, insonning maqsadini tushunadigan fikrdosh shaxs.

### **Habibiy**

Zokirjon Habibiy 1890-yilda Andijon viloyat, Paxtaobod tumani, Qo'qon qishlog'ida tug'ilgan. Avval mahalliy maktabda, so'ng madrasada o'qigan. Adabiyotga qiziqqanligi uchun Navoiy, Fuzuliy, Furqat, Muqimiy kabi shoirlarning she'rlarini sevib o'qiydi va aruz vaznini chuqur o'rganadi. O'zi ham she'rlar yoza boshlaydi. Habibiy o'z she'rlarini Maxjuriy, Sayfiy, Ulfatiy, Anisiylarga ko'rsatib, ular bilan maslahatlashgan. Alisher Navoiyning yubileyi munosabati bilan Habibiy shoir asarlarini nashrga tayyorlovchi guruh safida xizmat qildi. O'sha paytda ham Habibiy aruz bo'yicha o'z malakasini oshirdi. U aruz vaznlarida she'rlar yozib, devon tuzdi. Uning she'riy devoni 1980-yilda uchinchi marta nashr etilgan. Shoirning ko'p she'rlari ashula qilib kuylanmoqda. Shoir 1982-yilda vafot etdi (*O'zME, 11-jild, 2005-yil, 251-252-betlar*).

### **Hindiston**

Hindiston Respublikasi (hindcha Bharat) – Janubiy Osiyoda, Hind okeani havzasida joylashgan davlat. Maydoni 3287,1 ming km<sup>2</sup>, aholisi 955 mln. Kishi (o'tgan asrning oxiri). Poytaxti – Dehli shahri. Ma'muriy-hududiy jihatdan shtat va ittifoqlarga (22 shtat, 9 ittifoq) bo'lingan. Ular o'z navbatida taluq yoki tahsillarga ajraladi. Davlat boshlig'i – 114iplomati. Hokimiyatning 114ipl organi – parlament (Xalq palatasi – quyi palata, Shtatlar kengashi – yuqori palata). Hindiston ko'p millatli mamlakat. Unda hindiyalar, marathalar, bengallar, bixorlar, gujarotlar, oriyalar, rajastxonilar, panjobliklar, assomlar, kashmirilar (dari tilida so'zlashadi), tibetliklar, birmaliklar va boshqa xalqlar yashaydi. Aholining 83 foizi hinduizm, 10 foizi islom, 2,4 foizi xristian, 1,7 foizi buddizm diniga e'tiqod qiladi. Boshqa dinlarga sig'inuvchilar ham bor. Pul birligi – rupiya. Yirik shaharlari: Kalkutta, Bombay, Dehli, Madras, Haydarobod, Ahmadobod, Bangalor, Kanpur, Puna. 1965-yilning kuzida Hindiston-Pokiston mojarosi yuzasidan Toshkent Deklaratsiyasi imzolandi. Hindiston-O'rta Osiyo munosabatlari 2200 yillik tarixga ega. Hindiston O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatic munosabatlarini 1992-yilning 3-martida o'rnatgan (*O'zME, 11-jild, 342-351-betlar*).

## **VIII. Ish qog'ozi.**

«Quruvchi» shirkatining  
raisi S.Sobirovga  
iqtisodchi M.Murodovdan

## HISOBOT

*1999-yilning 15-apreli*

Shirkat yig'ilishining shu yil 12-apreldagi qaroriga muvofiq Toshkent shahriga xizmat safariga bordim. Bundan maqsad qurilish jihozlari kombinati bilan shirkatga 1999-yilning 3-choragida 80 mingta yuqori navli qurilishbop g'isht yetkazib berish haqida shartnoma tuzish edi.

Topshiriq bajarildi. Maxsus navli g'isht shu yilning 12-iyunidan kechikmay shirkatga keltirila boshlanadi.

Ilova: 1999-yilning 14-aprelida tuzilgan shartnoma – 2 bet.

Iqtisodchi (imzo) M.Murodov

(M.Aminov va boshqalar. *Ish yuritish. T., 2000, 257-bet*).


**Tayanch iboralar:** *Vatan, ona yurt, bildirmoq, yashamoq, taqdiran, tarixan ato etmoq, chegaralanmoq, hudud, muqaddas tuyg'u, tan olmoq, egizak, o'tmish, bugun, kelajak, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat, til, din, fe'l-atvor.*

70-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlash.

71-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

72-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.

### Asosiy so'zlar



### Mavzu: Ustoz maktabi

#### I. So'z birikmalari tuzishni o'rganing!

- |                           |                                 |
|---------------------------|---------------------------------|
| 1) ustoz <b>ning</b> uyi; | 4) uyushmada ushlamoq;          |
| 2) ukani uchratmoq;       | 5) usta <b>bilan</b> ulg'aymoq; |
| 3) ulfatga uqtirmoq;      | 6) uzun ustun.                  |

#### II. To'rtliklarni yod oling.

**Ustoz**, sozga solay boqiy hayotni,  
Boqiy she'r qoshida bosh egay bir on.  
Shodlik va baxtni kuylagan zotni,  
Shodlik bilan eslar odatda zamon.

(*Abdulla Oripov*)

Umrдан yil o‘tsa, yashirmoq nechun,  
Yurak simob yanglig‘ titraydi har gal.  
Ustoz lutf etganday, har fursat uchun,  
Qudratli qo‘l bilan qo‘yaylik haykal.

(*Abdulla Oripov*)

### **III. Suhbat.**

- Ustoz kim?
- Ilm va hunar o‘rgatuvchi zot.
- Uning maqsadi nima?
- Munosib shogirdlar tayyorlash.

### **IV. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.**

#### **Ustoz-shogirdlik an‘anasi**

Sharqda ustoz-shogirdlik an‘anasi chuqur tarixga ega. Xalq og‘zaki ijodida bunga misollar ko‘p. Ayniqsa, bu an‘ana polvonlik, chavondoqlik kabi sport turlarida odat tusini olgan. Ular milliy g‘ururni saqlash uchun o‘z kasbining ustasi bo‘lgan o‘rinbosarlarni tayyorlashgan. Demak, ustoz-shogirdlik an‘anasi islomdan oldin ham mavjud bo‘lgan. Islom dini kirib kelgandan so‘ng yanada mukammallashgan. Ustozlar “pir” maqomga ega bo‘lishgan. “Alpomish” dostonining islom dini ta‘sirida shakllangan nusxalarida Shohimardon, Rajabxo‘ja kabi ustoz-pir timsollari bor. Tarixda buyuk sohibqiron Amir Temur hazratlarining ustoz piri Shamsuddin Kulol, Sayyid Baraka haqidagi e‘tiroflar mavjud. Badiiy ijod sohasida ham ustoz-shogirdlik an‘anasi chuqur ildiz otgan. Jumladan, mashhur xamsanavis tojik shoiri Abdurahmon Jomiyning ustози o‘zbek shoiri Mavlono Lutfiy bo‘lgan. Abdurahmon Jomiy esa Alisher Navoiyga ustoz bo‘lgan. Demak, islom dinida va mumtoz adabiyotimizda ustozlik millat tanlamagan. Ustozning asosiy vazifasi buyuk iste‘dodlarni tarbiyalash va ularga to‘g‘ri, adolat yo‘lini ko‘rsatish bo‘lgan. Shuning uchun ular tarbiyalagan shogirdlar olamni lol qoldirgan buyuk daholar bo‘lib etishgan. Adolat mezoniga asoslangan bu an‘ana hozirgacna davom etib kelmoqda. Sharq xalqlarida ustozini hurmat qilish, uning ishini davom ettirish, rivojlantirish muhim burch sanaladi. Ayniqsa, yakka kurash san‘atlarini o‘rgatishda bunday munosabatlarni yaqqol ko‘rish va unga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Demak, sharqda ustoz-shogirdlik an‘anasi boshqacha talqin etilishi bilan farqlanib turadi va avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda.

#### **Lug‘at**

Ustoz-учитель, наставник, shogird-ученик, an‘ana-традиция, chuqur-глубокий, polvon- борец, chavondozi-искусный наезник, участник улака, tur-вид, odat-обычай, g‘urur-гордость, saqlamoq-хранить, soxranit‘, beryech‘, kasb-профессия, o‘rinbosar-заместитель, mukammallashmoq-совершенствоваться, maqom-чин, post, shakllanmoq-формироваться, nusxa-образец, timsol-пример, sohibqiron-под счастливой звездой, badiiy-художественный, soha-отрасль, ildiz

otmoq-укореняться, хамсанavis-поэт пишуший пятерицы, iste'dod-талант, adolat-справедливость, mezon-критерий, hurmat qilmoq-уважать.

## V. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Ustoz

Kasb-hunar, ilm o'rgatuvchi zot. Har ishda yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi rahnamodir. Xalqimizda "Ustoz ko'rgan xat tanir" maqoli bor.

### Ustoz o'giti

Alisher Navoiy yaxshiliklarni qo'llab-quvvatlovchi inson edi. Ammo podsholikda yomonlar ko'payib shoh ham ularni jilovlay olmay qolibdi. Shunda Husayn Boyqaro Alisher Navoiyni chaqirib buning oldini olish kerakligini aytdi. Navoiy ustozining oldiga bordi, ustoziga unga bu holatning oldini olish mumkinligini aytdi. Buning uchun odamlar ko'proq qabristonga borishlari lozimligini ta'kidladi. Ularga ota-onalari, qarindoshlari, do'stlari va ustozlarining qabrlarini ziyorat qilish o'zgacha ta'sir qiladi. Xalqda "To'lib ketsang qabristonga bor, toshib ketsang – daryoga" degan naql bor. Mozorga borgan odam uni supuradi, yoniga gul ekadi va tilovat qiladi. Shundan so'ng ko'nglida ezgulik uyg'onadi va insofga kelib, yaxshilik haqida o'ylay boshlaydi. Alisher Navoiy shoh Husayn Boyqarodan bu holatni tushuntirib, kishilar shodlik kunlarida ham, qayg'uli kunlarida ham qabristong borishlari haqida farmon chiqarishini so'radi. Shoh ana shunday farmon berdi. Xalq bayram kunlarida va marosim kunlarida qabriston bora boshladi. U yer obod bo'lib tarbiya maskaniga aylandi. Kunlar o'tib o'g'rilar ham insofga kela boshladi. Hirotdagi barcha o'g'ri va qaroqchilarning ustoziga o'lgan edi. Ikki uddaburon o'g'ri hamma qatori qabristonga bordi. Ammo ustozlarining qabriga hech kim qaramagan edi. Ular ham insonga ezgulik foyda keltirishini tushunishibdi. Shundan so'ng o'g'rilikni tashlab halol yashay boshlabdilar. Alisher Navoiyning ustoziga aytdigan o'git bo'is yurt obod bo'libdi (*Malik Murodov, Muharrama Shayxova. Asotirlar va rivoyatlar. T.: "Yosh gvardiya", 1990-yil, 64-66-betlar*).

### Ulug'bekning ustoziga

Mashhur olim G'iyosiddin Jamshid Al-Koshiy Eronning Koshon shahrida tug'ilgan. Al-Koshiy atoqli matematik va astronom bo'lgan. Yoshligidagi boshlangich matematik ma'lumotni o'z shahrida olgan. U XV asrning boshlarida Ulug'bekning taklifi bilan Samarqandga keladi. U Ulug'bekka ham ustoz sanaladi. Al-Koshiy u yerda Qozizoda Rumiy bilan birga Ulug'bek rasadxonasi va madrasasi qurilishiga rahbarlik qilgan. U Ulug'bek bilan birga ishlagan Husayn Birjoniy, Ali Qushchi kabi yosh olimlarning kamolga etishida katta hissa qo'shgan. Al-Koshiy astronomiyaga oid «Ziji Hoqoniy dar takmili ziji Elxoniy» («Elxoniy astronomik jadvalini takomillashtirishda Hoqoniy astronomik jadvalining ahamiyati»), «Sullam us-samo» («Osmon narvoni»), «Nuzhat ul-hadoiq» («Bog'lar sayri») kabi kitoblarini yozgan. Uning matematikaga oid «Risola al-muhitiyya»

(«Aylana haqida risola»), «Risola ul-atvor val-jayb» («Vatarlar va sinus haqida risola»), «Miftoh ul-hisob» («Arifmetika kalidi») kabi asarlari ham bor. Al-Koshiy birinchi bo‘lib matematikaga pozitsion asosda o‘nli kasrlarni kiritdi va nazariy asosladi. U ixtiyoriy ko‘rsatkichli idliz chiqarishda (hozirgi paytda «Ruffini – Gorper» deb ataladigan) usulni va «Nyuton binomi»ning koeffitsientlarini topishdagi formulaga to‘g‘ri keladigan muqobil usulni o‘sha paytlarda qo‘llagan. Al-Koshiy o‘z kashfiyotlari bilan o‘rta asr Sharq matematikasini yuqori bosqichga ko‘targan. Al-Koshiy taxminan 1430-yilda Samarqandda vafot etgan. Buyuk olim tarbiyalagan juda olimlar dunyo tamadduni ilm-faniga beqiyos hissa qo‘shdilar.

### **Ustoz Rabg‘uziy**

Nosiriddin Rabg‘uziy XIII asrning oxiri XIV asrning boshlarida Xorazmning Raboti O‘g‘uz degan joyida qozi Burxonuddin oilasida tug‘ilgan. Uning tarjimai holi haqida ma‘lumotlar yo‘q. Bizga undan “*Qisasi Rabg‘uziy*” asari meros bo‘lib qolgan. Asar muqaddimasida muallif shunday yozadi: “...*bu kitobni tuzgan, toat yo‘lida tizgan, ma‘siyat yobonin kezgan, oz ozuqlug‘ ko‘p yozuqlug‘ Raboti O‘g‘uz qozisi Burxoniddin o‘g‘li Nosiriddin...*”. Bu asar aslzoda amaldor To‘qbo‘g‘abekka bag‘ishlab yozilgan. Muallif To‘qbo‘g‘abekni “...*yigitlar arig‘i (poki), ulug‘ otlig‘, qutlug‘ zotlig‘, ezgu xulqlig‘, islom yorig‘liq, mo‘g‘ul sonilig‘, musulmon dinli, odamiylik inonchi, mo‘minlar quvonchi, himmati adiz (yuksak), aqli tengsiz begimiz*”, deb ta‘riflaydi. Rabg‘uziy To‘qbo‘g‘abekka bag‘ishlangan she‘riy madhiyasida yana “*arslon mengizlik surati*”, “*ko‘rklug‘ sifatlig‘ surati*”, “*tuz so‘zlayur, so‘zni uqa*” kabi sifatlarni keltirgan. Asar hijriy 709 (melodiy 1309-1310-yillarda yaratilgan bo‘lib, turkiy nasrning ilk namunasi hisoblanadi. “Qissasi Rabg‘uziy”da XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida o‘zbek adabiyotining bir qator o‘ziga xos xususiyatlari juda yorqin namoyon bo‘lgan. Asar 72 qissa (bob) dan iborat. Ollohn ulug‘lash, payg‘ambarlardan o‘rnak olish, kamtarlik, ota-onani xurmat qilish, sevgi-sadoqat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erk-adolat, do‘stlik, hamjihatlik, tinchlik kabi mavzular iboratli asosda bayon qilingan. Ba‘zi qissalarda latifa janrining ta‘siri seziladi. Qissalardagi asosiy fikrni ifodalash uchun mifologik, afsonaviy-hayoliy va badiiy-mantiqni taqozo etadigan o‘zgacha bir bayon uslubi tanlab olingan. Rabg‘uziy mahoratli nosirgina emas, balki nozikta‘b shoir ham bo‘lgan. Uning she‘rlari yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan. Rabg‘uziyning bu asari ma‘rifiy-tarbiyaviy hamda badiiy-estetik jihatdan muhim ahamiyatga ega (*O‘z ME, 7-jild, 2004-yil, 216-217-betlar*).

## **VI. Grammatik terminlar.**

**1. Urg‘uning ikki turi bor:** 1) so‘z urg‘usi; 2) gap urg‘usi (mantiqiy urg‘u). **So‘z urg‘usi** o‘zbek tilida, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. M.: *talab`a, talabal`ar, talabalarg`a*. So‘z urg‘usi **oxirgi bo‘g‘inga tushmaydigan so‘zlarni uch guruhga** ajratish mumkin:

1) ravish, yordamchi so‘z turkumlari va modal so‘zlarga xos o‘zlashma (arabcha, forsha) so‘zlarda urg‘u oldingi bo‘g‘inda bo‘ladi. M.: *hozir, hamisha, balki, albatta, lekin, hatto*;

2) olmoshlarda urg‘u oldingi bo‘g‘inda bo‘ladi. M.: *hamma, qancha, har kim, hech narsa*;

3) rus va g‘arb tillaridan o‘zlashgan so‘zlarda urg‘u oldingi bo‘g‘inlarda bo‘ladi. M.: *gazeta, leksiya*.

Ammo bunday so‘zlarga o‘zbekcha qo‘shimcha qo‘shilsa, urg‘u oxirgi bo‘g‘inga ko‘chadi. M.: *gazetada*.

O‘zbek tilidagi quyidagi qo‘shimchalar **urg‘u olmaydi**:

1) fe‘llardagi tuslovchi qo‘shimchalar: *o‘qiyman, kelarsan*.

2) fe‘lning bo‘lishsiz shaklini hosil qiluvchi qo‘shimcha: *borma*;

3) sonlardagi tur hosil qiluvchi qo‘shimchalar: *onta, beshtacha*;

4) ravish yasovchi qo‘shimchalarning ba‘zilari. M.: *yigitcha, otdek, gulday*.

Qo‘shimchalardan tashqari **-u, -yu, -ku, -mi, -chi, -oq, -yoq, -a, -ya, -da, -gina, -kina, -qina** yuklamalari ham **urg‘u olmaydi**.

O‘zbek tilida ham urg‘u ma‘noni, shuningdek so‘z va so‘z shakllarini bir-biridan farqlaydi. Masalan:

olma (fe‘l)	–	olma (ot)
bo‘lma (fe‘l)	–	bo‘lma (ot)
to‘qima (fe‘l)	–	to‘qima (sifat)
ulama (fe‘l)	–	ulama (sifat)
yangi (ravish)	–	yangi (sifat)
(biz) o‘quvchimiz (shaxs-son qo‘shimchasi)		
(bizning) o‘quvchimiz (egalik qo‘shimchasi)		

**Gap urg‘usi** o‘zbek tilida mantiqiy urg‘u ham deyiladi bunday urg‘u olgan bo‘lak kesimning oldidan joylashadi. M.: *Anjumanga kecha Laylo bordi*. 1) **musiqiy urg‘u** tovush kuchi va balandligi bilan emas, balki ton (ohang) balandligi o‘zgarishi bilan ajralib turadi. M.: *xitoy, yapon, koreys tillaridagi leksik urg‘u*; 2) **erkin urg‘u** so‘zning ma‘lum qismidagi bo‘g‘inga emas, balki har xil bo‘g‘inlarga tushishi mumkin bo‘lgan urg‘u. M.: *rus tilidagi urg‘u*; 3) **turg‘un urg‘u** so‘zning ma‘lum qismidagi bo‘g‘inga tushadigan urg‘u. M.: *o‘zbek tilidagi ot va sifat turkumiga oid so‘zlarning urg‘usi*.

**2. Undovlar** so‘zlovchining his-hayajonini, buyruq-xitobini va urf-odatni bildiruvchi so‘zlardir. M.: *uff, ura, voy, dod; pish-pish (mushukni chaqirish), pisht (mushukni haydash), tak (otni to‘xtatish); hormang, bor bo‘ling, marhamat*.

**3. Uyadosh so‘zlar** bir mazmuniy guruhga mansub so‘zlardir. M.: *Qoramollar: sigir, buzoq, buqa, xo‘kiz, g‘o‘nabin, so‘qim. Yilqilar: ayg‘ir, baytal, biya, ot, toychoq, toy (ikki yoshli), g‘o‘non (uch yoshli), do‘non (to‘rt yoshli)*.

**Uchrashuvga oid shakllari:** *salom, ahvolingiz (sog‘lig‘ingiz) qalay, yaxshimisiz, yaxshi, yomon, juda yaxshi, unchalik yaxshi emas, o‘rtacha, xayr, yaxshi qoling, ko‘rishguncha, xo‘p bo‘lmasa, oq yo‘l, yaxshi dam oling, telefon qilib turing*.


**Tayanch iboralar:** *Ustoz, shogird, an‘ana, xalq og‘zaki ijodi, polvonlik, chavondoqlik, milliy g‘urur, saqlamoq, o‘rinbosar, tayyorlamoq, islom dini, mukammallashmoq, pir, maqom, badiiy ijod, adolat mezon, yakka kurash san‘ati*.

73-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

74-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

75-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### Asosiy so‘zlar



### Mavzu: Kasbim tarixi

#### I. To‘rtliklarni yod oling.

Qo‘lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,  
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.  
Nasihatib yodingda tut, yolg‘izim,  
Yolg‘iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

*(Ergash Jumanbulbul o‘g‘li)*

Qutlug‘ davralarda jam bo‘lgan mahal,  
Do‘stlarga baxt tilash azaliy odat.  
Keladigan bu yil tinch bo‘lsin avval,  
Baxsh etsin har kimga oliy saodat.

*(A. Oripov)*

Qucholmasman men seni hargiz,  
Sen osmonsan, men-chi zarra tan,  
Qiblagohim, yupanchim yolg‘iz,  
Sen barhayot onamsan, **Vatan...**

*(A. Oripov)*

#### II. Suhbat.

- Pahlavon Mahmud kim?
- Mashhur kurashchi va shoir.
- Qanday buyuk ish qilgan?
- Hindistondagi xorazmlik asirlarni ozod qilgan.

#### III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

##### Kurashchilar ustozlari

Mashhur shoir va mutafakkir Pahlavon Mahmud (xalq tilida “*Polvon pir*”) 1247-yilda Xivada tug‘ilgan. Yoshligida maktab va madrasada o‘qigan. Asosiy kasbi po‘stindo‘zlik va telpakdo‘zlik bo‘lgan. U javonmardlik tariqatining ulug‘ peshvolaridan bo‘lgan. Jismoniy baquvvat bo‘lgani uchun polvonlik qilgan.



Polvonlik bilan Xorazm, Eron va Hindistonda dong taratgan. Unga “*Puryoyvaliy*” (*Pahlavonlar boshlig‘i*) nomini berishgan. Fors tilida ruboiylar yozgan. She’rlariga “*Qitoli*” (*Jangchi*) taxallusini qo‘ygan. Forsiy va turkiy adabiyotda Umar Xayyomdan keyin ko‘p ruboiy yozgan shoirdir. Uning ruboiylarida mardlik, mehr-oqibat, saxovat, olijanoblik kabi javonmardlik g‘oyalari aks etgan. Pahlavon Mahmud “*Kanz ul-haqoyiq*” (Haqiqatlar xazinasi) nomli masnaviy (kichik doston) ham yozgan, lekin asar haligacha topilgani yo‘q. Pahlavon Mahmud 1326-yilda Xivada vafot etgan. Uni vasiyatiga muvofiq po‘stindo‘zlik ustaxonasiga dafn etishgan. Uning qabri ustiga dastlabki sinchkor imorat 1664-yilda qurilgan. So‘ngra 1701-yilda Shohniyozxon tomonidan muhtasham maqbara, ziyoratxona va xonaqoh bunyoq etilgan. Mazkur maqbaraga Xiva xonlaridan Abulg‘ozixon, Shohniyozxon, Muhammad Rahimxon I, Temurg‘ozixonlar ham dafn qilingan. Shoirning ko‘pgina ruboiylari uning maqbarasi peshtoqiga yozilgan. Pahlavon Mahmud haqida “*Qomus ul-a‘lam*”, “*Otashkada Ozariy*”, “*Haft iqlim*” asarlarida ma‘lumot berilgan. Uning ruboiylarini To‘xtasin Jalolov, Muinzoda, Vasfiy, Matnazar Abdulhakimovlar O‘zbek tiliga tarjima qilishgan (*O‘z ME, 7-jild, 28-bet*).

### Lug‘at

Yoshlik–молодость, kasb–профессия, po‘stin–шуба, telpak–шапка, asoslanmoq–основываться, tariqat–направление, jismoniy–физический, baquvvat–силный, dong taratmoq–прославиться, nom bermoq–называть, mardlik–смелость, mehr–любовь, милосердие; oqibat–последствие, luubeznost‘; saxovat–щедрость, olijanoblik–благородство, g‘o‘ya–идея, topilmoq–обнаружиться.

## IV. Mustaqil ta‘lim uchun matnlar.

### Kuychi ustod

Ergash Jumanbulbul o‘g‘li 1868-yili Nurota tumaniga qarashli Qo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning ota-bobolari doston aytishga mohir bo‘lishganligi uchun ana shu qishloq nomi o‘zbek dostonchiligida alohida maktab sifatida tan olingan. Ergash 1875-76-yillarda qishloq maktabiga o‘qishga boradi. Keyin otasi uni Buxoro madrasasida o‘qitadi. Natijada Ergash boshqa baxshilardan farqli ravishda har tomonlama savodli bo‘ladi. U Nizomiy, Navoiy, Mashrab kabi shoirlarning asarlarini mutolaa qiladi. Hatto keyinchalik mirza bo‘lib ishlagan. Ergash shoir oilasida ko‘p musibatlar yuz beradi. U 18 yoshga kirganda otasi, keyin ukalari va singlisi vafot etadi. Og‘ir judoliklar baxshini umr bo‘yi qishloqma-qishloq doston va termalar aytib yurishga majbur qildi. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li “*Ravshan*”, “*Kuntug‘mish*” dostonlarini alohida muhabbat bilan ijro etgan. Shuningdek u “*Alpomish*”, “*Qunduz bilan Yulduz*”, “*Dalli*”, “*Xushkeldi*”, “*Avazxon*”, “*Hasanxon*” kabi dostonlarni ham maroq bilan kuylagan. Ergash shoir doston aytishda *tajnis (omonim so‘zlarni qo‘llash)* san‘atidan mahorat bilan foydalangan. M.: *Tog‘ning adiri o‘radi, O‘raga qo‘ylar o‘radi. Uch tol qilibsanaamlar, Chochini mayda o‘radi* (“o‘radi” so‘zi birinchi o‘rinda

“ko‘tariladigan balandlik”, ikkinchi o‘rinda “oralab yurish”, uchunchi o‘rinda “soch o‘rish”). Ergash Jumanbulbul o‘g‘li o‘z vatani, ona yurtini sevgan shoirdir. U umri davomida o‘qituvchilik va dehqonchilik bilan shug‘ullandi. Ergash shoirning juda yaxshi ko‘rib kuylagan dostoni “*Ravshan*” edi. Shoir hayotining so‘nggi yillarida folklorshunos olimlarga dostonlar yozdirdi, dostonlar aytdi, termalar yaratdi. Ergash shoirdan folklorshunos olimlar Hodi Zarifov, G‘ozi olim Yunusov, Muhammad Iso Ernazar o‘g‘li kabi tadqiqodchilar 33 ta asar yozib olishgan. Ana shu asarlarda 200 ga yaqin maqol qo‘llangan. Baxshi olimlarga o‘z yurtiga borib bir qator qo‘lyozmalarni topmoqchi bo‘lgan. Biroq 1937-yilning 12-mayida og‘ir kasallikdan vafot etdi (*O‘zME, 10-jild, 2005-yil, 240-bet*).

### **Kamtarin hofiz**

Mulla To‘ychi Toshmuhamedov (To‘ychi hofiz) 1868-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1878-84-yillarda mahalliy maktabda o‘qigan. U ashula aytish sirlarini amakisi Qo‘chqor otadan o‘rganadi. Mulla To‘ychi Hofiz Sheroziy, Navoiy, Mashrab, Navoiy, Mashrab, Bedil, Fuzuliy kabi shoirlarning ijodi bilan yaqindan tanishadi. Ularning g‘azallari bilan ashulalar ijro etadi. Taniqli hofizlar Abduqahhor, Saidahmad, Nazirxonlar bilan hamnafaslikda “Qo‘shiq bazmi” kechalarini tashkil etadi. Dastlabki ijodidan “*Ey dastai gul, marhabo*”, “*Fig‘on*”, “*Shitob aylab*” kabi ashulalar o‘rin olgan. Shojalil hofiz, Shobarot tanburchi jo‘rligida “Shahboz-Gulyor” ashulalar turkumi (1890) yuzaga kelgan. Keyinchalik To‘ychi hofizning dovrug‘ butun Turkiston o‘lkasiga yoyilgan. To‘ychi hofiz o‘zi ijro etgan ashulalarni birinchilar qatori gramplastenkalarga yozdirgan. “Grammofon” jamiyatining “Pishushiy Amur” firmasi (Riga, 1905; Skobelov, 1911) uning ijrosidagi 25 ta ashulani yozib olgan. Bularning ichida “Ilg‘or”, “Xusrav”, “Suvora”(3 ta, ikki qismli), “Bobo Ravsham”, “Yangi kurd”, “Avji kurd” va boshqa qo‘shiqlar. U 1908-10-yillarda Farg‘ona vodiysidan bo‘lgan ayol ashulachilar Adolatxon, Mozidaxonlarning asulararini ham gramplastenkalarga yozdirgan. To‘ychi hofizning tashabbusi bilan Andijon, Farg‘ona, Xo‘jand shaharlarida grammofon va plastinka do‘konlari ochilgan, ularda o‘zbek, rus va boshqa tillardagi kuy, qo‘shiq va ashulalar yozilgan plastenkalar sotilgan. To‘ychi hofiz Eron, Turkiya, Italiya, Misr, Hindiston(1900) va Sharqiy Turkiston(1913-14) o‘lkalarida bo‘lib, o‘z ijrochilik mahoratini namoyish qilgan. U O‘zbekiston mahalliy xalq musiqa ansambllarini tashkil etishda, spektakllarga musiqa tanlashda faol ishtirik etgan. To‘ychi hofiz 1927-yildan to umrining oxirigacha O‘zbekiston Radioqo‘mitasi o‘zbek xalq cholg‘u ansambida ustoz xonanda, O‘zbek davlat filormoniyasida yetakchi xonanda bo‘lib xizmat qildi. Mulla To‘ychi Toshmuhamedov 1943-yilning 1-iyunida vafot etgan. Hofiz yozib olgan noyob san‘at asarlar musiqamizning oltin fondida saqlanmoqda (*O‘zME, 9-jild, 2005-yil, 5-bet*).

### **Komiljon Otaniyozov**

Taniqli o‘zbek xonandasi, sozanda, aktyor va bastakor Komiljon Otaniyozov 1917-yilning 20-iyulida Xorazm viloyati Shovot tumani Bo‘yrachi qishlog‘ida tug‘ilgan. Yoshligidan san‘atga qiziqqan. Avval maktabda o‘qigan. Xorazm doston

yo‘llarida ashula aytishni Bola baxshi Abdullaevdan o‘rgangan. Maqom ashula kuylash bo‘yicha Matpano Xudoyberganovdan ta‘lim olgan. 1936-1952-yillarda Xorazm teatrlarida xonanda va aktyor bo‘lib ishlagan. 1955-yida Hamza nomidagi musiqa bilim yurtini tugatgan. 1955-56-yillarda Toshkent konservatoriyasida tahsil olgan. 1949-yilda Xorazm teatrida ashula va raqs ansamblini tuzib konsertlar bergan. 1957-yildan O‘zbekiston davlat filarmoniyasi va “Xorazm” ansamblida yakkaxon xonanda, 1963-yildan “Xorazm” (hozirgi “Lazgi”) ansamblining badiiy rahbari bo‘lib ishladi. 1967-yilda Turkmaniston Toshhovuz viloyati teatrida xalq ansamblini, 1973-74-yillarda Shovot tumanida “Feruz” ansamblini tashkil etdi. Komiljon Otaniyozov 30-yillardan murakkab xalq ashularini, xalq dostonlaridan qo‘shiqlar ayta boshlagan. Xorazm xalq suvora va maqomlari Komiljon Otaniyozov ijrochilik faoliyatining yuqori bosqichi bo‘ldi. Komiljon Otaniyozov O.Stepanov bilan hamkorlikda “Aziz va Sanam”, “Oshiq G‘arib”, S.Hayitboyev bilan birgalikda “So‘nggi xon” kabi musiqali dramalar yaratdi. Komiljon Otaniyozov 1975-yilning 5-noyabrida vafot etdi. Dafn marosimigacha shoir Omon Matjon mashhur hofizning o‘limiga bag‘ishlab yo‘lda marsiya-g‘azal yozadi. Unga o‘sha payta hofiz Ortiq Otajonov musiqa bastalab ijro etdi (*O‘zME, 6-jild, 597-bet*).

### **Koreya Respublikasi**

Koreya (koreyscha «Choson» - «Tonggi tarovat») Respublikasi – Uzoq Sharqda, Koreya yarim orolida, 38-paralleldan janubda joylashgan davlat. Maydoni 98,48 ming km<sup>2</sup>, aholisi 47,904 mln. kishi (2001-yil). Poytaxti – Seul shahri. Ma‘muriy-hududiy jihatdan 9 provinsiya (viloyat) va viloyat maqomidagi ikki shahar (Seul va Pusan) ga bo‘lingan. Davlat tuzumi – parlamentli respublika. Davlat boshlig‘i – prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyat – Millat majlisi. Ijroiya hokimiyatni prezident va bosh vazir boshchiligidagi hukumat amalga oshiradi. Aholisining 99 foizi koreyslar. Dindorlari buddaviylik, konfusiylilik va qisman xristianlikka e‘tiqod qilishadi. Yirik shaharlari: Seul, Pusan, Kvanju, Inchxon, Techjon, Ulsan. Katta daryolari: Xangan, Naktongan. Koreya Respublikasi 1948-yildan BMT ning a‘zosi. Koreya Respublikasi O‘zbekiston bilan diplomatik munosabatlarini 1992-yilning yanvarida o‘rnatgan (*O‘z ME, 5-jild, 2003-yil, 33-39-betlar*).

**Tayanch iboralar:** *baxshi, Ergash baxshi, savodli, shoir, xalq dostoni, maqol, To‘ychi hofiz, ashula, gramplastenka, xonanda, sozanda, aktyor, bastakor, Komiljon Otaniyozov, Xorazm doston, “Lazgi” ansambli, “Feruz” ansambli, musiqali drama, tilxat.*

### **Asosiy so‘zlar**



- 76-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlang.  
77-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.  
78-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### **Mavzu: Iqtidor va mehnat**

#### **I. To‘rtliklarni yod oling.**

Jondin seni ko‘p sevarman ey umri aziz,  
Sondin seni ko‘p sevarman ey umri aziz  
Har neniki sevmak andin ortuq bo‘lmas,  
Andin seni ko‘p sevarman ey umri aziz.

*(Alisher Navoiy)*

Qarindosh qadrini qondan qidirgin,  
Hurmatni xush ko‘rsang jondan qidirgin,  
Umring uvolini yillardan so‘rama,  
Shabnam duv to‘kilgan ondan qidirgin.

*(Mahmud Toirov)*

His etib dunyoning shodligin, **g‘amin**,  
Ulug‘ bir hikmatga bo‘lganman **amin**:  
Yaxshi-yu yomonni ko‘tararkan teng,  
Shu bois ona deb nom olmish **zamin**.

*(A.Oripov)*

#### **II. Suhbat.**

- Iqtidor nima?
- Tug‘ma talant.
- Qanday shakllanadi?
- Mehnat bilan.

#### **III. Asosiy matnни yozing va tarjima qiling.**

##### **Iqtidorli olim**

Abu Ja‘far Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy – xorazmlik buyuk matematik va munajjim. U 783-yilda Xivada tug‘ilgan. Ilk ta‘limni o‘z ona-yurtida olgan. Ustozlari ta‘sirida ilm-fanni chuqur egallagan. O‘z davrida Shaqning taniqli olimi sifatida mashhur bo‘lgan. Al-Xorazmiyni Bag‘doddagi Sharqning ilk akademiyasi – «**Bayt ul-hikmat**» («*Donishmandlik uyi*») ga taklif qilishgan. Al-Xorazmiy jahonda birinchi bo‘lib matematika faniga asos solgan. Al-Xorazmiy hindlarning ikki qabilasi qo‘llagan birdan to‘qqizgacha bo‘lgan raqamlarni ilm-fanga olib kirgan va nol yordamida katta sonlar yozish mumkinligini kashf qilgan. Bu raqamlar Al-Xorazmiyning “**Al-jabr va muqobala**” kitobi orqali Yevropaga o‘tgan. Kitob arab tilida yozilgani uchun raqamlar ham «*arab raqamlari*» nomini olgan. “*Al-Xorazmiy*” so‘zi lotin tilida o‘zgarib “*algoritm*”ga, “*aljabr*” so‘zi esa “*algebra*”ga

aylangan. Al-Xorazmiyning «Zij» yulduzlar jadvali, «Hind raqamlari hisob-kitobi», «Tenglama va qarshilantirish hisobi muxtasari» («Kitob al-muxtasar fil-jabr val-muqobala»), «Yerning shakli haqida kitob» («Kitobu surat al-Arz») kabi asarlari bor (*O'zME, 9-jild, 485-490-betlar*).

### Lug'at

Munajjim–астроном, ilk–начальный, ta'lim olmoq–учиться, получить образование, Donishmandlik uyi–Дом мудрости, asos solmoq–основать, yaratmoq–создавать, raqam–цифра, ilm-fan–наука, olib kirmoq–вносить, kashf qilmoq–изобретать, o'tmoq–переходить, nom olmoq–называться, aylanmoq–превращаться, yulduzlar jadvali–таблица звёзд.

## IV. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Iqtidorlilar musobaqasi

Kurash belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama-yakka olishuvidir. Kurashish san'ati ko'p xalqlarda qadim zamonlardan ma'lum. Milliy kurashning xilma-xil ko'rinishlari O'zbekiston, Gretsiya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Rossiya, Gruzuya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda keng tarqalgan. Zamonaviy sport kurashining asosiy qoidalari XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida Evropaning bir necha mamlakatlarida ishlab chiqilgan. 1912-yilda Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi. Hozir unga 144 davlat a'zodir, O'zbekiston 1993-yilda a'zo bo'lgan. Xalqaro maydonda sport kurashining yunon-rim, erkin, dzyudo, sambo va boshqa turlari keng tarqalgan. Keyingi yillarda o'zbek kurashi ham alohida kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan olina boshlandi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Kurash azaldan o'zbek turmush tarzining uzviy qismi bo'lganligini arxeologik topilmalar va tarixiy qo'lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya hududidan topilgan jez davriga oid silindsimon copol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini chalayotgani tasvirlangan. Shu davrga mansub boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning kurash usullarini namoyish qilgani aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 ming yil ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo'lganidan dalolat beradi. 1992-yili O'zbekiston kurash federatsiyasi tuzildi. 2003-yili o'zbek kurashi Osiyo o'yinlari dasturiga kiritildi. O'zbek kurashi bo'yicha jahon chempionti o'tkazila boshlandi (*O'zME, 5-jild, 2003-yil, 142-142-betlar*).

### Ilmli va olima shoira

Zebunniso begim 1643-yilda Dehlida tug'ilgan. Boburiylardan Avrangzebning qizi. Onasi Dilrasobonu Boburning qizi Gulbadanbegim avlodlaridandir. Otasi qizidagi shoirlikka maylni sezgach, unga Mullo Muhammad Said Ashraf Isfahoniyni muallim qilib tayinlaydi. Zebunniso ana shu olimning

tarbiyasida shoira, olim, sozanda va xattot bo‘lib yetishdi. U ilohiyotga oid bir asar yozib, asarini ustoziga bag‘ishladi. Zebunniso o‘zbek, fors, arab tillarining sarfu nahvini yaxshi o‘zlashtirgan. U Xusrav Dehlaviy, Navoiy, Bobur, Bedil asarlarini juda yaxshi o‘rgangan. Zebunniso lirik she‘rlar bilan bir qatorda axloq-odobga oid «Zeb ut-tafosir» («Go‘zal tafsirlar»). «Zeb un-nashot» («Nash‘alar ziynati») va tasavvufga oid «Munis ul-arvoh» («Ruhlarning sodiq do‘sti») kabi asarlar ham yaratgan. Shoiraning she‘riy merosi bizgacha to‘liq yetib kelmagan. Uning bir devoni mavjud, unda 8000 misra g‘azal, 7 ta qasida, 5 ta tarje‘band va 1 ta muxammas bor. Zebunniso «Maxfiy» taxallusini ham qo‘llagan. Zebunniso begim 1721-yilda Dehlida vafot etgan (*O‘z ME, 4-jild, 5-bet*).

### Iqtidorli hikoyanavis

Abdulla Qahhor 1907-yilning 17-sentyabrida Qo‘qonda, temirchi oilasida tug‘ilgan. Mahalliy va zamonaviy maktabda o‘qigandan keyin bilim yurtida ta‘lim oldi. Toshkentga kelib, «Qizil O‘zbekiston» gazetasi tahririyatida ishlagan. O‘rta Osiyo universitetining ishchilar fakultetini bitirgan. Qo‘qonga qaytib borib, muallimlik qilgan va «Yangi Farg‘ona» gazetasida faoliyat ko‘rsatgan. O‘zi ham hajviy she‘rlar yoza boshlaydi. 30-yillarda Toshkentga keladi. O‘rta Osiyo universitetining pedagogika fakultetiga o‘qishga kiradi. Shu bilan birga jurnalda mas‘ul kotib bo‘lib xizmat qiladi. Keyinchalik muharrir, tarjimon va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi lavozimlarida ishlaydi. U hikoya, qissa, roman va dramalar yozgan. Yozuvchining «Sinchalak», «O‘tmishdan ertaklar», «Muhabbat» qissalari, «Qo‘shchinor chiroqlari», «Sarob» romanlari, «Shohi so‘zana», «Og‘riq tishlar», «Tobutdan tovush», «Ayajonlarim» kabi komediyalari mashhur. Abdulla Qahhor Pushkin, L. Tolstoy, A. Chexov, Gogol kabi shoir va yozuvchilarning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Adib 1968-yilning 25-mayida Moskvada vafot etgan (*O‘zME, 1-jild, 22-bet*).

**Tayanch iboralar:** *Al-Xorazmiy, matematik va munajjim, ilk akademiyasi, hind raqamlari, arab raqamlari, birdan to‘qqizgacha bo‘lgan raqamlar, nol, lotin tili, o‘zgarmoq, algoritim, aljabr, algebra.*



79-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlang.

80-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

81-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

## Mavzu: Yetuk mutaxassis

I. Nutq tovushiga izoh: “Y” til o‘rta, sirg‘aluvchi, jarangli tovush hisoblanadi.

### Taqqoslang:

O‘zbekcha	Ruscha
yillik	Годовой
yig‘iq	собранный
yo‘g‘on	толстый
yo‘lto‘sar	разбойник
yiring	гной

### Tez aytish

Yo‘l-yo‘l yo‘lbars yo‘lovchiga yo‘naldi.

### Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!

Yi-g‘im, yo‘-lov-chi, yo‘q-la-ma, yo‘l-bars, yo‘l-dosh, yo‘-tal-moq.

## II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:

Yiltiramoq, yiroq, yirtiq, yirtqich, yiqilmoq, yig‘i, yig‘ilish, yig‘im, yig‘lamoq, yig‘moq, yo‘lak, yo‘lbars, yo‘ldosh, yo‘llanma, yo‘lovchi, yo‘rgak, yo‘rg‘a, yo‘tal, yo‘qlama, yigirmoq, yiriklashmoq, yiroqlashmoq, yirmoq, yig‘moq, yig‘ishtirmoq, yo‘liqmoq, yo‘llamoq, yo‘nmoq, yo‘nalmoq, yo‘rgaklamoq, yo‘talmoq, yo‘qlamoq, yo‘qolmoq, yo‘qotmoq, yo‘g‘onlashmoq.

## III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!

- 1) yo‘lovchining yo‘llanmasi;
- 2) yo‘lbarsni yiqitmoq;
- 3) yo‘ldoshga yo‘liqmoq;
- 4) yo‘qlamada yig‘moq;
- 5) yig‘i bilan yo‘qlamoq,
- 6) yo‘l-yo‘l yo‘rg‘a.

## IV. To‘rtlikni yod oling.

Yaxshilarning yuzin ko‘rsang – jannatdir,  
Yomon odam qilgan ishi – minnatdir.  
Achichig‘lamay javob bergin, chirog‘im,  
Ot suramoq, zot so‘ramoq sunnatdir.

(“Kuntug‘mish” dostonidan)

Yo‘q sen kabi malohatda yagona,  
Ko‘rganmikan misolingni zamona,  
Bo‘lib xalq ichida mundog‘ afsona,  
O‘zim har joydaman ko‘nglum sandadur.

(Muqimiy)

Mo'tabar onalar – xonamiz ko'rki,  
O'talar hayotdir – yorug'dir jahon.  
Tiriklik nomiga bir o'tinch shulki,  
O'rta tushmasin bemahal hijron.

(A.Oripov)

## V. Suhbat.

- Sarimsoqov kim?
- O'zbek akademigi.
- Qanday xizmat qilgan?
- O'zbek fizika-matematika ilmiy maktabiga asos solgan.

## VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

### Yetuk matematik

Mashhur o'zbek akademigi Toshmuhammad Aliyevich Sarimsoqov 1915-yilning 10-sentabrida Andijon viloyati Shahrixon qishlog'ida tug'ilgan va boshlang'ich ta'limni o'z yurtida olgan. 1931-yilda O'rta Osiyo davlat universitetining fizika-matematika fakultetiga o'qishga kirib, 1936-yilda universitet bitirgan. U assistent bo'lib ish boshlagan. So'ngra nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Universitetning dotsenti lavozimida o'zining ilmiy pedagogik faoliyatini davom ettirgan. Undan so'ng kafedra mudiri, universitet rektori (1943-45, 1952-58, 1971-88) lavozmlarida ishlagan. 1942-yilda fizika-matematika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan va professor unvonini olgan. 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi etib saylangan. 1943-46-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi sining vitse-prezidenti, 1946-52-yillarda esa prezidenti lavozimida ishlagan. 1959-71-yillarda O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri bo'lib ishlagan. 1988-yildan O'zbekiston FA Prezidiumida maslahatchi bo'lib ishlagan. Sarimsoqov 1995-yilning 17-dekabrida vafot etgan. Sarimsoqovning ilmiy ishlari ehtimollar nazariyasi, geofizika meteorologiyasiga bagishlangan. Topologiya va funksional analiz bo'yicha Toshkent fizika-matematika ilmiy maktabining asoschisidir. Yarim maydonlar nazariyasi va uning ehtimollar nazariyasiga tatbiqini ishlab chiqqan. T. A. Sarimsoqov ikki marta (1967, 1992) Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotiga sazavor bo'lgandir. Vafotidan so'ng (2002) unga "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni berildi (O'zME, 7-jild, 516-bet).

### Lug'at

Mashhur-знаменитый, boshlang'ich-начальный, ta'lim-учёба, o'qishga kirmoq-postupat' na uchebu, bitirmoq-zakanchivat', boshlamoq-nachinat', fan nomzodi-kandidat nauk, ilmiy darajasi-uchёnaya stepen', himoya qilmoq-zaxishchat', lavozim-doljnost', faoliyat-deyatelnost', davom ettirmoq-prodoljzat', saylanmoq-izbirat'sya, maslahatchi-sovetnik, bagishmoq-posvyat'at', asoschi-



основатель, yarim-половина, пол; tatbiq-применение, ishlab chiqmoq-производить, sazovor bo'lmog-bыть достойным,

## VII. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Yuksak naqshlar

Naqsh arabcha so'z bo'lib "tasvir", "gul" degan ma'nolarni bildiradi. Taqsimlari muayyan tartibda bir maromda takrorlanishidan hosil bo'ladigan handasaviy shakllar, o'simlik, qush, hayvon va boshqalarning uslublashtirilgan tasvirlaridan tarkib topgan bezaklarga naqsh deyiladi. Naqshning qachon paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumot yo'q. Ammo arxeologik topilmalar naqshning jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi. Naqsh turli o'lka va xalqlarda geografik muhit, o'simlik va hayvonot dunyosi, madaniyati ta'sirida turlicha rivojlangan. Jumladan o'zbeklarda milliy bosh kiyimini erkaklarda bir xil, ayollarda esa turli naqshlar bilan bezash uchraydi. Mazkyr naqshlarda chuqur falsafiy ma'no aks etadi. Masalan: shimol o'lkalari naqshlarida archa, chorvadorlarda mol shoxi, dehqonlarda uzum bargi va g'ujumi, o'troq aholida gul, anor, bodom, qalampir tasvirlari ko'p uchraydi. Turli narsalar (kitob, ashyo, qurol, mato, mebel va sh. k.), me'moriy inshootlarning ichki va tashqi bezaklari, nafis san'at asarlarida keng qo'llanadi. Naqsh mavhum shakl yoki aniq mavzuga asoslangan bo'lishi mumkin. Naqsh ishlashning turli-tuman uslub va usullari mavjud. Jumladan, **o'yma** (ganch, yog'och, mis, tosh, marmar), **bo'yama** (qog'oz, mato, ganch, yog'och, copol), tikma (kashtado'zlik, zardo'zlik), **zarb** (zargarlik, miskalik), **to'qima** (gilamchilik, to'qimachilik), **qadama** (inkrustatsiya, panjarasozlik) va boshqalar (*O'zME, 6-jild, 292-293-betlar*).

### Yevropa

Yevropa (osuriy tilida «ereb» - «g'arb») – qit'a, Yevrosiyo materigining g'arbiy qismi. Maydoni 10507 ming km<sup>2</sup>; 730 ming km<sup>2</sup> ni orollar tashkil qiladi. Yevropa materigidagi chekka nuqtalar: shimolda – Nordkin burni, janubda – Marroki burni, g'arbda – Roka burni, sharqda – Qutbiy Ural tog'ining sharqiy etagi. Yevropa hududidagi yirik yarim orollar: Kola, Skandinaviya, Yutlandiya, Bretan, Pireney, Apennin, Bolqon, Qrim. Yevropadagi eng katta orollar: Novaya Zemlya, Frans-Iosif Yeri, Shpisbergen, Britaniya, Islandiya, Irlandiya, Korsika, Sardiniya, Sisiliya, Krit. Katta daryolari: Volga, Ural, Dnepr, Don, Pechora, Dnestr (sharqda), Dunay, Reyn, Elba, Visla, Luara, Taxo, Odra (g'arbda). Yevropaning aholisi 729 mln. kishi (2001-yil). Aholisining asosiy qismi hind-evropa tillari oilasiga mansub tillarda gaplashadi (*O'z ME, 3-jild, 405-bet*).

### Yaponiya

Yaponiya (yaponcha «Nixon») – Tinch okean orollarida joylashgan davlat. Eng yirik orollari: Xokkaydo, Xonsyu, Sekoku va Kyusyu. Maydoni 372,2 ming km<sup>2</sup>, aholisi 125,6 mln. kishi (XX asrning oxiri). Poytaxti – Tokio shahri. Ma'muriy-hududiy jihatdan 46 prefektura va Xokkaydo gubernatorligiga

bo‘lingan. Davlat tuzumi – konstitusion monarxiya. Davlat boshlig‘i – imperator. Oliy hokimiyat organi ikki palatali parlament (Vakillar palatasi, Maslahatchilar palatasi). Oliy ijroiya organi – hukumat (Ministrlar kabineti). Yaponiyada 3000 metr dan baland bo‘lgan 16 ta cho‘qqi bor. Aholisining 99 foizi yaponlar, shuningdek, koreys va xitoylar bor. Asosiy dinlari: sintoizm va buddizm. Yirik shaharlari: Tokio, Osaka, Yokoxama, Nagoya. 1956-yilning dekabrda BMT ga qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarni 1992-yilning 26-yanvarida o‘rnatgan (O‘zME, 10-jild, 396-405-betlar).

### VIII. Grammatik terminlar:

1. **Yozuvning to‘rtta turi bor:** 1) *piktografik yozuv* – biror narsaning rasmini chizib, fikr anglatish vositasi. Masalan: *yo‘l harakati belgilari*; 2) *ideografik yozuv* – biror o‘xshash belgi orqali tushuncha anglatish vositasi. Masalan: *misr, xitoy va yapon yozuvlari*. 3) *sillabik yozuv* – bo‘g‘inlar orqali tovush birliklarini anglatish vositasi. Masalan: *bobilliklarning mixxati, hindlarning devanagari yozuvi, sug‘d, uyg‘ur, arab yozuvi* (konsonant turga kiradi); 4) *fonografik yozuv* – nutq tovushlarini harflar bilan ifodalash orqali fikr anglatish vositasidir. Masalan: *oromiy, urxun-enisey, lotin, kirill yozuvlari*.

2. **Yasama so‘z** asos va so‘z yasovchi qo‘shimchaning birikuvidan hosil bo‘ladigan birlikdir. **M.:** *ishchi, ishchan, ishla, serhosil, noo‘rin, baquvvat, boodob, behisob*.

3. **Yig‘iq gap** bosh bo‘laklardangina iborat sodda gap bo‘ladi. **M.:** *Karim keldi. Kitob o‘qildi. Shahar chiroyli*.

4. **Yoyiq gap** bosh va ikkinchi darajali bo‘laklardan tashkil topgan gap. **M.:** *Nizomjon opasining gaplarini chin yurakdan eshitib o‘tirardi*.

5. **Yuklama** ayrim gap bo‘lagiga yoki gapga qo‘shimcha ma’no yuklaydigan yordamchi so‘zlar. Uning quyidagi turlari bor:


1) *so‘roq-taajjub yuklamalari* (-mi, -chi, -a, -ya);

2) *kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari* (hatto, g‘irt, ham, nahotki, -ku, -u, -yu, -da, -oq, -yoq);

3) *ayiruv-chegaralov yuklamalari* (faqat, -gina, -kina, -qina);

4) *o‘xshatish-qiyoslash yuklamalari* (xuddi, go‘yo, go‘yoki, naq);

5) *gumon yuklamasi* (-dir); 6) inkor yuklamasi (hech, sira, -ni, -ning).



**Tayanch iboralar:** *boshlang‘ich ta’lim, fizika-matematika, assistant, fan nomzodi, dotsent, fan doktori, ilmiy darajasi, professor, vitse-prezident, ta’lim vaziri, maslahatchi, akademik, ehtimollar nazariyasi, geofizika meteorologiyasi*.

- 82-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlang.  
83-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.  
84-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

## **Mavzu: Kasb bayrami**

### **I. She’rni yod oling.**

#### **Muallim**

Muallim haqida so‘zim ushbudir:  
Muallim kamolot ichra ko‘zgudir.  
O‘qidim Gerodot, tarixni ko‘p bor,  
Forobiy, Danteni takror va takror.  
Barini oqidim, lol qoldi aqlim,  
Bariga ustozsan, o‘zing, muallim.  
Alisher qalbiga solgan sehr-fayz  
Sensan, ey muallim, ustoz Abul-Lays.  
Qutlug‘ xonadonda qutlug‘ kalom bu,  
Hamid Olimjon bu, G‘afur G‘ulom bu.  
Buyuk Temur sendan topgandir ta’lim,  
Sen shundoq, aziz zot, aziz muallim.  
Rost aytsam, o‘zingsan eng avval daho,  
Sen hayot ganjida durri bebaho.  
Ulug‘ ayyomingda she’riy kalom bu,  
Shogirdlar nomidan qutlug‘ salom bu.

*(Abdulla Oripov)*

### **II. Suhbat.**

- 1-oktyabr qanday bayram?
- O‘qituvchilar va murabbiylar kuni.
- Qayerda dam olish kuni?
- O‘zbekistonda.

### **III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.**

#### **Ustozlik kasbi**

Turli yo‘nalishdagi o‘rta umumiy ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis o‘qituvchidir. Oliy o‘quv yurtlarida esa “domla”, “professor-o‘qituvchi” deb yuritiladi. Mazkur terminning “muallim”, “pedagog” kabi sinonimlari bor. O‘qituvchilik kasbi juda qadimdan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Tamaddunning Ossuriya, Bobil, Misr, Yunoniston, Turon, Hindiston, Xitoy singari o‘choqlaridan topilgan tarixiy-madaniy obidalar bu o‘lkalarda o‘qituvchilik kasbi juda qadim zamonlarda shakllanganligini ko‘rsatadi.

Yunonistonda faqat ozod kishilargina o'qituvchilik bilan shug'ullanishgan. Boy oilalarda esa bilimli va savodli kishilar ta'lim-tarbiya ishini bajarishgan. Ular "paydagog" (bola yetaklovchi) lar deb atalgan. Rim imperiyasida o'qituvchilar inperatop nomidan tayinlanadigan davlat amaldori sanalgan. Qadimda o'qituvchilarning dindor, yollanma, uy o'qituvchilari kabi tabaqalari bo'lgan. Sharq mamlakatlarida o'qituvchilik eng nufuzli kasb hisoblangan shuning uchun "ustoz" deb atashgan. Islom dini kirib kelgandan so'ng deyarli har bir mahallada maktab va madrasalar tashkil etilgan. U joylardagi o'qituvchilar "domla" deb atalgan. Turkistonda XIX asrning oxirlarida ma'rifatchilik, keyin jadidchilik harakatlari paydo bo'lgan. Osha paytdagi o'qituvchilar "muallim" deb atalgan. O'zbekistonda 1936-yilning 10-aprelida rasmiy "o'qituvchi" ixtisosligi joriy etildi. Mustaqil davlatimizda 1-oktyabr "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" sifatida bayram qilina boshlandi va dam olish kuni deb deb e'lon qilindi. Respublikamizda "O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq maorifi xodimi" kabi faxriy unvonlar joriy etilgan (*O'zME, 2005-yil, 10-jild, 560-561-betlar*).

### Lug'at

O'rta—средный, umumiy—всеобщий, maktab—школа, kasb—профессия, hunar—мастерство, ta'lim—обучение, tarbiya—воспитание, oliy o'quv yurti—ВУЗ, o'qituvchi—преподаватель, kasb—профессия, ozod—свободный, kishi—человек, bilimli—образованный, savodli—грамотный, dindor—верующий, yollanma—наёмный, uy—дом, nufuzli—авторитетный, ma'rifat—просвещение, murabbiy—воспитатель, bayram—праздник, faxriy—почётный, unvon—звания.

## IV. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Ulug' ustoz

Mavlono Lutfiy 1366-yilda Hirotda tug'ilgan. O'z zamonasining mashhur shoiri, «malik ul-kalomi» bo'lgan. Lutfiyning ona vatani Toshkent degan fikrlar ham mavjud. U Hirotda ta'lim olgan, yoshligidan adabiyotga qiziqqan. Umrining asosiy qismini o'qish-o'rganish va she'r yozishga bag'ishlagan. Diniy-tasavvufiy ilmlarni ham chuqur egallagan. Turkiy va forsiy tillarda 12000 bayt she'r yozgan. Bizgacha shoirning turkiy devoni (33 ta qo'lyozma nusxasi) yetib kelgan. She'rlarining asosiy qismi g'azallardan iborat. Shuningdek, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard va boshqa janrlarda ham ijod qilgan. Alisher Navoiy Lutfiyni o'ziga ustoz deb bilgan. Lutfiyning she'rlariga zamondoshlari juda ko'plab nazira va tatabbu'lar yozishgan. Lutfiy 99 yil umr ko'rib, 1465-yilda vafot etgan. Lutfiyning ko'pgina she'rlari hozir ham ashula sifatida kuylanmoqda. **Bayt:** *Ulus ichra turur o'z begim qiyo ko'zluk, Xayoli To'qtamish andin ko'ngul Saroyinda (O'z ME, 5-jild, 325-bet).*

### Ustoz shoir

O'zbek demokratik adabiyoti asoschilaridan biri, shoir Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy 1850-yilda Qo'qonda tug'ilgan. Otasi toshkentlik, onasi

esa xo‘jandlik bo‘lib, Qo‘qonda yashashgan. Muqimiy avval mahalliy maktabda, so‘ngra Qo‘qondagi “Mohlar oyim” madrasasida va Buxoro madrasalaridan birida o‘qigan. Undagi she‘riyatga havasni onasi uyg‘otgan. O‘zi Nizomiy, Jomiy, Navoiy va Fuzuliyning ijodini o‘rganib, she‘rlar yoza boshlagan. Buxorodan Qo‘qonga qaytgach, yer qurilishi mahkamasida ishlagan. Keyin ijod bilan shug‘ullangan. Otasi vafotidan so‘ng moddiy qiyinchilikda yashagan. Uyini sotib, “Hazrat” madrasasiga ko‘chib o‘tgan. U toshkentlik shoirlar (Almai, Nodim) bilan aloqa bog‘lagan. Bir necha bor Toshkentga sayohat qilgan. Muqimiyning lirik she‘rlarida muhabbat, do‘stlik, sadoqat, vafodorlik kabi fazilatlar ulug‘langan. Shoir hajviy she‘rlarida o‘sha paytdagi tengsizlikni qattiq tanqid qilgan. Uning she‘rlari va hajviyalarida ilg‘or fikrlar ilgari surilgan. Shoirning ko‘pgina she‘rlari zamonaviy yangiliklarga bag‘ishlangan. Muqimiy 1903-yilning 25-mayida Qo‘qonda vafot etgan. Muqimiyning devoni 1907-yilda nashr etilgan. Keyinchalik hajviyalari ham qo‘shilgan holda to‘plam sifatida bosilgan. Ko‘pgina olimlarimiz Muqimiy ijodi bo‘yicha ilmiy ishlar va badiiy asarlar yozishgan.


### **Usta hajvchi va shour**

Taniqli shoir Ubaydulla Zavqiy 1853-yilda *Qo‘qonning Shayxon* mahallasida *usta Solih* oilasida tug‘ilgan. Uning otasi mahsido‘z kosib edi. Ubaydulla xat-savodi chiqqandan so‘ng maktabda o‘qigan. So‘ng “*Madrasai oliy*”, “*Chalpak*” madrasalarida ta‘lim olgan. Ro‘zg‘orni boqish uchun *mahsido‘zlik* ham qilgan. Qachon she‘r yoza boshlagani noma‘lum, shoir sifatida dong tarata boshlaydi. Uni Mo‘minjonboy *mirza* sifatida ishga olgan. Zavqiy savdo ishi bilan Xo‘jand, Samarqand, Buxoro, Marg‘ilan, Andijon, O‘sh, Toshkent shaharlarida bo‘lgan. Lekin shoir 1890-yilda mirzalikka iste‘fo beradi. Muqimiyning hajvchilik yo‘lini davom ettirib, demokratik adabiyotda satira va yumor janrini yanada rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Zavqiy Muqimiy bilan birga Farg‘ona bo‘ylab *sayohatga yo‘l oldi*. 1900-yilda Zavqiy tog‘asi Muhammad Siddiq bilan birgalikda Arabistonga sayohat ketadi. Ular Kavkaz, Kichik Osiyo, Misr, Arabiston va boshqa joylarda bo‘lishgan. Shoir *uch yildan so‘ng* Qo‘qonga qaytib keladi. Zavqiyning satira sohasidagi mahorati 1905-1906-yillarda yozgan “*Ahli rasta hajvi*” satirasi muhim ahamiyatga ega. Unda *Qo‘qon rastasidagi 46 kishi* tanqid qilingan. She‘r sayilgoh *Mo‘ymaradagi* terakka osib qo‘yilgan: Qirq olti kishini fasona qildim, Kim chiqsa o‘qiydi Mo‘ymarakka. Shoir bundan so‘ng “*Talading baring*” nomli she‘rini yozadi. Zavqiy “*Al-isloh*” jurnalida demokrat shoirlarni himoya qilib maqolalar yozgan. U 1916-yilda Qo‘qondagi xalq qo‘zg‘oloniga bag‘ishlab “*Qahatchilik*” dostonini, “*Zamona*”, “*Ajab ermas*” she‘larni yozdi. Zavqiy *Qo‘qon muxtoriyatining* mohiyatini yaxshi tushunmaydi. U bosmachilar harakatini qoralab, sho‘ro hokimiyatini quvvatladi. Uni mahalliy kurashchilar ta‘qib qilishdi. Zavqiy *Xo‘jand, Samarqand, Buxoro* tomonlarga qochib ketdi. Keyin yana Qo‘qonga keldi. Bosmachilar uni ushlab olishdi va zindonda saqlashdi, qiynashdi. Uni pul hisobiga hukumat qutqaradi. Zavqiy kasalligi sabab 1921-yilning yozida vafot etgan. Shoirning maxsus devon yetib kelmagan. Adabiyotshunoslar uning asarlarini to‘plab 1958-yilda “*Tanlangan asarlari*”ni rus

va o‘zbek tillarida nashr ettirishdi. Uning devonini uyg‘ur xotini *Hojixon* Qashqarga olib ketgan degan taxmin bor (*O‘zME, 3-jild, 651-652-betlar*).

**Tayanch iboralar:** *mutaxassis, o‘qituvchi, domla, professor-o‘qituvchi, muallim, pedagog, tamaddun, Ossuriya, Bobil, Misr, Yunoniston, Turon, Hindiston, Xitoy, paydagog, ustoz, O‘qituvchilar va murabbiylar kuni.*

### Asosiy so‘zlar



85-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

86-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

87-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Sharq akademiyalari

#### I. To‘rtliklarni yod oling.

Qancha buyuk zotlarga makon bo‘lgan Xorazm,  
O‘tgan-ketgan tarixing barchaga kunday ayon.  
Sira ajab emasdir Mashhad ham aylab bazm,  
Bir **qiyot** farzandiga ta‘zimda bo‘lsa jahon, –

(*Abdulla Oripov*)

Xorazm mashhur diyori, jannatning bir bo‘lagi,  
Ahli yurtning qadimdan urib turgan yuragi.  
Xorazm mashhur o‘lka, Turonzamin keragi,  
Tillo uzigi elning, ham marvarid ziragi.

(*Oshiq Erkin*)

#### II. Suhbat.

- Bayt ul hikmat nima?
- Ilk akademiya.
- Qayerda tashkil etilgan?
- Bag‘dod shahrida.

#### III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

##### 1-Ma‘mun akademiyasi

IX asrning birinchi yarmida Xalifa Ma‘mun ar-Rashid (813-833) tomonidan Bag‘dod shahrida tashkil etilgan ilmiy markazdir. Dastlab “**Bayt ul hikmat**” (“Bilimlar uyi”) deb nomlangan. Mazkur akademiya Husayn ibn Is‘hoq, Sobit

ibn Qurra, Xubaysh, Bahtyashu, Is'hoq al-Damashqiy, Ibn Mojja, Navbaxt va boshqa olimlar tomonidan yunon, yahudiy, sanskrit, suryoniy, turkiy, fors tillaridagi juda ko'p asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Ularga sharhlar yozilib, butun musulmon dunyosiga tarqatildi. Ana shu tarjima va sharhlar tufayli ko'pgina qadimgi asarlar bizning davrimizgacha yetib keldi. 828-yilda Bag'dodda birinchi rasadxona qurildi. 831-yilda Damashq yaqinidagi Kosion tog'ida rasadxonaning bo'limi ishga tushdi. Rasadxonaga dastlab marvlik Abu Ali Yahyo ibn Mansur, keyinchalik Muhammad Xorazmiy boshchilik qilgan. Ma'mun akademiyasi olimlari turli maqsadlarda har xil joylarga ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirishgan. 832-yilda Xorazmiy boshchiligida G'arbiy Hindiston (hozirgi Afg'oniston)ga uch marta ekspeditsiya tashkil qilgan. Bag'dod Ma'mun akademiyasida Xolid al-Marvardiy, Abbos al-Javhariy, Ahmad al-Marvaziy, Ahmad al-Farg'oniy, Abulfazl al-Xuttaliy, Abu Yusuf ibn al-Kindiy va boshqa o'rta osiyolik olimlar ham ijod qilishgan (*O'z.RE, 5-jild, 537-bet*).

### Lug'at

Asr-век, yarim-половина, tashkil etmoq-организовывать, ilmiy markaz-научный центр, dastlab-сначала, nomlamoq-именовать, ko'p-много, asar-произведение, tarjima qilmoq-переводить, sharh-комментарий, yozmoq-писать, butun-всё, dunyo-мир, tarqatmoq-распространять, qadimgi-древний, davr-время, yetib kelmoq-приехать, достигать; rasadxona-обсерватория, qurmoq-строить, yaqin-bлизкий, tog'-гора, bo'lim-отдел, boshchilik qilmoq-руководить, turli-разный, maqsad-цель, har xil-разный, joy-место, ilmiy-научный, uyushtirmoq-организовывать, tashkil qilmoq-составлять, ijod qilmoq-изобретать.

## IV. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### 2-Ma'mun akademiyasi

Xorazm Ma'mun akademiyasi X asrning oxiri XI asrning boshlarida faoliyat ko'rsatgan ilmiy markazdir. Bu akademiyaning yuzaga kelishida shoh Ali ibn Ma'munning xizmati beqiyosdir. Uning tog'asi Abu Nasr ibn Iroqiy o'z davrining bilimdon olimi bo'lgan. U Beruniyni Gurganjga taklif qiladi. Ikki olim Yaqin va O'rta Sharqdagi olimlar bilan yozishmalar olib borib, ularni Gurganjga chorlashgan. Shu tariqa 1004-yildan boshlab Gurganjda "Doril hikma va maorif" ("Majlisi ulamo") ilmiy markazi to'la shakllangan. Bu yerda juda ko'p ilmiy manbalar to'plangan va tarjima qilingan. Yunon, hind va arab olimlarining ilmiy ishlari chuqur tahlil qilingan. Mazkur olimlar Yunoniston, Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o'rganib, uni yanada yuqori bosqichga ko'tarishgan. Xorazm Ma'mun akademiyasida Abu Nasr al-Ja'diy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Sahl Iso ibn al-Jurjoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Ahmad ibn Miskavay, Abu Mansur as-Saolibiy, Ahmad as-Sahriy, Abu Ali al-Xorazmiy va boshqa olimlar ilmiy ish bilan shug'ullanishgan. Abu Nasr ibn Iroqiy ilmiy asarlari uchun "Batlimusi soniy" ("Ikkinchi Ptolemey"), Abulxayr ibn Hammor esa "Buqrati soniy" ("Ikkinchi Gippokrat") nomiga sazovor

bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-noyabrdagi qaroriga muvofiq 2005-yilda Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi nishonlandi (*O'zME, 9-jild, 2005-yil, 479-481-betlar*).

### **Mingo'rik tepa**

Mingo'rik tepa qadimgi shahar xarobasi (I-XIII asrlar). Shaharning o'rni Toshkentdagi Shimoliy temir yo'l vokzali yaqinida Salor kanali sohilidadir. Xaroba yonida XIX asrda katta o'rikzor bo'lganligi sababli Mingo'rik tepa deb nomlangan. Mahalliy aholi o'rtasida "Afrosiyob tepaligi" nomi bilan mashhur bo'lgan. Minora-qasr (to'rtburchak arkka yondoshgan) va shahristonning tepalikka aylangan hududidan iborat. Keyinchalik hozirgi shahar qurilishi munosabati bilan yodgorlikning madaniy qismi buzilib ketishi natijasida Mingo'rik tepa bir qismigina saqlanib qolgan. Bu qadimgi shahar xarobasi haqidagi yozma qaydlar 1896, 1912, 1920-yillarga tegishlidir. Birinchi qazish ishlari ancha oldin boshlangan, 1968-yildan esa yana davom ettirilgan. Uning natijasida o'n besh gektar shahriston, yarim gektar ark maydoni topildi. Shahar hayotining uch bosqichi aniqlandi. Birinchi bosqich(I-IV asrlar)ga tegishli ichki turarjoy majmuasi, uni muhofaza qilgan uzun yo'lakli, qo'shqator qal'a devori qoldiqlari topilgan. Devor tashqarisida unga yondashtirilib qurilgan to'rtburchakli burj va mo'lalar bo'lib ularning orasi 12 metrga teng. Ikkinchi bosqich (V-VI asrlar)da shahar tez sur'atda rivojlangan, aholi soni oshib borishi natijasida mustahkam ark va shahristonga, eng yirik shahar markaziga aylangan. 6-asrda Chochning markaziga aylangan. Arab manbalarida tilga olingan «Madinat ush-Shosh» shu qal'adir deb hisoblanadi. Uchinchi bosqich(VII-VIII asrlar)da Arab xalifaligining Chochga yurishi arafasida shahar yanada yuksalgan. Barcha me'moriy qurilish obidalari, ularning ichki bezaklari, tasvir va naqshlari, shuningdek hunarmandchilik, musiqa-raqs davr bilan hamnafas rivojlangan. VIII asrda arab bosqinchilari shaharni vayronaga aylantirishgan. X asrda shaharning bir qismidagina hayot tiklanib, XIII asrgacha davom etgan (*O'zME, 5-jild, 673-674-betlar*).

### **Malayziya**

Malayziya – Janubi-sharqiy Osiyodagi davlat. Malayziya hududini Janubiy Xitoy dengizi ikkiga ajratib turadi. G'arbiy Malayziya Malakka yarim orolining janubida, Sharqiy Malayziya Kalimantan orolining shimoliy qismida joylashgan. Maydoni 332,8 ming km<sup>2</sup>, aholisi 22,2 mln. kishi (2001-yil). Poytaxti – Kuala-Lumpur shahri. Ma'muriy-hududiy jihatdan 13 shtat va 2 federal hududga bo'lingan. Malayziya – federal davlat, konstitutsiyali monarxiya. Davlat boshlig'i – oliy hukmdor (podshoh). Qonun chiqaruvchi organi – ikki palatali parlament. Ijroiya hokimiyatni bosh vazir boshchiligidagi Vazirlar mahkamasi amalga oshiradi. Malayziyadagi eng baland joy – Kinabalu tog'i (4101 metr). Daryolari: Rajang, Paxang, Baram, Kinabatangan va boshqalar. Aholisining 54 foizini malayyalar, 34 foizini xitoylar, 10 foizini hindlar va boshqa millatlar tashkil qiladi. Davlat dini – islom. Yirik shaharlari: Kuala-Lumpur, Jorjtaun, Ipox, Joxor-Baru. Malayziya 1963-



yildan BMT ning a'zosi. O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarini 1992-yilning 1-yanvarida o'rnatgan (*O'z ME, 5-jild, 416-bet*).

**Tayanch iboralar:** *IX asr, Xalifa Ma'mun ar-Rashid, Bag'dod shahri, ilmiy markaz, Bayt ul hikma, Bilimlar uyi, yunon, yahudiy, sanskrit, suryoniy, turkiy, fors, arab, tarjima qilmoq, sharhlar yozmoq, tarqatmoq.*

### Asosiy so'zlar



88-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

89-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

90-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Ilm sari yo'l

#### I. To'rtliklarni yod oling.

Bisyor bo'lsa agar, bol ham beqadr,  
Takror aytilganda rangsizdir kalom.  
Bu yorug' olamda **Vatan** bittadir,  
Bittadir dunyoda **Ona** degan nom!

*(Abdulla Oripov)*

**Vatanni** sev, tuprog'ini o'p,  
Har qarichi muqaddas bizga,  
Cho'lidagi hatto quruq cho'p –  
Jondan yaqin yuragimizga.

*(Oybek)*

Uch yuz Ko'hi Qofni kelida tuymoq,  
Dil qonidan bermak falakka bo'yoq.  
Yoyinki bir asr zindonda yotmoq,  
Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq.

*(Pahlavon Mahmud)*

#### II. Suhbat.

- Ulug'bek kim?
- Hukmdor va olim.
- Nechta asar yozgan?
- To'rtda.

### III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

#### Ilmiy maktab asoschisi

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (asli Ullubek) 1394-yilning martida Eronning Sultoniya shahrida tug'ilgan. Unga Amir Temur o'z otasining ismini bergan. Shu sabab «ulug' bek» deb atalgan. Ulug'bekni Saroymulkxonim tarbiyalagan. Ulug'bekning otalig'i Shoh Malik edi. Munajjimlik bo'yicha ilk ustoz Mavlono Ahmad bo'lgan degan taxmin bor. Ulug'bek «Zij» asarida Qozizoda Rumiyni ustozim deb ta'kidlaydi. Ulug'bekning ustozlaridan yana biri mashhur olim G'iyosiddin Jamshid Koshiydir. Ulug'bek 1411-yilda Movarounnahr va Turkiston hokimi etib tayinlanadi. Alisher Navoiy Ulug'bek mirzoga «Qur'oni Karimni yetti xil qiroatda yoddan bilar edi», deb ta'rif bergan. Ulug'bek ilm-fanga ixlosi bois deyarli bir davrda Samarqand, Buxoro, G'ijduvonda madrasa qurdiradi. Ulug'bek Samarqand munajjimlik maktabiga asos soldi va shakllantirdi. Ulug'bek Ko'hak tepaligida rasadxona qurdiradi (1424-1429-yillar). Buyuk olimlar Taftazoniy, Mavlono Ahmad, Qozizoda Rumiyy va G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchilar Samarqandda ilmiy ish bilan shug'ullanishdi. Samarqanddagi madrasada Qozizoda Rumiyy, Ulug'bek, Koshiy va Ali Qushchilar ma'ruza o'qishar edi. Abdurahmon Jomiy shu madrasada o'qigan. Ulug'bekdan meros qolgan ilmiy asarlar to'rttadir: «Ziji jadidi Ko'ragoniy», «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», «Risolayi Ulug'bek», «To'rt ulus tarixi». «Ziji Ulug'bek» asarida 1018 yulduzning o'rni va holati aniqlab berilgan. Ulug'bek o'z asarining yaratilishiga hissa qo'shgan ustoz Koshiy, ustoz Rumiyy, shogirdi Ali Qushchilar xizmatlariga alohida baho bergan. Ulug'bek asarini *“farzandi arjumand Ali ibn Muhammad Qushchi... ittifoqligida...”* poyoniga yetkazganini aytadi. 1449-yilda Ulug'bek fojiali ravishda qatl etilgan. Shundan so'ng Ali Qushchi Turkiyaga ketadi. Ali Qushchi 1473-yili Istanbulda rasadxona qurilishiga boshchilik qiladi (*O'zME, 9-jild, 2005-yil, 75-79-betlar*).

#### Lug'at

Ulug'–великий, ota–отец, ism–имя, bermoq–давать, atamoq–именовать, tarbiyalamoq–воспитывать, otaliq–воспитатель, munajjimlik–астроном, yetti xil–семь раз, ilk–начальный, ta'kidlamoq–подчёркивать, mashhur–известный, tayinlanmoq–назначаться, qiroat–чтение нараспев, ixlos–преданный, asoslamoq–обосновывать, rasadxona–обсерватория, tepalik–холм, qurmoq–строить, shug'ullanmoq–заниматься, aniqlamoq–уточнить, qatl etmoq–казнить, ustoz–наставник, boshchilik qilmoq–возглавить.

### IV. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

#### Ilm jonkuyari va shoir

Muhammadrizo Ogahiy 1809-yilning 17-dekabrida Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida tug'ilgan. U maktab va madrasada o'qiydi. Ulug' mutafakkirlarning asarlari bilan tanishadi. Arab, fors tillarini o'rganadi. Otasi

vafotidan soʻng unga amakisi Shermuhammad Munis yordam beradi. Munis xonlikda tanilgan davlat arbobi, shoir, tarixchi olim va adabiyotshunos edi. Muhammadrizodagi tugʻma isteʼdod uning kelajakda shoir hamda olim boʻlib shakllanishiga sabab boʻldi. Ogahiy keyinchalik xonlikning bosh mirobi vazifasida 30 yil xizmat qildi. U shoir sifatida «Taʼviz ul-oshiqin» (Oshiqlar tumori) sheʼriy devonini tuzgan. Devonda shoirning 18000 misra sheʼri jamlangan. Uning forsiy sheʼrlari (1300 misra) ham mazkur devonga kiritilgan. U 27 yoshida devon tuzgan, devondan 19 xil janrdagi sheʼrlar oʻrin olgan. Ogahiy tarixchi olim sifatida Munisning chala qolgan «Firdavs ul-iqbol» (Baxt bogʻi) asarini yozib tugatdi. Oʻzi esa «Riyozi ud-davla» («Saltanat bogʻlari», 1844-yil), «Zubdat ut-tavorix» («Tarixlar qaymogʻi», 1845-1846-yillar), «Jome ul-voqeoti sultoniyy» («Sultonlik voqealarini jamlovchi», 1857-yil), «Gulshani davlat» («Davlat gulshani», 1865-yil), «Shohidi iqbol» («Iqbol guvohi», 1872-yil) tarixiy asarlarini yozdi. Ogahiy Mirxond, Astrobody, Zayniddin Vosifiy, Ali Gʻijduvoniyy, Muqim Hirotiy, Yusuf Munshi, Voiz Husayn Koshifiylarning tarixiy asarlarini fors tilidan oʻzbekchaga tarjima qildi. Shuningdek, Kaykovusning «Qobusnoma», Saʼdiy Sheroziyning «Guliston», Jomiyning «Yusuf va Zulayho», Hiloliyning «Shoh va gado», Nizomiyning «Haft paykar» (Yetti goʻzal) badiiy asarlarini oʻzbek tiliga oʻgirdi. Ogahiy 1874-yilda vafot etgan (*OʻzME, 6-jild, 452-454-betlar*).

### **Iqtisodiy raqobat**


Raqobat – mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi (korxonalar) oʻrtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda oʻz mavqegini mustahkamlash uchun kurash. Raqobat koʻp qirrali iqtisodiy hodisa boʻlib, bozor subʼektlari oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Resurslarni yetkazib beruvchilar orasidagi raqobat oʻzlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, yer, ishchi kuchi) yuqori narxlarda sotish uchun amalga oshiriladi. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar oʻrtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot toʻliq erkinlashgan sharoitda yaqqol namoyon boʻladi. Raqobat isteʼmolchilar oʻrtasida ham yuz berib, tovarlarni qulay va arzon baholarda sotib olishga qaratiladi, yaʼni xaridor har bir sarflangan pul birligi evaziga koʻproq foyda koʻrishga harakat qiladi, arzon va sifatli tovarni sotib olish uchun kurashadi (*Oʻz ME, 7-jild, 265-bet*).

### **Indoneziya**

Indoneziya Respublikasi – maydoni 1904,6 ming km<sup>2</sup>, aholisi 228,4 mln. kishi (2001-yil). Poytaxti – Jakarta shahri. Mamlakat maʼmuriy jihatdan 26 ta viloyatga boʻlingan. Indoneziyaning davlat tuzumi – unitar respublika. Davlat va hukumat boshligʻi – besh yil muddatga saylanadigan prezident. Davlat hokimiyatining oliy organi – Xalq maslahat kongressi. Indoneziyada 150 ga yaqin elat va etnik guruhlar yashaydi. Mamlakat aholisining 96 foizi tili, madaniyati va urf-odatiga koʻra malayya-polineziya til oilasining indonez guruhiga mansubdir. Bulardan eng yiriklari: yavaliklar, sundanlar, maduralar, malayyalar, jakartaliklar, achelar, bataklar, dayaklar va boshqalar. Ulardan tashqari Indoneziyada melanezlar,

papuaslar, xitoylar, arablar, gollandlar, hindlar va boshqa xalqlar yashaydi. Asosiy din – islom dini. Aholining 80 foizi musulmonlar, 10 foizi xristianlar, qolgan qismi boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchilardir. Yirik shaharlari: Jakarta, Surabayya, Bandung, Semarang, Medan. Indoneziya 1950-yildan BMT ning a’zosi. Indoneziya O‘zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarini 1992-yilning 23-mayidan boshlagan (*O‘z ME, 4-jild, 155-158-betlar*).

**Tayanch iboralar:** *Muhammad Tarag‘ay, otaliq, ilk ustoz, Mavlono Ahmad, Qozizoda Rumiyni G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi, hokim, madrasa, rasadxona, qurdirmoq, Samarqand munajjimlik maktabi.*



91-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

92-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

93-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### **Mavzu: Kasb etikasi**

**I. Nutq tovushiga izoh:** “E” tovushi lablanmagan, til oldi, o‘rta-keng, cho‘ziq, unli hisoblanadi.

#### **Taqqoslang:**

##### **O‘zbekcha**

etik (сапог)

etak (подол)

##### **Ruscha**

этик (ахлоқий)

этак (shunday)

#### **To‘g‘ri talaffuz qiling!**

1) emlamoq - производить прививку

imlamoq - манить

3) meng - болшауа родинка

ming - тысяча

2) es - ум

is - запах

4) echki - коза

ichki - внутренний

#### **Tez aytish**

Eshboy eshkakni eshdi.

#### **Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!**

El-chi, e-shik, er-ta-lab, e-na-ga, eg-moq, er-tak.

### **II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:**

Eng, ertaga, evara, e'lon, eshik, ertalab, erkin, eshitmoq, ehtimol, eski, el, elat, elik (podsho), elkun (vatan), elchi, elchixonona, elchilik, elkin (musofir), elbegi (hokim), ega, egallamoq, egar, egat, egizak, egilmoq, egov, egmoq, ezmoq, ekmoq, elak, ellik, emaklamoq, emmoq, enaga, engashmoq, endi, epchil, ergashmoq, erimoq, erinmoq, erinchak, enmoq, erkalamoq, erksevar, ertak, esa, eslamoq, esnamoq, e'tibor, e'tiroz, e'tiqod, ehson, ehtiyoj, ehtiyot, ehtiros, egarlamoq, egovlamoq, elamoq, enkaymoq, eskirmoq, eshmoq, ehtiyotlamoq.

### III. So'z birikmalari tuzishni o'rganing!

- |                       |                           |
|-----------------------|---------------------------|
| 1) eshikning eni;     | 4) egatda emaklamoq;      |
| 2) e'lonni eshitmoq;  | 5) elchi orqali eshitmoq; |
| 3) egardan engashmoq; | 6) eski etik.             |

### IV. To'rtliklarni yod oling.

Elga sarvar bo'lay desang, xizmat qil,  
Dasturxonning xolis bo'lsin, himmat qil,  
Adab qonunidan chiqma, kamtar bo'l,  
Odam ahli sharaflari deb hurmat qil.

*(Habibiy)*

Erta sahar tavof qilgil, bu vatanimdir,  
Na vatan bu, sajdagoh-u jonim va tanimdir,  
Ko'kda oyim, osoyish-u izzat-sharafimdir,  
Ham Ka'bamdir, ham qiblamdir, chamanimdir.

*(Abdurauf Fitrat)*

Erta tong Sharqdagi tog'dan Iskandar shamshiri yaraqlab,  
Doroning sovutidan bir tomchi qon qizarib ketdi.  
Muqaddas ruh nafasi Maryam ko'ylagin yoqasini chok etdi,  
Oltin beshikda Isoning ruxsori namoyon bo'ldi.

*(“Amir Arslon Rumiy” dostonidan)*

### V. Suhbat.

- El so'zining o'zakdoshlari?
- Elkun, elik, elbegi, elchi.
- Ushbu so'zlar qaysi qatlamga xos?
- O'z qatlamga.

### VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

#### Etika egalari

Ziyolilar aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi kishilardir. Ular tarixda mehnatning jismoniy hamda aqliy mehnatga ajralishi tufayli vujudga kelgan. Davrlar o'tishi bilan jamiyatda aqliy mehnatga ehtiyoj paydo bo'lgan. Kishilarga ilm-ma'rifat

o'rgatuvchi o'qituvchilar, davolovchi shifokorlar, din-u diyonatni targ'ib qiluvchi, muhtojlarga taskin beruvchi ruhoniylar, kishilarni estetik tarbiyalovchi yozuvchi, shoir, musiqachi, rassomlardan iborat ijtimoiy qatlam shakllanib rivojlanib borgan. Ziyoli deganda har qanday holatlarda tez chorasini topadigan, narsa-buyum yoki jarayonning mohiyatini to'g'ri va darhol anglab oladigan, tez fikr yuritadigan va xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar tushuniladi. O'zbek tildagi "ziyoli" so'zining o'zagida "nur" ma'nosi mavjud. Ziyolilar ilmi, ma'rifatli va bilimdon kishilar hisoblanadi. Ular yuksak axloqli, yaxshi fazilatga ega bo'lgan, turli xurofotlardan xoli insonlardir. "Ziyolilar" atamasini O'zbekistonda XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida jadidlar qo'llashgan. Ziyolilar ko'paygan sari jamiyatda ma'naviy yuksalish yuz beradi. Ziyolilar xalqni ma'naviy yetaklab boruvchi qatlam hisoblanadi. Bu qatlam erkin fikrlovchi, o'zining mustaqil qarashlariga ega bo'lgan kishilardan iborat (*O'zME, 4-jild, 2002-yil, 12-bet*).

### **Lug'at**

Ziyoli-интеллигент, aqliy mehnat-умственный труд, shug'ullanmoq-заниматься, jismoniy mehnat-физический труд, ajralmoq-отделяться, vujudga kelmoq-появляться, jamiyat-общество, ehtiyoj-потребность, paydo bo'lmoq-появляться, ilm-ma'rifat-знания, davolamoq-лечить, targ'ib qilmoq-пропагандировать, muhtoj-нуждающийся, taskin bermoq-успокаивать, ruhoniy-svyatinnik, ijtimoiy qatlam-социальный слой, chora-мера, topmoq-найти, fikr yuritmoq-размышлять, xulosa chiqarmoq-заключать, nur-луч, diniy xurofotlar-религиозные предрассудки, jamiyat-общество, ma'naviy-духовный, yuksalmoq-развиваться.

## **VII. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.**

### **Eron Islom Respublikasi**

Eron Islom Respublikasi – G'arbiy Osiyodagi davlat. Eron shimoldan Rossiya, Turkmaniston, g'arbdan Turkiya, Iroq, sharqdan Afg'oniston Islom davlati, Pokiston bilan chegaradosh. Maydoni 1648 km<sup>2</sup>, aholisi 62,5 mln. kishi (XX asrning oxirlari). Poytaxti – Tehron shahri. Ma'muriy-hududiy jihatdan 14 ta oston (viloyat) va 9 ta bosh gubernatorlikka bo'lingan. Eron 1979-yilning birinchi aprelida Islom Respublikasi deb e'lon qilingan. Pul birligi real (riyol). Oliy farmoyish organi – Oliy inqilobiy kengash. Eronda o'ttizdan ortiq xalq yashaydi. Aholisining 75 foiziga yaqinini eron tillari guruhida so'zlashuvchi xalqlar (forslar, gilonlar, mozandaronlar, kurdlar, lo'rlar, baxtiyoriylar, balujlar, tolishlar, totlar, hazoralar, jamshidlar, afg'onlar, tojiklar) tashkil qiladi. Shuningdek, turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar (ozarbayjonlar, qashqaylar, turkmanlar, qojarlar, baxarlular, eynanlular, xurosoniylar, pichoqchilar) aholining yigirma foizini tashkil etadi. Bundan tashqari, arablar, armanlar, suryoniylar, yahudiylar, gruzinlar, lo'lilar ham yashaydi. Musulmonlarning 90 foizi shia mazhabiga mansub, 10 foizi sunniy mazhabiga mansub kishilardir. Yana otashparastlik, yazidiylikka sig'inuvchi kishilar ham bor. Yirik shaharlari: Tehron, Isfahon, Mashhad, Tabriz, Sheroz, Obodon, Ahvoz va boshqalar (*O'zME, 10-jild, 2005-yil, 253-258-betlar*).

### **Eksport kreditlari**

Eksport kreditlari – chet davlatlarga qarz berayotgan mamlakatdan tovar sotib olish uchun banklar, firmalar va davlatlar tomonidan beriladigan kreditlardir. Eksport kreditining quyidagi turlari mavjud: 1) firma krediti – mol yetkazib beruvchi, eksport qiluvchining importchi xaridorga taqdim etadigan krediti, bunda tovar importchiga naqd pulsiz beriladi; 2) qisqa muddatli bank kreditlari (aksept-rambursli kreditlar) dan, asosan xomashyo va ba’zi oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish uchun foydalaniladi. Kreditlash importchi tomonidan ko’rsatilgan chel el bankiga eksportchi beradigan trattelar vositasida amalga oshiriladi; 3) maqsadli moliyaviy kreditlar – bank yoki davlat tashkilotlarining pul shaklida eksportchi mamlakatga beradigan krediti (*O‘zME, 10-jild, 2005-yil, 169-bet*).

### **El farzandi**

Abdusattor Eshonqulov 1916-yilning 10-fevralida Toshkent shahrida ishchi oilasida tug‘ilgan. Avval o‘rta maktabda o‘qigan. Keyin 1935-yildan Toshkent to‘qimachilik kombinatida usta yordamchisi bo‘lib ishlagan. 1937-yilda harbiy xizmatga ketgan. 1939-yilda Volsk harbiy-aviatsiya texnikumini tugatgan. 1943-yilda Balashov uchuvchilar aviamaktabini tamomlagan. 1944-yilning fevralidan Ikkinchi jahon urushida qatnashib, Orsha-Vitebsk, Mogilev, Minsk, Grodno, Belostok yo‘nalishlari bo‘yicha hujum operatsiyalarida komandir bo‘lib jang qilgan. Yuz marta jangovar parvoz qilib, dushmanning 10 ta tanki, 69 ta avtomashinasi, 2 ta parovozi va boshqa jangovar mashinalarini yo‘q qilgan. Mayor Abdusattor Eshonqulov urush paytida ko‘rsatgan jasoratlari uchun 1945-yilning 18-avgustida Ittifoq Qahramoni unvoniga sazovor bo‘lgan. Urushdan so‘ng harbiy-havo kuchlari qismlarida xizmat qilib, 1960-yilda iste’foga chiqqan. Abdusattor Eshonqulov xizmat davrida ham o‘ndan ortiq orden va medallar bilan mukofotlangan. Abdusattor Eshonqulov 1997-yilning 9-dekabrida vafot etgan. Biz elimizning shunday farzandi bilan faxrlanamiz (*O‘zME, 10-jild, 2005-yil, 301-bet*).

### **VIII. Ish qog‘ozi.**

#### **Eslatma xat**

Bir necha marta eslatilganligiga qaramay, shu paytgacha korxonangiz kelasi yil ishlab chiqarish rejasini tasdiqlash uchun taqdim etmadi. Ko‘rsatilgan materialni 2000.22.04. gacha tasdiqlash uchun taqdim qilishingizni so‘rayman.

(M.Aminov va boshqalar. Ish yuritish. T., 2000, 301-bet).

#### **E’LON!**

Shu yil 12-iyul kuni soat 15.00 da O‘zR FA Til va adabiyot institutining majlislar zalida institut kasaba uyushmasi qo‘mitasining hisobot-saylov yig‘ilishi bo‘ladi.

#### **Kun tartibi:**

1. Kasaba uyushmasi qo‘mitasining hisoboti.
2. Taftish komissiyasining hisoboti.

3. Kasaba uyushmasi qo‘mitasining yangi tarkibini saylash.  
Kasaba uyushmasi qo‘mitasi.  
(M.Aminov va boshqalar. *Ish yuritish. T.*, 2000, 249-bet).

### IX. Grammatik terminlar.

1. **Erkalash shakllari** ot turkumiga xos vazifaviy suyish, ulug‘lash kabi ma’nolarni ifodalaydi. M.: *onajon, Mahliyoxon, Salimaoy, Nodirabegim, Zebunnisa, Oyshabibi, Otabek.*
2. **Ergashtiruvchi bog‘lovchilar** bosh gapga ergash gapni bog‘lash uchun xizmat qiladi. M.: *chunki, negaki, ya’ni, agar, basharti.*
3. **Ega** gapning bosh bo‘lagi bo‘lib *kim? nima? qayer?* so‘roqlariga javob bo‘ladi. M.: *Yo’lchi keldi. Kitob o‘qildi. Samarqand – go‘zal shahar.*
4. **Egalik qo‘shimchalari** narsaning uch shaxsdan bittasiga qarashlilikini bildiradi.
5. **Eskimos tillari oilasi:** eskimos tillari.

#### Turlanish:

##### Birlik

I shaxs (so‘zlovchi) Bolam, kitobim.

II shaxs (tinglovchi) Bolang, kitobing.

III shaxs (o‘zga) Bolasi, kitobi

##### Ko‘plik

I shaxs. Bolamiz, kitobimiz

II shaxs. Bolangiz, kitobingiz

III shaxs. Bolasi, kitob(lar)i.

Ayrim so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda, tovush o‘zgarish hodisalari yuz berishi mumkin:

- 1) *tovush tushishi.* M.: *o‘rin+i = o‘rni, burun+i=burni, shahar+i=shahri;*
- 2) *tovush almashishi.* M.: *qishloq+im=qishlog‘im, yurak+im=yuragim;*
- 3) *tovush o‘zgarmaydi.* M.: *obro‘+im=obro‘yim, parvo+im=parvoyim, mavqe+im+mavqeyim;*
- 4) *tovush o‘zgarmaydi.* M.: *idrok+im=idrokim, huquq+im=huquqim.*

**Tayanch iboralar:** *Ziyolilar, “ziy”, “nur”, aqliy mehnat, shug‘ullanmoq, jismoniy mehnat, ajralmoq, ehtiyoj, paydo bo‘lmoq, o‘qituvchilar, shifokorlar, ruhoniylar, yozuvchi, shoir, musiqachi, rassomlar, ijtimoiy qatlam.*



94-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

95-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

96-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.



## Mavzu: Nutq odobi

**I. Nutq tovushiga izoh:** “N” undoshi til oldi, portlovchi, jarangli, burun tovushi (sonor) hisoblanadi.

### Taqqoslang:

O‘zbekcha	Ruscha
nazorat	надзор
nafrat	ненависть
naqd	наличный
noaniqlik	неточность
nozik	нежный
nomlamoq	наименовать
no‘xat	нут

### Tez aytish

Noshir noiloj nomladi.

### Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!

Nav-bat-chi, nuq-ta, na-ti-ja, na-fa-qa, na-bi-ra, na-mu-na.

## II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:

Nabira, nam, namoyish, namuna, narx, nasiya, natija, nafaqa, nikoh, nizam, nizo, nisholda, nishon, niqob, novvot, nok, nolimoq, nomus, nordon, noto‘g‘ri, nohaq, nusxa, nutq, nav, najot, nazariy, nazokat, nay, nayza, nayrang, namlamoq, namozshomgul, narvon, nasihat, nasl, naf, nafrat, nafs, nashriyot, na‘matak, naqd, naqshlamoq, naqqosh, nilufar, nigoh, niyat, nimjon, nishonlamoq, nishab, nodon, nozik, nokas, nomard, noma‘lum, nomzod, notekis, notinch, noshud, no‘noq, no‘xat, nafratlanmoq, niqoblamoq, noziklashmoq, nozlanmoq, nurlanmoq.

### Paronimlarni farqlang:

*Nasha* (конопля) – *nash‘a* (удовольствие), *naq* (точно) – *naqd* (наличный), *nufuz* (авторитет) – *nufus* (народ).

## III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!

- 1) notiq**ning** nutqi;
- 2) nizam**ni** nomlamoq;
- 3) nabiraga nasihat qilmoq;
- 4) natijad**an** nolimoq;
- 5) namuna **uchun** naqshlamoq;
- 6) noto‘g‘ri nishon.

## IV. To‘rtliklarni yod oling.

Sizga tilaklarim bir jahon bo‘lsin,  
Boshingiz oftobli osmon bo‘lsin.

Kunduzning g'aroyib chog'idir oqshom,  
Saodat birla u nurafshon bo'lsin.

(A. Oripov)

Nazar sol hattoki yetti qat yerga,  
Qiyos topilgaydir o'tgan umrga:  
Oltin aylangan yaxshilar xoki,  
Yomonniki esa qora ko'mirga.

(A. Oripov)

## V. Suhbat.

- Nutq nima?
- Fikr almashuv.
- Qanday shakllari bor?
- Og'zaki va yozma.

## VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

### Notiqlik

**Nutq** – fikrlarni ifodalash **jarayoni**. Sharqda bu jarayon “va’z” deb atalgan. Nutqni bayon qiluvchi **shaxs** “*notiq*”, “*voiz*”, “*chechan*” deb atalgan. Keyinchalik “*suxandon*” shakli yuzaga kelgan. Nutq matnlari tinglovchilarning ijtimoiy mavqei, bilim darajasiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi: *sultoniya* (yuqori tabaqalar uchun nutq), *xutubu jihodiya* (jangovor nutq), *g‘aribona* (oddiy xalq uchun nutq) va boshqalar. Notiqlik san‘ati nazariyasi va talqin uslublarini yorituvchi ilmiy, uslubiy asarlar yaratilgan. Notiqlik san‘ati nutqiy mahorat bilan bog‘liq holatlarni o‘rganuvchi **sohadir**. Yunonistonda uni “ *ritorika*”, sharqda “*voizlik*” va “*notiqlik*”, o‘zbeklarda esa “*chechanlik*” deb atalgan. Notiqlikning tarmoqlari quyidagilar: *dabirlik* (davlat ahamiyatidagi yozishmalarni insho etish va ularni o‘qib berish bilan aloqador notiqlik), *xatiblik* (diniy-siyosiy maydagi notiqlik), muzakkirlik (diniy-axloqiy masalalarni sharhlashga aloqador notiqlik). Notiqlik san‘atida nutq qaysi holatni aks ettirishiga qarab quyidagi turlarga ajratiladi: 1) *ijtimoiy-siyosiy nutq*; 2) *targ‘ibot-tashviqot nutqi*; 3) *akademik nutq*; 4) *sud nutqi*; 5) *so‘z ustalari nutqi*. **Ijtimoiy-siyosiy** nutqlar rasmiy hisobot shaklida bo‘lib, siyosiy vaziyatni, kelgusida yuz berishi mumkin bo‘lgan holatlarning oldini olishga qaratiladi. **Targ‘ibot-tashviqot** nutqlar biror bir muammoni ommaga singdirish, omma ongidagi tushunmovchilik, chalkashliklarga barham berish, ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlashdan iborat bo‘ladi. **Akademik nutq** ilmiy yoki o‘quv-ilmiy mavzuga asoslangan bo‘lib, uning maqsadi ana shu mavzuni tinglovchiga har tomonlama, chuqur tushuntirishdan iborat bo‘ladi. **Sud nutqi** sodir etilgan biror jinoyat yoki munozarali masala bo‘yicha fikr bildirishdan iborat bo‘ladi. **Ommabop nutq** tinglovchilarning yoshi, kasbi, mutaxassisligi va ijtimoiy tabaqasidan qat‘iy nazar barchaga tushunarli bo‘ladi. **So‘z ustalari nutqi** muxlislarga yaxshi kayfiyat ulashish, ularning ko‘nglini ko‘tarishdan iborat bo‘ladi.

## Lug‘at

Nutq—речь, jarayon—, shaxs—, notiqlik—ораторское искусство, soha—отрасль, tinglovchi—слушатель, mahorat—искусство, ijtimoiy—социальный, siyosiy—политический, targ‘ibot—пропаганда, tashviqot—, so‘z ustalari—мастер слова.

## VII. Mustaqil ta‘lim uchun matnlar.

### Navoiy

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirotida tug‘ilgan. To‘rt yoshida maktabga boradi. Temuriylardan Husayn Boyqaro bilan birga o‘qiydi. Savodi tez chiqadi. Turkiy va forsiy tillardagi she‘rlarni yod olgan. 1449-yilda Navoiylar oilasi Iroqqa ko‘chadi. Alisher Taft shahrida Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Ular ikki yildan so‘ng Hirotga qaytishadi. Abulqosim Bobur Navoiyning otasini Sabzavorga hokim etib tayinlaydi. Navoiy Hirotida o‘qiydi. Adabiyotga qiziqadi. Tog‘alari Kobuliy, G‘aribiylar ham shoir edi. Alisher 10-12 yoshlarida she‘r yoza boshlaydi. Mavlono Lutfiy uning bir g‘azaliga 12000 bayt she‘rini almashtirmoqchi bo‘lgan. Navoiy 15 yoshida shoir sifatida taniladi. Turkiy she‘rlariga Navoiy, forsiy she‘rlariga Foniylar taxallusini qo‘ygan. 1456-yilda poytaxt Hirotidan Mashhadga ko‘chadi. Podsho Navoiyni Mashhadga olib ketadi. 1457-yilda podsho (Abulqosim Bobur) to‘satdan vafot etadi. Navoiy qiyinchilik bilan o‘qishni davom ettirib, o‘sha yerda qoladi. Husayn Boyqaro esa hokimiyat uchun kurashga bel bog‘laydi. Abu Said Mirzo taxtga o‘tiradi. Poytaxtni Samarqanddan Hirotga ko‘chiradi. Navoiy 1463-yilda Hirotga qaytadi. Lekin hokimiyatdagilar Navoiyni yaxshi kutib olishmadi. Navoiy Samarqandga o‘qishga ketadi. 1469 yilning bahorigacha Samarqandda yashaydi. Samarqand hokimi Ahmad Hojibek Navoiyga yordam beradi. 1469-yilning 14-aprelida Navoiy ramazon hayiti hamda Husayn Boyqaroning taxtga o‘tirgani munosabati bilan «Hiloliya» qasidasini yozadi. Navoiy avval muhrdorlik, keyin bosh vazirlik (Amiri kabir) mansablariga tayinlanadi. Keyin Astrobod shahriga hokim bo‘ladi. Navoiy juda ko‘p bino, ko‘prik va hammomlar qurdiradi, ariq, hovuzlar qazdiradi. Juda ko‘p ilm-fan fidoyilariga rahnamolik qiladi. Ustozi Jomiyga bag‘ishlab «Xamsat ul-mutahayyirin», «Tuhfa ul-afkor» asarlarini yozadi. Navoiyning sakkizta she‘riy devoni bor: «Ilk devon», «Badoe’ ul-bidoya» («Badiiylik ibtidosi»), «Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar»), «Xazoyin ul-maoniy» (4 ta devon), «Devoni Foniylar» (forscha she‘rlari). Bundan tashqari «Xamsa» (besh doston), «Mufradot», «Arbain», «Majolis un-nafois», «Nasoyim ul-muhabbat», «Lison ut-tayr», «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Mahbub ul-qulub», «Munshaot», «Vaqfiya» va boshqa asarlarni yozgan. Alisher Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida Hirotida vafot etgan (O‘zME, 1-jild, 217-224-betlar).

### Navolar

O‘zbek musiqasining tarixi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. «Avesto»dagi ma’lumotlar, *Ayritom* piramonidagi sozandalar surati, *Panjakent*

devoriy rasmlaridagi sahnalar, *Afrosiyob* va *Dalvarzintepa* hududlaridan topilgan yodgorliklar buni tasdiqlaydi. Shuningdek **yunon tarixchilarining** asarlarida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. O'zbek xalqi e'zozlab hozirgi kunga qadar saqlab kelayotgan **dostonchilik** an'analari, "Navro'z", "Lola", "Hosil" bayramlari, turli mehnat va marosim qo'shiqlari o'zbek musiqiy san'atining naqadar boy bo'lganligini tasdiqlaydi. Xalqimizning serqatlam musiqa merosi ikki turdan iborat. Bular: **oddiy** xalq og'zaki ijodi musiqa ohanglari va **murakkab** mumtoz musiqa ohanglariga bo'linadi. Hozirgi kunga kelib an'anaviy o'zbek ijrochiligining quyidagi **yo'nalishlari** aniqlangan: Farg'ona – Toshkent, Buxoro – Samarqand, Surxondaryo – Qashqadaryo va Xorazm. Asl o'zbekona turmush tarzi **ona allasidan marsiyagacha** bo'lgan musiqaviy jarayonlarda o'z aksini topadi. Musiqaning tarixiy, nazariy, estetik, etik va boshqa asoslari *Muso Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Al-Husayniy, Najmiddin Kavkabi, Darvishali Changiy, Vojid Alixonlarning* asarlarida keng yoritilgan. Shashmaqom, ya'ni maqomlar turkumi esa **milliy** hamda **mintaqviy** musiqa an'alarining qomusiy mahsulidir. Mustaqillik yillarida oilavi, folklor-etnografik ansambllar, to'y-marosim qo'shiqlari, katta ashula, baxshi-shoirilar va maqom ijrochiligi bo'yicha turli **tanlovlar** tashkil etildi. Shuningdek "Alla" (1991), "Sharq taronalari" (1997, Samarqand), Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov (1997, Marg'ilon), Xojiabdulaziz Abdurasulov (1997, Samarqand), Komiljon Otaniyozov (2001, Urganch) nomidagi tanlovlar, "Boysun bahori" festivali muntazam o'tkazilib kelmoqda (*O'zME, 6-jild, 227-228-betlar*).

### Norvegiya

Norvegiya qirolligi – Shimoliy Yevropadagi davlat. Skandinaviya yarim orolining g'arbiy va shimoliy qismida joylashgan. Maydoni 387000 km<sup>2</sup>, aholisi 4,5 mln. kishi (2002-yil). Poytaxti – Oslo shahri. Ma'muriy-hududiy jihatdan 19 fyulke (viloyat) ga va fyulkega tenglashtirilgan Oslo shahriga bo'lingan. Shpisbergen arxipelagi, Medvejiy, Yan Meyen va Buve orollari ham Norvegiyaga qaraydi. Davlat tuzumi – konstitutsiyali monarxiya. Davlat boshlig'i – qirol. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni ikki palatali parlament amalga oshiradi. Ijrochi hokimiyat qirol qo'lida bo'lib, u Davlat Kengashini tayinlaydi. Katta daryolari: Gulomma, Logen (Gudbranstal), Logen (Numedal). Aholisining 97 foizi norveglar, undan tashqari mamlakatda saamlar, kvenlar, shvedlar, danlar, nemislar va boshqa xalqlar yashaydi. Rasmiy dini – lyuteranlik. Yirik shaharlari: Oslo, Bergen, Tronxeym. Norvegiya 1945-yildan BMT ning a'zosi. O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarni 1992-yilning 10-iyunida o'rnatgan (*O'zME, 6-jild, 390-bet*).

### VIII. Grammatik terminlar.

**1. Nisbat shakli** bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishni bildiradi. O'zbek tilida besh xil nisbat bor: 1. Aniq nisbat (*kiydi*). 2. O'zlik nisbat (*kiyindi*). 3. Majhul nisbat (*kiyildi*). 4. Birgalik nisbat (*kiyishdi*). 5. Orttirma nisbat (*kiydirdi*).

**2. Nutq a'zolari** nutq tovushlarini hosil qilishda qatnashadi, ikki xil bo'ladi: 1) faol a'zolar: tovush paychalari, yumshoq tanglay, til, lablar, pastki jag'; 2) sust a'zolar: qattiq tanglay, tish, yuqori jag', burun bo'shlig'i.


**Tayanch iboralar:** *nutq, va'z, notiq, voiz, chechan, suxandon, tinglovchi, sultoniya, xutubu jihodiya, g'aribona, ritorika, voizlik, notqlik, chechanlik, dabirlik, xatiblik, muzakkirlik.*

97-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlang.

98-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

99-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.

### Asosiy so'zlar



**Mavzu: San'at va ma'naviyat**

#### I. To'rtliklarni yod oling.

Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang,  
G'azodin yuzlarda tobu, o'smadin qoshlar tarang.  
Za'faroniy ko'ynak uzra arg'uvoniy kamzihul,  
Ro'ymol og'ushidin peshonani ahvoli tang.

*(Furqat)*

Suhbatlar qurdimu sog'indim,  
Olisda yurdimu sog'indim.  
Mengsuluv, bu qanday sog'inchdir,  
Yoningdaturdimu – sog'indim.

*(Usmon Azim)*

#### II. Suhbat.

- San'at nima?
- Ruhiy taskin.
- Ma'naviyat-chi?
- Ruhiy go'zallik.

#### III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

##### San'at namunasi

Kitobat ("kataba" arabcha "yozmoq") san'ati kitoblarni yaratish va ziynatlashdir. Markaziy Osiyoda qo'lyozma kitoblarni bezash juda qadimda

mahalliy madaniyat taraqqiyot bosqichlari bilan bog‘liq holda shakllangan. Eng qadimgi kitoblar “**Avesto**”, “**Vessantarak jataka**” (sug‘d tilida yozilgan, varaqlari turli mamlakatlarda saqlanayotgan kitob) larda ham kitobat san‘atining namunalari bor. O‘rta asrlarda umummusulmon madaniyat yoki arab tilidagi qo‘lyozma an‘analariga asoslangan kitobat san‘ati to‘liq shakllandi va yuksak taraqqiyot darajasiga erishdi. Kitobat san‘ati hunarmandlar (qog‘ozrez, xattot, lavvoh, jadvalkash, muzahhib, musavvir, sahhob va boshqalar) guruhi tomonidan bajarilgan. Qo‘lyozma kitob uchun sifatli qog‘oz tanlangan. **Xattot** matni yozishda qog‘oz-karton (mistar) ustiga ip tortib uning izini matn yoziladigan maxsus qog‘ozga tushirib olgandan so‘ng matni ko‘chirgan. Matni joylashtirish xattotning mahoratiga bog‘liq bo‘lgan. **Lavvoh** itilgan matni hoshiya qog‘ozga yelimlagan. **Jadvalkash** ustidan ayni yopishtirilgan joyiga turli ranglarda chiziqlar tortib, matni jadvalga solgan. So‘ngra **muzahhib** suyultirilgan oltin, kumush va mis kukunlari bilan rang berib qo‘lyozmani ziynatlagan. Bo‘sh qoldirilgan joylarga **mussvvir** (rassom) turli ranglarda rasm solgan. **Sahhob** (*muqovasoz*) qo‘lyozmani karton yoki charmdan ishlangan muqovaga biriktirgan. Muqova qopqog‘i yog‘ochdan yoki kumushdan tayyorlangan va naqshlar bilan bezalgan. Shu tariqa go‘zal san‘at asari yuzaga kelgan (*O‘zME, 4-jild, 2002-yil, 623-624-betlar*).

### Lug‘at

Kitob-книга, yaratmoq-создавать, ziynat-украшение, qo‘lyozma-рукопись, mahalliy-местный, namuna-образец, shakllanmoq-формировать, hunarmand-кустарь, qog‘oz-бумага, xattot-каллиграф, jadval-таблица, muzahhib-живописец, musavvir-художник, sahhob-переплётчик, qog‘oz-бумага, sifatli-качественный, muqova-обложка, qorqoq-крышка, naqsh-гравюра.

## IV. Mustaqil ta‘lim uchun matnlar.

### Samarqand

Samarqand 1925-30-yillarda O‘zbekiston Respublikasining poytaxti bo‘lgan. O‘zbekistonning janubi-g‘arbida, Zafafshon vodiysining o‘rta qismida (Darg‘om va Siyob kanallari orasida) joylashgan. Samarqandning yoshi haqida juda ko‘p tarixiy asarlarda ma‘lumotlar berilgan. Shunday xalq maqoli bor: “*G‘arbda Rim, Sharqda Samarqand*”. “Samarqand yer yuzining sayqali” (*Samarqand sayqali ro‘yi zamin ast*) iborasi ham bejiz shakllanmagan. “Samaqand” terminining kelib chiqishi haqida turlicha qarashlar bor. Ayrim olimlar uni sanskretcha “**samariya**” (yig‘ilish) so‘ziga bog‘lashadi. Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg‘ariy “**Semizkent**” (Boy shahar) talaffuzdagi o‘zgarishidan kelib chiqqanligini aytishadi. Antik davr asarlarida Samarqand yunoncha **Marokanda** deb nomlangan. Samarqand 2750 yildan ortiq tarixga ega shahardir. Samarqandda paleolit davrida ham odamlar yashagan. Samarqand miloddan avvalgi 4-asrdan milodiy 6-asrgacha Sug‘d davlatining poytaxti bo‘lgan. Samaqandda Afrosiyob (Alp Er To‘nga) qadimiy tepaligi saqlanib qolgan. Samarqandning oltita darvozasi bo‘lgan, ular orqali kirgan yo‘llar Registon maydoniga bog‘langan. Samarqandda 73 ta yirik

tarixiy me'moriy yodgorlik saqlangan. Shulardan mashhurlari Registon ansambli, Shohi Zinda ansambli, Amir Temur maqbarasi, Ulug'ber rasadxonasi, Bibixonim jome' masjidi, Ruhobod maqbarasi, Abdidarun majmuasi, Xoja Ahror masjidi, Hazrati Xizr masjididir. Mustaqillikdan so'ng mazkur me'moriy yodgorliklarning ko'pchiligi qayta ta'mirlandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan Abu Mansur al-Moturidiy maqbarasi qurildi. Samarqand yaqinida Imom al-Buxoriy majmuasi qurildi. Samarqand 2001-yilda YUNESKOning Jahon merosi ro'yxariga kiritildi (*O'ME, 7-jild, 2004, 457-462-betlar*).

### **Sug'diyona**

“Sug'd” so‘zini ayrim olimlar “*muqaddas olov bilan poklangan yer*” deb izohlashgan. Turkiy tilda “*so‘g‘dak*” (*hosildor yer*) ma‘nosini bildiradi. Sug‘dlar, asli munsaklar turkiylarga amaki qavm bo‘lib ham turkiy, ham forsiy tilda bemalol so‘zlashganlar. Keyinchalik yana turkiylar tarkibiga qo‘shilib ketganligi haqida O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarida yozilgan. Sug‘diyona O‘rta Osiyodagi qadimgi tarixiy-madaniy viloyat (davlat). Samarqand, Buxoro, Kesh-Naxshab kabi uchta tarixiy-geografik hududni birlashtirgan. Ular o‘zaro tabiiy chegaraga ham ega edilar. Zarafshon tog‘ tizmalari Samarqand va Kesh-Naxshabni, Malik cho‘li esa Buxoroni ajratib turgan. Poytaxti dastlab Samarqand, 645-654-yillarda Kesh bo‘lgan. Buyuk ipak yo‘lining markaziy tarmoqlari Sug‘diyona orqali o‘tgan. Shuning uchun Sug‘diyona xalqaro savdo munosabatlari muhim o‘rin tutgan. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan shahar va qishloqlarda savdogarlarning mahallalari paydo bo‘lgan. Sug‘d tili xalqaro savdo tili vazifasini bajargan. Sug‘diyona miloddan avvalgi 6-2-1-asrlarda avval axmoniyliklarga, so‘ng makedoniyaliklarga, Salavk davlatiga, Yunon-Baqtriya davlatiga qaram bo‘lgan. Miloddan avvalgi 1-asrdan boshlab Sug‘diyona o‘z mustaqilligini tiklagan. VIII asrning o‘rtalarida Sug‘diyona Arab xalifaligi tarkibiga qo‘shilib ketgan. Sug‘d tili eroniy tillarning shimoli-sharqiy guruhiga mansub o‘lik til hisoblanadi. Bu til Zarafshon vohasidagi Sug‘diyona davlatining rasmiy tili bo‘lgan. Sug‘d yozuvi oromiy yozuvi asosida shakllangan. Afrosiyobdan topilgan 16 satrli hujjat matni VII asrdagi O‘rta Osiyo hayoti haqida qiziqarli ma‘lumot beradi (*O‘zME, 8-jild, 175-178-betlar*).

### **Saudiya Arabistoni**

Saudiya Arabistoni Podsholigi – Osiyoning janubi-g‘arbida joylashgan davlat. Maydoni 2,25 mln. km<sup>2</sup>, aholisi 23,5 mln. kishi (2002-yil). Bulardan 5,3 mln. kishi mamlakat fuqarosi emas. Poytaxti – Ar-Riyod shahri. Ma‘muriy-hududiy jihatdan 14-viloyatga bo‘lingan. Saudiya Arabistoni – mutlaq teokratik monarxiya. Davlat boshlig‘i – podshoh. Ayni vaqtda u bosh vazir va oliy bosh qo‘mondon ham sanaladi. Aholisining 90 foizini arablar tashkil qiladi. Hindlar, misrliklar, pokistonliklar eronliklar, filippinliklar, bangladeshliklar, yamanliklar, indoneziyaliklar, sudanliklar, suriyaliklar, iordaniyaliklar va o‘zbeklar (800000 kishi) bor. Davlat dini – islom. Muqaddas ziyoratgoh shaharlari – Makka va Madina. Har yili 2 mln. dan ortiq musulmon haj va umra safarida bo‘ladi. Yirik shaharlari: Ar-Riyod, Jidda, Makka,


Madina. Saudiya Arabistoni 1945-yildan BMT ning a'zosi. O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarni 1992-yilning fevralidan o'rnatgan. Har yili o'zbekistonliklar davlatlararo shartnomaga muvoviq haj va umro ziyoratlariga tashrif buyurishadi. (*O'z ME, 7-jild, 532-bet*).

## VII. Grammatik terminlar:

**1. Sodda so'zning** tarkibida birgina lug'aviy ma'noli qism bo'ladi. Ular ikki xil bo'ladi: 1) sodda tub so'z: *ko'z, qosh, bosh, tish, og'iz, burun*; 2) sodda yasama so'z: *ko'zla, boshliq, tishla, og'zaki*.

**2. Sodda son** birgina so'zdan iborat bo'ladi. Nutqimizda faol qo'llanadigan 23 ta sodda son bor: *0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 100, 1000, 10 000, 100 000, 1 000 000*.

**Tayanch iboralar:** *kitobat san'ati, hunarmand, qog'ozrez, xattot, lavvoh, jadvalkash, muzahhib, musavvir, sahhob, guruh, qo'lyozma kitob, qog'oz-karton (mistar), hoshiya qog'oz, kukun*.



100-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

101-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

102-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.

## Matn: Men sevgan asar

**I. Nutq tovushiga izoh:** "G" undoshi sayoz til orqa, portlovchi, jarangli olinma tovush hisoblanadi. O'zbek tiliga fors-tojik tilidan o'zlashgan. "G" undoshi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh hisoblanadi. O'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan.

### To'g'ri talaffuz qiling!

- |                          |                    |                       |                  |
|--------------------------|--------------------|-----------------------|------------------|
| 1) go'l - наивный        | 2) gul - цветок    | 3) go'ng - навоз      | 4) go'r - могила |
| g'o'l - уармо            | g'ul - оковы       | g'o'ng - жужжание     | g'o'r - зеленый  |
| 5) g'ov - заграждение    | 6) g'o'r - зелёный | 7) o'g'it - удобрение |                  |
| gov - большой, громадный | go'r - могила      | o'git - совет         |                  |

### Tez aytishlar

Guldondagi garmdori gulladi.

### Bo'g'inlarni to'g'ri o'qing!



Ga-pir-moq, gi-lam, gi-los, gul-das-ta, gaz-la-ma, go'-zal.

## II. Zaruriy so'zlarni ko'chirib yozing va tarjima qiling:

Gavhar, gavnali, gado, gazmol, gap, gapirmoq, gilam, gilos, guvoh, gugurt, guldasta, gullamoq, gulqog'oz, go'zal, gavda, gajak, gazak, gazlama, gangimoq, gandraklamoq, ganj, ganch, gard, garov, giyoh, gijgijlamoq, gina, girdikapalak, guvohnoma, guzar, gultojixo'roz, gumon, gunoh, gursillamoq, gurung, go'sht, gavnalanmoq, gazaklamoq, gazlashtirmoq, ganchlamoq, garovlashmoq, gerdaymoq, guvillamoq, gumburlamoq, gurullamoq, gurunglashmoq, go'zallashmoq.

## III. So'z birikmalari tuzishni o'rganing!

- |                                   |                                   |
|-----------------------------------|-----------------------------------|
| 1) gilos <b>ning</b> guli;        | 8) gumon <b>dan</b> gangimoq;     |
| 2) guzar <b>ni</b> gazlashtirmoq; | 9) guvoh <b>bilan</b> gaplashmoq; |
| 3) guvoh <b>ga</b> gapirmoq;      | 10) gavnali guvoh.                |

### Taqqoslang:

#### O'zbekcha

bog' (сад)

tog'da( в горах)

#### Ruscha

бог (худо)

тогда (u vaqtda)

## IV. She'r va to'rtliklarni yod oling.

### Gullar

Olamda gullar yashar  
Bog'larga jamol bo'lib,  
Gulzorlarga yarashar  
Ular husn, xol bo'lib.  
Lola – gullar shohidir,  
Kiygani ham shohidir,  
Chamandagi atirgul  
Lolaning hamrohidir.  
Gullar ko'p, chechaklar ko'p,  
Qo'shiqlar, ertaklar ko'p,  
Boisi shu, har gulning  
Qalbida tilaklar ko'p.  
Kelinglar, go'zal gullar,  
Keling, oshiq bulbullar,  
Shu sevgini kuylaylik,  
Orom olsin ko'ngillar.

(SH.Rashidov)

Go'zal xulq gavhardir, also bo'lmas xor,  
Hayot ildizida undan bir nur bor.  
Haqiqat va axloq yaqin, tug'ishgan,

O'g'lim, o'yla, umr o'tmasin bekor.

(Oybek)

## V. Suhbat.

- Badiiy asar nima?
- Ruhiiy ijod mahsuli.
- Unda nima aks etadi?
- Milliy ruhiyat.

## VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

### Men ardoqlagan kitob

“Qutadg‘u bilig” asari *didaktik* (*pandnoma*) asardir. Unda “*budun*”, “*bo‘dun*” atamalari “*el*”, “*xalq*” tushunchalarini ifodalagan. “*El*” va “*kun*” so‘zi birgalikga “*vatan*” ma’nosini bildirgan. “*Elik*” so‘zi “*hukmdor*” ma’nosida qo‘llangan. “*Bek*” so‘zi “*amaldor*” ifodasida ishlatilgan. Asarda mamlakat mustahkam bo‘lishi uchun to‘rt narsaga ehtiyoj borligi aytilgan: 1) *kuchli lashkarga*; 2) *kuchli lashkarni saqlash uchun ko‘p boylikka*; 3) *ko‘p boylikni to‘plash uchun badavlat xalqqa*; 4) *boy-badavlat xalqqa ega bo‘lish uchun adolatli siyosat yuritishga*. **El** (*xalq*) **elik**ning oldiga uch talabni qo‘yishga haqi bor: 1) *pulning qadrini saqlash*; 2) *adolatli siyosat yuritish*; 3) *yo‘llarni qaroqchidan saqlash*. Elik ham elga uchta talab qo‘yishga haqli: 1) *farmonlar, qonunlarni aziz tutish va so‘zsiz bajarish*; 2) *solilarni vaqtida to‘lab turish*; 3) *xalq hukmdorning do‘stiga do‘st, dushmaniga dushman bo‘lishi kerak*. Muallif “*bek*” so‘zidan “*bilim*” ma’nosini qidirgan. Arab yozuvida “*bilik*” so‘zidan “*lom*” olib tashlansa, “*bek*” qoladi. Bekning zoti toza bo‘lishi lozim. Bekda jamiyatni boshqarish yuksak fazilatlar bo‘lishi tahlil qilinadi: “*Agar arslon itlarga bosh bo‘lsa, itlar arslonga aylanadi, lekin it arslonlarga yetakchilik qilsa, arslonlar itlardek bo‘lib qolishi mumkin*”. **Bek** besh illatdan forig‘ bo‘lishi lozim: birinchisi *shoshqaloqlik*; ikkinchisi *ochko‘zlik*; uchinchisi *jaholat va bilimsizlik*; to‘rtinchisi *buzuq fe‘llilik*; beshinchisi *yolg‘onchilik*. Mazkur ijtimoiy shartlar jamiyat osoyishtaligini, el-yurt ravnaqini ta’minlaydigan buyuk omil edi. Yevropada bu masalalar XVIII asrda fransuz adibi **Jan Jak Russo** asarlarida o‘rtaga qo‘yilgan edi. Yusuf Xos Hojib undan **yetti asr oldin** bu masalalarni o‘rtaga qo‘ygan (*O‘zME, 11-jild, 2005-yil, 169-170-bet*).

### Lug‘at

Elkun-родина, elik-царь, bek-чиновник, mamlakat-страна, mustahkam-крепкий, прочный, ehtiyoj-необходимость, kuchli-сильный, lashkar-армия, saqlamoq-хранить, сохранить, boylik-богатство, badavlat-богатый, adolatli-справедливый, siyosat-политика, haq-право, pul-деньги, qadr-цена, ценность, yo‘l-дорога, qaroqchi-разбойник, farmon-указ, qonun-закон, aziz tutmoq-свято хранить, so‘zsiz-беспрекословно, bajarmoq-исполнять, выполнять, to‘lamoq-платить, hukmdor-правитель, zoti toza-благородного происхождения, jamiyat-общество, fazilat-достоинство, tahlil qilmoq-анализировать, illat-болезнь,

shoshqaloqlik-торопливый, ochko'zlik-жадность, jaholat-невежество, bilimsizlik-необразованность, buzuq fe'lli-скверного нрава, yolg'onchilik-ложивость, ijtimoiy-социальный, shart-условие, jamiyat-общество.

## VII. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Gulxaniy

O'zbek mumtoz shoiri, masalnavis Muhammad Sharif Gulxaniy XVIII asrning oxirida Qo'qon shahrida tug'ilgan. Uning hayoti haqida turli qarashlar bor. Fazliy uni ko'histonlik desa, Voze namanganlik deydi. Gulxaniy bir oz vaqt hammomda o't yoquvchi (go'lax) bo'lib ishlagan. Shu sababli "Gulxaniy" taxallusini tanlagan. Keyin u Qo'qon amiri Olimxon navkarlari safida xizmat qilgan. O'zi mustaqil o'qib, mumtoz adabiyotni o'rgangan va shoir bo'lgan. Amir Umarxon taxtga o'tirgach, u saroy shoirlari davrasiga qo'shilgan. Gulxaniy xonning g'azallariga naziralar yozgan. Amir Umarxon vafotidan so'ng saroydan ketadi. Gulxaniy oddiy odamlar qatorida yashab she'rlar yozadi. Gulxaniy o'zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Uning bizgacha bir qancha g'azallari, hajviyalari va "Zarbulmasal" nomli nasriy asari yetib kelgan. Gulxaniyning g'azallarida o'sha davr hayoti tasvirlangan. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari Sharq adabiyotida mashhurdir. Asarda 400 ga yaqin maqol keltirilgan. "Zarbulmasal"da Yapaloqqush bilan Boyo'g'lining quda-anda bo'lish sarguzashtlari o'tkir hajviya tarzida tasvirlangan. Gulxaniy XIX asrning 20-yillarida vafot etgan (*O'zME, 3-jild 122-bet*).

### Gadoiy

Mavlono Gadoiyning asl ismi noma'lum, bizga taxallusi ma'lum. XV asrda yashagan shoir. Aruzning barcha janrlarida ijod qilgan. Turkiy tilda g'azal, qit'a, tuyuq, mustazod va qasidalar yozgan, forsiy tildagi she'rlari ham bor. Shoirning she'rlarida hayotiylik va ilohiylik g'oyalari ustun. Davrdan shikoyat mazmuni ham mavjud. Shoirning bizgacha «Devoni Gado» she'riy to'plami yetib kelgan. Devonda 230 ta g'azal, 5 ta qit'a, 1 ta mustazod, 1 ta qasida va tuyuq bor. Shoirning temuriylardan Xalil Sultonga bag'ishlangan qasidasi bor. Gadoiyning she'rlari AQSh va Turkiyada bosilgan. Uning devoni O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda (*O'zME, 2-jild, 2001-yil, 523-524-betlar*).

### Germaniya


Germaniya Federativ Respublikasi – Markaziy Yevropadagi davlat. Maydoni 357 ming km<sup>2</sup>, aholisi 82,16 mln. kishi (1999-yil). Poytaxti – Berlin shahri. Ma'muriy-hududiy jihatdan 16 yer (viloyat) ga bo'lingan. Davlat boshlig'i – federal prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni ikki palatali parlament amalga oshiradi. Daryolari: Elba, Reyn, Dunay, Mayn, Vezel, Shire, Mozal. Aholisining 90 foizdan ko'prog'ini nemislar tashkil qiladi. Shuningdek, daniyaliklar, gollandlar, turklar ham yashaydi. Germaniya 1973-yildan beri BMTning a'zosi. Yirik shaharlari: Berlin, Gamburg, Myunxen, Kyoln, Frankfurt-Mayn, Dortmund,

Shtutgart, Leypsig va boshqalar. Germaniya O‘zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarni 1992-yilning 6-martida o‘rnatgan (O‘zME, 3-jild, 2002-yil, 656-bet)

### VIII. Grammatik terminlar.

1. **Gap** kesimlik belgisiga ega bo‘lgan, tugallangan ohang bilan aytiluvchi va ma’lum bir fikr ifodalovchi sintaktik birlikdir.
2. **Gumon olmoshlari** shaxs, narsa, belgi haqidagi noaniq, tasavvurni anglatadigan lug‘aviy birlikdir. M.: *allakim, allanima, allaqanday, allaqaysi, allanarsa, kimdir, nimadir, qandaydir, qaysidir, birov, falon.*

**Tayanch iboralar:** *pandnoma, budun, bo‘dun, el, xalq, elkun, vatan, hukmdor, bek, amaldor, pul, adolat, siyosat, farmon, qonun, soliq, hukmdor, do‘st, dushman, zoti toza, jamiyat, boshqarish.*



103-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlash.

104-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

105-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Iqtisod va hayot

**I. Nutq tovushiga izoh:** “M” undoshi lab-lab, portlovchi, burun tovushidir.

#### Taqqoslang:

O‘zbekcha	Ruscha
mayda	мелкий
mayin	мягкий
mardlik	мужество
mis	медь
mo‘yna	мех

#### Tez aytish

Mijoz masalliqni ma’qulladi.

#### Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!

Mak-tab, ma-to, mo-liya, may-don, mas-la-hat-lash-moq, mad-hiya.

**II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:**

Mablag‘, madaniyat, madhiya, majburan, majlis, majnuntol, maza, mazmun, maydon, maymun, maysa, makiyon, maktab, mansab, marvarid, maorif, maosh, marjon, markaziy, masal, marhamat, masala, maslahatlashmoq, mast, mas‘uliyat, mato, maxsus, maxfiy, mashq, ma‘lumot, ma‘no, ma‘qullamoq, maqol, maqtamoq, mahsulot, meva, mergan, meros, me‘mor, mehmon, mehribon, mijoz, milk, millat, minnatdorchilik, mix, moy, moliya, momaqaldiraq, moslamoq, motam, muallif, muvaffaqiyat, muddat, muz, murabbo, mutaxassis, muxbir, musht, muharrir, muhlat, muhokama, muhr, mo‘rt, madorsizlanmoq, majaqlamoq, majburlamoq, maydalamoq, markazlashmoq, ma‘yuslanmoq, mahkamlamoq, mizg‘imoq, minmoq, moylamoq, moslamoq, muvofiqlashmoq, muzlamoq.

### III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!

- 1) muxbirning mas‘uliyati
- 2) mehmonni maqtamoq;
- 3) mazmunga moslashmoq;
- 4) mansabdan mag‘rurlanmoq;
- 5) muallif bilan maslahatlashmoq;
- 6) mehribon momo.

### IV. To‘rtliklar

Mening ham bor do‘st-u qarog‘im,  
Sha‘nlarga she‘rlar kuyladi.  
Lekin tanho quvongan chog‘im,  
Sirdoshim deb seni o‘yladim.

*(Abdulla Oripov)*

Mo‘tabar onalar – xonamiz ko‘rki,  
Otarlar hayotdir – yorug‘dir jahon.  
Tiriklik nomiga bir o‘tinch shulki,  
O‘rtaga tushmasin bemahal hijron.

*(Abdulla Oripov)*

Mezmon deyaversa “nonim” va “oshim”,  
Unday dasturxonga uzatma qo‘ling.  
Qovurmasidaan o‘z kashniching yaxshi,  
Undaylar uyiga tushmasin yo‘ling.

*(Jomiy)*

### I. Suhbat

- Karvon nima?
- Yuk va yo‘lovchilarni tashuvchi guruh.
- Sardobaning ma‘nosi nima?
- “*Sard*” – sovuq, “*ob*” – suv.

### III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

#### Karvon yo'llari

“**Karvon**” forscha soʻz boʻlib, uzoq joylarga yuk va odam tashuvchi guruhni anglatadi. Qator holda yuradigan hayvonlar, aravalar va ularni boshqaruvchi shaxslar kavonni tashkil etgan. Karvonni karvonboshi boshqaradi. Unda birga yoʻlga chiqqan yoʻlovchilar, sayyohlar va elchilar guruhi ham boʻlgan. Tekislikdagi karvon yoʻllarining har 18 chaqirimi, togʻli yoʻllarning har 12 chaqirimida bozor boʻlgan. Yoʻldan adashmaslik uchun har olti chaqirimiga katta xarsangtoshlar tashlab chiqilgan. Bu toshlar yoʻl koʻrsatkich vazifasini bajargan. Buxoro – Kobul karvon yoʻlidagi ana shunday toshlar hozir ham saqlangan. Karvon yoʻllarida sardobalar qurilgan. **Sardoba** (forscha “*sard*” – sovuq, “*ob*” – suv) suv tanqis hududlarda uni yigʻish va saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuzdir. Sardoba devori silindr shaklida boʻlib, diametri 12-13 metr, chuqurligi esa 10-15 metrni tashkil etgan hovuzdir. Uning yuzasi yer sathi bilan tekis holda boʻlgan. Sardoba gumbazi pishiq gʻisht yoki ganchdan ishlangan. Tepasi tuynukli, atroflarida hovuzga suv tushadigan teshiklari boʻlgan. Sardobaga kirish uchun eshik oʻrnatilgan. Suvni toza saqlash maqsadida sardoba devor bilan oʻralgan. Sardobaning yoniga mollarni sugʻorish uchun oxurlar qilingan va unga maxsus tarnov orqali suv oqizilgan. Karvonlar toʻxtab, tunab oʻtadigan joy **saroy** yoki **rabot** deyilgan. Shaharlarda esa **karvonsaroylar** qurilgan. Qaysi karvonsaroyning xizmati yaxshi boʻlsa, oʻsha joyda karvonlar koʻp toʻxtagan. Yaqin Sharq, Oʻrta Osiyo va Kavkazortida karvonsaroylar koʻp boʻlgan. Karvon- saroylarning oʻrtasi hovli, atrofi ikki qavatli hujralar bilan oʻralgan. Karvonsaroy minorali qalʼa shaklidagi imorat boʻlib, ulov va yuklarni saqlaydigan maxsus joylari boʻlgan. IX-XVIII asrlarda savdoning kuchayishi bilan karvon yoʻllari ravnaq topgan (OʻzME, 4-jild, 459-bet).

#### Lugʻat

Tashimoq-носить, anglatmoq-означать, yurmoq-ходить, boshqarmoq-руководить, shaxs-личность, karvonboshi-начальник караван, sayyoh-путешественник, elchi-посол, tekislik-гладкость, chaqirim-верста, bozor-рынок, adashmoq-заблудиться, xarsangtosh-большой неотёсанный камень, tashlamoq-бросать, bajarmoq-выполнять, saqlamoq-сохранить, sardoba-водоём, tanqis-дефицитный, yigʻmoq-собирать, saqlamoq-хранить, gumbaz-купол, hovuz-пруд, chuqurlik-глубина, yuza-поверхность, sath-поверхность, tekis-ровный, tera-бугор, tuynuk-отверстие, atrof-окружность, teshik-дыра, eshik-дверь, oʻrnatmoq-устанавливать, oʻramoq-окружать, mol-скот, sugʻormoq-поливать, oxur-кормушка, tarnov-жёлоб, oqizmoq-лить, toʻxtamoq-останавливаться, tunamoq-ночевать, rabot-укрепленная стоянка на торговом пути, hujra-комнатка, imorat-здание, ulov-тяговая сила, maxsus-особенный, ravnaq тортоқ-развиваться.

### IV. Mustaqil taʼlim uchun matnlar.

## Transport

Transport (lotincha “tashiyman”) ijtimoiy, moddiy ishlab chiqarish tarmogʻi, yuklarni va yoʻlovchilarni eltish, mamlakat ichki hududiy boʻlinishlari ichida ayirboshlash va aloqani taʼminlaydi. Bu atamaning oʻzbekcha muqobili **ulovdir**. Transportning quyidagi turlari bor: yer usti transporti (temir yoʻl, avtomobil, quvur yoʻllari); suv transporti (kema, poroxod, suv osti kemalari); havo transporti (samolyot, vertolyot, raketa), yer osti transporti (metro). Transport foydalanish darajasiga koʻra ichki ishlab chiqarish va umumiy foydalanish transportiga boʻlinadi. Transport bajaradigan vazifasiga koʻra yoʻlovchilar va yuk tashish transportiga ajratiladi. Oʻzbekistonda XX asrning 20-yillaridan zamonaviy transport tizimi shakllandi. Mustaqillikdan soʻng avtomobil sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoriga qoʻshildik. 1996-yilda Asaka shahrida Janubiy Koreyaning DEU korporatsiyasi bilan hamkorlikda “OʻzDEUavto” qoʻshma korxonasi ish boshladi. Shundan soʻng “Neksiya”, “Damas”, “Tiko”, “Lacetti”, “Tacuma”, “Matiz”, “Epica”, “Captiva”, “Spark”, “Malibu”, “Kobalt”, “Orlando” rusumli avtomobillar ishlab chiqarila boshladi. 1999-yilda Samarqandda “SamKochAvto” oʻzbek-turk qoʻshma korxonasi ish boshladi. Unda kichik avtobuslar, har xil kichik yuk mashinalari ishlab chiqarila boshladi. Avtomobil yoʻli avtotransport qatnoviga moʻljallangan muhandislik inshootidir. Yoʻllar ahamiyatiga qarab xalqaro, davlat miqyosidagi va mahalliy yoʻllarga boʻlinadi. Avtomobil yoʻli tabiiy yoki tuproq koʻtarmasi ustiga qurilgan asos va qoplamadan iboratdir. Oʻzbekistonda umumiy foydalaniladigan yoʻllarning 95,6% iga qattiq qoplamalar yotqizilgan. Sement-beton qoplamali yoʻllar (0,8%), asfalt-beton qoplamali yoʻllar (49,6%), qora shagʻalli va qora qoplamali yoʻllar (40,6%) ni tashkil etadi.

## Yoʻl belgilari

Yoʻl belgilari haydovchilar, piyodalar, yoʻlovchilar, yoʻl taʼmirlovchilar, chorva mollarini haydab boruvchilarning avtomobil yoʻllari va shahar koʻchalarida harakatlanishini tartibga solish, ularning xavfli joylardan ogohlantirish uchun tegishli joylarga osib qoʻyiladi. Yoʻl belgilaridagi grafiklar, texnik tafsilotlar 1968-yilda **Venada** oʻtkazilgan hamda **Yevropa kelishuvi** (1971, Jeneva) talablariga koʻra ishlab chiqilgan. Oʻzbekiston Respublikasida 2001-yilda xalqaro meʼyorlar asosida, mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda yangi “**Yoʻl harakati qoidalarini**” ishlab chiqildi. Bu qoidalarga koʻra yoʻl belgilari: 1. **Ogohlantiruvchi belgilar** harakatlanishda vaziyatga qarab chora koʻrishni talab qiladi, xavfli joylar haqida ogohlantiradi. 2. **Imtiyozli belgilar** chorrohalarda, qatnov qismlarining keshishgan joyida, yoʻlning tor qismida harakatlanish navbatini belgilash uchun qoʻllanadi. 3. **Taqiqlovchi belgilar** yoʻl harakatiga maʼlum cheklashlar kiritish yoki ularni bekor qilish uchun qoʻllanadi. 4. **Buyuruvchi belgilar** transport vositalariga koʻrsatilgan yoʻnalishda yoki faqat maʼlum yoʻnalishda harakatlanishlari lozimligini buyuradi. Bundan tashqari 1) **axborot-ishora belgilari** harakat qatnashchilariga yoʻldagi harakat tartibi xususiyatlari hamda aholi yashaydigan joylar va manzillarning joylashuvi haqida maʼlumotlar beradi; 2) **servis belgilari** transport vositalari, yoʻlovchilar va haydovchilarga xizmat

ko'rsatish joylari haqida ma'lumot beradi; 3) qo'shimcha belgilar birga qo'llanilgan belgilarga aniqlik kiritish yoki ularning ta'sirini cheklash uchun qo'llanadi (*O'zME, 4-jild, 2002-yil, 356-bet*).

### Milliy sayllar

Sayil yilning ma'lum fasllarida o'tkaziladigan sayr-tomoshalar va dam olishlardir. Sayillar, odatda, Navro'z (Yil boshi) hamda diniy bayramlar (Ramazon hayiti, Qurbon hayiti) da o'tkazilgan. Yana yilning qulay paytlarida tashabbuskor kishilar tomonidan tashkil etilgan. Sayillar dala-dasht qo'ynida, sayilgohlarda, Registon va Chorsu maydonlarida, turli qadamjolarida o'tkazilib, bir-ikki hafta davom etgan. O'sha joylarga oziq-ovqatlar va shirinliklar olib borilgan. Davra qurib o'tirilgan. Choylar qaynatilgan, har xil ovqatlar pishirilgan. Turli baqqollik, attorlik va meva-cheva do'konlari ochilgan. Poyga, uloq, ko'pkari, kurash va chavgon musobaqalari o'tkazilib yigit-qizlarning jangavor tayyorgarligi oshirilgan. Turli xalq o'yinlari tashkil etilib, kishilarning kayfiyati ko'tarilgan. Dorboz, hofiz, sozanda, raqqos, masxaraboz, qiziqchilarning chiqishlari tashkil qilingan. Ayiq, ilon yo'natuvchilar, qo'chqor, xo'roz, it, tuya urishtirishlar, mushakbozlik tomoshalari ko'rsatilgan. Mustaqillikdan so'ng xalq sayillarining mazmuni o'zgarib, asosan baynalmilal tus oldi. Umumxalq bayramlari: Mustaqillik kuni, O'qituvchi va murabbiylar kuni, Konstitutsiya bayrami, "Navro'z" sayillari uyushtirilmoqda. Bundan tashqari sumalak sayli, boychachak sayli, chuchmo'ma sayli, gul sayli, tut sayli, o'rik sayli, uzum sayli va qovun sayillari ham bor (*O'zME, 7-jild, 428-bet*).

### VIII. Grammatik terminlar.

**1. Morfemika** so'zning ma'noli qismlarini o'rganuvchi bo'lim. So'zning ma'noli qismlariga **yetakchi** (o'zak) **morfema** va **ko'makchi** (affiksial) **morfema** kiradi. Morfema so'zning eng kichik bo'linmas qismidir. **1. Yetakchi morfema** so'zda albatta ishtirok etadi, leksik ma'no ifodalay oladi, u so'z va shakl yasash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. M.: *ish+chi=ishchi* (kim? *yangi so'z*), *ish+chan=ishchan* (qanday? *yangi so'z*), *ish+lar=ishlar* (nimalar? *shakl*), *ish+ga=ishga* (nimaga? *shakl*). **2. Ko'makchi morfema** mustaqil leksik ma'no ifodalay olmaydi, leksik va grammatik ma'nolarning shakllanishiga yordam beradi. Ikki xil bo'ladi: 1) so'z yasovchi morfemalar. M.: *paxta+kor* (kim?), *kuch+li* (qanday?); 2) shakl yasovchi morfemalar. M.: *uy+lar* (nimalar?), *uy+ga* (nimaga?), *ko'k+roq* (qanday?).

**2. Morfologiya** (yunoncha *morphe* "shakl", *logos* "so'z", "ta'limot") grammatikaning birinchi qismi bo'lib, so'zning grammatik ma'nosini, grammatik shakllarini, so'z turkumlari va ularning turlarini o'rganadi.

**3. Mustaqil so'zlar** lug'aviy ma'noga ega, biror narsa, shaxs, belgi, hodisa, harakatni ataydigan, o'ziga xos shakllari mavjud, gap bo'lagi vazifasida kela oladigan til birliklari.

**4. Mayl** harakatning voqelikka munosabatini so'zlovchi nuqtai nazaridan belgilaydigan shakllardir. Maylning quyidagi turlari bor: 1) xabar mayli (*keldi*); 2)



buyruq-istak mayli (*kel, kelay*); 3) shart mayli (*kelsa*); 4) maqsad mayli (*kelmoqchi*).

**5. Modal soʻzlar** soʻzlovchining voqelikka va oʻz fikriga munosabatini ifodalaydi. Modal soʻzlar ham sof va vazifadosh modal soʻzlarga boʻlinadi: 1. *Sof modal soʻzlar* faqat modal maʼno uchun xoslangan soʻzlardir: *haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, avvalambor, xullas, masalan, umuman, taxminan*. 2. *Vazifadosh modal soʻzlar* modal maʼnoda ham qoʻllanadigan soʻzlardir: *aftidan, chamasi, balki, ehtimol, shubhasiz* va shu kabilar.


**6. Murakkab son** esa qoʻshilma son va koʻpaytma songa xos bogʻlanishli sonlardan tuziladi. M.: *ikki yuz besh, oʻn besh ming, olti yuz qirq*.

**7. Milliy til** millat boʻlib shakllangan jamoaning umumiy tili. M.: *oʻzbek tili, rus tili*.

**8. Malay-polineziya tillari oilasi:** malay, yava, dayak, tagal, batak, age, bali, madur, torigi, bugʻiy, (indonez va filippin oroli tillari).

**Tayanch iboralar:** *kavon, karvonboshi, yoʻlovchi, sayyoh, elchilar guruhi, chaqirim, katta xarsangtosh, yoʻl koʻrsatkich, sardoba gumbazli hovuz, silindr, tuyenuk, oxur, tarnov, hujra, ulov, yuk*.

### Asosiy soʻzlar



106-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlang.

107-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qoʻllash.

108-mashq. Atoqli otlar topish boʻyicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Ish yuritish tili va uslubi

#### I. Toʻrtliklarni yod oling.

Turkiymiz, qadimmiz, qardoshimiz bor,  
Bobolardan meros bardoshimiz bor,  
Yurt yukini koʻtargan yurtboshimiz bor,  
Faqat bizga ishon, ishongin **Vatan**.

(Mahmud Toirov)

Yurtim, ado boʻlmas armonlaring bor,  
Toshlarni yigʻlatgan dostonlaring bor,  
Oʻtmishingni oʻylab ogʻriydi jonim,  
Koʻksing toʻla shahid oʻgʻlonlaring bor.

(Muhammad Yusuf)

Uch ishni qoralar hakim qalami:

Tezlik qilsa qudratli podsho,  
Xasis bo'lsa badavlat kishi,  
Mol-u mulkka hirs qo'ysa dono.

(Jomiy)

## II. Suhbat

- Turkiy tillar qaysi oilaga kiradi?
- Oltoy tillar oilasiga.
- Dunyoda nechta turkiy til bor?
- O'ttizga yaqin.

## III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

### Turkiy tillar oilasi

Turkiy tilda Sibirdan Bolqon yarimoroligacha cho'zilgan hudud bo'ylab tarqalgan xalqlar so'zlashadilar. Ular o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, yoqut, saxa, tuva, xakas, oltoy, qaragaz, shor, turkman, ozorbayjon, turk, gagauz, tatar, boshqird, chuvash, qo'miq, no'g'ay, qarachay-balqar, tofa, chulim, teleut, mojour (venger), qirmtatar va boshqa millatlardir. Dunyo tillarining genealogik tasnifi bo'yicha turkiy tillarning qaysi Tillar oilasiga mansubligi haqida uch xil ilmiy qarash bor<sup>1</sup>: 1. Bir guruh olimlar (V.Shott, V.Tomsen va boshqalar) turkiy tillarni **O'ral-Oltoy tillari oilasiga** mansub deb hisoblaydilar. Shuningdek, bu oilaga tungus-manjur, yapon, koreys, fin-ugor tillarini ham qo'shadilar. 2. Bir guruh olimlar (R.Ramsted, Y.Polivanov va boshqalar) turkiy tillarni **Oltoy tillari oilasiga** mansub deb hisoblaydilar. Fin-ugor tillarini esa ajratadilar. 3. Boshqa guruh olimlar (V.Radlov, F.Korsh, N.Baskakov va boshqalar) esa mazkur tillarni **Turkiy tillar oilasi** deb ko'rsatadilar. Turkiy tillar tarixini davrlashtirish bo'yicha ko'pgina olimlar ilmiy ishlar olib borishgan. Ana shu tasniflar orasidan akademik G'anijon Abdurahmonovning tasnif har jihatdan mukammal hisoblanadi<sup>2</sup>: 1. **Eng qadimgi turkiy til** (milodiy V asrgacha). 2. **Qadimgi turkiy adabiy til** (V – X asrlar). 3. **Eski turkiy adabiy til** (XI asrdan XIV asrning I yarmigacha). 4. **Eski o'zbek adabiy tili** (XIV asrning 2-yarmidan XX asrning boshlari). 5. **Hozirgi o'zbek adabiy tili**.

### Lug'at

Til-язык, yarimorol-полуостров, cho'zilmoq-растянуться, hudud-территория, davr-эпоха, tarqalmoq-распространяться, xalq-народ, so'zlashmoq-разговаривать, ular-они, boshqa-другой, millat-нация, dunyo-мир, tasnif-классификация, oila-семья, mansub-относящийся, haqida-о, ilmiy-научный, qarash-точка зрения, guruh-группа, hisoblamoq-считать, qo'shmoq-соединять, ajratmoq-отделять, ko'rsatmoq-указывать, ma'qul-подходящий, bilmoq-знать, eng-самый, qadimgi-древний, hozirgi-современный.

<sup>1</sup> G'.Abdurahmonov, S.Mamajonov. O'zbek tili va adabiyoti. –T.: O'zbekiston, 1995. 7-9-betlar.

#### IV. Mustaqil ta'lim uchun matn.

##### Morfologik tasnifi

Dunyo tillari morfologik jihatdan to'rt xil tasnif qilinadi: 1. **Agglyutinativ tillar**. Bunday tillarga turkiy, bantu, mo'g'ul, fin-ugor tillari kiradi. 2. **Flektiv tillar** affikslarning o'zak bilan birikib, unga singib ketishi bilan tavsiflanadi. Bunday tillarda grammatik ma'nolar fleksiya yo'li bilan ifodalanadi. M.: arab tilida kitob (birlik) – kutub (ko'plik), rus tilida друг (birlik) – друзья (ko'plik). Sintetik flektiv tillarda Grammatik ma'nolar shakl yasovchi affikslar vositasida ifodalanadi (*rus, nemis tillarida*). Analitik flektiv tillarda Grammatik ma'nolar yordamchi so'zlar, so'z tartibi va ohang yordamida ifodalanadi (*ingliz, fransuz, ispan tillarida*). Flektiv tillarga Hind-Yevropa, Som va boshqa tillar kiradi. 3. **Amorf tillarning** lug'at tarkibi bir bo'g'inli so'z-o'zaklardan iborat bo'lib, ularda turlanish, tuslanish xususiyatlari yo'q. Bu tillarda so'z yasovchi qo'shimchalar va yordamchi so'zlar vazifasini bajaruvchi yuklamalar bor. Amorf (yunoncha "shaklsiz") tillarga xitoy, tay, vietnam, tibet, birma tillari kiradi. 4. **Polisintetik tillar** (mujassamlantiruvchi) tillarda affikslarning eng ko'p miqdordagi tizmasi, fe'l so'z shakllari uchraydi. Fe'l shakllari to'liq gap mazmunini anglatadi. Ulardagi tovushlar so'zga, so'zlar esa gapga to'g'ri keladi. Bunday tillarga chukot, koryak, chukcha-kamchatka, indeys, eskimos-aleut, abxaz-adigey tillari kiradi. **Ayrim tillar** yuqorida sanalgan to'rt tasnifga mos kelmaydi, ularga nisbatan mazkur qoidalarni qat'iy qo'llab bo'lmaydi. Jumladan, Okeaniya tillarini ham amorf, ham agglyutinativ tillar sifatida tavsiflash mumkin. (*O'zME, 8-jild, 433-bet*).

##### Agglyutinativ tillar

Dunyo tillarining morfologik tasnifi bo'yicha turkiy, bantu, mo'g'ul, fin-ugor tillari, jumladan, o'zbek tili agglyutinativ tillarga kiradi<sup>2</sup>. Ya'ni qo'shimchalar bevosita o'zak va negizga qo'shiladi, leksik hamda grammatik ma'nolar ifodalaydi. Bunday tillarda prefikslar yo'q. Predloglar o'rnida, asosan, ko'makchilar qo'llanadi. Jins kategoriyasi mavjud emas. Mazkur tillarda affikslar birin-ketin ulanib keladi. Ular o'zak bilan ham, boshqa affikslar bilan ham qorishib ketmaydi, ularning chegarasi aniqdir. Unli tovushlar asosning tovush tarkibiga bog'liq holda fonetik o'zgarishga uchrashi mumkin. Bu hodisa singarmonizm (uyg'unlashuv) deb nomlanadi. Bundan tashqari undosh tovushlar ham morfemalar qo'shilganda o'zgarishga uchraydi, ammo bu o'zgarish muayyan til uchun xos bo'lgan fonetik qoidaga bo'ysungan holda yuz beradi. Ushbu tillarda omonimlik, ko'p ma'nolilik muhim ahamiyatga ega. So'z tartibiga ko'ra avval ega, gapning oxirida kesim joylashadi. Ko'pincha avval payt holi, aniqlovchi, ega, so'ngra esa aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, kesim joylashish holati uchraydi (*O'zME, 1-jild, 2000, 106-107-betlar*).

<sup>2</sup> G'.Abdurahmonov, S.Mamajonov. O'sha kitob. 7-bet.

### **Tinch mehnat**

Hashar o‘zbeklar, ayrim boshqa turkiy xalqlar orasida udumga aylangan ijtimoiy hamkorlik va beg‘araz yordam shakllaridan biridir. Asosan tezkorlik bilan bajarish zarur bo‘lgan ishlar (hosilni zudlik bilan yig‘ib olish) va katta mehnat talab inshootlarni bunyod etish (kanal qazish, masjid, madrasa, yo‘l va ko‘prik qurish)da ham mazkur odat qo‘llangan. Hashar bilan ariq qazish, imorat qurish ishlari qisqa muddatda tugatilgan. Masalan, O‘zbekistondagi *Katta Farg‘ona kanali* umumxalq hashari vositasida bunyod etilgan. 1966-yilning 26-aprelida *Toshkent shahrida ro‘y bergan zilzila* oqibatlarini ham umumxalq hashari yo‘li bilan tugatilgan. O‘zbekiston mustaqil bo‘lgandan so‘ng hashar yangicha mazmun kasb etdi. Navro‘z, Mustaqillik bayrami, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti va boshqa muhim sanalar oldidan umumxalq xayriya hasharlari o‘tkazish an‘anaga aylanib bormoqda (*O‘zME, 11-jild, 2005-yil, 321-bet*).

### **V. Ish qog‘ozi.**

#### **Tarjimai hol**


Men, Sobir Karimovich Olimov, 1965-yilning 15-sentyabrida Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilganman. Otam – Karim Oripovich Olimov Toshkent davlat sharqshu-noslik institutining professori, onam – Gulnora Alievna Azimova 122-bolalar bog‘chasida iqtisodchi bo‘lib ishlaydilar. Men 1972-yildan 1982-yilgacha Toshkent shahridagi 144-o‘rta maktabda o‘qidim. 1982-yilda Toshkent davlat universitetining tarix fakultetiga o‘qishga kirdim. 1983-1985-yillarda harbiy qo‘shin safida xizmat qildim. Keyin o‘qishni davom ettirib, 1989-yilda universitetni imtiyozli diplom bilan tugatdim va tarixchi-huquqshunos mutaxassisligiga ega bo‘ldim. Yo‘llanma bilan Toshkent huquqshunoslik texnikumiga ishga yuborildim. 1993-yilgacha o‘qituvchi lavozimida faoliyat ko‘rsatdim. 1993-yilda ToshDU ning kunduzgi aspirantura bo‘limiga o‘qishga kirdim. 1997-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildim va Toshkent davlat yuridik institutining «Markaziy Osiyo xalqlari tarixi» kafedrasiga ishga kirdim. Institutning jamoat ishlarida faol qatnashib kelyapman. Uylanganman. Xotinim – Aziza Botirovna Olimova, 1973-yilda tug‘ilgan. O‘zMU ning «Mumtoz o‘zbek adabiyoti» kafedrasida o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. Ikkita farzandim bor. O‘g‘lim – Sherzod Sobirovich Karimov 1995-yilda tug‘ilgan, 144-o‘rta maktab o‘quvchisi. Qizim – Ra‘no Sobirovna Karimova 2000-yilda tug‘ilgan, 583-bolalar bog‘chasiga bormoqda. Mening turar joyim: 700100, Toshkent, Sa‘di Sirojiddinov ko‘chasi, 15-xonadon. Tel.: 53-28-61.

2005. 15. 08. (imzo) S.K.Olimov

**Tayanch iboralar:** *geneologik tasnif, Ural-Oltoy tillar oilasi, Oltoy tillar oilasi, Turkiy tillar oilasi, morfologik tasnif, agglyutinatativ tillar, qo‘shimchalar, ko‘makchilar, singarmonizm, so‘z tartibi.*

109-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

110-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.  
111-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.



**Mavzu: Hujjat turlari va xususiyatlari**

### **I. To‘rtliklarni yod oling.**

**O‘zbekim**, munosib posbonlaring bor,  
Sarhadlarda po‘lat qalqonlaring bor.  
Sen ulug‘ **Temurning** zuryodidirsan,  
**Manguberdi** kabi o‘g‘lonlaring bor.

*(Abdulla Oripov)*

Qucholmasman men seni hargiz,  
Sen osmonsan, men-chi zarra tan,  
Qiblagohim, yupanchim yolgiz,  
Sen barhayot onamsan, **Vatan...**

*(Abdulla Oripov)*

### **II. Suhbat.**

- Xattotlik nima?
- Chiroyli yozish.
- Qayerlarda ishlatilgan?
- Binolar va kitoblarda.

### **III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.**

#### **Husnixat**

Xattotlik (arabcha “chiroyli yozish”) husnixat, ya’ni kalligrafiya san’ati bo‘lib, kitob ko‘chirish, me’moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitobalarini yaratish kasbidir. Sharqda qo‘lyozma kitob tayyorlash, ularning nusxalarini ko‘paytirish bilan xattotlar shug‘ullanishgan. Xattotlik san’ati asosida yaratilgan risolalar o‘n xil xat (nasx, kufiy, muhaqqaq, nasta’liq, suls, tavqe, ta’liq, devoniy, riqo, ruq‘iy) asosida yozilgan. Musulmon dunyosida mashhur bo‘lgan Usmon Qur’oni **kufiy** xatida ko‘chirilgan. Keyinchalik xatlarning maxsus turlari alohida yo‘nalishlarda ishlatila boshlangan. Jumladan, Qur’oni Karim **nasx xatida**, buyruq va farmonlar **tavqe xatida**, maktublar **riqo xatida** yozilgan. Bulardan tashqari **tumor**, **g‘ubor**, **shajariy**, **tug‘ro** va boshqa yozuv usullari ham bo‘lgan. XV asrda kitoblar ko‘proq **nastaliq xati** ko‘chirilgan. Xattotlar saroylarda, ayrim amaldorlarning kutubxonalarida guruh bo‘lib ishlaganlar. Markaziy Osiyoda

temuriylar, shayboniylar, qo'ng'irotlar, ashtarxoniyalar, mang'itlar va minglar sulolalari davrida xattotlik yuksak darajada taraqqiy etgan. Amir Temur davrida xattot Shamsiddin Munshiy, sangtarosh va xattot Altunlar mashhur bo'lishgan. Alisher Navoiyning shaxsiy kutubxonasida xattotlar boshlig'i Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Darvesh Muhammad Toqiy, Mir Ali Tabriziy kabi 11 ta yirik hunarmadlar xizmat qilishgan. Temuriy shahzodalardan Ibrohim ibn Shohruh, Boysung'ur Mirzo, Badiuzzamon Mirzolar ham xattot bo'lishgan va xattotlarga qilishgan. Temuriy shahzoda Boysug'ur Mirzo (1397-1433) Hirotda tashkil qilgan kutubxonada 40 dan ortiq xattot qo'lyozma kitoblarni tayyorlash va ta'mirlash bilan shug'ullanishgan. Boysug'ur Mirzoning o'zi Firdavsiyning "Shohnoma" asarini qo'lda ko'chirib chiqqan. XVI asr Movarounnahrdagi xattotlik maktabining yuzaga kelishida Mir Ali Hiraviyning alohida o'rni bor. Xorazmda xattotlikni rivojlantirishga Muhammad Rahimxon II Feruz ulkan hissa qo'shgan (O'zME, 9-jild, 403-404-betlar).

### Lug'at

Husnixat–kalligrafiya, kitob–книга, ko'chirmoq–переписывать, me'moriy–архитектурный, tur–вид, inshoot–сооружение, badiiy–художественный, buyum–изделие, xat–письмо, buyruq–приказ, farmon–указ, kutubxona–библиотека, sulola–династия, sangtarosh–парикмахер, homiy–покровитель, risola–брошюра, tayyorlamoq–готовить, ta'mirlamoq–ремонтировать, rivojlanmoq–развиваться.

## IV. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Haqgo'y alloma

Buyuk shoir va mutafakkir Jaloliddin Rumiy 1207-yilda Balxda tug'ilgan. U tasavvufdagi mavlaviya tariqatining asoschisidir. Rumiy arab, fors va turky tillarda ijod qilgan. Jaloliddinning otasi Bahouddin Valad sufiylarning va fiqh ilmining donishmandi bo'lgan. Uni sulton Muhammad Xorazmshoh (1199-1220) o'z saroyiga taklif qilgan. Ammo Bahouddin Valad bu taklifni rad etib, maktabdorlik hamda ilmiy-ijodiy ish bilan mashg'ul bo'lgan. Xorazmshoh bilan kelisha olmagan Bahouddin Valad haj safari bahonasida oilasi bilan birgalikda Balx shahrini tark etib, Rum (Turkiya)ga boradi. Keyinchalik Jaloliddin Rumiy Makka yo'lida Fariduddin Attor bilan uchrashgan. 1220-yilda Rum sultoni Alouddin Kayqubod I ning da'vati bilan Halab, Damashq va Bagdod madrasalarida o'qigan, mudarrislik qilgan. Shoir va shayx Shamsi Tabriziy Jaloliddinga uch yil dars beradi. U shogirdiga falsafa, sufiylik ta'limotini o'rgatadi. Rumiy o'zining bir baytida shunday yozadi: "Agar Attor menga ruh baxsh etgan bo'lsa, Shamsi Tabriziy tilsim kalitini tutqazdi". Jaloliddin 1244-yilda ustozini nihoyatda hurmat qilgani uchun o'z g'azallarida "Shamsi Tabriziy", "Shamsi" taxalluslarini qo'llay boshlaydi. Rumiyning 42 ming baytli "Devoni Kabir" (Ulug' devon) to'plamining ikkinchi nomi "Devoni Shamsi Tabriziy"dir. Rumiy ijodi usmonli turk adabiyotining sarchashmasi hisoblanadi. Bizga Rumiyning she'riy devondan tashqari "Makotib",

“*Ichindagi ichindadir*” (“Fihi mo fihi”), “*Masnaviyi masnaviy*” kitoblari meros bo‘lib qolgan. Shoirning “Masnaviyi masnaviy” asarining qo‘lyozmasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Uning barcha asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Jaloliddin Rumi 1273-yilda Ko‘nyada vafot etgan (*O‘z ME, 7-jild, 2004-yil, 385-386-betlar*).


### **Hayotiy tuzilma**

O‘zbekistondagi ma‘muriy-hududiy birlikka **mahalla** (arabcha “**o‘rin-joy**”) deyiladi. Mahalla o‘z-o‘zini boshqarishning xalqimiz an‘analari va qadriyatlariga asoslangan usulidir. Mahalla tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Manbalarda qayd etilishicha, **jez davri** yodgorligi bo‘lgan Sopoltepada **sakkizta** oila bir mahalla bo‘lib yashagan. Keyinchalik ularning safi patriarxal tizim asosida ko‘payib borgan. Miloddan avvalgi III asrdan milodiy V asrgacha **Parkana** (Farg‘ona) davlatida **oqsoqollar** muhin vazifalarni bajarishgan. **Narshaxiy** bundan 1100 yil avval **Buxoroda** bir qancha mahallalar bo‘lganligini yozadi. **Amir Temur davlatida** ham mahallalar ravnaq topgan. Alisher Navoiy mahallani “*shahar ichida shaharchadir*” deb ta‘riflaydi. Mahalla qadimda boshqaruv hokimiyatining o‘ziga xos shakli sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Hokimiyatni boshqarish esa **jamoatchilik** asosida olib borilgan. Undagi ichki tartib-qoidalar hammaga bir xil tegishli bo‘lgan. Mahalla kichik ma‘muriy hudud, ya‘ni turmush tarzi, qadriyatlari, an‘analari va urf-odatlarini umumiy bo‘lgan jamoadir. Tarixning turli bosqichlarida davrlar, tuzumlar o‘zgarishi bilan mahallaning vazifalari ham o‘zgarib borgan. Mahallalarni oqsoqollar boshqarishgan. Ular o‘z navbatida **Oliy oqsoqollar kengashi**ga buysunishgan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil bo‘lgandan keyin, Prezidentimiz mahallalarning ravnaqiga katta e‘tibor qaratdilar. Mahalla yoshlarning ta‘lim-tarbiyasida muhin o‘rin tutadi. Mahalla har doim kishilarni uyushtirish, o‘zaro hurmat-e‘tiborni shakllantirish maskani bo‘lgan (*O‘zME, 5-jild, 548-bet*).

### **Hunarmandlar shahari**

Toshkent O‘zbekiston Respublikasidagi eng katta shaharlardan biridir. Dengiz sathidan 440-480 metr balandlikda joylashgan bo‘lib, maydoni 327.9 km. kvadrat km.ni tashkil etadi. Qadimda Choch, Shosh, Binkat nomlari bilan atalgan. Shahar aholisi qadimdan hunarmandchilik, ko‘nchilik, to‘qimachilik, zargarlik bilan shug‘ullangan. Toshkentda ilgaridan savdo-sotiq rivojlangan. Toshkentda juda ko‘p me‘moriy obidalar bo‘lgan. Ulardan bizgacha saqlanib qolganlari: Shayxantohur maqbarasi, Ko‘kaldosh madrasasi, Baroqxon madrasasi, Abulqosim Shayx madrasasi (qayta tiklangan) va boshqalar. Toshkent shahri 1930-yildan boshlab O‘zbekistonning poytaxti bo‘ldi. 1983-yilda Toshkent shahrining 2000 yilligi nishonlangan. Toshkentda BMT va uning tizimidagi YUNESKO, YUNISEF kabi xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini, juda ko‘p elchixonalarini bor. Toshkent shahri ma‘muriy-hududiy jihatdan bir shaharcha va o‘n bir tumanga bo‘lingan. Aholisining soni 2 mln. 700 ming kishi (2007-yil). Shaharda muhtasham zamonaviy binolar, zavod va fabrikalar ko‘p. O‘zbekiston

Respublikasi mustaqil bo'lgandan so'ng Toshkentda Xasti imom masjidi qurilib, o'sha joydagi qadimgi me'moriy yodgorliklar bilan birga ajoyib majmuani tashkil etdi. Bundan tashqari milliy uslubda Minor va Islom ota masjidlari qurilib foydalanishga topshirildi. Transport tarmoqlarining barcha turi hamda metro ishlab turibdi.



**Tayanch iboralar:** *xattotlik san'ati, risola, xatlar, nasx, kufiy, muhaqqaq, nasta'liq, suls, tavqe, ta'liq, devoniy, riqo, ruq'iy, tumor, g'ubor, shajariy, tug'ro, nastaliq, temuriylar, shayboniylar, qo'ng'irotlar, ashtarxoniyalar, mang'itlar, minglar, sulola.*

112-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

113-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

114-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.

### **Mavzu: Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari**

**I. Nutq tovushiga izoh:** "Sh" undoshi til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh hisoblanadi.

#### **Taqqoslang:**

<b>O'zbekcha</b>	<b>Ruscha</b>
shar (звукоподражание)	шар (yer shari)
shaqillamoq	щёлкать
shaldiramoq	шуршать
shipildoq	шипящий
shovqin	шум
shoyi	шелк
sholi	шала
sho'xlik	шалость

#### **Tez aytish**

Shokir sharsharaga shoshildi.

#### **Bo'g'inlarni to'g'ri o'qing!**

Sha-ba-da, sha-kar, sha-mol, shan-ba, shil-di-ra-moq, shi-rin.

### **II. Zaruriy so'zlarni ko'chirib yozing va tarjima qiling:**

Shabada, shabnam, shavkat, shay, shayton, shakar, shakllanmoq, sham, shamol, shanba, shapaloq, sharbat, sharmanda, sharoit, shart, shartnoma, sharshara,



sharq, shaftoli, shaxs, shaxsiy, shahar, sher, she'r, shilinmoq, shim, shimol, shior, shippak, shirin, shisha, shishmoq, shogird, shoir, sholg'om, shoshmoq, shunday, shuhrat, shaylamoq, shaytonlamoq, shakllanmoq, shalviramoq, shaldiramoq, shalpaymoq, shamollamoq, sharaqlamoq, sharillamoq, shartlashmoq, sharhlamoq, shaqillamoq, shivalamoq, shivirlamoq, shikastlanmoq, shilinmoq, shimarmoq, shimmoq, shipillamoq, shipshimoq, shitirlamoq, shifolanmoq, shishmoq, shiqirlamoq, shovullamoq, shodlanmoq, shug'ullanmoq, sho'ng'imoq, sho'r'lamoq.

### Paronimlarni farqlang:

Sher (лев)-she'r (стих), шуба (kiyim)-shu'ba (отделение).

### III. So'z birikmalari tuzishni o'rganing!

- |                                     |  |
|-------------------------------------|--|
| 1) sharq <b>ning</b> shuhrati;      | 4) shartnomad <b>an</b> shodlanmoq;    |
| 2) shoir <b>ni</b> shoshirmoq;      | 5) shifokor <b>bilan</b> shartlashmoq; |
| 3) sharsharag <b>a</b> sho'ng'imoq; | 6) shirin shaftoli.                    |

### VI. To'rtliklarni yod oling.

Tuproq'ingda ungan giyohlar haqqi,  
Ajdodlar yoqqan chirog'lar haqqi,  
Shu kunlarni kutgan firoqlar haqqi,  
Faqat bizga ishon, ishongin **Vatan**.

(*Mahmud Toirov*)

Turon yulduzlarin silsilasida  
Chaqnadi yana bir qo'lbola quyosh –  
Ulug' shaharlarning bo'ysirasida  
Abadiy o'rnini topa olgan **Shosh**.

(*Abdulla Oripov*)

### V. Suhbat

- Shoir kim?
- She'r bilimdoni.
- Nimani yozadi?
- Idrok qilganini.

### VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

#### Tashkiliy hujjatlar

Bunday hujjatlarda mazmunan tashkilot va korxonalarining huquqiy maqomi, tarkibiy qismlari, boshqaruv jarayonida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalari o'z aksini topadi. Bunday hujjatlar: *guvohnoma*, *yo'riqnoma*, *nizom*, *qoida*, *ustav*, *shartnoma*. **Guvohnoma** biror shaxsning xizmat va boshqa holatlarga tegishli vakolatini ko'rsatuvchi hujjat. Xizmat safari

guvohnomasi xodim zimmasiga yuklatilgan vazifani bajarish uchun vakolat beradi. **Yo'riqnoma** qonun yoki me'yoriy hujjatlarni tushuntirish maqsadida chiqariladigan huquqiy hujjat. Qoida, uslubiy tavsiyanoma, uslubiy ko'rsatma kabi hujjatlar ham yo'riqnoma maqomiga egadir. **Nizom** tashkilot yoki uning tarkibiy bo'linmalari, kichik va qo'shma korxonaning tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari hamda ishini tashkil qilishlari tartibotini belgilaydigan huquqiy hujjat. **Ustav** belgilangan munosabat doirasidagi faoliyat yoki biror davlat organi, tashkilot, muassasaning tuzilishi, vazifasini yo'naltirib turadigan asosiy qoidalar majmuidir. **Shartnoma** ikki yoki undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish hamda to'xtatish yo'lidagi kelishuvdir. Shartnoma to'g'risidagi umumiy qoidalar O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi (353-385-moddalar) da bayon etilgan.

### Луғат

Mazmun–содержание, tashkilot–организация, qoida–норма, korxonа–предприятие, huquqiy–правовой, maqom–чин, tarkibiy qism–,составная часть, boshqaruv–управления, aloqa–связь, xizmat safari–командировка, xodim–сотрудник, yuklamoq–нагружать, bajarmoq–выполнять, qonun–закон, shartnoma–договор, guvohnoma–свидетельство, yo'riqnoma–инструкция, nizom–положение, huquq–право, majburiyat–необходимость, umumiy–общий, kelishuv–соглашение, vakolat–полномочие, tavsiyanoma –характеристика. tushuntirmoq–объяснять.

## VI. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Sheryurak

Sheryurak – qo'rqmas, botir insonlarga beriladigan sifat. Bunday insonlar vatanparvar, xalqparvar bo'lishadi. Ular mardligi tufayli o'z xalqiga, o'z millatiga sadoqat bilan xizmat qiladilar.

### Shayboniyxon

Sulton Muhammad Shayboniyxon 1451-yilda tug'ilgan. Abulxayrxonning nabirasi, Shohbudog' sultonning o'g'li. Sulton Muhammadning laqabi Shohbaxt. Otasi vafotidan so'ng bobosi qaramog'ida ulg'ayadi. Unga Boyshayx otaliqlik qiladi. Buxoroda, Samarqandda o'qigan. Bobosi vafotidan so'ng taxtga o'tirgan va Dashti Qipchoqda o'z hukmronligini o'rnatgan. 1490-yillarda temuriylar davlatni boshqara olmay qoldi. Shu bois Movarounnahrda eroniylar tahdidi kuchaydi. Musulmon sunniylarning da'vati bilan Shayboniyxon janubga yurish boshlaydi. Movarounnahrda kim Temur davlatini parchalashga xizmat qilgan bo'lsa, ayovsiz jazoladi. Movarounnahr va Xurosonni eroniylar tajovuzidan saqlab qoldi. Shayboniyxon Amir Temurni juda hurmat qilgan. Katta o'g'liga Temur Sulton deb nom beradi. Shayboniyxon o'zbek va fors tillarida g'azal va ruboiylar yozgan. Uning ba'zi she'rlari va «Bahr ul-xudo» dostoni saqlanib qolgan. Uning vatanparvar shayx Najmiddin Kubroga bag'ishlab yozgan she'ri mavjud. Shayboniyxon Eron shohi

Ismoil Safaviy bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. Uning jasadi Samarqand shahri Registon maydonidagi Baland Sufaga dafn qilingan. Bu joy keyin shayboniylar daxmasi bo'lib qoldi va u yerga yana 11 kishi dafn qilingan. (O'zME, 9-jild, 679-bet).

### **Sharof Rashidov**

Taniqli davlat va jamoat arbobi, yozuvchi Sharof Rashidovich Rashidov 1917 yilning 6 noyabrida Jizzax shahrida tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgandan so'ng 1935 yilda Jizzax pedagogika texnikumini tamomlaydi. 1941 yilda SamDU ning filologiya fakultetini tugatgan. Keyin Samarqand viloyat gazetasida mas'ul kotib, muharrir o'rinbosari, bosh muharrir bo'lib ishlagan. 1941-1942 yillarda Ikkinchi jahon urushida qatnashgan. 1944-1947 yillarda Samarqand viloyat partiya komiteti kotibi, 1947-1949 yillarda "Qizil O'zbekiston" gazetasi muharriri, 1949-1950 yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi bo'lib ishlagan. 1950-1959 yillarda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Prezidiumining raisi, 1959-1983 yillarda O'zbekiston Respublikasi KP MK ning birinchi kotibi bo'lib faoliyat ko'rsatgan. Sharof Rashidov Respublikaga rahbarlik qilgan yillarda Toshkent metrosi, Xalqlar Do'stligi saroyi va minglab bino hamda inshootlar qurildi. Sharof Rashidov yozuvchi sifatida «Chegarachi» (1937) dostonini, «Qahrim» (1945) she'riy to'plamini, «G'oliblar» (1953) qissasini, «Kashmir qo'shig'i» (1956) lirik qissasini, «Bo'rondan kuchli» (1958), «Qudratli to'lqin» (1964), «G'oliblar» (1972) romanlarini yozgan. Sharof Rashidov 1983 yilning 31 oktyabrida vafot etdi. Unga vafotidan so'ng (1994) Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti berilgan. Taniqli davlat arbobining tavalludiga 100 yil tolishi munosabati bilan Jizzax shahriga haykali o'rnatildi.

### **Shveysariya**

Shveysariya Konfederatsiyasi – Markaziy Yevropada, Alp tog'larida joylashgan davlat. Maydoni 41,3 ming km<sup>2</sup>, aholisi 7,1 mln. kishi (1998-yil). Poytaxti – Bern shahri. Konfederatsiya tarkibida 22 ta kanton bor. Kantonlar o'z ichida kichik kantonlarga bo'lingan. Davlat tuzumi – federal respublika. Davlat boshlig'i – prezident. Ikki palatali parlament – Ittifoq majlisi oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblanadi. Katta daryolari: Reyn, Aare. Aholisi to'rt xalq (german-shveysarlar, fransuz-shveysarlar, italyan-shveysarlar va retoromanlar) dan iborat. Yirik shaharlari: Syurix, Bazel, Jeneva, Bern, Lozanna. Shveysariya 1815-yilning 20-martida «abadiy betaraflik» haqida maxsus deklaratsiyani e'lon qildi. Shundan boshlab xalqaro janjallarga aralashmadi. Shveysariya hududida juda ko'p xalqaro tashkilotlar joylashgan. Shveysariya BMT ning o'ziga a'zo bo'lmagan, lekin uning ko'pgina maxsus tashkilotlariga a'zodir. O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarni 1992-yilning 5-mayidan o'rnatgan (O'zME, 10-jild, 30-34-betlar).

### **VIII. Ish qog'ozi.**

## SHARTNOMA

Toshkent shahri, ikki minginchi yil o‘ninchi mart

Biz, Toshkent shahar Oxunboboyev ko‘chasi 18-uyda yashovchi Sodiq Xoliqovich Salimov va Toshkent shahar 4-Qorasuv dahasi, 40-uy, 28-xonadonda yashovchi Qodir Mo‘minovich Ibrohimov, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Men, S.X.Salimov Toshkent shahar IIB davlat avtonazorat ro‘yxatlash va imtihon olish bo‘limi tomonidan 1993-yilning 24-fevralida berilgan GE434545 raqamli texnik pasportga asosan menga tegishli «Jiguli» markali yengil mashinani (1989-yilda ishlab chiqarilgan, shassi raqami belgisi N 01-47 TN) Q.M.Ibrohimovga hadya qildim.

2. Men Q.M.Ibrohimov, mazkur avtomashinani S.X.Salimovdan hadya sifatida qabul qildim.

3. Mazkur avtomashina shartnoma tuzuvchilar tomonidan 520000 (besh yuz yigirma ming) so‘m miqdorida baholandi.

4. Hadya qilingan avtomashina bu shartnomaga qadar hech kimga sotilgan emas, garovga qo‘yilmagan, nizoda bo‘lmagan, foydalanish taqiqlab qo‘yilmagan.

5. Shartnoma uch nusxada tuzildi: 1-nusxa notarial idorada saqlanadi, qolgan nusxalar Q.M.Ibrohimovga avtomashinani ro‘yxatdan chiqarish va ro‘yxatga qo‘yish uchun beriladi.

(imzo)

S.X.Salimov

(imzo)

Q.M.Ibrohimov

(Notarial idoraning tasdiqlovchi yozuvlari va muhri)

(M.Aminov va boshqalar. *Ish yuritish. T.*, 2000, 81-bet).

### IX. Grammatik terminlar.

1. **Shaxs-son shakllari** harakat-holatning bajaruvchi shaxsini ko‘rsatib, fe’lni kesim sifatida shakllantiradi.

So‘zlovchi – I shaxs (*keldim - keldik*).

Tinglovchi – II shaxs (*kelding - keldingiz*).

O‘zga – III shaxs (*keldi - keldilar*).

#### 1-tuslanish

		<b>birlik</b>			<b>ko‘plik</b>				
I shaxs. Men	}	bora	{	man	I shaxs. Biz	}	bora	{	miz
II shaxs. Sen				san	II shaxs Siz				siz
III shaxs. U				di	III shaxs. Ular				di (lar)

#### 2-tuslanish

		<b>birlik</b>			<b>ko‘plik</b>				
I shaxs. Men	}	bordi	{	m	I shaxs. Biz	}	bordi	{	k
II shaxs. Sen				ing	II shaxs Siz				ngiz
III shaxs. U				-	III shaxs. Ular				(lar)

2. **Sheva** mahalliy dialektning fonetik, leksik, gramatik umumiylikka ega bo'lgan ma'lum hududni qamrab oluvchi

3. **Shart yuklamalari** shart va to'siqsizlik ma'nolarini ta'kidlash uchun qo'llanadi. Bular: *agar, agarda, gar, mabodo, basharti*.

4. **Shart mayli** boshqa biror harakatning bajarilishi uchun bu harakatning bajarilishi shart ekanligini bildiruvchi mayldir. U **-sa** qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi. M.: *Mehnat qilsang baxting ochiladi*.

5. **Shimoliy Amerika tillari oilasi: amerika hindulari tillari**.

**Tayanch iboralar:** *didaktik, pandnoma, budun, atama, el, vatan, elik, bek, lashkar, boylik, adolatli, siyosat, elik, pul, saqlamoq, farmon, qonun, soliq, hukmdor, shoshqaloqlik, ochko'zlik, jaholat, bilimsizlik, buzuq fe'llilik, yolg'onchilik*.

### Asosiy so'zlar



115-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlang.

116-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

117-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Farmoyish hujjatlar

**I. Nutq tovushiga izoh:** "F" undoshi lab-tish, sirg'aluvchi, jarangsiz olinma tovush hisoblanadi. O'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan. O'zbek tilidagi **f** tovushi, asosan, olinma so'z (o'zlashma so'z)larda uchraydi.

#### Og'zaki talaffuzda

palak	→
paxr	→
pikr	→
poyda	→

#### Adabiy talaffuzda

falak
faxr
fikr
foyda

#### Tez aytish

Fazogir falokatni fahmladi.

#### Bo'g'inlarni to'g'ri o'qing!

Fa-ol, fal-sa-fa, fa-rish-ta, foy-da, fa-zo-gir, far-rosh.

## II. Zaruriy soʻzlarni koʻchirib yozing va tarjima qiling:

Fazo, fazogir, faylasuf, falokat, falon, falsafa, fan, faol, faraz, farzand, farishta, farmon, farqlamoq, fasl, faxriy, faqat, feʼl, fil, fikr, fojia, foyda, fotiha, fuqaro, farosat, farrosh, fidokor, fitna, fahmlamoq, favqulodda, fazilat, fayz, falaj, falak, faqir, firibgar, firoq, foydalanmoq, folbin, fursat, faxrlanmoq, fikrlamoq.

## III. Soʻz birikmalari tuzishni oʻrganing!

- |                                     |                                   |
|-------------------------------------|-----------------------------------|
| 1) faylasuf <b>ning</b> fikri;      | 4) fitna <b>dan</b> foydalanmoq;  |
| 2) falokat <b>ni</b> fahmlamoq;     | 5) foyda <b>bilan</b> fahrlanmoq; |
| 3) farzand <b>ga</b> fotiha bermoq; | 6) fidoyi fuqaro.                 |

## IV. Toʻrtliklarni yod oling.

Fargʻona vasliga oshiqib sahar  
Qurama boshida hilol koʻrindi.  
Bobotogʻ bagʻridan izlasam olqor,  
Amu toʻlqinlari zilol koʻrindi.

(B.Boyqobilov)

Fazolarning qay burchagiga  
Fikri bilan yetadi inson,  
Ammo ne bor oʻz yuragida –  
Bilmay oʻtib ketadi inson.

(E.Vohidov)

## V. Suhbat.

- Al-Forobiy kim?
- Buyuk faylasuf.
- Qanday nomga erishgan?
- Muallimi soniy.

## VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

### Forobiy

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlugʻ Tarxon Forobiy – oʻrta osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy bilimlar sohibi boʻlgan olim. Abu Nasr Forobiy 873-yilda Sirdaryo boʻyidagi Temurlang (Forob) shahrida harbiy xizmatchi oilasida tugʻilgan. Boshlangʻich maʼlumotni ona shahrida olgan. Keyin Shosh, Buxoro, Samarqand shaharlarida oʻqigan. Soʻngra Bagʻdodda oʻz bilimini oshirgan, u yerda yunon tili va falsafasini sharhlab, dunyoga tanitgani uchun “*Sharq Arastusi*” nomini olgan. Sharqda “*Arastuyi soniy*” (Ikkinchi Arestotel), “*Muallimi soniy*” (Ikkinchi muallim) nomlari bilan mashhur boʻlgan. Forobiy 70 dan ziyod tilni bilgan va 160 dan ortiq asar yozgan. U Arastu, Aflotun, Uqlidus (Yevklid), Batlimus (Ptolomey) kabi olimlarning asarlariga sharhlar yozgan. Uning “*Kitob ul-musiqa al-kabir*”

(*Musiqqa haqida katta kitob*), “*Qonun haqida kitob*”, “*Falak harakatining doimiyligi haqida*”, “*Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi*”, “*Baxt-saodatga erishuv haqida risola*”, “*Fizika asoslari haqida kitob*”, “*Kitob mabodi orou al-madinat ul-fozila*” (*Fozillar shahri aholisining fikrlari*) asarlari bor. Olimning o‘zi ham mohir musiqachi va shoir bo‘lgan. Forobiy 950-yilda Damashq shahrida vafot etgan. Uning asarlarini *Abdusodiq Irisov* va *Mahkam Mahmudlar* o‘zbek tiliga tarjima qilishgan (*O‘zME, 9-jild, 2005-yil, 288-292-bet*).

### Lug‘at

Faylasuf–философ, qomusiy–энциклопедический, bilim–знание, sohib–владелец, обладатель; Sirdaryo bo‘yida–на берегу Сырдарьи, harbiy xizmatchi–военнослужащий, boshlang‘ich ma‘lumot–начальное образование, bilimini oshirmoq–повышать знания, sharhlamoq–комментировать, dunyo–мир, tanitmoq–знакомить, nom olmoq–получать звание, bilmoq–знать, nazariya–теория, bag‘ishlamoq–посвящать, mohir–умелый.

## VII. Mustaqil ta‘lim uchun matnlar.

### Fidoyilik

Fidoyilik – biror g‘oyaga, dunyoqarashga astoydil berilish. Bunday xususiyatga ega insonlar sadoqatli bo‘lib, vatanparvarlik, millatparvarlikni yoqtirishadi.

### Farmoyish hujjatlar

Bunday hujjatlarga bajarilish nazorat qilinadigan hujjatlar kiradi. Misol uchun *buyruq, ko‘rsatma, farmoyish va boshqalar*. Kundalik va asosiy va vazifalarni zudlik bilan hal qilish maqsadida qo‘llanadigan hujjatlardir. Ularning bajarilishi qat‘iy nazorat ostiga olinadi. Agar iqtisodiy yo‘nalishga tegishli bo‘lib, mablag‘ bilan aloqador bo‘lsa, maxsus daftarlarga qayd etiladi. Ularning o‘ziga xos jihatlarni quyidagicha izohlash mumkin. **Buyruqlar** ikki xil bo‘ladi: 1) asosiy faoliyatga oid buyruqlar ishni tashkil qilish, korxonaga yoki uning bo‘limlari faoliyatini tartibga solishda qo‘llanadi; 2) kadrlar shaxsiy tarkibiga oid buyruqlar biror xodimni ishga qabul qilishda, ishdan bo‘shatishda, boshqa ishga o‘tkazishda, mukofotlashda, ta‘tilga chiqarishda beriladi. Zaruriy hollarda buyruqdan ko‘chirmalar beriladi. Ular asos sifatida ko‘rsatiladi. **Ko‘rsatma** – biror masalaning, buyruqning, yo‘riqnomalarning ijrosini yuzaga chiqaradigan hujjat. Ko‘rsatmalarga birinchi rahbar, bosh muhandis va uning o‘rinbosarlari imzo chekishi mumkin. Ularning bajarilish bo‘yicha nazorat o‘rnatilib, yozma yoki og‘zaki hisobot talab qilinadi. **Farmoyish** – korxonaga ma‘muriyati tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjat. Ularning qonunchilikka mosligiga asos ko‘rsatiladi. Mas‘ul belgilanib, bajarilishi nazorat qilinadi.

## Fitrat

Abdurauf Fitrat 1886-yilda *Buxoroda savdogar ziyoli* oilasida tugʻilgan. U qoʻshiq va soʻzlar jilosini onasi *Bibijon otin*dan oʻrgangan. Abdurauf avval maktabda, soʻng *Mir Arab* madrasasida taʼlim olgan. U madrasada *turk, fors, arab* tillarini oʻrganib, *Xayyom, Bedil, Navoiy* asarlarini oʻqigan. Oʻsha paytda u matbuot bilan tanishib borgan. Fitrat 1909-yilda Turkiyaga bordi. Toʻrt yil *Istambul universitetida* oʻqidi. Fitrat *Munozara* (1909), *“Hind sayyohi qissasi”* (1912), *“Tilimiz”* (1919) kabi maqolalarini yozdi. *“Yosh buxoroliklar”* siyosiy tashkilotini boshqardi. Fitrat 1919-20-yillarda *Afgʻoniston* hukumatining Toshkentdagi vakolatxonasi *tarjimon* boʻlib ishladi. U bir necha gazetalarning chop qildirdi. *“Chigʻatoy gʻurungi”* tashkilotiga Fitrat rahbarlik qildi. U Samarqanddagi *Pedakademiya*da dars berdi. Keyin Toshkentdagi *Til va adabiyot* institutida ilmiy xodim boʻlib ishladi. Fitrat Buxoro xalq respublikasida turli rahbarlik lavozimlarida xizmat qildi. Fitrat 1923-24-yillarda *Leningradda* yashadi. Soʻng *Moskvada*gi Sharq tillari universitetida arab, fors, turk tili va adabiyotdan *dars berdi*. U yerda *professor* unvonini oldi. 1926-29-yillarda lotin yozuvi asosidagi oʻzbek imlosiga oʻtish boʻyicha amalga oshirilgan ishlarda faol qatnashdi. Keyin *Samarqandda* pedakademiya ishladi, *Til va adabiyot institutida* mehnat qildi. 1937-yilning 27-aprelida qamoqqa olingan. Fitrat 1938-yilning 4-oktyabrida otib oʻldirilgan. Oʻsmirlik yillarida *Mijmar (choʻgʻdon)*, keyin *Fitrat (toʻgʻma isteʼdod)* taxalluslarini qoʻlladi. Fitratning ilk sheʼriy toʻplami *“Sayha”* (*“Faryod”*) 1912-yilda Turkiyada *fors tilida* bosildi. Uning yana bir qancha sheʼriy toʻplamlari chop etildi. Fitrat *“Zaynabning imoni”, “Oq mozor”, “Kiyshik eshon”, “Zayd va Zaynab”, “Meʼroj”* kabi hikoyalar ham yozgan. Fitrat *“Begijon”* (1916), *“Abo Muslim”* (1916), *“Temur sagʻanasi”* (1918), *“Oʻgʻuzxon”* (1919), *“Chin sevish”* (1920), *“Hind ixtilolchilari”* (1923), *“Abulfayzxon”* (1924), *“Arslon”* (1925) kabi drama va pesalar yozgan. Fitrat olim sifatida *“Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi”, “Bedil”* (1923), *“Aruz haqida”* (1935) risolalarini, *“Oʻzbek adabiyoti namunalari”* (1928) majmuasini, *“Adabiyot qoidalari”* (1926) darsligini yaratdi. Fitrat 1925-yilda *“Qutadgʻu bilig”*ning *Namangan nusxasini* topib ilm-fanga taqdim etdi va u haqda ilmiy tadqiqot ishini yozdi (*Oʻz ME, 9-jild, 262-265-betlar*).

## Fransiya

Fransiya Respublikasi – Gʻarbiy Yevropadagi davlat. Maydoni 547,03 ming km<sup>2</sup>, aholisi 60,424 mln. kishi (2004-yil). Poytaxti – Parij shahri. Maʼmuriy-hududiy jihatdan 22 region (viloyat), 96 departamentga boʻlingan. Davlat tuzumi – respublika. Davlat boshligʻi – prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyati – ikki palatali parlament (Milliy majlis va Senat). Ijrochi hokimiyatni prezident va Vazirlar Kengashi amalga oshiradi. Fransiyadagi eng baland choʻqqi 4807 metr (Monblan togʻida). Katta daryolari: Luara, Rona, Sena, Garonna. Aholisining 90 foizi fransuzlar, shuningdek, Fransiyada elzas, lotaring, katalon, breton, flamand va basklar yashaydi. Bundan tashqari, jazoirliklar, portugallar, italyanlar, ispanlar, armanlar va boshqa millatlar istiqomat qilishadi. Fransiyada 4 mln. musulmon bor.



Dindorlarining 90 foizi katolik, 5 foizi musulmon, 2 foizi protestant, 1 foizi yahudiy. Yirik shaharlari: Parij, Marsel, Lion, Tuluza, Nissa, Nant, Strasburg, Bordo, Monpele, Lill. Fransiya 1945-yildan BMT ning a'zosi. O'zbekiston bilan diplomatik munosabatlarni 1992-yilning 1-martidan o'rnatgan (*O'z ME, 9-jild, 313-bet*).

### VIII. Ish qog'ozi.

«Chilangar» firmasi  
2000. 15. 02. 5-sonli  
Toshkent sh.

#### **TA'MIRLASH ISHLARINI O'TKAZISH TO'G'RISIDA FARMOYISH**

3-tsex avariya holatiga tushganligi munosabati bilan  
BUYURAMAN:

1. 3-tsexda zudlik bilan ta'mirlash ishlari o'tkazilsin.

Mas'ul: Ta'mirlash-texnika bo'lim boshlig'i D.I.Mo'minov.

Bajarish muddati: 2000. 21. 02.

2. Ta'mirlash ishlarini nazorat qilish 3-tsex boshlig'i  
S.Turopovga topshirilsin.

Korxonada direktori (imzo) R.Shodmonov

Rozilik belgisi

(*M.Aminov va boshqalar. Ish yuritish. T., 2000, 107-bet*).

### IX. Grammatik terminlar.

1. **Fonetika** tilning tovush tizimi, nutq tovushlarining talaffuzi, eshitilish xususiyatlarini, bo'g'in, urg'u va ohang kabi masalalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi.

2. **Fe'l** shaxs yoki narsaning harakati va holatini bildirib, nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?, nima qilar? so'roqlariga javob bo'ladi. M.: *yurmoq, o'tirmoq, duduqlanmoq, fikrlamoq.*

3. **Frazeologizm** (ibora) ma'nosi bir so'zga teng keladigan bir necha ko'chma ma'noli so'zlar qo'shilmasidir. M.: og'zi qulog'ida, yaxshi ko'rmoq, boshga ko'tarmoq, kapalagi uchib ketdi.

**Tayanch iboralar:** *faylasuf, qomusiy olim, harbiy xizmatchi, tug'ilmoq, sharhlamoq, Sharq Arastusi, Arastu, Aflotun, Uqlidus (Yevklid), Batlimus (Ptolomey), falak.*

#### Asosiy so'zlar



- 118-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlang.  
 119-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.  
 120-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Ma’lumot-axborot hujjatlari

**I. Nutq tovushiga izoh:** “G” undoshi chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangli undosh hisoblanadi. O‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan.

#### To‘g‘ri talaffuz qiling!

- |                          |                    |                       |
|--------------------------|--------------------|-----------------------|
| 1) g‘ov - заграждение    | 2) g‘o‘r - зелёный | 3) o‘g‘it - удобрение |
| gov - большой, громадный | go‘r - могила      | o‘git - совет         |

#### Taqqoslang:

##### O‘zbekcha

bog‘ (сад)

tog‘da( в горах)

##### Ruscha

бог (худо)

тогда (u vaqtda)

#### Tez aytish

G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi.

#### Bo‘g‘inlarni to‘g‘ri o‘qing!

G‘a-la-ba, g‘a-zal, g‘al-la, g‘ij-jak, g‘o-lib, g‘al-tak.

### II. Zaruriy so‘zlarni ko‘chirib yozing va tarjima qiling:

G‘avvos, g‘ayrat, g‘aladon, g‘altak, g‘alvir, g‘am, g‘arb, g‘iybat, g‘azablanmoq, g‘ilof, g‘oz, g‘o‘za, g‘o‘la, g‘amlamoq, g‘uncha, g‘aroyib, g‘avg‘o, g‘adir-budir, g‘ajimoq, g‘azab, g‘azal, g‘ayir, g‘ayriixtiyoriy, g‘alaba, g‘alayo, g‘alamis, g‘alva, g‘alla, g‘aram, g‘irchillamoq, g‘aflat, g‘idi-bidi, g‘ijjak, g‘ijjimoq, g‘ildirak, g‘ingshimoq, g‘irrom, g‘isht, g‘olib, g‘oya, g‘uvullamoq, g‘ujanak, g‘ijinmoq, g‘ijirlamoq, g‘imirlamoq, g‘uldiramoq, g‘ururlanmoq.

### III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!

- |                            |                            |
|----------------------------|----------------------------|
| 1) g‘o‘zaning g‘unchasi;   | 4) g‘aladonda g‘amlamoq;   |
| 2) g‘allani g‘amlamoq;     | 5) g‘azab bilan g‘ijjimoq; |
| 3) g‘alabdan g‘ururlanmoq; | 6) g‘aroyib g‘aladon.      |

### IV. To‘rtliklarni yod oling.

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,  
 El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish,  
 Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bulbulg‘a tikandek oshyon bo‘lmas emish.

*(Navoiy)*

G‘unchaga gul bo‘lib ochilmoq uchun,  
Maktab yaratmabdi qodiri G‘affor.  
Senda-chi, gazet bor ham dorilfunun,  
Agar ochilmasang – o‘zingsan aybdor..

*(Abdulla Oripov)*

#### **V. Suhbat.**

- Hujjatchilik talablari nima?
- Maxsus qoidalariga rioya qilish.
- Ular nimaga asoslanadi?
- Imlo qoidalariga.

#### **IV. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.**

##### **Hujjatchilik talablari**

Hujjatlarning yozilishiga quyidagi talablar qo‘yiladi: 1) ish qog‘ozlari siyohli yoki boshqa ruchkada (qora yoxud ko‘k gunafsha rang bilan) yoziladi. Dalolatnoma, bayonnoma, hisobot kabi hujjatlar bosma shaklda tayyorlanadi; 2) hujjatlarda o‘chirish yoki tuzatishga yo‘l qo‘yilmaydi; 3) ish qog‘ozlarining har bir turi umumiy andoza asosida va muayyan izchillikda yoziladi; 4) hujjat matni qisqa, aniq va mantiqli bayon qilinishi kerak. Hujjat tili sodda va tushunarli bo‘lishi shart; 5) hujjatlarda faqat hamma qabul qilgan qisqartma so‘zlardan foydalaniladi; 6) ish qog‘ozlarida biror shaxsga murojaat etilgan “Siz” olmoshi (shuningdek uning turlanganshakllari – “Sizga”, “Sizning”, “Sizdan” va shu kabilar) bosh harf bilan yoziladi; 7) ish qog‘ozida son, odatda, raqam bilan yoziladi. Pul bilan bog‘liq hujjatlarda (dalolatnoma, ishonchnoma, tilxat, hisob-kitob arizasi) raqamdan so‘ng shu raqamning so‘zdagi ifodasi ko‘rsatiladi; 8) arab raqamlari bilan ifodalangan tartib sondan so‘ng **–inchi** qo‘shimchasi yozilmay, uning o‘rniga chiziqcha qo‘yiladi. M: 2-bo‘lim. Rim raqamlaridan so‘ng hech narsa qo‘yilmaydi. M: XXI asr; 9) turli belgi va son ifodalari bir xil shaklda yoziladi. M: №, % telegrammalarda bular so‘z bilan – raqamli, foiz kabi ifodalanadi; 10) ish qog‘ozlarida ularning imzolanishiga qat‘iy rioya etiladi: avval hujjatga imzo chekadigan mansabdor shaxs lavozimining nomi, so‘ng shaxsiy imzosiga joy tashlanib, keyin ismi-sharifi va familiyasi ko‘rsatiladi. Tavsifnoma, dalolatnoma kabi hujjatlarda, odatda, 3 shaxs imzo chekadi. Ishonchnomada uni beruvchining imzoidan tashqari ushbu imzoni tasdiqlovchi shaxs imzosi ham bo‘ladi; 11) hujjatlarda sanalarni qisqartirish o‘zbek tilining imlo qoidalar asosida amalga oshiriladi. M: 2001.04.09; 12) hujjatlar matni birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan bayon qilinadi. Ularda rasmiy uslub shakliga hamda xolislik mezoniga amal qilinadi. M: “...ga ruxsat berishingizni so‘raymiz”, “... deb hisoblaymiz”, “boshqarma so‘raydi” kabilar.

## Lug‘at

Hujjat–документ, yozmoq–писать, talab–требование, qo‘ymoq–ставить, siyoh–чернила, qora–чёрный, ko‘k–синий, gunafsha–фиолетовый, bosma–печатный, o‘chirmoq–стирать, tuzatmoq–исправлять, andoza–форма, matn–текст, murojaat etmoq–обращаться, bayon qilimoq–излагать, rasmiy–официальный, uslub–стиль, xolislik–бепристрастие, amal qilmoq–действовать.

## V. Mustaqil ta’lim uchun matnlar.

### Navro‘z

“Navro‘z” (forscha “yangi kun”), turkiylarda “Yil boshi” shamsiya(quyosh) taqvimi bo‘yicha yilning birinchi kunidir. O‘rta Osiyo va Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlarning qadimiy bayrami hisoblanadi. Quyoshning Hamal burjiga kirishi, ya’ni Bahor teng kunligiga to‘g‘ri keladi. Navro‘z dehqonchilik ishlarini boshlash bayrami sanaladi. Avval o‘troq xalqlar, keyinchalik ko‘chmanchi xalqlar bayram qilishgan. Navro‘zda ommaviy xalq sayllari uyushtirilgan, har xil o‘yinlar o‘tkazilgan, yangi ko‘katlardan tansiq taomlar pishirilgan. Bayramdan so‘ng ekish ishlari boshlangan. Asrlar o‘tishi bilan bayram o‘tkazish marosimlari xalqlarning turmush tarziga, mafkurasiga moslashgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Navro‘zni bayram qilish axmoniyalar davridan boshlangan bo‘lib, O‘rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston xalqlarining eng katta bayramlaridan biridir. Islom dini kirib kelgan paytlarda Navro‘z bayrami taqiqlangan. IX-X asrlardan yana nishonlana boshlagan. Firdavsiy qadimgi pahlaviy kitoblarga asoslanib Navro‘zning paydo bo‘lishini afsonaviy shoh Jamshidga bog‘laydi. Navro‘z haqidagi ma’lumotlar Beruniy, Umar Xayyom, Mahmud Koshg‘ariy, Narshaxiyning asarlarida uchraydi. Navro‘z bayrami kuni sumalak, ko‘k somsa, ko‘k chuchvara, yalpiz somsa kabi taomlar tayyorlanadi. Uloq, ko‘pkari, poyga, kurash kabi sport musobaqalari o‘tkazilgan. Sayillar tashkil etilib bahor haqida qo‘shiqlar kuylangan, raqslar ijro etilgan. Muhtojlarga sovg‘a-salom ulashish udumlari ham bor (*O‘zME, 6-jild, 2003-yil, 237-238-betlar*).

### G‘arbiy Osiyo

G‘arbiy Osiyo (Old Osiyo) – Kichik Osiyo, Armaniston, Eron tog‘liklari, Mesopotamiya, Arabiston yarim oroli va Levantni o‘z ichiga olgan tabiiy o‘lkalar guruhi. G‘arbiy Osiyoda Kavkaz va Kopetdog‘, Turkiyaning Osiyo qismi, Iroq, Eron, Afg‘oniston, Kipr, Livan, Suriya, Iordaniya, Isroil, Kuvayt, Misr Arab Respublikasining Osiyo qismi, Saudiya Arabistoni, Yaman Respublikasi, Qatar, Ummon, Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn joylashgan. G‘arbiy Osiyoning shimoliy hududlari (Old Osiyo tog‘liklari) O‘rta dengiz geosinklinal mintaqasining qismlaridan biri, baland chekka tizmalar – tog‘lik va o‘rta-yassi tog‘lik qismlardan iborat. Arabiston yarim oroli va Levant Gondvananing qadimgi platforma tuzilmalarida joylashgan. Mesopotamiya tekisliklari tog‘ oldi botig‘i o‘rnida shakllangan. G‘arbiy Osiyoda arid landshaftlar, cho‘l, chala cho‘l va quruq dashtlar,

berk havzali joylar bor. Asosiy qazilma boyligi neftdir (*O‘zME, 11-jild, 2005-yil, 223-bet*).

### G‘ozg‘on marmari

G‘ozg‘on marmari kalsit (85-90%), dolomit (10-15%) va kvars (2-3%) donachalaridan tarkib topgan. Muskovit, leykosen, pirit donachalari ham uchraydi. Rangi nafis, xilma xil: to‘q kulrang, tutunrang, qizg‘ish, och qizg‘ish, ko‘kimtir, ba‘zan oq. Ranglari bir tekisda bo‘lmay, ko‘pincha, taram-taram holda, biridan ikkinchisiga asta-sekin o‘tadi. Rasmlari turli-tuman, kalsiy donachalari juda mayda, qattiq, chidamli, yigirma yil xizmat qiladi. Muzlashga bardoshli, chinnisimon; nafis qizg‘ish rang, cho‘l va dengiz manzaralarini eslatadigan tabiiy turlari ayniqsa chiroyli. G‘ozg‘on marmari qadimdan ma‘lum bo‘lib, Samarqand va Buxorodagi masjid binolarini qurish hamda bezashda ishlatilgan. G‘ozg‘onning rangdor marmari Fransiyada o‘tkazilgan butundunyo ko‘rgazmasida birinchi o‘rinni olgan. Bu marmar dunyoning ko‘pgina mamlakatlariga eksport qilinmoqda (*O‘zME, 11-jild, 2005-yil, 237-bet*).

### O‘lchov birliklari

O‘lchov birliklari juda qadimdan qo‘llanib kelmoqda. Ulardan vaqt, uzunlik, miqdor va og‘irlik o‘lchovi bildiruvchi so‘zlar tilimizda faol ishlatilgan. Vaqt o‘lchov birligi sifatida quyidagi so‘zlar qo‘llangan: **soniya, daqiqa, soat, kun, hafta, oy, yil**. Bularning ba‘zilari o‘zlashma so‘zlar hisoblanadi. Turkiy so‘zlarning ayrimlari eskirgandan keyin mazkur so‘zlar tilimizga kirib kelgan. Otabobolarimiz uzunlik o‘lchovini ifodalashda quyidagi atamalardan foydalanishgan: **gaz** (arshin, taxminan 0,71 metr), **tanob** (taxminan 39,9 metr), **tosh** (6 km yoki 8000 qadam), **quloch** (taxminan 1 metr 80 sm), **qarich** (taxminan 23 sm), **qadam** (0,75 metr). Ajdodlarimiz miqdorni aniqlashda quyidagi o‘lchov birliklarini qo‘llashgan: **chimdini, qisim, hovuch, qoshiq, piyola, choynak, kosa, quti, qop**. Tilimizda og‘irlik o‘lchovini bildiruvchi **misqol** (taxm. 0,5 g), **paysa** (taxm. 50 g), **qadoq** (taxm. 400 g), **pud** (taxm. 16 kg), **botmon** (taxm. 10 pud, ya‘ni 163,805 kg) kabi so‘zlar ishlatilgan (*O‘zME, 10-jild, 506-bet*).

**Tayanch iboralar:** *ish qog‘ozlari, siyohli, qora, ko‘k gunafsha rang, dalolatnoma, bayonnoma, hisobot, hujjat, bosma shakl, tayyorlanmoq, o‘chirmoq, tuzatmoq, andoza, qisqa, aniq, mantiqli bayon qilmoq.*

### Asosiy so‘zlar



122-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

123-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

124-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Ishonchnoma. Tilxat. Tushuntirish xati

**I. Nutq tovushiga izoh:** “Ch” undoshi til oldi, portlovchi, jarangsiz, qorishiq tovush hisoblanadi.

#### Taqqoslang:

O'zbekcha	Ruscha
chakak	челюсть
chakalak	чащоба
chiziq	черта
chipqon	чирей
chualchang	червяк

#### Tez aytish

Chayqovchi chiqimni chamaladi.

#### Bo'g'inlarni to'g'ri o'qing!

Che-ga-ra, chi-roy-li, cha-qa-loq, char-cha-moq, chi-qim, chaq-moq.

### II. Zaruriy so'zlarni ko'chirib yozing va tarjima qiling:

Chavandoz, chayon, chaynamoq, chayqovchi, chala, chamalamoq, chang, chanqamoq, chang'i, chapak, charm, chaqaloq, chiqish, chaqmoq, chevar, chegara, chekmoq, chelak, chigit, chidamoq, chigirtka, chizmoq, chiroyli, chiqmoq, chopmoq, cho'l, chaymoq, chalmoq, chalg'imoq, changimoq, charaqlamoq, charchamoq, chatishtirmoq, chaqirmoq, chaqnamoq, chegaralamoq, chekinmoq, cheklamoq, chertmoq, chetlamoq, chetlatilmoq, chigallashmoq, chiyillamoq, chimchilamoq, chiniqmoq, chinqirmoq, chirillamoq, chirimoq, chiqillamoq, choklamoq, chog'ishtirmoq, chog'lamoq, chuvalamoq, chuqurlashmoq, cho'zmoq, cho'kmoq, cho'llamoq, cho'loqlanmoq, cho'milmoq, cho'chimoq, cho'qimoq.

### III. So'z birikmalari tuzishni o'rganing!

- |                                 |                                      |
|---------------------------------|--------------------------------------|
| 1) cho' <b>lning</b> chegarasi; | 4) chegarad <b>an</b> chiqmoq;       |
| 2) chizma <b>ni</b> chizmoq;    | 5) chaqaloq <b>bilan</b> chalg'imoq; |
| 3) chaylaga chopmoq;            | 6) chiroyli chang'i.                 |

### IV. To'rtliklarni yod oling.

Chin do'st ul – do'stligi oshaversa gar,  
Do'stidan yomonlik ko'rganida ham.  
Boshiga ming jaf osh toshi yog'ilsa,  
Mehr uyi toshdan bo'lur mustahkam.

(Jomiy)

Cho‘qqidan bir kichik tosh yumalasa,  
Tog‘ni qulatgudek suron qiladi.  
Ko‘zingdan bir tomchi yosh yumalasa,  
Tog‘day yuragimni vayron qiladi.

(E. Vohidov)

## V. Suhbat.

- Choqqiga chiqasizmi?
- Ha, chiqaman.
- Charchab qolmaysizmi.
- Yo‘q.

## VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

### Ishonch yorlig‘i

Ishonch yorlig‘i – biror shaxsning muayyan mamlakatda elchi yoki diplomatik vakil sifatida tayinlanganini tasdiqlovchi rasmiy xat shaklidagi maxsus hujjat. Ishonch yorlig‘i xorijiy davlat boshlig‘i nomidan uni qabul qiluvchi davlat boshlig‘iga yo‘llanadi. Ishonch yorlig‘ida mazkur shaxsga davlat manfaatlarini ifodalash topshirilganligi, uning so‘zlari va harakatlariga ishonish lozimligi ta‘kidlanadi. Davlat boshlig‘i tomonidan ishonch yorlig‘ining qabul qilinishi tayinlangan va yetib kelgan xorijiy mamlakat elchisi yoki xalqaro tashkilot yoxud diplomatik vakilning mazkur davlatda akkreditatsiya qilinganligini bildiradi. Ya‘ni o‘sha shaxs shu ondan o‘z vazifasini bajarishga rasman kirishganligini tasdiqlaydi. Diplomantik vakillarning vazifasi tugaganligi davlat boshlig‘iga chaqiruv yorlig‘ini taqdim etgach ayon bo‘ladi. Shu asnoda o‘sha shaxsning rasmiy faoliyati to‘xtatilganligi qayd etiladi va o‘z vataniga qaytib ketadi. Ayrim hollarda elchi yoki vakilga bir necha muddat ishlashi uchun ishonch yorlig‘i taqdim etilishi mumkin (*O‘z ME, 4-jild, 2002-yil, 321-bet*).

### Lug‘at

Ishonch yorlig‘i – верительная грамота, shaxs – лицо, muayyan – определённый, mamlakat – страна, elchi – посол, vakil – представитель, tasdiqlamoq – утверждать, rasmiy – официальный, maxsus – специальный, davlat – государство, davlat manfaati – государственный благо, topshiriq – поручение, qabul qilmoq – принимать, tasdiqlamoq – утверждать, chaqirmoq – созывать, qayd etmoq – отмечать, to‘xtatilmog – прекращать.

## VII. Mustaqil ta‘lim uchun matnlar.

### Ozodlikka ishonch tuyg‘usi

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon 1897-yilda *Andijonda bazzoz* oilasida tug‘ilgan. Abdulhamid avval maktabda, keyin Andijon va Toshkent madrasalarida tahsil oldi. Jadidlar *Qo‘qon muxtoriyatini* e‘lon qilishdi. Muxtoriyat

*madhiyasini* Cho‘lpon yozib berdi. 1918-yilning fevralida muxtoriyat bostirildi. Cho‘lpon quvg‘inga uchrab, Orenburgga ketdi. U yerda Boshqidiston hukumati raisining kotibi bo‘lib ishladi. Toshkentga kelib, 1919-yilning kuzida “Yangi Sharq” gazetasi tahririyatiga ishga kirdi. Buxoro Xalq Respublikasi tashkil etilgach, Fitratning taklifi bilan Buxoroga bordi. 1921-1922-yillarda Cho‘lpon “Axbori Buxoro” gazetasiga muharrirlik qildi. Ammo yana quvg‘in boshlandi va Cho‘lpon Toshkentga keldi. Cho‘lpon “Inqilob” jurnaliga ishga kirdi. 1923-yilda Andijonda “Darxon” gazetasini tashkil etdi. Cho‘lpon ham u yerda ishlay boshladi. Cho‘lpon 1924-yilda “Darxon” gazetasi tugatilib, Cho‘lpon Toshkentga qaytib keldi. Milliy teatr tashkilotchilaridan 24 nafar o‘g‘il-qiz Moskvaga jo‘natildi. Cho‘lpon ham ular bilan birga ketdi. U Moskvadagi o‘zbek dramstudiyasida tarjimon va dramaturg bo‘lib ishladi va Bryusov nomli institutda tahsil oldi. 30-yillarda Cho‘lponga qarshi maqolalar chiqa boshladi. Cho‘lpon 1932-yilda Moskvaga ko‘chib ketdi. 1935-yilda Toshkentga qaytib Hamza teatrida emakdosh (maslahatchi) bo‘lib ishladi. Cho‘lpon 20-yillarda ham she‘riy, ham nasriy sohada samarali ijod qildi. U “*Buloqlar*” (1922), “*Uyg‘onish*” (1923), “*Tong sirlari*” (1926), “*Soz*” she‘riy to‘plamlarini nashr ettirdi. “*Oydin kechalar*”, “*Qor qo‘ynida lola*”, “*Novvoy qiz*”, “*Oq podshoning in‘omi*” kabi o‘nga yaqin hikoyalarini ham yozdi. Cho‘lpon “*Yorqinoy*”, “*Mushtumzo‘r*”, “*O‘rtoq Qarishboyev*”, “*Hujum*” (Yan bilan hamkorlikda), “*Hijrat*” (sahnaga qo‘yilmay qolgan) kabi sahna asarlarini yozdi. Shekspirning “*Hamlet*”, Pushkinning “*Boris Godunov*”, “*Dubrovskiy*”, Gogolning “*Tergovchi*”, Frankoning “*Feruz*”, Gorkiyning “*Ona*”, Andreyevning “*Osilgan yetti kishining hikoyasi*” va boshqa asarlarni tarjima qildi. Cho‘lpon 30-yillarda “*Kecha va kunduz*” dialogiya (ikkinchi qismi yo‘qolgan) sini yozdi. Cho‘lpon 1937-yilda qamoqqa olinib, 1938-yilning 4-oktyabrida otib tashlandi (*O‘zME*, 9-jild, 668-670-betlar).

### **Chinakam cho‘qqi**

Yer yuzidagi eng baland cho‘qqi *Jomolungma* bo‘lib, Himolay tog‘laridadir. Ushbu cho‘qqi Nepal bilan Xitoy davlatlari chegarasida joylashgan. Mazkur cho‘qqi qisman *Sagarmatxa* (Nepal) milliy bog‘i tarkibidan o‘rin olgani uchun shu nom bilan ham atashadi. Inglizlar o‘zlaricha cho‘qqiga 1855-yilda bosqinchi general *Jorj Everest* nomini berishgan. Jomolungma cho‘qqisining balandligi 8848 metrdir. Jomolungma tarkibi kembriygacha vujudga kelgan gneys va granitlardan, 7000 metrdan yuqori qismi mezozoyning kristalli ohaktosh va slaneslaridan tarkib topgan. Shakli piramidasimon bo‘lib, tog‘ tepasidan atrofga 5000 mert balandlikkacha muzlar oqib tushgan. Janubiy yon bag‘ri tik bo‘lgani uchun bu yerda qor turmaydi. Jomolungma cho‘qqisiga 1953-yilning 29-mayida J. Xant boshliq ingliz ekspeditsiyasining a‘zolari nepallik Tensing, yangi zelandiyalik E. Xillarilar chiqishdi. Ayollardan birinchi bo‘lib yaponiyalik alpinist Y. Tabey 1976-yilda chiqqan. 1998-yilda o‘zbekistonlik alpinistlar ham Jomolungma cho‘qqisini zabt etdilar. Dunyoda Jomolungmadan pastroq, ammo baland cho‘qqilar ko‘p. Jumladan, Pokistonning shimolida joylashgan Hindikush tog‘ tizmasidagi



*Tirichmar* cho‘qqi 7690 metr, Tyanshan tog‘idagi *G‘alaba* cho‘qqisi 7439 metr, *Xontangri* cho‘qqi 6995 metrni tashkil etadi. (*O‘zME*, 3-jild, 2002-yil, 622-bet).

### **Charxiy**

Taniqli shoir Asqarali Hamroaliev Charxiy 1900-yilning 23-fevralida Qo‘qonda tug‘ilgan. Avval mahalliy maktabda, so‘ng Qo‘qondagi madrasada o‘qigan. O‘qishni tamomlagandan keyin Qo‘qondagi to‘quvchilik korxonasi ishlagan. 16 yoshidan she‘r yozib tanilgan. 1939-yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik guruhida xattot bo‘lib ishlagan. 1941-yildan Qo‘qondagi Muqimiy uy-muzeyida ilmiy xodim, 1942-1947-yillarda Qo‘qon shahar teatrida emakdosh, 1950-1979-yillarda Farg‘ona viloyat adabiyot muzeyida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan. Charxiy Sharq mumtoz she‘riyatidan ilhom olgan. Sulaymonqul Rojiy, Mirza Ho‘qandiylardan aruz ilmini o‘rgangan. 1916-yildan g‘azal yoza boshlagan. Ilk she‘rlari «Yangi Farg‘ona» gazetasi, «Mushtum» jurnalida bosilgan. Shoir ijodi asosini g‘azal, muxammas va masnaviylar tashkil qiladi. Charxiyning «Shirin va achchiq» (1959), «She‘rlar» (1966), «Alixo‘ja-Xo‘jaali» (1970), «Devon» (1972), «Beshigingda yotmayman» (1975) she‘riy to‘plamlari nashr etilgan. Charxiy 1979-yilning 18-dekabrda vafot etgan. Shoirning ko‘plab she‘rlari hozir ham qo‘shiq bo‘lib kuylanmoqda (*O‘z ME*, 9-jild, 575-bet).

### **Charxiy**

Taniqli shoir, tarjimon Chustiy (Nabixon Xo‘jaev) 1904-yilning 20-fevralida Chust shahrida tug‘ilgan. Avval Chust va Qo‘qondagi mahalliy maktabda o‘qigan. Keyin madrasada tahsil olgan. Alisher Navoiy tavalludining 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik munosabati bilan Toshkentga ishga chaqirilgan. 1939-yildan Muqimiy teatrida emakdosh, 1941-yildan teatr direktori, 1942-yildan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot fondi direktori, 1959-yildan Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan. Chustiy shoir sifatida mumtoz she‘riyatimizga xos g‘azal, muxammas, musaddas, murabba‘, ruboiy, tuyuq, masnaviy janrlarida ijod qilgan. Uning «Gul mavsumi» (1969), «G‘azallar» (1977) she‘riy to‘plamlari, «Hayotnoma» (1988), «Sadoqat gullari» (1992), «Ko‘ngil tilagi» (1994), «Ko‘rishguncha xayr endi» (2004) devonlari nashr etilgan. Chustiy bir necha dostonlar, dramalar ham yozgan. Chustiy Sa‘diy, Hofiz, Xusrav Dehlaviy, Sobir Termiziy, Mirzoda Ishqiy va boshqa shoirlarning asarlarini forschadan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Chustiy «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati» (4 jildlik) ni tuzishda qatnashgan. Chustiy 1983-yilning 13-avgustida vafot etgan (*O‘z ME*, 9-jild, 663-bet).

## **VIII. Grammatik terminlar.**

**1. Cho‘ziq unli** nisbatan davomli talaffuz etiladigan unlidir. Bunday tovushlar shevalarimizda uchraydi. M.: *at* (yilqi), *a:t* (ism), *bar* (ishga bor), *ba:r* (menda bor).

**2. Chog‘ishtiruv bog‘lovchilari** ergash gapni bosh gapga qiyoslash mazmuni asosida bog‘laydi. Bular: *go‘yo*, *go‘yoki*.

3. **Chama son** noaniq miqdorni bildiradi. M.: *mingtacha odam, yuzlab kishilar, o‘nlarcha xodim, soat o‘n birlar, besh-o‘n kun, o‘n-o‘n besh talaba.*

4. **Chegara shakli** otning, harakat-hodisaning vaqt yoki masofa nuqtai nazaridan chegarasini bildirib –**gacha** qo‘shimchasi bilan hosil qilinadi. M.: *shahargacha, bahorgacha, tizzasigacha.*

5. **Chiqish kelishigining** qo‘shimchasi -dan. Bu kelishik qo‘shimchasi otni, olmoshni, otlashgan so‘zni fe’lga bog‘laydi. Mazkur kelishikdagi so‘zlar kimdan? nimadan? qaerdan? qachondan? qay holatda? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

#### Tayyor qoliplar

Men	{ uydan tog‘dan qishloqdan Toshkentdan Evropadan }	keldim
U	{ uydagilardan qo‘shnilardan do‘stlardan tanishlardan jangchilardan }	sovg‘a oldi
Men	{ asaldan novvotdan qanddan murabbodan shakardan }	choyga soldim

Gapda vositali to‘ldiruvchi, o‘rin holi, payt holi vazifalarini bajaradi. Masalan:

1. Xatni *Karimdan* berib yubor.
2. Bu xabarni *kitobdan* o‘qidim.
3. Uchinchi reys bilan *Moskvadan* uchib keldi.
4. Sovuq shamol *kuzdan* boshlanadi.
5. *Yaxshidan* bog‘ qoladi.
6. Bu *undan* ham yaxshi.
7. Uni chin *yurakdan* tabrikladi.

#### V. Ish qog‘ozi.

##### Ishonchnoma

Men, Sobir Karimqulov, kursdoshim Mahkam Shodievga shaharning 3-aloqa bo‘limidan mening nomimga kelgan 100000 (yuz ming) so‘m miqdoridagi pul jo‘natmasini olish uchun ishonch bildiraman.


2000-yilning 20-mayi (imzo)

S. Karimqulov

S. Karimqulov imzosini tasdiqlayman.

Institut kadrlar bo'limining  
boshlig'i (imzo) O. Mo'minova  
(muhr)  
2000-yilning 21-mayi  
(M. Aminov va boshqalar. *Ish yuritish. T., 2000, 215-bet*).

### Asosiy so'zlar



**Tayanch iboralar:** *ishonch yorlig'i, shaxs, mamlakat, elchi, vakil tasdiqlamoq, rasmiy, hujjat, qabul qilmoq, yo'llamoq, davlat manfaati, topshiriq, ta'kidlamoq, ayon bo'lmoq.*

125-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlang.

126-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

127-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Dalolatnoma. Ma'lumotnoma

#### I. To'rtlik va she'rni yod oling.

**Dushmanga** ko'rsatmagil **do'stlikni**, hargiz

Adovat tig'idan tilinmasin do'sting,

**Adovat** ko'rsatma do'stlarga aslo,

**Alamidan** dushman bo'lmasin do'sting.

(Jomiy)

Donishmand dediki,

Osonni kutma,

Imkondan ortiq bir imkonni kutma.

Daryodan daryoni talab aylagil

Va lekin hech qachon ummonni kutma.

(Abdulla Oripov)

#### II. Suhbat.

– Do'stlikning qadrli xislati.

– Sodiqlik.

– Yoqimsizi?.

– Yolg'onchilik.

#### III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

### **Do‘stga sadoqat**

Ulug‘ shoir Alisher Navoiyning o‘zidan kattaroq Pahlavon Muhammad degan do‘sti bor edi. Ikkalasi sirdosh va qadrdon bo‘lgani uchun juda yaxshi ko‘rar edi. Kunlardan bir kuni Pahlavon Muhammad kichik bir gunohi sababli shirakayf shoh Husayn Boyqaroning g‘azabiga uchradi. Husayn Boyqaro mastlikda Pahlavon Muhammadning soqol-mo‘ylovini qirib tashlanglar, so‘ng kaltadum libos kiydirib, ko‘cha-kuyda sazoyi qilinglar, deb farmon berdi. Bu podsholik uchun katta falokat edi. Chunki Pahlavon Muhammad butun saltanatdagi pahlavonlarning ustozlari edi. Agar Pahlavon Muhammad sazoyi qilinsa, Hirotda katta qo‘zg‘olon bo‘lishi va saltanat qo‘ldan ketishi mumkin edi. Bu sovuq xabarni bosh vazir Alisher Navoiyga etkazishdi. Navoiy falokatning oldini olish uchun tezlikda Husayn Boyqaro huzuriga yetib bordi. Navoiy shohga “*Sultonim, sizga ayonki, men Pahlavon Muhammad bilan ilgari do‘stman. Shu bois bir xil kiyinamiz, soqol-mo‘ylovimizni ham bir xil o‘stiramiz. U boshqa, men o‘zgacha kiyinib yursak o‘rtadagi ahdimiz buzulib, o‘zimiz subutsiz bo‘lib qolamiz. Buyuringiz, mening ham soqol-mo‘ylovimni qirsinlar va Pahlavon Muhammadga berilgan kalta libosni kiydirib, do‘stim bilan birga shahar aylantirsinlar*”, dedi. Navoiyning do‘stlari va saltanatga sadoqatini ko‘rgan Husayn Boyqaro Pahlavon Muhammadning gunohidan o‘tdi va jazo qoldirildi (*Malik Murodov, Muharrama Shayxova. Asotirlar va rivoyatlar. T.: “Yosh gvardiya”, 1990-yil, 63-64-betlar*).

### **Lug‘at**

Ulug‘-великий, sirdosh-единомышленник, qadrdon-дорогой, bir-один, kun-день, kichik-небольшой, gunoh-преступление, shirakayf-подвыпивший, shoh-царь, g‘azab-ярость, uchramoq-попадаться, mastlik-опьянение, soqol-борода, mo‘ylov-усы, qirmoq-бриться, kaltadum-куций, libos-одежда, kiydirmoq-одевать, sazoyi qilmoq-предавать позору, farmon-указ, falokat-беда, qo‘zg‘olon-восстание, saltanat-власть, sovuq xabar-неприятная весть, ahdugovor, subutsiz-неустойчивый, sadoqat-верность, gunoh-грех, jazo-наказание, qoldirmoq-оставлять.

## **IV. Mustaqil ta‘lim uchun matnlar.**

### **Do‘stlik**

Do‘stlik – inoqlik, ahillik munosabatlari bilan bog‘langan xususiyat. Bu xislatni qadrlagan, totuvlikning qadriga yetgan kishilarning hayoti mazmunli bo‘ladi.

### **Dehlaviy**

Yaminiddin Abdulhasan Xusrav Dehlaviy 1253-yilda Patyolida tug‘ilgan. Uning otalari asli shahrisabzlik bo‘lishgan. Mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng Hindistonga ketishgan. Dehlaviyni bobosi tarbiya qilgan. Dehlaviy fors tilida ijod qilgan. Uning shoir bo‘lishida onasining xizmati katta. Dehlaviyning ustozlari shoir Xoja Aziziddindir. Dehlaviy o‘sha zamonning barcha fanlari bo‘yicha chuqur bilim

oladi. Turkiy, forsiy, arab va hind tillarini o'rganadi. Dehlaviy shoir, olim va bastakor bo'lib yetishadi. Uni saroyga chaqirishadi. Dehlaviy uch sulolaga mansub yetti sulton saroyida xizmat qiladi. U umrining oxirida saroydan ketib, tariqat yo'liga kiradi. Dehlaviy 1327-yilning 27-sentyabrida Dehlida vafot etgan. U dastlab «Sultoniy» taxallusi bilan she'rlar yozgan. Dehlaviy forsiy she'riyatni yangi bosqichga olib chiqdi. Uning ijodiy merosi 500 ming baytga yaqindir. Dehlaviy turkiy, arab, urdu va hind tillarida ham asarlar yozgan. Uning beshta she'riy devoni bor: «Tuhfat us-sig'ar» («Yoshlik tuhfasi», 1227), «Vasat ul-hayot» («Umr o'rtasi», 1284), «G'urra ul-kamol» («Kamolot ibtidosi», 1293), «Baqiyai naqiya» («Saralarning sarasi», 1316), «Nihoyat ul-kamol» («Kamolot nihoyasi», 1325), Dehlaviy ikkinchi bo'lib «Xamsa» yozdi. Bundan tashqari «Qiron us-sa'dayn» («Ikki saodatli sayyoraning uchrashuvi», 1289), «Miftoh ul-futuh» («G'alabalar kaliti», 1291), «Duvalroniy va Xizraxon» (1316), «No'h sipehr» («To'qqiz falak», 1318), «To'g'luqnoma» dostonlarini ham yozgan (*O'zME, 9-jild, 520-521-betlar*).

### **Daniya**

Daniya qirolligi – Yevropaning shimoli-g'arbidagi davlat, Yutlandiya yarim orolining katta qismini va unga yaqin orollar guruhi (Zelandiya, Fyun, Lollann, Falster va boshqalar) ni o'z ichiga oladi. Maydoni 43043 km<sup>2</sup> (ichki muxtoriyat asosida Daniya qirolligi tarkibiga kiruvchi Farer orollari hamda Grenlandiya orolidan tashqari), aholisi 5,33 mln. kishi (2000-yil). Poytaxti – Kopengagen shahri. Ma'muriy-hududiy jihatdan 14 amt (viloyat) ga bo'lingan. Ular o'z ichida kommunalarga ajralgan. Davlat tuzumi – konstitutsiyali monarxiya. Davlat boshlig'i – qirol (qirolicha). Qonun chiqaruvchi hokimiyatni qirol bilan folketing (bir palatali parlament) amalga oshiradi. Ijroiya hokimiyatni qirol bajaradi. Daryolarining kattasi Gudeno. Yirik qo'riqxonalar: Xesselyo, Vorse. Aholisining 98 foizi danlar, shuningdek, nemislar va frizlar bor. Dindorlarining 91 foizi – lyuteranlar. Yirik shaharlari: Kopengagen, Orxus, Odense, Olborg. Daniya 1945-yildan BMT ning a'zosi. O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarini 1992-yilning 25-yanvarida o'rnatgan (*O'z ME, 3-jild, 189-bet*).

### **Daromad deklaratsiyasi**

Daromad deklaratsiyasi – moliya yoki kalendar yilida fuqarolar (jismoniy shaxslar) tomonidan soliqqa tortiladigan jami daromadlari ko'rsatilgan va davlat organlariga taqdim etiladigan xabarnoma. Jahondagi barcha rivojlangan mamlakatlarda mulk deklaratsiyasi bilan bir qatorda joriy qilingan. O'zbekistonda «O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida» gi (1991-yil 15-fevral) qonunga ko'ra, o'zining asosiy ish joyidan chetda daromad topgan jismoniy shaxs daromad deklaratsiyasini hisobot yilidan keyingi yilning 1-aprelidan kechiktirmay o'zining istiqomat joyidagi soliq idorasiga taqdim etishi shart. Tamom bo'lgan kalendar yilida faqat asosiy (xizmat, o'qish) joyida mehnat vazifalarini bajarishdan daromad olgan jismoniy shaxslar shu yil uchun olingan daromadlari haqida daromad deklaratsiyasi taqdim etmaydilar. Muddatida taqdim qilinmagan daromad

deklaratsiyasi uchun yoki noto'g'ri ma'lumotlar berilib, daromadlar yashirilganda, fuqarolar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar (*O'z ME, 3-jild, 207-bet*).

### **Dam olish**

Yoz fasli Vatanimizda iyun oyidan boshlanadi. Yoz boshlanishi bilan ko'pchilik kishilar chet ellardagi yoki respublikamizdagi dam olish maskanlariga yo'l oladilar. Respublikamizdagi dam olish maskanlari tog'li hududlarda joylashgan. Eng yaxshi dam olish uylari Jizzax, Toshkent, Farg'ona, Sirdaryo, Qashqadaryo viloyatlaridadir. Boshqa viloyatlarda ham dam olishbop tog'li joylar ko'p, lekin u yerlarda hali yetarli sharoit yaratilmagan. Dam olishni yaxshi uyushtirish uchun vaqtni to'g'ri taqsimlash kerak. Toza havoda sayr qilish, toqqa chiqish, ovqatlanish, cho'milish va uxlashni o'z vaqtida tashkil qilish lozim. Suvda suzish muskullarni mustahkamlaydi, ammo cho'milganda suvda 10-15 minutdan ortiq turmaslik kerak. Quyosh nuri tana uchun juda foydali. Biroq cho'milgach, quyosh nurida uzoq yotish zararli. Umuman, yozgi dam olish inson uchun zarur.

### **V. Ish qog'ozi.**

#### **TASDIQLAYMAN**

«Sharq guli» mas'uliyati cheklangan  
jamiyat boshqaruvining raisi

(imzo) S.G'aniyev

1999-yilning 9-fevrali

«Sharq guli» mas'uliyati

cheklangan jamiyat kassasida o'tkazilgan taftish

#### **DALOLATNOMASI**

1999-yilning 8-fevrali Toshkent shahri

Raisi – jamiyat bosh hisobchisining o'rinbosari Erkinoy Rahimovna Olimova, a'zolari – rejalash bo'limining iqtisodchisi Naima Ikromovna Karimova va hisobchi Oysha Nu'monovna Po'latovalardan iborat jihozlarni yo'qlama qilish komissiyasi jamiyat boshqaruvi raisining 1999-yilning 7-fevralidagi 19-raqamli buyrug'iga muvofiq «Sharq guli» mas'uliyati cheklangan jamiyat kassasida 1999-yilning 8-fevralidagi holat asosida taftish o'tkazdi. Taftish jamiyat kassiri Narimon Ubaydullaev ishtirokida o'tkazildi.

Taftish o'tkazish natijasida:

1) kassadagi naqd pul qoldig'i 184 so'm ekanligi;

2) kassa daftari bo'yicha pul qoldig'i 184 so'm ekanligi aniqlandi.

Jamiyat kassasida boshqa qimmatdor buyumlar topilmadi, bu hol hisob ma'lumotlariga mos keladi.

Kassa daftarini yuritish va pullarini saqlash tartibi «Davlat, kooperativ va jamoat korxonalari, tashkilotlari va muassasalari tomonidan kassa ishlarini yuritish haqida nizom» talablariga mos keladi.

Komissiya raisi: (imzo) E.R.Olimova

Komissiya a'zolari: (imzo) N.I.Karimova  
(imzo) O.N.Po'latova  
Kassir (imzo) N.Ubaydullaev  
(M. Aminov va boshqalar. *Ish yuritish. T., 2000, 195-196-betlar*)

### Asosiy so'zlar



**Tayanch iboralar:** *ulug' shoir, Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad, do'st, sirdosh, qadrdon, kichik gunoh, shirakayf, shoh Husayn Boyqaro, g'azab, mastlik, soqol-mo'ylov, kaltadum, libos, sazoyi, farmon, falokat, pahlavon, ustoz, qo'zg'olon, sovuq xabar, bosh vazir, sadoqat, gunohidan o'tmoq, jazo qoldirmoq.*

128-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlang.

129-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

130-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Majlis bayoni. Hisobot

**I. Nutq tovushiga izoh:** "B" undoshi lab-lab, portlovchi, jarangli tovush hisoblanadi.

#### Og'zaki nutqda

kitop  
maktab  
javop

#### Imlo qoidasiga ko'ra

kitob  
maktab  
javob

#### Tez aytish

Bobo baliq bozoriga bordi.

#### Bo'g'inlarni to'g'ri o'qing!

Bor-moq, ba-hor, ba-ho, bo-zor, bo-bo, bu-vi, bo-la, bu-gun.

### II. Zaruriy so'zlarni ko'chirib yozing va tarjima qiling:

Badiiy, bajarmoq, bayram, baland, band, barg, barmoq, baqirmoq, baho, baholamoq, begona, bermoq, badan, bayonot, baliq, balki, balli, baxt, bahor, bahs, bezovta, bekat, bilmoq, billur, bitirmoq, bobo, bozor, boy, bola, bor, bosim, bosmoq, botir, bosh, bog'lamoq, buvi, bugun, buzmoq, buyrak, burmoq, bug', bo'yin, bo'sh, bastalamoq, baqraymoq, bag'ishlamoq, bahslashmoq, bezamoq, bezdirmoq, bezmoq, bezovtalanmoq, bekinmoq, belamoq, belgilamoq, betlamoq, bidirlamoq, bilinmoq, birikmoq, birlashmoq, birodarlashmoq, bitishmoq, bitmoq, botmoq, boyitmoq, bolalamoq, boltalamoq, boplamoq, bormoq.

### Paronimlarni farqlang:

*Barmoq* (палец) – *bormoq* (идти), *biyron* (отточенный) – *biyon* (какой-то), *birov* (кто-то) – *burov* (закрутка), *bob* (глава) – *bor* (подходящий), *borliq* (вселенная, существование) – *borlik* (богатство), *burj* (гороскоп, зодиак) – *burch* (долг).

### III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!

- |                        |                          |
|------------------------|--------------------------|
| 1) boboning barmog‘i;  | 4) bekatda bahslashmoq;  |
| 2) bayonotni bajarmoq; | 5) bahs bilan baholamoq; |
| 3) bozorga bormoq;     | 6) bahorgi bayram.       |

### I. To‘rtliklarni yod oling.

Biliklik keraklik so‘zin **so‘zlayur**,  
Keraksiz so‘zin ko‘mub **kezlayur**.  
Biliksiz ne aytsa, ayur uqmayin,  
Aning o‘z tili o‘z boshini **yeyur**.

(*Ahmad Yugnakiy*)

Baxmal bo‘lagiga munchoq **qadalgan**,  
Bir oltin beshikda o‘sgan o‘zbekmiz,  
Bir paytlar Jayxun va Sayxun **atalgan**,  
Ikki qosh ostida bir juft ko‘zdekmiz...

(*Muhammad Yusuf*)

### II. Suhbat.

- Bayonnoma nima?
- Rasmiy hujjat.
- Hisobot-chi?
- Yakuniy m‘lumot beriladi.

### III. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.

#### Bayonnoma va hisobot haqida

**Bayonnoma** turli yig‘ilish, anjumanlarning borishini, qatnashchilarning chiqishlarini hamda qabul qilingan qarorlarni siqiq holda qayd qilgan rasmiy hujjatdir. Bayonnoma doimiy kotib yoki saylangan kotib tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi. Bayonnomada o‘z aksini topgan axborotlarning aniqligi uchun butun mas‘uliyat va javobgarlik majlis raisi va kotibi zimmasiga yuklatiladi. Bayonnoma yozib olinishiga ko‘ra quyidagicha tasnif qilinadi: **Qisqa bayonnomada** faqatgina kun tartibi, ma‘ruzachi va muzokarada qatnashuvchilar familiyasi va qabul qilingan qaror ko‘rsatiladi. **To‘liq bayonnomada** ma‘ruzalar mazmuni batafsil bayon qilinadi. Bunday bayon faqat yig‘ilish xususida emas, balki o‘sha jamoaning faoliyati to‘g‘risida ham fikr yuritish imkoniyatini beradi.



**Stenografik bayonnomada** yig‘ilishning butun mazmuni stenograflar tomonidan to‘liq yozib olinadi. Stenogramma rais va kotib tomonidan qayta tuzilib imzolanadi. Matn asosiy bayonnomaga ilova qilinadi. **Fonografik bayonnomada** yig‘ilish butun mazmuni magnitofon yordamida yozib olinadi. Bayonnomaga qayta tuzilib rais va kotib tomonidan imzolanadi. Matn yozilgan lenta asosiy bayonnomaga ilova qilinadi. Zaruriyat bo‘lgan paytda bayonnomadan ko‘chirmalar olinib rasmiylashtiriladi. Imzolar ham kadrlar bo‘limi boshlig‘i tomonidan muhr bilan tasdiqlanadi. **Hisobotda** muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma‘lumot beriladi. Hisobotda keltirilgan ma‘lumotlar aniq, ishonarli bo‘lishi kerak. Hisobotda quyidagilarga e‘tibor beriladi: nima mo‘ljallangan yoki topshirilgan edi, u qanday bajarildi, nimalarga e‘tibor berildi, qanday yetishmovchiliklar bo‘ldi, ularni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerak. Hisobot oxirida muayyan topshiriq bajarilmagan bo‘lsa, uning sababi ko‘rsatiladi, bu borada barcha takliflar qayd etiladi. Rejalashtirilgan ish haqidagi hisobotlar amalda keng qo‘llanadi.

### Lug‘at

Bayonnomma-протокол, yig‘ilish-собрание, anjuman-форум, конференция; doimiy kotib-постоянный секретарь, saylangan kotib-избранные секретарь, rasmiy hujjat-официальный, qisqa-краткий, qaror-решение, ko‘rsatmoq-показывать, предьявлять; to‘liq-полный, rais-председатель, zaruriyat-необходимость, imzolanmoq-подписывать, kotib-секретарь, rasmiylashtirmoq-оформляться, hisobot-отчёт, ilova qilinmoq-прилагать, muhr-печать, kadrlar bo‘limi-отдел кадров, boshliq-начальник, rejalashtirmoq-планировать, topshiriq-задание, bajarimoq-выполнять, amaliy-практический, dolzarb-разгар, xizmat-служба, заслуга; ilmiy-научный, safar-поездка, ma‘lumot bermoq-извещать, ishonarli-надёжный, mo‘ljallanmoq-намечаться, topshirmoq-задание, qayd etmoq-отмечать, qo‘llanamoq-поддерживать.

## IV. Mustaqil ta‘lim uchun matnlar.

### Bosh mezon

O‘zbek xalqi dunyo xalqlaridan o‘zining mehnatkashligi hamda mehmondo‘stligi bilan ajralib turadi. Buni xalqimizning yashash tarzi va ro‘zg‘or tutish an‘analarida ham ko‘rish mumkin. O‘zbeklar ko‘proq mahalla shaklida yashaganlari uchun tozalik va sarishtalikka alohida e‘tibor berishgan. Sarishta inson avvalo ozoda va toza kiyinadi. Bolalarini ham shunday tarbiyalaydi. Keyin yashash joyining saranjom-sarishtaligiga e‘tibor beradi. Bu holatni har bir kishi uyqudan turgandan boshlashi lozim. Birinchi navbatda yotgan o‘rnini yig‘ishtirish kerak. Keyin qiz bolalar hovli-joylarni supurishadi. O‘g‘il bolalar chorva mollari yotadigan joylarni tozalashadi. Bu esa salomatlikning garovidir. Shahar joylarda tozalik uchun zarur o‘g‘ir ishlarni o‘g‘il bolalar, yengil ishlarni qiz bolalar bajarishadi. O‘zbek xalqi uchun eng toza turishi lozim bo‘lgan joylarga qo‘l yuvish

va yuvinish joyi, oshxona, mehmonxona va hojatxonalar kiradi. Boshqa joylar ham ozoda bo'lishi kerak. Ammo begonalarning ko'zi tushadigan joylar hamisha pokiza saqlanishi zarur. Hovli va uygan doimo xushbo'y hid kelsin deb rayhon ekiladi. Ertalab va kechki payt rayhonga suv sepiladi, bu esa xushbo'y hidning yana-da uzoqroq tarqalishiga olib keladi. Ko'pchilik kishilar uyda va choyxonada dasturxon chetiga hozirgina uzilgan rayhondan qo'yadi. Bu ham xonadan iforli hid taralishiga sabab bo'ladi. Xalqimizdagi saranjom-sarishtalik azal-azaldan qon-qonimizga singib ketgan, urf-odatga aylanib bo'lgan holatdir. Boylik emas, balki mazkur odatlar odamlar orasidagi farqni ko'rsatib turadi. Shunga qarab kishining tabaqasini ham bilib olish mumkin.

### **Belgilangan birliklar**

O'lchov birliklari juda qadimdan qo'llanib kelmoqda. Ulardan miqdor, og'irlik, vaqt va uzunlik o'lchovi bildiruvchi so'zlar tilimizda faol ishlatilgan. Ajdodlarimiz miqdorni aniqlashda quyidagi o'lchov birliklarini qo'llashgan: **chimdim, qisim, hovuch, qoshiq, piyola, choynak, kosa, quti, qop**. Tilimizda og'irlik o'lchovini bildiruvchi **misqol** (taxm. 0,5 g), **paysa** (taxm. 50 g), **qadoq** (taxm. 400 g), **pud** (taxm. 16 kg), **botmon** (taxm. 10 pud, ya'ni 163,805 kg) kabi so'zlar ishlatilgan. Vaqt o'lchov birligi sifatida quyidagi so'zlar qo'llangan: **soniya, daqiqa, soat, kun, hafta, oy, yil**. Bularning ba'zilari o'zlashma so'zlar hisoblanadi. Turkiy so'zlarning ayrimlari eskirgandan keyin mazkur so'zlar tilimizga kirib kelgan. Ota-bobolarimiz uzunlik o'lchovini ifodalashda quyidagi atamalardan foydalanishgan: **gaz** (arshin, taxminan 0,71 metr), **tanob** (taxminan 39,9 metr), **tosh** (6 km yoki 8000 qadam), **quloch** (taxminan 1 metr 80 sm), **qarich** (taxminan 23 sm), **qadam** (0,75 metr). (*O'zME, 10-jild, 506-bet*).

### **Buyuk Britaniya**

Buyuk Britaniya (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya qo'shma qirolligi) – Shimoli-g'arbiy Yevropadagi davlat. Mamlakat hududining 90 foizi Buyuk Britaniya orolida bo'lib, qolgan qismi Irlandiya orolining shimoli-sharqiy qismida hamda ularga yondosh mayda orollarda joylashgan. Bu mamlakat ko'pincha Angliya deb ham ataladi. Maydoni 244,1 ming km<sup>2</sup>, aholisi 58,5 mln. dan ziyod kishi (1990-yillarning oxiri). Poytaxti – London shahri. Ma'muriy-hududiy jihatdan to'rt qismdan (Angliya, Uels, Shotlandiya va unga yondosh orollar, Shimoliy Irlandiya) iborat. Davlat tuzumi – konstitusion monarxiya. Davlat boshlig'i – qirol (qirolicha). Qonun chiqaruvchi hokimiyatni qirol va ikki palatali parlament, ijrochi hokimiyatni bosh vazir boshchiligidagi hukumat amalga oshiradi. Mamlakatning konstitutsiyasi yo'q, xalq vakilligi to'g'risidagi akt eng muhim hujjat hisoblanadi. Asosiy daryolari: Severn, Temza, Trent, Mersi, Klayd. Aholisining 81,5 foizi inglizlar. Uelslar yoki valliylar (1,9 foiz), shotlandlar (9,1 foiz), irlandlar (2,4 foiz) va boshqa xalqlar ham bor. Aholining aksariyat qismi protestantlar, shuningdek, katoliklar ham bor. Yirik shaharlari: London, Birmingem, Glazgo, Liverpul, Manchester, Sheffild, Lids. Buyuk Britaniya 1945-yildan BMT ning a'zosi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarni 1992-yilning 18-fevralida o‘rnatgan (*O‘z ME, 2-jild, 312-bet*).

### **Bangladesh**

Bangladesh Xalq Respublikasi – Janubiy Osiyodagi davlat. Hind okeanining Bengaliya qo‘ltig‘i bo‘yida joylashgan. Ma‘muriy-hududiy jihatdan to‘rt viloyatga bo‘lingan, ular to‘qqiz okrug (distrikt) ni o‘z ichiga oladi. Maydoni 143,988 ming km<sup>2</sup>, aholisi 122 mln. kishi (1997). Poytaxti – Dakka shahri. Bangladesh unitar respublikadir. Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo‘stlik tarkibiga kiradi. Davlat boshlig‘i – prezident. Aholisining 98 foizi bengallar. Shuningdek, bixarlar, santallar, munda, oraon, chakma, marma, kxaslar ham yashaydi. Xalqining 85 foizi musulmonlar. Eng katta shaharlari: Dakka, Chittagong. Pul birligi – taka. Bangladesh O‘zbekiston Respublikasi bilan diplomatik aloqalarni 1992-yilning 15-oktyabrida o‘rnatdi (*O‘z ME, 1-jild, 612-bet*).

### **VI. Grammatik terminlar.**

1. **Bosh kelishikning** qo‘shimchasi yo‘q. Bu kelishikdagi so‘z kim?, nima?, qaer? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Gapda ega, kesim, undalma vazifalarini bajaradi. Masalan:

1. *Karim* keldi.
2. *Kitob* o‘qildi.
3. O‘zbekistonning *poytaxti* – *Toshkent*.
4. Senga tengdosh *Pomir*-u Oqsoch *Tiyonshon*, *o‘zbekim*.

2. **Bo‘g‘in** bir nafas zarbi bilan aytiladigan bir yoki bir necha tovushlar birikmasidir. Masalan: o-na, ko‘k-lam, ish-chan, tosh-li, osh-qovoq. Bo‘g‘in ikki xil bo‘ladi: 1. Ochiq bo‘g‘in unli bilan tugaydi yoki unlidan iborat bo‘ladi. M.: *o-ta, o-na, a-ka, u-ka, o-pa, i-ni, o-g‘a*. 2. Yopiq bo‘g‘in undosh bilan tugaydi. M.: *daf-tar, mak-tab, chiz-g‘ich*. Ba‘zan bo‘g‘in tuzilishiga qarab ham o‘zlashma so‘zlarni ajratish mumkin.

#### **Taqqoslang:**

<b>Arabcha</b>	<b>fors-tojikcha</b>	<b>ruscha</b>
Mat-baa	pay-vand	инс-ти-тут
Sui-is-te‘-mol	far-zand	трак-тор
Mu-to-laa	sho-gird	трам-вай

3. **Bosh ma‘no** ko‘p ma‘nolilik tizimda markaziy o‘rinda turadi, boshqalari unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki biror ma‘no orqali bog‘lanadi. M.: *ko‘z (ko‘rish organi), uzukning ko‘zi, taxtaning ko‘zi, derazaning ko‘zi*. Lug‘atlarda bosh so‘z tarjima qilinadi.

4. **Bosh harf** kichik harflardan hajmi va shakli bilan farqlanuvchi, imlo qoidasiga ko‘ra ma‘lum o‘rinlarda ishlatiladigan harfdir.

5. **Bo‘g‘inli(sillabik) yozuvda** grafik shakl bo‘g‘inning ifodasi uchun xizmat qiladi. M.: *bobilliklarning mixxati, hindlarning devanagari yozuvlari*.


**6. Belgilash-jamlash olmoshlari** to'pdan ajralganlik yoki jamlab ko'rsatilgan shaxs, narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatni bildiradi. M.: *har kim, har nima, har bir, har qaysi, har qanday, hamma, barcha, jami, yalpi, bari, butun.*

**7. Bog'lovchilar** gapning uyushiq bo'lagini va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlardir. Ular vazifasiga ko'ra teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi. M.: *va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo, yoki, yoxud, dam, goh, agar, negaki, ya'ni.*

**Bilish uchun shakllar:** ona tili, xorijiy (chet) tili, til o'rganmoq, lo'gat, gapirmoq, tinglamoq, yozmoq, o'qimoq, tushunmoq, takrorlamoq, so'ramoq, javob bermoq, talaffuz qilmoq, yaxshi (yomon) bilmoq, sekin (qattiq, ohista) so'zlamoq.

**Tayanch iboralar:** *bayonnoma, yig'ilish, anjuman, qatnashchi, qabul qilmoq, qaror, siqiq, qayd qilmoq, rasmiy hujjat, kotib, rais, tuzmoq, rasmiylashtirmoq, ma'ruzachi, muzokara, hisobot, vazifa, topshiriq, xizmat, ilmiy, safar, ma'lumot bermoq.*

### Asosiy so'zlar



131-mashq. Mutaxassislikka oid atamalardan yozish.

132-mashq. "FSMU" va "Diagramma" metodlarini qo'llash.

133-mashq. Atoqli otlar topish bo'yicha topshiriqni bajarish.

### Mavzu: Xizmat yozishmalari. Xatlar

**I. Nutq tovushiga izoh:** "X" undoshi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz tovush hisoblanadi.

#### To'g'ri talaffuz qiling!

1) xol - родинка  
hol - состояние

2) xiyla - немного  
hiyla - хитрость

3) xil - сорт  
hil-hil - очень мягкий

#### Tez aytish

Xaridor xomashyo xarid qildi.

#### Bo'g'inlarni to'g'ri o'qing!

Xa-bar, xa-ri-dor, xo-na-don, xa-ra-jat, xa-sis, xo-in.

### II. Zaruriy so'zlarni ko'chirib yozing va tarjima qiling:

Xabar, xabardor, xabarsiz, xavotir, xavotirlanmoq, xavotirli, xavf, xavfli, xavfsiz, xayol, xayoliy, xayolparast, xazina, xazon, xayr, xayrixoh, xayrlashmoq,

xalal, xalaqit, xaloyiq, xalos, xaloskor, xalta, xalq, xalqaro, xalqparvar, xamir, xamirturush, xanda, xanjar, xarajat, xarid qilmoq, xaridor, xarita, xarob, xaroba, xarsang, xartum, xas, xasis, xaskash, xat, xatar, xatarli, xato, xatosiz, xafa, xaxolamoq, xulosa, xulq, xunob, xunuk, xurillamoq, xurmo, xurofot, xurrak, xursand, xursandlik, xusumat, xususan, xususiyat, xush, xushbuy, xushvaqt, xushyoqmas, xushmuomala, xushomad, xushomadgo‘y, xushro‘y, xushtabiat, xushtor, xushfe‘l, xushxabar, xushchaqchaq, xo‘ja, xo‘mraymoq, xo‘p, xo‘rlamoq, xo‘roz, xo‘rsinmoq, xo‘tik, xo‘sh.

### **Paronimlarni farqlang:**

*Xam* (согнутый) – *ham* (и), *xiyol* (немного) – *xayal* (опоздание), *xirs* (медведь) – *hirs* (жадность), *xur* (звукоподражание) – *hur* (свободный).

### **III. So‘z birikmalari tuzishni o‘rganing!**

- |                                       |                                    |
|---------------------------------------|------------------------------------|
| 1) xalq <b>ning</b> xulosasi;         | 4) xabard <b>an</b> xavsiramoq;    |
| 2) xomashyoni <b>ni</b> xarid qilmoq; | 5) xotin <b>bilan</b> xayrlashmoq; |
| 3) xizmatchiga <b>ga</b> xo‘mraymoq;  | 6) xotirjam xonadon.               |

### **IV. To‘rtliklarni yod oling.**

Bahor o‘lkasida kezdik kechgacha,  
Uning tomoshasi sevinchlarga boy.  
Kakku qushi sayrar har oydin kecha,  
Lolallar – gilamdir, atirgullar – soy.

(*Amin Umariy*)

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,  
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir...  
Xalq qo‘zg‘alsa, kuch yo‘qdirkim, to‘xtatsin,  
Quvvat yo‘qkim, xalq istagin yo‘q etsin...

(*Cho‘lpon*)

### **V. Suhbat**

- Nazariy bilimlar nimaga kerak?
- Dunyoni anglash uchun.
- Amaliy bilimlar-chi?.
- Hayotda mazmunli yashash uchun.

### **VI. Asosiy matnni yozing va tarjima qiling.**

#### **Xizmat yozishmalari**

Xizmat yozishmalariga xizmat xatlari, taklifnoma, telegramma, telefonogramma, modenogramma, diplomatik va tijorat yozishmalari kiradi. Yozishmalarni jo‘natishdan oldin manzil yoziladi. Xizmat yozishmalari ish

yuritishning turli jabhalarida faol, ko'p qo'llanadi. Xizmat xatlari bajaradigan vazifasiga ko'ra ikki xil bo'ladi: Javob talab qiluvchi xatlar va javob talab qilmaydigan xatlar. Xizmat xatlariga quyidagi: 1. **Axborot xat** ma'lum tashkilot yoki shaxsni amalga oshirayotgan tadbirdan xabardor qiladi. Bu xatlarga referent yoki kotib imzo qo'ysa yetarlidir. 2. **Da'vo xati** ma'lum bir tashkilotning boshqa bir idora yoki tashkilotga nisbatan e'tirozi, talabi bayon qilinadi. Bunday xatlar mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi. Ilovalar ham bo'lishi mumkin. 3. **Ilova xat** qabul qilib oluvchilarni jo'natilayotgan hujjatlar haqida xabardor qilish uchun yoziladi. Bunday xatlar rahbar tomonidan imzolanadi. 4. **iltimos xat** ma'lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida boshqa korxonalariga yoziladigan rasmiy axborot. Rahbar shaxs tomonidan imzolanadi. 5. **Kafolat xati** muayyan bir shart yoki va'dani tasdiqlash maqsadida tuziladi. Kafolat xati rahbar tomonidan imzolanadi. Agar moliyaviy masala bo'lsa bosh hisobchi ham imzo qo'yadi. Tashkilot tomonidan beriladigan tayyor andozaviy kafolat majburiyatlari ham ana shunday xatlar jumlasiga kiradi. 6. **So'rov xati** javob talab qiladigan ma'lumotlar, hujjatlar yoki boshqa zaruriy narsalarni so'rab yoziladi. Bunday xatlar ikki qismdan iborat bo'ladi, ya'ni kirish va xulosa. 7. **Tasdiq xat** ma'lum bir muassasa tomonidan yuborilgan so'rov va iltimoslarga javob tarzida yoziladi. 8. **Farmoyish xat** bir tarmoqqa tegishli quyi muassasalarning barchasiga yo'llanadigan rasmiy hujjatdir. 9. **Eslatma xat** jo'natilgan iltimos yoki so'rov xatlariga javob olinmasa, shuningdek tuzilgan shartnomalar muddati buzilganda yoki amal qilinmagan hollarda yoziladi.

### Lug'at

Taklifnoma–приглашение, axborot xat–pismo-izvestie, da'vo xati–pismo-pretenziya, ilova xat–pismo-prilojenie, iltimos xat–pismo-prosba, kafolat xati–pismo garantiya, so'rov xati–pismo-zapros, tasdiq xat–pismo-podtverjdenie, farmoyish xat–sirkulyarnoe pismo, eslatma xat–pismo-napominanie.

## VII. Mustaqil ta'lim uchun matnlar.

### Xolislik

Xolislik – hammaga bir xil munosabatda bo'lish. Betaraflik, ya'ni biror tomonga yon bosmaslik, samimiylik. Bunday xususiyat kishilik jamiyatini bezaydi.

### Diplomatik yozishmalar

Diplomatik hujjatlarning quyidagi turlari bor: 1. **Nota**. Davlatlararo yozishmalarning eng asosiy va keng tarqalgan turi bo'lib, biror muhim masala yuzasidan axborot beruvchi oliy darajadagi hujjatdir. Unga bevosita davlat boshliqlari, prezidentlar, vazirlar, elchilar va boshqa yuqori mansabdor shaxslar orasidagi yozishmalar kiradi. 2. **Ilova xat**. Verbal notaga qo'shimcha yoki javob tariqasida yoziladigan hujjat bo'lib, unda biror masala bo'yicha kengaytirilgan ma'lumotlar berilishi, avval yuborilgan notaga ma'lum tuzatishlar kiritilishi, kelishilayotgan shartnomalar muddatini belgilash yoki o'zgartirish haqida xabar

berilishi mumkin. 3. **Rasmiy xat.** Vazirliklar, elchixonalar, vakolatxonalar o'rtasidagi yozishma bo'lib, biror mansabdor shaxs nomidan yoziladi. Xat so'ngida shu shaxslarning ismi sharifi, lavozimi ko'rsatiladi, biroq imzo qo'yilmaydi, chunki bunday xatlar umumiy tashkilot nomidan yuboriladi. 4. **Bayonot.** Biror mamlakatning davlat ahamiyatiga ega masalalar yuzasidan bergan murojaatnomasi. Bayonotda asosan jahon hamjamiyatiga taalluqli masalalar: urush va tinchlik, chegara xavfsizligi, mamlakat ichki ishlariga aralashishga nisbatan raddiya berish kabi masalalar yoritiladi. Qo'shma bayonot bir necha mamlakatlardan tomonidan beriladi. 5. **Shaxsiy xat.** Yarim rasmiy tusda bo'lib, muhim shaxsiy bayonnomalashtirilgan masalalar bo'yicha yuboriladi, shuningdek unda rasmiy yozishmalar va muzokaralarda ko'rsatilgan masalalarni hal qilishga qaratilgan iltimoslar qayta eslatiladi. 6. **Esdalik yozishmalari.** Qabul qilingan xalqaro shartnomalar, bitim va muzokaralar yuzasidan kengaytirilgan ma'lumot beruvchi hujjatdir. Unda shartnoma va bitimlarning amal qilishi va kuchga kirishidagi o'zaro kelishilgan qonun-qoidalar bayon etiladi. Bunday yozishmalar oddiy qog'ozga, oddiy iboralar bilan yoziladi. 7. **Qaydnoma.** Diplomatik aloqalar, munosabatlar, shartnoma, bitim, muzokaralar bayonnomasi bo'lib, u ham diplomatik hujjat hisoblanadi va boshqa bayonnomalardan tamomila farq qiladi. Sarlavha o'rnida protokol qaysi masala yuzasidan tuzilganligi, so'ng unda ishtirok etgan davlatlar nomi qayd etiladi. Oxirgi xatboshida protokol qachon va qayerda, necha nusxada, qaysi tilda tuzilgani va qachondan boshlab kuchga kirishi ko'rsatiladi. So'ng har ikki davlat nomidan ishtirok etgan vakillar lavozimi, ismi-sharifi yozilib, imzo va muhr bilan tasdiqlanadi. 8. **Memorandum.** Davlatlarning biror masala yuzasidan o'zaro qabul qilgan qarorlari haqida bergan bayonnomasi. Ushbu hujjatda har tomonlama tahlil qilingan masalalar bo'yicha har bir davlatning fikri va o'zaro kelishuvi bayon qilinadi. Bular ham notalar kabi toza, sifatli qog'ozga yoziladi, faqat unda gerb tasviri va tartib raqami bo'lmaydi. Shuningdek, nota ilova tarzida beriladigan yoki kurer (chopar) orqali yuboriladigan memorandumlar ham bor. Chopar orqali yuboriladigan memorandumlarda gerb, sana, manzil ko'rsatilishi shart.

### **Xalqaro pul birligi**

Yevro – Yevropa Ittifoqi tarkibidagi Yevropa iqtisodiy va pul hamjamiyati a'zolari (Avstriya, Belgiya, Germaniya, Gresiya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, Fransiya) ning pul birligi. Xalqaro ifodasi EUR.1999-yil 1-yanvardan muomalaga chiqarilgan. 2002-yilning 1-yanvariga qadar naqd pulsiz to'lovlarda ishlatildi, yevro bilan bir qatorda o'sha mamlakatlarning milliy pullari ham muomalada yurdi. 2002-yilning 1-yanvaridan 5, 10, 20, 50, 100, 200, 500 yevro qog'oz banknotlari va 1, 2, 5, 10, 20, 50 sentli tangalar muomalaga kiritildi (*O'z ME, 3-jild, 405-bet*).

### **Xalqaro valyuta fondi**

Xalqaro valyuta fondi (XVF) – BMTning ixtisoslashgan muassasasi, a'zo mamlakatlarning valyuta hamkorligini amalga oshiradigan xalqaro tashkilot. 1944-

yilda Bretton-Vuds (AQSh)da o'tkazilgan xalqaro valyuta-moliya kongressida Jahon banki bilan bir vaqtda ta'sis etilgan. 1947-yilning mart oyidan o'z faoliyatini boshlagan. 182 mamlakat a'zo (1999). Shtab-kvartirasi Vashington shahrida. Fondning rasmiy maqsadlari: maslahat berish va valyuta muammolari bo'yicha hamkorlik qilish orqali xalqaro valyuta hamkorligiga yordam ko'rsatish; xalqaro savdoning kengayishi va muvozanatli o'sishi uchun qulay sharoitlarni yaratish; valyuta kurslarining barqarorligiga yordam berish, raqobat tufayli yuz beradigan valyuta devalvatsiyalarining oldini olish, ko'p tomonlama to'lovlar tizimini yaratishda va jahon savdosining rivojiga to'siq qo'yadigan valyuta almashtirish bilan bog'liq chegaralarni bartaraf etishda yordam ko'rsatish; a'zo mamlakatlarga o'z to'lov balanslarini tiklash, shuningdek, ularning xalqaro to'lov balanslari taqchilligi davomiyligi va miqdorini qisqartirish uchun muddatli moliyaviy mablag'lar berish (*O'zME, 9-jild, 375-bet*).

### **Xitoy Xalq Respublikasi**

Xitoy Xalq Respublikasi – Markaziy va Sharqiy Osiyoda joylashgan davlat. Sharqda Tinch okeanining Sariq, Sharqiy Xitoy va Janubiy Xitoy dengizlari bilan o'ralgan. Maydoni 9,6 mln. km<sup>2</sup>, aholisi 1 mlrd. 292 mln. 750 ming kishi (2003 yil). Poytaxti – Pekin shahri. Ma'muriy-hududiy jihatdan 23 provinsiya (Xitoy Taypeyi ham kiradi), 5 muxtor rayon va markazga bo'ysunuvchi 4 shahar (Pekin, Shanxay, Tyanszin, Chunsin)ga bo'lingan. Davlat hokimiyatining oliy organi – Xalq vakillari umumxitoy majlisi. Bu majlis davlat boshlig'i – XXR raisi va o'rinbosarlarini saylaydi. Xitoy 1971-yilda BMTning a'zosi bo'ldi. Xitoydagi katta daryolar: Yanszi, Xuanxe, Sungari, Chjuszyan, Mekong, Saluin, Brahmaputra va boshqalar. Xitoy ko'p millatli mamlakat, aholisining 95 foizi xitoylar, bundan tashqari, unda yana 56 xalq istiqomat qiladi. Xitoyning shimoli-g'arbida turkiy tilda so'zlashuvchi uyg'urlar, qozoqlar, qirg'izlar, o'zbeklar, salorlar va boshqa millatlar yashashadi. Yana Xitoyda mo'g'ul tillari guruhiga mansub mo'g'ullar, dunganlar, tular, tungus-manjurlar ham bor. Shuningdek, tibet-birma xalqlari, tai xalqlari ham mavjud. Xitoy aholisi buddizm, daosizm, konfusiy, lamaizm, islom dinlariga e'tiqod qiladi. Yirik shaharlari: Shanxay, Pekin, Tyanszin, Lyuyda, Uxan, Chunsin va boshqalar. Xitoy O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarini 1992-yilning 2-yanvarida o'rnatgan (*O'z ME, 9-jild, 2005-yil, 427-bet*).

## **VIII. Ish qog'ozi.**

### **Amaliyot kundaligi**

Kundalik muqovasining yuqori qismida vazirlik va institutning nomi yoziladi. Undan quyiroqda mansabdor shaxs tomonidan qoyiladigan tasdiq belgisga joy ajratiladi. O'rtada amaliyot o'tkazilayotgan fan yoki yo'nalishning nomi yoziladi. So'ng talabanning ismi sharifi va familiyasi to'liq ko'rsatiladi. Keyin katta harflar bilan “**Kundalik daftari**” deb yoziladi. Pastki qismida amaliyotning boshlanish va yakunlanish vaqti beriladi. Tag qismida shaharning nomi, yilni ifodalovchi raqam beriladi.



## OFERTA XATI

\_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ yetkazib berish haqidagi so‘rovingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz. Ayni paytda biz Sizni qiziqtirayotgan tovar uchun taklif taqdim qilish imkoniyatlarini ko‘rib chiqyapmiz. Qarorimiz haqida yaqin kunlarda ma’lum qilamiz.

### V. Grammatik terminlar.

**1. Xalqaro til** millatlararo aloqa vositasi sifatida BMT tomonidan tavsiya etilgan tillar. M.: *oltita xalqaro til bor: ingliz, fransuz, ispan, arab, xitoy, rus.*

**2. Xat boshi** (abzas) matnni yangi yo‘ldan uch harf o‘rnini qoldirgan holda yozib boshlash.

**3. Xom-som tillari oilasi:** 1) **sharqiy som:** akkad; 2) **shimoliy som:** xannan, oromiy.

**4. Xitoy-tibet tillari oilasi:** 1) **tay-xitoy** tillari guruhi: xitoy (qadimgi yozuvga ega), dungan, vetnam, tay, laos; 2) **tibet-birma** tillari guruhi: tibet, birma.

### Asosiy so‘zlar



**Tayanch iboralar:** *taklifnoma, axborot xat, da’vo xati, ilova xat, iltimos xat, kafolat xati, so‘rov xati, tasdiq xat, farmoyish xat, eslatma xat, nota, bayonet, qaydnoma, memorandum.*

134-mashq. Mutaxassislikka oid atamalarni izohlash.

135-mashq. “FSMU” va “Diagramma” metodlarini qo‘llash.

136-mashq. Atoqli otlar topish bo‘yicha topshiriqni bajarish.

## Asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. O.Azizov, M.Mirzaev, A.Safaev, A. Bo'ribekov. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. – T.: O'qituvchi, 1965.
2. A.Akbarov, E.Azlarov, A.Klimenko. O'zbek tili. – T., O'qituvchi, 1967.
3. O.Azizov, A.Safaev, H. Jamolxonov. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. – T.: O'qituvchi, 1986.
4. В.И.Красных, С.Ғойипов. Ўзбекча-русча сўзлашув китоби. – М.: Русский язык, 1989.
5. И.А.Киссен, Ш.Рахматуллаев. Узбекский язык для взрослых (самоучитель). – Т.: Ўқитувчи, 1990.
6. Х.Исматуллаев. Самоучитель узбекского языка. – Т.: Ўқитувчи, 1991.
7. M.Usmonova. O'zbek tili. – T.: O'qituvchi, 1991.
8. N.Mahmudov, B.To'xliev. O'zbek tilini o'rganamiz (rasmi lug'at). – T.: O'qituvchi, 1991.
9. E.Shodmonov, A.Rafiyev, S. G'oyipov. O'zbek tili. Darslik. -Toshkent.: O'zbekiston, 1995.
10. G.Ahmedova, V.Karimjonova. O'zbek tili. – T.: O'qituvchi, 2001.
11. A.Ismoilov, O'.Lafasov. O'zbek tili (mashqlar to'plami). – T.: O'zbekiston, 2002.
12. Berdak Yusuf. O'zbek tilini o'rganamiz. – T.: Yangi asr avlodi, 2002.
13. Mirzaev I., Boltayev M. O'zbek tili. “Xalq merosi”, -2004.
14. R.Rasulov va boshqalar. O'zbek tili. T., “Aloqachi” nashriyoti. 2005-yil.
15. X.Muhiddinova, L.I.Salishova, X.S.Po'latova. O'zbek tili. – T.: O'qituvchi, 2006.
16. Choriev T. O'zbek tili “O'qituvchi”, -2008.
17. А.Рафиев, Н.Махмудов, И.Йўлдошев. Делопроизводство на государственном языке. – Тошкент.: Чўлпон, 2009.

## Qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: “O'zbekiston”, 2017.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2016.
3. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O'zbekiston”, 2017.
4. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017.
5. I.A.Karimov . Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
6. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (O'zME). 1-12-jildlar. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997-2007-yillar.

7. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'raev. Vatan tuyg'usi. – T.: O'zbekiston, 1996.
8. O'zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya (O'zRE). – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997.
9. S.Ibrohimov, E.Begmatov, A.Ahmedov. O'zbek tilining imlo lug'ati. – T.: Fan, 1976.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildlik. – M.: Russkiy yazik, 1981.
11. Sh.Shoabdurahimov, M.Asqarov, A.Hojiev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 1980.
12. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000-2001-yillar.
13. Abduqahhor Ibrohimov. Millat ovozi. – T.: Sharq, 2002.
14. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2003.
15. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003.

### **Internet saytlari**

16. [www.thinsan.com](http://www.thinsan.com)
17. [www.dersimiz.com](http://www.dersimiz.com)
18. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)
19. [www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz).

## MUNDARIJA

So‘zboshi.....	4
Vatan timsollari muqaddasdir.....	6
O‘zbekiston – yagona Vatan.....	9
O‘zbek tili – davlat tili.....	12
Milliy qadriyatlar – millat iftixori.....	17
Tarix va zamonamiz.....	23
Ulug‘ ajdodlarimiz.....	29
Vatan va vatanparvarlik.....	34
Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik.....	39
Kelajak bilimli yoshlar qo‘lida.....	43
Zamonaviy dunyoda ta‘lim.....	48
Kitob mutolaasi.....	52
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi.....	57
Adabiyot – ma‘naviyatni yuksaltiruvchi manba.....	61
Ommaviy axborot vositalari.....	66
Internet hayotimizda.....	71
O‘zbekiston va jahon.....	76
XXI asrda innovatsiyalar.....	81
Davrimizning global muammolari.....	85
Tabiat va inson.....	89
Inson va salomatlik.....	92
Huquqiy madaniyat.....	97
O‘zbekistonda oliy ta‘lim.....	101
Ilm maskanimiz hayotidan.....	105
Bo‘lajak kasbim.....	108
Hayot mening tasavvurimda.....	112
Ustoz maktabi.....	115
Kasbim tarixi.....	120
Iqtidor va mehnat.....	124
Yetuk mutaxassis.....	127
Kasb bayrami.....	131
Sharq akademiyalari.....	134
Ilm sari yo‘l.....	137
Kasb etikasi.....	140
Nutq odobi.....	145
San‘at va ma‘naviyat.....	149
Men sevgan asar.....	152
Iqtisod va hayot.....	156
Ish yuritish tili va uslubi.....	161
Hujjat turlari va xususiyatlari.....	165
Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari.....	168
Farmoyish hujjatlar.....	173

Ma'lumot-axborot hujjatlari.....	178
Ishonchnoma. Tilxat. Tushuntirish xati.....	182
Dalolatnoma. Ma'lumotnoma.....	187
Majlis bayoni. Hisobot.....	191
Xizmat yozishmalari. Xatlar.....	196
Asosiy adabiyotlar ro'yxati.....	202
Qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati.....	202
Mundarija.....	204

## CONTENT

Input.....	4
Motherland symbols are sacred.....	6
Uzbekistan – is only motherland.....	9
Uzbek language – official language.....	12
National values are proud of the nation.....	17
History and contemporary.....	23
Our great ancestors.....	29
Homeland and patriotism.....	34
Museums – bridge between past and future.....	39
Future is hand of youth.....	43
Education in the modern life.....	48
Readings.....	52
National library of Uzbekistan named after A.Navoiy.....	57
Literature – power that enhances spirituality.....	61
Mass media.....	66
Internet in our life.....	71
Uzbekistan and world.....	76
Innovations in the 21 th century.....	81
Global problems of our time.....	85
Nature and human.....	89
Human and health.....	92
Legal culture.....	97
Higher education in Uzbekistan.....	101
Life of our institute.....	105
My future profession.....	108
Life is in my imagination.....	112
Teacher’s school.....	115
History of my profession.....	120
Talent and labor.....	124
Skilled staff.....	127
Professional holiday.....	131
Eastern academies.....	134
The path to science.....	137
Occupational etiquette.....	140
Speech styl.....	145
Art and spirituality.....	149
My favourite novel.....	152
Economics and life.....	156
Style and language of style.....	161
Types and features of documents.....	165
Organizational documents and its types.....	168
Instruction documents.....	173

Informational documents.....	178
Letter of attorney. Receipt. Explanation letter.....	182
Act. Reference.....	187
Report of meeting. Report.....	191
Correspondence. Letters.....	196
Main list of of used literature.....	202
Additional literature.....	202
Content.....	204

## СОДЕРЖАНИЕ

Предисловие.....	4
Символы Родины священны.....	6
Узбекистан – единственная Родина.....	9
Узбекский язык – государственный язык.....	12
Национальные ценности – гордость нации.....	17
История и наше время.....	23
Наши великие предки.....	29
Родина и чувство патриотизма.....	34
Музеи – это мост между прошлым и будущим.....	39
Будущее в руках знающей молодежи.....	43
Образование в современном мире.....	48
Книги и чтение.....	52
Национальная библиотека Узбекистана имени Алишера Навои.....	57
Литература – источник возвышения духовности.....	61
Средства массовой информации.....	66
Интернет в нашей жизни.....	71
Узбекистан и мир.....	76
Инновации в XXI веке.....	81
Глобальные проблемы нашего времени.....	85
Природа и человек.....	89
Человек и здоровье.....	92
Правовая культура.....	97
Высшее образование в Узбекистане.....	101
Из жизни учебного заведения.....	105
Моя будущая профессия.....	108
Жизнь в моем представлении.....	112
Школа наставника.....	115
История моей профессии.....	120
Талант и труд.....	124
Высококвалифицированный специалист.....	127
Профессиональный праздник.....	131
Восточные академии.....	134
Путь к знаниям.....	137
Профессиональная этика.....	140
Этика речи.....	145
Искусство и духовность.....	149
Мое любимое произведение.....	152
Экономика и жизнь.....	156
Язык и методика делопроизводства.....	161
Виды и особенности документов.....	165
Организационные документы и их виды.....	168
Распорядительные документы.....	173



Справочно-информационные документы.....	178
Доверенность. Расписка. Объяснительная.....	182
Акт. Справка.....	187
Протокол. Отчет.....	191
Служебная переписка. Письма.....	196
Список основной литературы.....	202
Список дополнительной литературы.....	204
Содержание.....	204

*Urak Pazilovich Lafasov*

## **O‘ZBEK TILI**

Universitetlar va institutlarning rusiyzabon  
guruh talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

Texnik muharrir: **Zuhriddin Alimov**  
Kompyuter verstkasi: **Dilorom RAJABOVA**  
Musahhih: **Dilorom RAJABOVA**

Toshkent davlat sharqshunoslik institutining Ilmiy kengashi tomonidan nashrga  
tavsiya etilgan (*11-sonli majlis bayonnomasi, 2018.02.07.*).

Bosishga ruxsat etildi **20.10.2018.**

Bichimi **60x84 1/16 Shartli 11,25 b.t. 200 nusxada bosildi. Buyurtma № \_\_\_\_**

Toshkent Davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi.

Toshkent, Shahrizabz ko‘chasi, 25.

**TASHKENT INSTITUTE OF ORIENTAL STUDIES**

25 Shahrizabz st. Tashkent, 700047

tel: 233-34-24, 233-45-21

fax: (99871) 120-65-65

E-mail: tasgiv@online.ru